

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida  
UDK: 330.101.541:005.9**

**ABDUKADIROV ABDULLA MAMASAATOVICH**

**STRATEGIK TARAQQIYOT MAQSADLARIGA MUVOFIQ  
MAKROIQTISODIY BOSHQARUV METODOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.02 – MAKROIQTISODIYOT**

**Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYASI**

**Toshkent – 2024**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH (FAN DOKTORI (DSC) DISSERTATSIYASINING ANNOTATSIYASI) .....</b>	<b>4</b>
<b>I-BOB: STRATEGIK TARAQQIYOT VA MAKROIQTISODIY BOSH-QARUV DIALEKTIKASI NAZARIYASINING ASOSLARI.....</b>	<b>14</b>
<b>1.1 Strategik taraqqiyot maqsadlari va boshqaruv metodologiyasi mohiyati dialektikasi.....</b>	<b>14</b>
<b>1.2 Qishloqda va shaharda taraqqiyot maqsadlari nazariyasi va amaliyotidagi farq, ularning boshqaruv usullari tanloviga ta'siri...</b>	<b>26</b>
<b>1.3 Davlat boshqaruvi metodologiyasidagi o'zgarishlar, yangi davlat byurokrtiyasining institutsional evolutsiyasi.....</b>	<b>44</b>
<b>1.4 Dastlabki makroiqtisodiy boshqaruv institutlari, boshqaruv metodlari va ijtimoiy shartnoma asoslarining eroziyasi .....</b>	<b>55</b>
<b>II-BOB. YANGILANISH DAVRI VA MAKROIQTISODIY BOSHQARUV EVOLUTSIYASI. “YANGI KEYNSCHILIK” MODEL.....</b>	<b>78</b>
<b>2.1 Iqtisodiyotni liberallashtirishga asoslangan makroiqtisodiy boshqaruv modelining yuzaga kelishi, “yangi keynschilik” narrativlari.....</b>	<b>78</b>
<b>2.2 Prudensial monetar siyosat va uning taraqqiyot sur'atlariga o'tkazgan ta'siri.....</b>	<b>92</b>
<b>2.3 Iqtisodiy voqelikning o'zgarishi va yangi makroiqtisodiy boshqaruv prioritetlari .....</b>	<b>103</b>
<b>2.4 Davlat xarajatlari dinamikasi va moliyaviy tuyg'unsizlikning dastlabki alomatlari .....</b>	<b>116</b>
<b>III-BOB. MAKROIQTISODIY UYG'UNLIKKA ERISHISHNING INSTRUMENTAL ASOSLARI.....</b>	<b>130</b>
<b>3.1 Strategik taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash amaliyoti va huquqiy asoslari.....</b>	<b>130</b>
<b>3.2 Makroiqtisodiy boshqaruvda alternativ iqtisodiy parametrlar</b>	

asosida simulyatsiya modeli va metodologik tahlilni takomillashtirish.....	139
3.3 Fiskal siyosat samaradorligini oshirish va tadbirkorlik stimullarini tiklashning dastlabki omillari .....	153
<b>IV-BOB. YANGI STRATEGIK NARRATIVLAR VA MAKROIQTISODIY BOSHQARUVNING INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....</b>	<b>161</b>
4.1 Institutsional islohotlarni davom ettirish boshqaruv samarasini oshirishning instrumental asosi .....	161
4.2 Strategik rejalashtirish salohiyatini oshirish omillari.....	173
4.3 Yangi geosiyosiy voqe'likda mintaqaviy makroiqtisodiy boshqaruv institutlari faoliyatini takomillashtirish.....	189
<b>YAKUNIY XULOSALAR.....</b>	<b>207</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>210</b>

## **KIRISH (FAN DOKTORI (DSC) DISSERTATSIYASINING ANNOTATSIYASI)**

### **Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati**

Jamiyatning taraqqiyot odimlari ikki omilga – qo‘yilgan strategik maqsadlar mohiyati, hamda bu maqsadlarga erishish yo‘lida tanlangan boshqaruv, iqtisodiyotga ta‘sir ko‘rsatish uslublariga bog‘liq. Maqsad va unga erishish uchun tanlangan uslublar dialektikasi doim iqtisodiy fikr markazida bo‘lgan.

Keyingi yillarda iqtisodiy nazariya va amaliyotda ijtimoiy qadriyatlarga asoslangan neoliberalizm g‘oyalari, hamda davlat qudrati, imkoniyatiga, xususiy mulk daxlsizligiga tayangan yangi keynsian g‘oyalari salohiyati va imkoniyatlari haqida ko‘plab bahslar olib borilmoqda. O‘zbekiston tarixi mohiyatini tushunish va istiqbollarni anglash uchun ham bunday tadqiqotlar bizda muhim.

Xususan, davlat, biznes va jamiyat o‘rtasidagi iqtisodiy muloqotning mantig‘ini o‘rganish iqtisodiy siyosat modelini tuzishda katta amaliy ahamiyatga ega. Jahon bankining prognozlariga ko‘ra umum dunyo iqtisodiyotining o‘shish sur‘atlari 2024-yilda 2,6% darajada qolib, 2025–2026 yillarda o‘rtacha 2,7 %ni tashkil etadi. Bu COVID-19 pandemiyasiga qadar kuzatilgan 10 yil davomidagi o‘rtacha 3,1 %ga teng bo‘lgan o‘shish sur‘atlaridan ancha past ko‘rsatkich. Prognozda ta‘kidlanishicha, dunyo aholisining 80 %dan ortig‘i istiqomat qiladigan mamlakatlarda o‘rtacha YaIM hajmining o‘shish sur‘atlari o‘tgan 10 yilgi sur‘atlarga nisbatan pastroq bo‘ladi. O‘zbekiston iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotining uzviy qismiga aylandi. 2023-yil natijalari bo‘yicha O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 2022-yilga nisbatan o‘shish sur‘atlari 5,8 %ni tashkil etgan. Shu bilan birga davlat xarajatlari 17,9 %ga o‘shib, davlat tashqi qarzi 34.9 mlrd AQSH dollarini, yoki YaIMning 38.4 %ini, joriy to‘lov defitsiti esa 7,8 mlrd AQSH dollarini (YaIMga nisbatan 8,6%) va yillik inflatsiya 8,8 %ni tashkil etgan.

Bunday voqelik sharoitida boshqaruv amaliyotida ichki va tashqi ta‘sir, optimal sharoit omillarini inobatga olgan holda institutsional, ma‘muriy va makroiqtisodiy komponentlarning optimal yig‘indisini va ta‘sir kuchini yaratish katta ahamiyat kasb etadi. Strategik tanlov mohiyati va qo‘yilgan vazifalarga

erishish uslubiyatlari samarasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish muhimligi dissertatsiyaning **ilmiy dolzarbligi hamda zaruratini ta'kidlaydi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030 Strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-sonli "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-sonli "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-dekabrdagi "Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi"ni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tadqiqotda normativ asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning **davlat fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida" Farmoni I ilovasining ikkinchi - "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" bobida qayd etilgan "Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish" vazifasi mohiyatidan kelib chiqib amalga oshirilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.** Tarixan umumiy maqsadlarga erishish yo'lida davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning mohiyati va mazmuni Suqrot<sup>1</sup>, Aflotun<sup>2</sup> va Arastudan tortib, Buyuk Fransuz falsafasi namoyondasi Jan Jak Russo<sup>3</sup> (Jean-Jacques Rousseau) tomonidan keng yoritilgan. XIX asrda davlat va jamiyat falsafiy kategoriyalari o'rtasidagi munosabatlarning mohiyati haqida siyosiy iqtisod ilmi klassiklari

---

<sup>1</sup> Диоген Лаэртский. О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов / Редактор тома и автор вступительной статьи А. Ф. Лосев второе. М.: Мысль, 1986. (Философское наследие).

<sup>2</sup> Аристотель. Афинская политика. Перевод и примечания С.И.Радцига. 2-е изд. Государственное социально-экономическое издательство, М.: 1937.

<sup>3</sup> The Social Contract, or Principles of Political Right (Du contract social), 1762

D.Rikkardo<sup>4</sup>, G.V.Gegel<sup>5</sup>, I.Kant<sup>6</sup>, K.Marks<sup>7</sup> va boshqalar yozgan bo‘lsalar, XX asrda bu mavzular F.Oppengeymer<sup>8</sup>, M.Rotbard<sup>9</sup>, G.Lassuel<sup>10</sup> asarlarida batafsil yoritildi.

Davlat, jamiyat institutsional taraqqiyot asoslari va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ko‘rsatib o‘tgan mualliflar asarlaridan, jumladan, Torsteyn Veblen<sup>11</sup>, Djon R. Kommons<sup>12</sup> (John R. Commons), Djon Kennet Gelbreyt<sup>13</sup> (John Kenneth Galbraith), Gunnar Karl Myurdal<sup>14</sup> (Gunnar Karl Myrdal), Karl Polani<sup>15</sup> (Karl Polanyi), Klarens Edvin Ayres<sup>16</sup> (Clarence Edwin Ayres) merosidan dissertatsiyada keng foydalanilgan. T.Veblen birinchi bo‘lib “Beg‘am turkum nazariyasini” yaratib, moliyaviy oligarxiyaning asl maqsadlari jamiyatni boshi berk ko‘chaga olib kelishi ehtimollarini yoritgan. Dissertatsiyada neoinstitutsionalizm asoschilari, jumladan, Ronald Kouz<sup>17</sup> (Ronald Couse), Duglas Nort<sup>18</sup> (Duglas North), Oliver Uilyamson<sup>19</sup> (Oliver E. Williamson), Kennet Errou<sup>20</sup> (Kenneth Arrow), Djordj Stigler<sup>21</sup> (George J. Stigler), Armen A. Alchian<sup>22</sup> (Armen A. Alchian), Garold Demsets<sup>23</sup> (Harold Demsetz), Richard Pozner<sup>24</sup> (Richard Posner), Aleksandr Auzan<sup>25</sup> va boshqalarning asarlariga alohida e’tibor qaratilgan. Lekin eng teran tahlil hozirgi davlat-jamiyat-iqtisod munosabatlarida davlatning yetakchi rolini yoritgan,

---

<sup>4</sup> Давид Риккардо: [https://Principles\\_of\\_Political\\_Economy\\_and\\_Taxation](https://Principles_of_Political_Economy_and_Taxation)

<sup>5</sup> Georg Vilgelm Gegel: Falsafiy fanlar ensiklopediyasi: [https://Encyclopedia\\_of\\_the\\_Philosophical\\_Sciences](https://Encyclopedia_of_the_Philosophical_Sciences)

<sup>6</sup> Immanuel Kant: Xukmlar kritikasi: [https://Critique\\_of\\_Judgment](https://Critique_of_Judgment)

<sup>7</sup> Karl Marks: Kapital. Siyosiy iqtisod tanqidi: [https://Das\\_Kapital](https://Das_Kapital)

<sup>8</sup> Frans Oppengeymer: “Davlat”: <https://www.franz-oppenheimer.de/state0.htm>

<sup>9</sup> Myurrey Rotbard: Davlat Anatomiyasi: [http://rustate.org/rusunstate/Murray\\_Rothbard\\_Anatomiya\\_Gosudarstva.pdf](http://rustate.org/rusunstate/Murray_Rothbard_Anatomiya_Gosudarstva.pdf)

<sup>10</sup> Garold Lassuel: Psixopatologiya va siyosat: RAGS nashriyoti, 2005 y.

<sup>11</sup> Veblen T., “Theory of Leisure Class” - “Beg‘am sinf nazariyasi” avtor, AQSH iqtisodchisi va sotsiologi

<sup>12</sup> Commons J.R.: The Distribution of Wealth, Vol. 3 (1893).

<sup>13</sup> Galbraith J.K.: The anatomy of power. Boston: Houghton Mifflin, 1983

<sup>14</sup> Myrdal G.K.: Asian Drama: an inquiry into the poverty of nations. Australian Institute of Policy & Science, 1968

<sup>15</sup> Polanyi K.: Economy and society: selected writings. Polity Press, Cambridge, 2018

<sup>16</sup> Ayres C.A.: Institutionalism and economic development. 1960. Southwestern social science quarterly

<sup>17</sup> Couse R.: "The Problem of Social Cost". 1960, University of Chicago

<sup>18</sup> North D.: Institutions Change and economic performance. 2012. Cambridge University Press

<sup>19</sup> Williamson O.E.: Transaction Cost Economics: An Introduction. 2007. University of California, Berkeley

<sup>20</sup> Arrow K., Suzumara S.K.: Handbook of social choice and welfare. 2011. Economics, Sociology, Political Science

<sup>21</sup> Stigler G.J.: The Theory of Price. Review by Kent I.. 1947. The Journal of Business of the University of Chicago

<sup>22</sup> Alchian A.A., Allen W.R.: Universal Economics. © 2018 by Pacific Academy for Advanced Studies (PAAS).

<sup>23</sup> Demsetz H.: From economic man to economic system. 2018. Cambridge University Press

<sup>24</sup> Posner R.: A Failure of capitalism. 2010, Business History Review

<sup>25</sup> Аuzан А.: Институциональная экономика: Новая институциональная экономическая теория. ИНФРА-М, <https://www.labyrinth.ru/books/258214/>

ijtimoiy iqtisodiyot nazariyasiga asos solgan Jon Keynes<sup>26</sup> (John Maynard Keynes) asarlariga qaratilgan. Uning qarashlari ma'lum sabablarga ko'ra O'zbekistonning yangi taraqqiyot modelida makroiqtisodiy boshqaruv uslublarining ma'nosi va mantig'ini tashkil etgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Strategiya va imkoniyatlar dialektikasini o'rgangan faylasuf, olim ma'rifatparvarlarning aksariyati sovet sotsialistik tizimi strategiyasi va qadriyatlarini chuqur bilmagan. Bu borada izlanishlar yaqin 25-30 yillarda paydo bo'la boshladi (Jilas M.<sup>27</sup>, Voslenskiy M.<sup>28</sup>, Rotbard M.<sup>29</sup>). Professor, i.f.d. A.Auzan davlatning strategik maqsadlari va boshqaruv muammolarini institutsional imkoniyatlar nuqtai nazaridan yoritgan bo'lsa, professor V.Kvint masalaga ishlab chiqarish tarmoqlari, korporativ boshqaruv usullari samarasi jihatidan qaragan. Professorlar B.Berkinov, T.Bobaqulov N.Jumayev, G'.Zohidov, N.Maxmudov makroiqtisodiy boshqaruv asoslarini fiskal, monetar omillar samarasini tahlil qilganlar.

Mustaqillik yillaridan keyingi O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining va makroiqtisodiy boshqarish, institutsional iqtisodiyot ilmiy muammolari haqida akademiklar S.Gulyamov<sup>30</sup>, S.Ziyodullayev<sup>31</sup>, I.Iskanderov<sup>32</sup>, M.Sharifxodjayev<sup>33</sup>, iqtisod fanlari doktorlari A.Abduganiyev<sup>34</sup>, V.Kim<sup>35</sup>, P.Nosirov<sup>36</sup>, N.Tuxliyev, T.Ergashev<sup>37</sup>, O.Xikmatov<sup>38</sup> keng meros qoldirganlar. Mustaqilligimizning ilk davridagi makroiqtisodiy boshqaruv mohiyati Q.Abirqulov, H.Abulqosimov,

---

<sup>26</sup> Keynes J.M.: The General Theory of Employment, Interest, and Money. 1936. Cambridge, Harcourt, Brace & Co.

<sup>27</sup> Jilas Milovan. «Yangi sinf»: [https://archive.org/details/dzhilas\\_noviy\\_klass](https://archive.org/details/dzhilas_noviy_klass)

<sup>28</sup> Восленский Михаил: «Номенклатура»: [https://vtoraya-literatura.com/publ\\_1424.html](https://vtoraya-literatura.com/publ_1424.html)

<sup>29</sup> Rotbard Myurrey: «Yangi erkinlik sari»: <https://liberty-belarus.info/images/stories/start/Rothbard.pdf>

<sup>30</sup> Основные направления модернизации банковской системы Республики Узбекистан // Российское предпринимательство. – 2000. – Том 1.

<sup>31</sup> Зиядуллаев С.К. Промышленность Узбекистана и основные экономические проблемы ее развития. Т.-1967.

<sup>32</sup> Искандеров И.И. «Экономика Узбекистана в едином народнохозяйственном комплексе страны». - Ташкент: о-во "Знание" УзССР, 1984.

<sup>33</sup> Шарифходжаев М. и др. «Производительные силы Узбекистана и перспективы их развития», Ташкент, 1975.

<sup>34</sup> Абдуганиев А. и др.: «Трудовые ресурсы Узбекистана и их использование». Ташкент, 1978

<sup>35</sup> Ким К.: «Совершенствование структуры топливно-энергетического баланса Средней Азии», Ташкент, 1974

<sup>36</sup> Носыров П.Х. и другие «Прогрессивные структурные сдвиги в промышленности Узбекистана», Ташкент, 1985

<sup>37</sup> Эргашев Т.Э. «Проблемы экономического стимулирования промышленного производства». Ташкент, 1976 год

<sup>38</sup> Хикматов А., Тростянский Д.: «Проблемы повышения конкурентоспособности национальной экономики», Ташкент, 2003

T.Axmedov, B.Begalov, A.Burxanov, A.Vaxabov, S.Voronin, T.Jo‘rayev, N.Zufarova, N.Karimov, Ya.Karriyeva, N.Maxmudov, N.Muminov, X.Muradova, U.Muxiddinova, R.Nazarova, A.Rasulev, R.Raxmanbayeva, N.Sirajiddinov, N.Sotvoldiyev, Sh.Toshmatov, N.Xoshimova ishlarida aks etgan.

**Dissertatsiya mavzusining tadqiqotlar bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №FM-6 “O‘zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy o‘shishning barqaror sur‘atlarini ta‘minlash” mavzusidagi ilmiy loyiha, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qoshidagi Strategik islohotlar agentligining 2023-2024 yillarga mo‘ljallangan faoliyat rejasi doirasida bajarilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.03.2024 yildagi PQ-109-son qarori)<sup>39</sup>.

**Tadqiqotning maqsadi.** Strategik taraqqiyot maqsadlarini belgilash va ularga erishish uchun tanlangan makroiqtisodiy, institutsional, hamda ma‘muriy uslubiyatlarning mohiyatini o‘rgangan holda, O‘zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotini sifat jihatdan keyingi darajaga ko‘taruvchi taraqqiyot strategiyasining makroiqtisodiy asoslarini, amalga oshirishning metodologik omillarini takomillashtirish.

**Tadqiqotning vazifalari:** Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– mamlakatning strategik taraqqiyot maqsadlari, institutsional, ma‘muriy, hamda makroiqtisodiy boshqaruv metodlari samarasining tarixiy evolyutsiyasini o‘rganish;

– neoliberalizm, hamda yangi keynschilik iqtisodiy taraqqiyot va boshqaruv g‘oyalariga asoslangan ikki davr davomida makroiqtisodiy boshqaruv uslubiyatlari samarasi va ularga ta‘sir qiluvchi omillarni o‘rganish;

---

<sup>39</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.03.2024 yildagi PQ-109-son qarori. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida belgilangan asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlarni amalga oshirishning 2024-yildagi ustuvor chora-tadbirlari to‘g‘risida



– strategik taraqqiyot maqsadlarini ijtimoiy shartnomaning bir shakli sifatida ilmiy, amaliy tadqiqot qilish;

– O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan strategiyalarning fiskal, monetar mohiyatini, hamda ma‘muriy salohiyatini tahlil qilish;

– mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotiga strategik jihatdan ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy, institutsional hamda ma‘muriy boshqaruv uslubiyotlarini takomillashtirish borasida takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti:** O‘zbekistonning mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, uning davomida belgilangan taraqqiyot strategiyalari va ularning jamiyat qadriyatlariga monandligi, qo‘llanilgan boshqaruv metodologik uslublar mohiyati va samarasi.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida quyidagilarni e‘tirof etib o‘tamiz:

– mustaqillikning ilk yillarida neoliberalizm iqtisodiy boshqaruv g‘oyalarining shahar va qishloqda mulk munosabatlarini o‘zgarishdagi roli;

– boshqaruv uslubiyatlarini tanlashda ijtimoiy-tarixiy va iqtisodiy merosning ahamiyati va ta‘siri;

– turli davrlarda tanlangan makroiqtisodiy boshqaruv modellarining ichki elementlari va samarasi;

– neoliberalizm va yangi keynschilik iqtisodiy boshqaruv modellarining mohiyati va jamiyat taraqqiyotiga amaliy ta‘siri;

– jamiyatning yangi taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda boshqaruv uslubiyatlarining makroiqtisodiy, institutsional, hamda ma‘muriy sohalarda takomillashtirish imkoniyatlari.

**Tadqiqotning usullari.** Izlanishimiz usullari (metodologiyasi) strategik maqsadlarni belgilash va ularni amalga oshirish yo‘lida tanlangan makroiqtisodiy boshqaruv uslubiyatlari monandligi va dialektik bog‘liqligini tahlil qilishdan tarkib topgan bo‘lib, uning tarkibiy qismlari sifatida dialektik bog‘liqlikni aniqlash, tarixiy realizm, konstruktivizm, obyektiv voqelik, mantiqiy deduksiya, solishtirish, ekstrapolatsiya, proyeksiya metodlari qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi

quyidagilardan iborat:

– neoliberalizm hamda yangi keynschilik iqtisodiy boshqaruv modellarining O‘zbekistonning tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi xosiyatlariga belgilovchi ta’siri makroiqtisodiy boshqaruv metodlari tizimi tanlovi bilan bog‘liq holda ochib berilgan;

– makroiqtisodiy siyosatda neoliberalizm g‘oyalarining kuchli markazlashtirilgan boshqaruv tizimi, hamda xususiy mulkka asoslangan ishlab chiqarish kuchlarining yalpi ichki mahsulotni yaratishdagi hal qiluvchi roli bo‘lmagan sharoitda davlat paternalizmiga evolutsiyasi va uning makroiqtisodiy oqibatlari ilmiy asoslab berilgan;

– makroiqtisodiy cheklovlar doirasida (inflatsiya darajasini targ‘ib qilish, asosiy stavkani, almashuv kursini ma’lum darajada saqlash, tijorat banklari faoliyatini kuchli nazorat qilish kabi) iqtisodiy boshqaruv amaliyoti yuritish modelidan iqtisodiy stimullar yaratish boshqaruv modeliga o‘tishning makroiqtisodiy, institutsional, hamda ma’muriy asoslari ishlab chiqilgan va ilmiy-amaliy asoslab berilgan;

– amaliyotda mavjud strategik boshqaruv hujjatlari mantiqiy va mohiyatan tahlil qilingan, tasniflangan va ularning asosiy kamchiliklari yoritib berilgan va shu asnoda strategik boshqaruv metodologiyasi va institutsional asoslarini takomillashtirish sohasida takliflar ishlab chiqilgan;

– strategik taraqqiyot istiqbollari belgilash va ularni amalga oshirish jarayoni ijtimoiy shartnomaning bir turi deb, bu shartnomaning davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida makroiqtisodiy, institutsional va ma’muriy asoslari metodologik va amaliy nuqtai-nazardan takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilar bilan belgilanadi:

– inflyatsiyani cheklash, makroiqtisodiy mo‘tadillikni ta’minlash borasida takliflar, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning iqtisodiy-siyosiy ta’sirini oshirish (kambag‘allik darajasini kamaytirish, ijtimoiy segregatsiyani cheklash, tadbirkorlarning faollik darajasini oshirish, iqtisodiy jadallikni stimullash kabi)

borasidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan;

– mamlakat yalpi ichki mahsulot salohiyatini (potensialini) aniqlashda ko‘p omilli modellarning ko‘rsatkichlarining vazni borasidagi ishlab chiqilgan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi tarkibiy qismi sifatida o‘rta muddatli asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozlarini aniqlash borasida takliflar berilgan;

– davlat tasarrufidagi korxonalarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonida ularda xalqaro moliyaviy hisobotlar standartini joriy etish, korxonada boshqaruvini dunyodagi eng maqbul amaliyotlar asosida korporativ boshqaruv (ESG) standartlari qo‘llashni kengaytirish, korxonada xatarlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, biznes jarayonlarini raqamlashtirish takliflari o‘rta muddatli asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozlarini ishlab chiqishga qaratilgan;

– inflyatsiyani targetlash sohasidagi faoliyatini moliyaviy stimullashtirish omillari bilan uyg‘unlashtirishga, fiskal, davlat investitsiyalari siyosati amaldagi monetar siyosat bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan;

– makroiqtisodiy boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish borasida tavsiya etilgan “Financial programming and policies” simulyatsiya modeliga kiritiladigan me‘yoriy aniqliklar turli taraqqiyot ssenariylari va ularning ijtimoiy himoya ko‘rsatkichlariga ta‘sirini aniqlashtirishga qaratilgan;

– yangi ijtimoiy shartnoma elementlari sifatida makroiqtisodiy boshqaruv metodologiyasiga fiskal, monetar sohalarda kiritiladigan o‘zgarishlar majmuasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya muallifning ko‘p yillik iqtisodiy sohalarda olib borgan izlanishlari, davlat boshqaruv organlaridagi faoliyati, davlat va jamiyat boshqaruvi asoslari sohasida xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning nuqtai nazarini inobatga olgan holda yozilgan. Ma‘lumotlarning aksariyati O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat statistika qo‘mitasi, Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, xalqaro tashkilotlarning rasmiy ma‘lumotlaridan olingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati strategik taraqqiyot maqsadlari va makroiqtisodiy boshqaruv usullar

o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni iqtisodiy mezonlar bilan yoritishda. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa makroiqtisodiy boshqaruv metodologiyasini taraqqiyot maqsadlari mohiyatiga mos ravishda takomillashtirish va buning huquqiy, institutsional asoslarini yaratishda.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Dissertatsiyaning quyidagi amaliy natijalari O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi (2024-yil 13-noyabr 02/26-23623-sonli) xatiga binoan:

– inflyatsiyani cheklash, makroiqtisodiy mo‘tadillikni ta‘minlash ko‘rsatkichlari ularning jamiyat hayotiga iqtisodiy-siyosiy ta‘sirini baholovchi (kambag‘allik darajasini kamaytirish, jamiyatda segregatsiyani oldini olish, tadbirkorlarning faollik darajasini oshirish, iqtisodiy jadallikni stimullash kabi) tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijada kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha ishlab chiqiladigan dasturlar doirasida qo‘llanish imkonini beradi;

– mamlakat yalpi ichki mahsulot salohiyatini (potensialini) aniqlashda ko‘p omilli modellar ko‘rsatkichlarining vazni borasidagi ishlab chiqilgan takliflar, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi tarkibiy qismi sifatida o‘rta muddatlarga mo‘ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozlarini ishlab chiqishda foydalaniladi;

– mamlakatimiz iqtisodiyotining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, makroiqtisodiy siyosatni olib borish bilan bir qatorda, tarkibiy va sohaviy islohotlar, xususan, tadbirkorlik muhitini yaxshilashda mulk munosabatlarini rivojlantirish, xususiylashtirish, tarmoq va sohalarni erkinlashtirishga qaratilgan islohotlarni kompleks amalga oshirish yo‘nalishidagi takliflar ishlab chiqilgan. Bu har yili ishlab chiqiladigan davlat dasturlari doirasida takliflarni shakllantirishda foydalanish imkonini beradi;

– davlat tasarrufidagi korxonalarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonida ularni xalqaro moliyaviy hisobotlar standartini joriy etish, korxonalar boshqaruvini dunyodagi eng maqbul amaliyotlar asosida korporativ boshqaruv (ESG) standartlari qo‘llashni kengaytirish, korxonada xatarlarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda biznes jarayonlarining har bir bo‘g‘inini raqamlashtirish

takliflari o'rtta muddatlarga mo'ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning prognozlarini ishlab chiqishda qo'llaniladi;

– inflyatsiyani cheklash, makroiqtisodiy mo'tadillikni ta'minlash ko'rsatkichlari ularning jamiyat hayotiga iqtisodiy-siyosiy ta'sirini baholovchi kambag'allik darajasini kamaytirish, jamiyatda segregatsiyani oldini olish, tadbirkorlarning faollik darajasini oshirish, iqtisodiy jadallikni stimullash kabi) muallim tomonidan tavsiya etilgan me'yorlar harakatning "O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining bugungi holati va imkoniyatlarini tahliliy o'rganish" loyihasi doirasida keng qo'llanilmoqda.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy tezislari 2 ta xalqaro, 4 ta mahalliy ilmiy konferensiyalarda taqdim etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 11 ta mahalliy ilmiy jurnallarda ilmiy maqola, hamda muallifning ilmiy monografiyasi tarzida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:** Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, yakuniy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 222 bet.

# **I-BOB: STRATEGIK TARAQQIYOT VA MAKROIQTISODIY BOSHQARUV DIALEKTIKASI NAZARIYASINING ASOSLARI**

## **1.1 Strategik taraqqiyot maqsadlari va boshqaruv metodologiyasi mohiyati dialektikasi**

Strategik taraqqiyot maqsadlari deb ushbu izlanish doirasida davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy shartnomaning siyosiy, iqtisodiy va turmush sifatini o'zgartirish borasidagi ma'lum istiqloqlga mo'ljallangan ko'rsatkichlar va harakatlar majmuasi tushuniladi. Bu ko'rsatkichlar jamiyatning ehtiyojlaridan kelib chiqqan bo'lsa-da, ko'p hollarda uning joriy va kelgusidagi imkoniyatlariga bog'liq. K.Marks aytganidek, "Maqsad qo'yish - bu ehtiyojlar darajasida boshlanib, motivlar darajasiga ko'tarilib, maqsad bilan belgilanadigan individual yoki umumiy subyekt tomonidan niyatlarni shakllantirish va ilgari surish jarayoni"<sup>40</sup>. Bu o'rinda individual yoki umumiy subyekt niyatlari har xil bo'lishi mumkinligiga aniq ishora berilgan. Ya'ni maqsadlarni rejalashtirish va amalga oshirishda tarixiy voqe'lik mantig'i, boshqaruv imkoniyatlarini tadqiqot qilish strategik maqsadlarning a) qay darajada umumiy va individual ehtiyojlarga monandligini; b) turli boshqaruv uslubiyotlari, mavjud, bo'lajak resurslar bilan belgilanadigan imkoniyatlarni qanchalik to'la hisobga olganini aniq tasavvur qilish muhim.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishning strategik vazifalari, ularga erishish uchun foydalanilgan uslublar majmuasi va ma'nosidan kelib chiqib, ikki bir-biridan mazmunan farq qiluvchi davrlarni bosqichlar sifatida ajratish mumkin. Bu bosqichlar ixtiyoriy mantiqiy mezon asosida emas, balki davlatimiz siyosiy rahbarlarining o'z vaqtida bu bosqichlarga bergan ta'rif va e'tiroflaridan, hamda muallif talqinidagi strategik maqsadlar mazmuni, tarixiy sharoitlar va obyektiv imkoniyatlar mohiyatidan kelib chiqib belgilangan. Strategik maqsadlar aniq bo'lgani bilan qaysi sharoitlar va imkoniyatlar qanday makroiqtisodiy boshqaruv uslublarini yuzaga keltirgan va ular

---

<sup>40</sup> Маркс К., Энгельс Ф. Немецкая идеология. — Соч. Т. 3, с. 7.

orqali qanday natijalarga erishish mumkin bo'lgan kabi savollarga javob topish bizning izlanishimiz mazmunining bir qismidir.

Birinchi bosqich 1991-2016 yillar bo'lib, bu - O'zbekiston mustaqilligini ta'minlash, bu maqsadda samara keltiruvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy boshqaruv usulini, uning institutsional zaminini barpo etish, ko'proq ichki imkoniyatlarga tayanish davri bo'lgan. Bu bosqichning nomini biz "Yaratuvchanlik va poydevor qurish davri" deb atadik. Mamlakatda bu davr mobaynida asosiy strategik maqsad sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tish negizida iqtisodiy barqarorlikka erishish ko'zda tutilgan<sup>41</sup>. Iqtisodiy barqarorlik umumiy talab va taklif o'rtasida, jamiyatning minimal darajadagi umumiy ehtiyojlari bilan davlat budjeti hajmi, hamda iste'mol mollari ishlab chiqarish va import qilish o'rtasida zaruriy balans o'rnatish bilan belgilangan. O'z navbatida tariximizning bu qismini 3 ichki davr – etapdan iborat, deb aytishimiz mumkin:

- 1991-1998 yillar O'zbekiston mustaqilligini himoya qilish va iqtisodiy barqarorlikka erishish<sup>42</sup> davri;
- 1999-2005 yillar O'zbekiston mustaqilligiga keskin tahdid ortidan ichki va tashqi siyosatdagi burilish<sup>43</sup> davri;
- 2006-2016 yillar barqaror iqtisodiy o'sish yillari<sup>44</sup> va dastlabki stagnatsiya alomatlari paydo bo'lgan davr.

Ikkinchi bosqichni biz "Yangilanish va taraqqiyotda jadallanish davri" deb nomlab, bu bosqichning asosiy mazmuni iqtisodiy rivojlanishda asl bozor imkoniyatlariga asoslangan holda taraqqiyotni tezlatish va dunyo iqtisodiyotining to'laqonli integral qismiga aylanishda mujassam deb ta'rif berdik. Aynan 2017-yildan boshlab shu kungacha o'tgan davrda erishilgan natijalar negizida taraqqiyotni tezlatish makroiqtisodiy boshqaruv uslublarining asosiy mohiyatini kasb etgan.

---

<sup>41</sup> Karimov I.: "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin". ISBN 5-640-02098-5, "O'zbekiston", T.-1996. 5-bet

<sup>42</sup> Karimov I.: O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining sakkiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq. Ziyonet.uz. <https://library.ziyonet.uz/book/76554>, 42-b.

<sup>43</sup> Karimov I.: Biz dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan jamiyat quramiz. Oliy Majlisning 8-sessiyasida mahalliy va xorijiy muxbirlarning savollariga bergan javoblari. Ziyonet.uz, <https://library.ziyonet.uz/uz/book/76552>, 173-b.

<sup>44</sup> Karimov I. Ozodlik havosidan to'yib nafas olgan xalq o'z yo'lidan hech qachon qaytmaydi. T.-2016 <http://natlib.uz/>, 14-b.

Ma'lum ma'noda o'tgan yillar davomida hosil bo'lgan poydevor bu jadallanishga yetarli tayanch nuqtasi bo'lgan. Bu bosqich ham mazmunan har xil bo'lgan 3 ichki davrdan iborat:

- 2017-2019 yillar – makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va yuzada turgan to'siqlarni bartaraf etish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning yangi modeli<sup>45</sup> bazasini barpo etish davri;

- 2020-2021 yillar favqulodli kuchli ijtimoiy siyosat Covid-19 zarbasi ta'siriga qarshi kurash va dastlabki tiklanish<sup>46</sup> davri;

- 2022-yil va hozirga qadar – inson qadrini yuksaltirish va milliy iqtisodiyotni yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash<sup>47</sup> davri.

Albatta, har bir izlanuvchi o'zi tahlil qilayotgan kategoriyalarning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, yaqin tariximizni turli boshqa davrlar va mohiyatlarga ajratishi mumkin. Biz esa har bir davrni mohiyatini ifodalovchi asosiy g'oya va bu g'oyani amalga oshirishda qo'llanilgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy boshqaruv xususiyatlaridan kelib chiqdik.

An'anaviy makroiqtisodiy boshqarish odatda fiskal (soliqlar, bojlar, davlat byudjeti tarkibi, prioritetlari, stimullari), monetar (pul aylanmasi hajmi, kredit stavkalari, shartlari, pul narxini, banklar faoliyatini belgilovchi uslublar yig'indisi) va regulativ (davlatning zo'ravonlikka bo'lgan monopoliyasidan kelib chiqib, moliyaviy institutlar bilan jamiyat, aholi, tadbirkorlik subyektlari bilan munosabatlar, davlat investitsiyalarini taqsimlash, ichki va tashqi savdo sohasida notarif cheklovlar kiritish, me'yorlash kabi) usullar kombinatsiyasi (to'plami) vositasida olib boriladi. Metodologik nuqtai nazardan bu uslublar mazmuni tarixiy kontekstdan kelib chiqib, o'zining konkret ifodasini topadi, lekin ularning jamiyat va inson qadriyatlariga monandligi amaliy siyosatda juda katta ahamiyatga ega

---

<sup>45</sup> Mirziyoyev Sh.: Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.1-jild. "O'zbekiston", T.-2017, <https://library.tiiame.uz/resources/01HN261J90AGPD1W82X27CFQGK>, 15-6.

<sup>46</sup> Mirziyoyev Sh.: "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri S.Doniyorovning savollariga javoblari. 16.08.2021 y.

<sup>47</sup> Mirziyoyev Sh.: "Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz" <https://president.uz/uz/lists/view/4942>



bo'lgan masalalardir.

Makroiqtisodiy uslublar, boshqaruv metodologiyasi o'z navbatida asosiy ishlab chiqarish vositalariga (jumladan, yerga) mulk huquqi va institutsional munosabatlar mavjudligi va samarasiga bog'liq bo'lib, bu dialektika quyidagi omillarda namoyon bo'ladi:

a) iqtisodiy rivojlanishning asosiy mohiyati va samarasi mulkka egalik munosabatlari bilan chambarchas bog'liq. Iqtisodiy boshqaruvni asl maqsadlarini belgilashda ishlab chiqarish vositalariga egalik huquqi qaysi uyushgan siyosiy kuch qo'lida bo'lishi, bu kuch son va sifat jihatidan jamiyatning qanday qismining vakilligiga, vakolatiga ega bo'lishi muhim;

b) ishlab chiqarish va takroriy ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishda foydalanilgan makroiqtisodiy boshqaruv uslublari doim ma'lum jamiyat guruhlari – ishlab chiqarish vositalarining haqiqiy (nominal emas) egalari manfaatlariga qaratilgan bo'ladi;

c) asosiy ishlab chiqarish vositasi - yerga bo'lgan huquq munosabatlari qanday tus olgani va amaliyotda qo'llanilgani nafaqat qishloq xo'jaligi, balki shaharlarda ham iqtisodiy munosabatlarni belgilaydi, chunki ishlab chiqarish binolari ma'lum yer maydoni negizida, har qanday faoliyat esa ma'lum bir jismoniy o'lchovi bo'lgan makonda amalga oshiriladi;

d) davlat (boshqaruvchi sinf), jamiyat (boshqarilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy guruh) va biznes (boshqaruvchilar va boshqarilayotganlar orasidagi bo'g'im) o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlar va muloqotlarning qanday bo'lishi, ya'ni "ijtimoiy shartnoma"ning tom mazmuni ahamiyat kasb etadi;

e) jamiyatning asl qadriyatlari qay darajada strategik rivojlanish maqsadlari va ularga erishish uslublarida aks etgan, chunki nafaqat maqsad, balki maqsadga erishish uchun tanlangan uslublar ham ba'zan har xil natijalar beradi, evaziga jamiyatdan so'ralgan cheklanishlar darajasi bilan farqlanadi.

Ushbu dialektik bog'liqlik ta'sirida iqtisodiy boshqaruvning turli modellari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llaniladi. Ba'zi hollarda esa asosiy iqtisodiy taraqqiyot modellari mamlakatlar miqyosida tarixiy voqelik mantiqi tufayli

turli oqimlar sinteziga monand bo'lishi mumkin (qar.1-jadval)

1-jadval

<b>Asosiy iqtisodiy taraqqiyot modellari mamlakatlar kesimida</b>		
<b>Neoliberalizm</b>	<b>Keynschilik</b>	<b>Turli oqimlar sintezi</b>
Janubiy Amerika	AQSh	Xitoy
Kanada	Yevropa Ittifoqi	Malayziya
Avstraliya	Yaponiya	Singapur
Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari (Filippin, Hindiston, Shri-Lanka)	Janubiy Koreya	Eron
Fors ko'rfazi mamlakatlari (BAA, Isroil, Iroq, Suriya, Livan)	Indoneziya	Mo'g'uliston
Shimoliy Afrika	Saud Qirolligi	Turkiya
Qirg'iziston	Ozarbayjon	Vetnam
Rossiya	Turkmaniston	Laos
Gurjiston	Tojikiston	O'zbekiston
	Qozog'iston	

Sotsializm tizimi kollapsidan keyin barcha iqtisodiy boshqaruv modellari 4 fundamental savolga javob mantig'i atrofida yuzaga keldi: 1) xususiy mulk dahlsizligi qay darajada bo'ladi va bu dahlsizlik qanday institutlar yordamida ta'minlanadi; 2) davlatning iqtisodiyotdagi o'rni qanday bo'ladi; 3) boshqaruv modeli kichik va o'rta biznesni, yoki yirik biznesni ko'proq qo'llaydi; 4) bu model qanchalik kapitalni yiriklashuviga olib keladi. Dastlabki kapital jamg'armasi shu vaqtgacha to'plangan ijtimoiy kapitalni qayta taqsimlashda yuz berishi tufayligina hosil bo'lishi mumkin bo'lsa (sobiq sotsialistik jamiyatlar), bu taqsimot kimlar foydasiga ko'proq hal bo'lishi kabi savollar. Shuning uchun Mustaqillikni endigina qo'lga kiritgan mamlakat uchun eng dolzarb taktik va strategik vazifa sifatida hokimiyat barqarorligini ta'minlash o'ta muhim edi, chunki har qanday o'tish davrida tartibsizliklarni oldini olish, qabul qilingan qarorlar va qonun ijrosini ta'minlash jamiyatning hokimiyatga bo'lgan ishonchini, hokimiyat taklif qilgan qadriyatlarning jamiyat tomonidan ma'qullash darajasini belgilab beradi. Bu dastlabki vazifani bajara olmagan hokimiyat imkoniyatlari jihatidan zaif deb qaraladi va unga deyarli hech kim ergashmaydi.

O‘zbekistonda ilk yillardanoq shaklan va mazmunan yangi institutsional va iqtisodiy boshqaruv tizimi markazlashtirilgan kuchli hokimiyat negizida neoliberalizm g‘oyalariga tayanib yaratila boshlandi. Xususan, 1991-yil 30-sentabrdagi O‘zbekiston Prezidenti Farmoni bilan O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi tuzildi. Prezident qo‘lida barcha ijroiya apparati markazlashtirildi. O‘zbekiston ma‘muriy hududida bo‘lgan harbiy, xavfsizlik, aholining kundalik ehtiyojini ta‘minlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tovar-moddiy boyliklarning chiqib ketishiga (ayniqsa, transport va harbiy sohadagi aktivlarni) yo‘l qo‘ymaslik borasida huquqiy asoslar yaratildi va davlat boshqaruvida institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi. Valyuta rezervlarini himoya qilish<sup>48</sup>, mamlakat ichida yaratilgan moddiy boyliklarning chiqib ketishiga barham berildi<sup>49</sup>. Mamlakatimiz davlat budjetini ijro etish yuzasidan favqulodda yuzaga kelgan masalalarni yechishning (SSSR davlat budjeti doirasida tegishli markaz-respublika pul transferlarini bajarilishiga erishish, davlat xarajatlari mantig‘i va tuzilishini qayta ko‘rib chiqish, iste‘mol mollari rezervini yaratish va hokazo) revolyutsion mexanizmi ishlab chiqildi - sobiq SSSR mamlakatlari ichida birinchi bo‘lib O‘zbekiston 3 oylik favqulodda budjet rejalashtirish va ijro tizimi joriy qildi<sup>50</sup>. Ichki bozorni himoya qilish, rivojlantirish maqsadida narx-navolar erkinligi, bozor iqtisodiyotining dastlabki infrastrukturasi tuzish bo‘yicha qarorlar qabul qilindi<sup>51</sup>.

Aynan shu sharoitda neoliberalizm g‘oyalari iqtisodiy boshqaruvga keng

---

<sup>48</sup> “O‘zbekiston respublikasi xududida valyuta resurslarini ishlatishning o‘zgacha tartiblarini belgilovchi Ittifoq organlari tomonidan qabul qilingan aktlarning amalini to‘xtatish haqida” O‘zbekiston Prezidenti qarori. 06.09.1991 y., №PQ-242; <https://lex.uz/docs/227946?ONDATE=06.09.1991> “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankini tashkil etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 07.09.1991 y., №PQ-244; <https://lex.uz/docs/188592>

<sup>49</sup> “Ichki ishlar vazirligi qoshida tovar-moddiy boyliklarni chiqishi ustidan nazorat qilish Davlat inspeksiyasi tuzish haqida”. O‘zbekiston prezidenti huzuridagi Vazirlar Makamasining qarori. 26.09.199 y., №245: <https://lex.uz/docs/1024843?ONDATE=26.09.1991&action=compare>

<sup>50</sup> “1991-yil IV chorak favqulodda byudjetini bajarish uchun qo‘shimcha choralar haqida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar mahkamasining qarori. 26.11.1991y., №301: [https://nrm.uz/contentf?doc=107447\\_postanovlenie\\_kabineta\\_ministrov\\_pri\\_prezidente\\_respubliki\\_uzbekistan\\_ot\\_26\\_11\\_1991\\_g\\_n\\_301\\_o\\_dopolnitelnyh\\_merah\\_po\\_obespecheniyu\\_ispolneniya\\_chrezvychaynogo\\_byudjeta\\_v\\_iv\\_k\\_vartale\\_1991\\_goda&products=1\\_vse\\_zakonodatelstvo\\_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=107447_postanovlenie_kabineta_ministrov_pri_prezidente_respubliki_uzbekistan_ot_26_11_1991_g_n_301_o_dopolnitelnyh_merah_po_obespecheniyu_ispolneniya_chrezvychaynogo_byudjeta_v_iv_k_vartale_1991_goda&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)

<sup>51</sup> “Narxlarning erkinlashuvi munosabati bilan respublika va uning aholisining manfaatlarini himoya qilish haqida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar mahkamasining qarori. 12.11.1991y., №289: [https://nrm.uz/contentf?doc=107428\\_postanovlenie\\_prezidiuma\\_verhovnogo\\_soveta\\_i\\_kabineta\\_ministrov\\_pri\\_prezidente\\_respubliki\\_uzbekistan\\_ot\\_12\\_11\\_1991\\_g\\_n\\_289\\_o\\_merah\\_po\\_zashchite\\_interesov\\_respubliki\\_i\\_ee\\_nasele\\_niya\\_v\\_svyazi\\_s\\_liberalizatsiyey\\_cen&products=1\\_vse\\_zakonodatelstvo\\_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=107428_postanovlenie_prezidiuma_verhovnogo_soveta_i_kabineta_ministrov_pri_prezidente_respubliki_uzbekistan_ot_12_11_1991_g_n_289_o_merah_po_zashchite_interesov_respubliki_i_ee_nasele_niya_v_svyazi_s_liberalizatsiyey_cen&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)

tatbiq qilindi. Uning tarkibiy elementlari davlat moliyaviy tizimini butunlay yangi fiskal omillar asosida yaratish, monetar boshqaruv tizimini yaratish (ikki tabaqalik bank tizimini yaratish asosida), ijtimoiy mulkni xususiylashtirish negizida qayta taqsimlash va buning evaziga dastlabki kapital jamg'armasi muammosini hal etish, ishlab chiqarishning asosiy aktivi bo'lgan yer resurlarini bozor aylanmasiga kiritish kabilar edi. Siyosiy stabillikdan so'ng eng muhim masala davlat moliya tizimini tiklash edi. Sobiq O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlariga ko'ra<sup>52</sup> 1991-yilning oxiriga kelib joriy yil budjeti defitsiti budjet hajmining 25 %gacha yetishi va kelasi yil defitsiti, agar favqulodda amallar qilinmasa, 50 %gacha chiqishi muqarrar bo'lib qolgan edi. Bunday sharoitda vazirliklar, xo'jaliklar va turli birlashmalar qaramog'ida bo'lgan barcha korxonalarining 1991-yildagi 11 oylik ishlab chiqarish faoliyati natijalari bo'yicha budjetga to'lanadigan foyda to'lovlarini qayta ko'rib chiqish, investitsion xarajatlarni keskin kamaytirish, moddiy-texnika, yoqilg'i-energetika va moliya resurslaridan foydalanishda maxsus iqtisod choralarini ko'rish katta ahamiyat kasb etdi<sup>53</sup>. Uch oylik Favqulodda budjetni shakllantirish amaliyoti qo'llanildi va bu o'sha davrda iqtisodiy-ijtimoiy tuyg'unlikni ta'minlovchi eng muhim omillardan biri bo'ldi. Favqulodda budjetni 3 oyga tuzish va amalga oshirishda bir qancha afzalliklar bor edi:

- davlat o'z misolida total iqtisod qilishni jamiyatga ko'rsatib berdi, budjet tashkilotlarida favqulodda keskin iqtisodiyot normalari kiritildi: yangi obyektlar bo'yicha kapital qurilish va eski obyektlar bo'yicha kapital, va hatto joriy ta'mir xarajatlari keskin uzildi. Davlat mablag'lari hisobiga respublika banklari vazirlik va idoralarga 1991-yilning IV choragidan boshlab bitirish darajasi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish obyektlarini oxiriga yetkazish uchun imtiyozli kreditlar berib borishi yo'lga qo'yildi. Mahalliy hokimiyatlarga barcha ichki rezervlarni ishga tushirish hisobiga davlat budjetiga tushumlarni oshirish ko'zda tutildi. Davlat idora va korxonalarida turli inventar va mebel sotib olish ta'qiqlandi, xodimlarning xizmat

---

<sup>52</sup> Muallif o'sha yillari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida mas'ul xodim bo'lib ishlagan

<sup>53</sup> Абулкасимов Х.П.: "Развитие экономики Узбекистан за годы независимости", стр.6: Экономический факультет Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека.  
<https://moluch.ru/archive/125/34523/>

safarlari qisqartirildi;

- uch oylik istiqbol budjet muvozanatini ta'minlashga qandaydir umid berdi va kassa uzilishlarini qoplash uchun qisqa muddatli bank kreditlarini (emissiya) jalb qilishni rejalashtirishga qulaylik yaratdi. Rejalashtirishda istiqbol qanchalik kichik bo'lsa, uning sifati shuncha aniqroq bo'ladi. Vazirlar Mahkamasi har chorakda ishlab chiqarish va taqsimot asoslari, davlat budjeti va pul-kredit massasi hajmlarini ko'rib chiqib, zarur o'zgarishlarni kiritish va operativ ravishda qarorlar qabul qilishiga baza yaratdi;

- barcha davlat korxonalari endi ishlab chiqarish emas, balki mahsulot va xizmatlarni sotishga, ya'ni bozor talabi sharoitlariga ko'proq e'tibor bera boshladi.

Iqtisodiyotda liberalizm g'oyalarini tatbiq etish makroiqtisodiy, institutsional va ma'muriy sohalarda yuz berib, ularning mohiyati beshta ta asosiy yo'nalishda mujassam edi:

- davlatning moliya boshqaruv tizimini uyg'unlashtirish va monetar boshqaruvga asos solish;

- qishloqda yangi mulk huquqining bozor munosabatlariga asoslangan dastlabki elementi sifatida yerdan foydalanish xuquqi institutini yaratish;

- jamiyatning ijtimoiy kapitalini qayta taqsimlash – davlat mulkini xususiylashtirish negizida yangi tadbirkorlar sinfini yaratish, bu orqali birlamchi kapital jamg'armasi muammosini hal etish;

- sobiq vazirliklarga bo'ysungan davlat korxonalarida asta-seknilik bilan korporativ boshqaruv asoslarini kiritish;

- markazlashgan ishlab chiqarish va taqsimot inersiyasi negizida bo'lsa ham, bozor infrastrukturasi (birjalar va savdo maydonlari, agentlari, institutlari) ochish. (qar. 2-jadval).

2-jadval

<b>O'zbekistonda neoliberalizm negizlari va asoslari</b>		
<b>Institutsional</b>	<b>Ma'muriy</b>	<b>Makroiqtisodiy</b>
Qishloqda yerdan foydalanish huquqi	Shaklan 3 ta hokimiyat institutlarining mavjudligi	Favqulotda davlat byudjeti, keyinchalik tizimli byudjet va G'aznachilik

Xususiylashtirish qonunchiligi	Ijroiya hokimiyatda vakolatlar va mas'uliyatlarning nisbiy balansi	Byudjetdan tashqari turli jamg'armalar
Davlat boshqaruvi ta'sirini kamaytirish qonunchiligi	Ishlab chiqarish ekotizimini yirik korxonalar atrofida yaratish	Monetar va emissiya siyosatlari ijroiya hokimiyati qo'lida
Bozor infrastrukturasi yaratish qonunchiligi	Moliya tizimini byudjet va davlat banklari orqali tashkil etish	Davlat banklari faoliyatining MB tomonidan kuchli nazorati
Kichik va o'rta biznes kafolatlari	Qishloq xo'jaligida yirik ishlab chiqarish kuchlarini davlat investitsiyalari yordamida tuzish	Davlat korxonalari moliyasini nazorati
Oziq-ovqat va iste'mol mollari uchun konvertatsiya rejimi	Maorif va sog'liqni saqlash xizmatlari to'la davlat zimmasida saqlash	Tashqi savdo va valyuta almashinuvi davlat nazoratida
Korporativ boshqaruvda davlatning ishonchli vakillari instituti	Jamiyatda kuchli tabaqalanishga yo'l qo'ymaslik ustidan nazorat	Tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida fiskal va monetar imtiyozlar
Davlat byudjeti va davlat xarajatlari ustidan nazorat institutlari rolining yuqoriligi	Davlat institutlari faoliyati samarasi ustidan qattiq nazorat	Byudjet hisobidan minimal darajada ijtimoiy himoya dasturlari
Iqtisodiy taraqqiyotga turtki	Jamiyatni ma'lum bir taraqqiyot g'oyasi atrofida jipslashtirishga urinishlar	Kichik va o'rta biznesga imtiyozli kreditlar beruvchi jamg'armalar
Xorijiy investorlarga alohida kafolatlar berish mexanizmi	Xorijiy investorlar uchun mahsus iqtisodiy faoliyat zonalarini mavjudligi	Ishchi o'rinlarini yaratish – bozor mas'uliyati

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda asosiy muammolardan biri – xususiy mulk tushunchasi va munosabatlari institutsional yuzaga kelmagan edi. Yer resurslaridan foydalanish huquqi 1991-yil so'ngigacha davlat (avvalgi kolxoz va sovxozlar) ixtiyorida bo'lib, yangi iqtisodiy sharoitda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida kollaps yuzaga kelayotgan edi. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatida yerdan foydalanish yuzasidan aniq huquqiy tamoyillar shakllanmagan, davlat va dehqon

o‘rtasidagi mulkiy, ishlab chiqarish va moliyaviy munosabatlar huquqiy tamoyillar bilan aniq belgilanmagan edi.

1991-yilning 27-noyabridagi Prezident Farmoni qishloqda taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishlarini belgilab, ularni amalga oshirishning huquqiy va iqtisodiy asoslarini yaratdi:

a) dehqon xo‘jaliklarini quvvatlash va ularga tarqatib berish uchun paxta va don uchun mo‘ljallangan yerlarni kamaytirish hisobiga maxsus sug‘oriladigan yer resurslari ro‘yxati (viloyat va tumanlar miqyosida, aniq maydonlar bilan) tuzilishi;

b) yer maydonlari mahalliy boshqaruv organlari qarori bilan fermerlarga ma‘lum bir ishlab chiqarish qo‘rsatkichlarini bajarish evaziga 10 yilga shartnoma asosida uzaytirish huquqi bilan tarqatilishi;

c) yetishtirilgan mahsulotga bozor narxlarida almashuv evaziga dehqon va fermer xo‘jaliklariga davlat strukturalari tomonidan 50 %gacha avans to‘lovlari va yoqilg‘i, moddiy resurslar yetkazib berilishi ko‘zda tutildi.

Ushbu Farmon amaliyotda qo‘llanilishidagi qiyinchiliklarga qaramay, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minladi, dehqonlar bilan davlat o‘rtasida yer va yerga ishlov berish ortidan olinadigan mahsulotni taqsimlashning bozor asosini yaratdi, hamda qishloq ahli uchun dastlabki daromad manbai – yerdan foydalanish huquqini ta‘minlab berdi. Farmon tufayli nafaqat qishloq aholisi turmush tarzi o‘zgarishiga turtki berildi, balki shaharlarda davlat ixtiyoridagi uy-joy fondini xususiylashtirish negizida dastlabki kapitalga ega bo‘lishga, keyinchalik faol ikkilamchi uy-joy bozori vujudga kelishiga sharoit ham yaratib berildi.

1992-yil makroiqtisodiy boshqaruvda (fiskal va regulyativ) sohalarda prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan ishlar qilindi. O‘zbekiston ichki iste‘mol bozorini himoya qilish, soliqlar tizimini qayta ko‘rib chiqish (5 foizlik aylanma sotuv solig‘i bekor qilindi<sup>54</sup>), korxonalar ishlab chiqargan iste‘mol mahsulotlariga erkin tarzda narxlar belgilash, sanoat mahsulotlariga ulgurji narx-navolar belgilash tartibi

---

<sup>54</sup> “O‘zbekiston xududida 5-foizlik savdo solig‘ini bekor qilish haqida”: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar mahkamasining qarori. 05.01.1992y., №2: [https://nrm.uz/contentf?doc=52988\\_&products=1\\_vse\\_zakonodatelstvo\\_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=52988_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)

o'zgartirilib, amalda erkin bozor narxlariga o'tildi. Yangi sharoitda xususiy shaxslar iqtisodiyotning logistika agentlariga aylandilar. Yuz minglab ishini yo'qotgan turli kasb egalari qisqa muddat ichida bozor qonunlarini o'rganib, tadbirkorlikka qo'l urishga, tavakkal qilishga majbur bo'ldi. Butun mamlakatda yangi "tadbirkorlar" kim nima ishlab chiqarishi va narxlari bilan qiziqqa boshladilar. Ular bu mahsulotlarini kimga, qanday narxlar, to'lov shartlari asosida natural almashish mumkin ekanini va bunda ular qaysi etapda dastlabki tikilgan aylanma kapitalni yana pul shakliga aylantirish, hamda ma'lum miqdorda foyda ko'rish yo'llarini izlay boshladilar va ularni topdilar ham. Xalq tilida "mokichilar" deb atalgan yangi tadbirkorlar klassi paydo bo'ldi va aynan ular mamlakatimiz iqtisodiyotini ma'lum ma'noda qayta tikladi. Klassik iqtisodiyotdagi T-P-T formulasi endi P-T1-Tn-P shaklini oldi (bu yerda T1 va Tn – birinchi va keyingi ko'p marta tovarni tovarga almashtirish zanjiri). Xususiy tadbirkorlar natural xo'jalik va pul almashinuvi, qayta almashinuvi jarayonining asosiy agentlariga aylandilar.

Xo'jalik subyektlariga yangi imkoniyatlar yaratib berish bilan bir qatorda aholining turli ijtimoiy qatlamlarini himoya qilib borish markaziy masalalardan biri<sup>55</sup> edi, va bu sohada mustaqillikning ilk yillarida muntazam ishlar amalga oshirildi<sup>56</sup>. Shunga qaramay, ishsizlik, real daromadlarning keskin tushishi ichki (qishloqlardan shaharlarga) va tashqi migratsiyani kuchaytirdi, qishloq xo'jaligi asosiy resurslardan – ishchi kuchidan asta-sekin mahrum bo'la boshladi. Aynan ana shu fonda aholining davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy himoyaga muhtojligi kuchaydi, ya'ni paternalistik siyosatni yuritishga ijtimoiy talab yuzaga keldi va imperativga aylanib, yillar davomida kuchayib bordi.

Bu tafsilotlar tarixiy voqelikning iqtisodiy boshqaruv mohiyati va uslubiyatiga ta'sirini tadqiqotimiz davomida yoritib borish uchun o'ta muhim. Mustaqillikning ilk yillaridagi voqelik iqtisodiy rivojlanish bosqichlari jamiyat boshqaruviga bo'lgan talablar mohiyatini o'zgarishini talab qildi, maqsad va unga

---

<sup>55</sup> "Noishlab chiqarish sohasida ishlaydiganlarning lavozim maoshlari va pensiyalar, stipendiyalar xajmini ko'tarish haqida". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar mahkamasining qarori. 08.01.1992y., №3: [https://nrm.uz/contentf?doc=40608\\_&products=1\\_vse\\_zakonodatelstvo\\_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=40608_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)

<sup>56</sup> Qarang: [https://nrm.uz/contentf?doc=53470\\_&products=1\\_vse\\_zakonodatelstvo\\_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=53470_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)



erishish uslubi o'rtasidagi dialektik bog'liqlik kuchaydi. Iqtisodiy boshqaruv metodologiyasida (usullar jamlanmasida) quyidagi tarixiy omillar ahamiyat kasb etdi:

- jamiyatda va iqtisodiyotdagi o'tish davri muammolari na vatanimiz, na boshqa mamlakatlar tarixida kuzatilmagan edi. Sotsializmdan kapitalizmga (yoki uning turli dastlabki bosqichlariga) o'tish jarayoni muammolarini aniqlash, ularning yechimi davlat va jamiyat tomonidan qanday amalga oshirilishini o'rganish iqtisodiy falsafa va amaliyot oldiga qo'yilgan katta chaqiriq bo'ldi;

- umumxalq mulkchiligiga asoslangan Sovet iqtisodiy tizimidan hozirgi iqtisodiy boshqaruv tizimiga o'tish falsafasi, mantig'i va mohiyati sobiq SSSR, sotsialistik mamlakatlarda o'sha vaqtlarda yashamagan inson uchun mavhum va tushunarsiz. 80-90 yillardan avval va undan keyin yuzaga kelgan iqtisodiy falsafa va bilim sohasida iqtisodiy islohotlar mohiyati va falsafasini tushunmaslik sobiq SSSR mamlakatlarida oddiy hol edi. Ko'pgina mashhur iqtisodchilar yaratgan va turli mamlakatlarning taraqqiyot omillari, iqtisodiy boshqaruv metodlari haqidagi fikrlar sobiq SSSR kollapsidan keyingi tarixiy rivojlanish modeliga to'g'ri kelmadi va amaliy ahamiyati kam bo'lib qoldi;

- kapitalistik mamlakatlarda azaldan davlat mulkidan tashqari xususiy mulk va ijtimoiy mulk degan tushunchalar bo'lgan, davlat monopol mulkdor bo'lmagan. Sovetlar tizimida davlat ishlab chiqaruvchi, taqsimotchi, hamda asosiy iste'molchi bo'lgan. Mulki huquqi butunlay davlat qo'lida bo'lgan, nafaqat ishlab chiqarish vositalari, balki ishlab chiqarish natijalari ham davlatga tegishli bo'lgan;

- yangi voqelikda ishlab chiqarish vositalari keraksizligi tufayli yo'q bo'lib ketish xavfi davlatni ular bilan xalq o'rtasida bo'lishishga, demakki, dastlabki xususiy mulk yuzaga kelishiga, davlat monopoliyasidan voz kechishga undar edi;

- davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro muloqot va yuzaga kelgan sharoitdan imkoni boricha talofotlarni kamaytirib chiqish borasida muloqot va harakatga ehtiyoj tug'ildi. Davlatning eski iqtisodiy boshqarish mexanizmi degradatsiyaga uchrab, davlat va davlatchilikni saqlash muhim vazifaga aylandi;

- boshqaruvda asosiy shakl va mohiyat o'zgarishi kengaytirilgan takror

ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun xalq bilan ishlab chiqarish vositalarini bo'lishish, imkon doirasida xalqni oborot mablag'lari bilan ta'minlash va uni tadbirkorlik faoliyatiga undash va yordam berish edi.

Keyingi taraqqiyot shuni ko'rsatdiki, klassik adabiyotlarda tarif berilganidek<sup>57</sup>, uchta omil: dastlabki yillardagi markazlashtirilgan ishlab chiqarish va taqsimotga talab, boshqaruv nomenklaturasining inersion kuchi, hamda o'tish davrida sug'oriladigan yerlarda olib boriladigan qishloq xo'jalik yuritish usullari hosiyatlari tufayli Osiyo ishlab chiqarish usuli O'zbekiston qishloq xo'jaligida yuzaga kela boshladi. Ana shu holat yerga egalik huquqi, markazlashgan boshqaruv uslubi doirasidan kelib chiqqani uchun uning oqibatlarini izlanishimiz davomida batafsil ko'rib chiqamiz.

## **1.2 Qishloqda va shaharda taraqqiyot maqsadlari nazariyasi va amaliyotidagi farq, ularning boshqaruv usullari tanloviga ta'siri**

O'tish davrida qishloqda va shaharda taraqqiyot ehtiyojlari, maqsadlari va imkoniyatlari ishlab chiqarish kuchlari potentsiali va vositalarining kimga tegishli ekanligi, bozor munosabatlarining shakli va ko'lami negizida keskin farqli bo'ladi. Mutafakkir Ibn Xoldunning (1332–1405)<sup>58</sup> ta'kidlashicha, qishloq xo'jaligi kishilik jamiyatining rivojlanish darajasi tarixiy jarayon ma'nosi va mazmunini belgilaydigan omil bo'lib, uning rivojlaniishi, «zarur» va «zarur bo'lmagan» buyumlar bilan fuqarolarni ta'minlash talabi, eng avvalo, shahar aholisining zichligiga bog'liq. Jamiyatda shaharlar ko'proq rivojlangan bo'lib, ular mamlakat hayotida asosiy rol o'ynasa, unda «zarur» va «zarur bo'lmagan» buyumlar yetarli bo'ladi; bunda birinchisining ahamiyati va hajmi pasayib boradi, ikkinchisniki esa, aksincha, o'sib boradi.

Qishloq xo'jalik faoliyatidagi ro'y berayotgan turli mamlakatlardagi XVII-XIX asrlardagi o'zgarishlar siyosiy iqtisod klassiklari tomonidan ham ko'p

---

<sup>57</sup> Годелье Морис: Азиатский способ производства: стимулирующий концепт с ограниченным аналитическим значением. М.-2007. <https://cyberleninka.ru/article/n/aziatskiy-sposob-proizvodstva-stimuliruyuschiy-kontsept-s-ogranichennym-analiticheskim-znacheniem>

<sup>58</sup> «Kitob-ul-ibar» – «Ibratli misollar kitobi», 1370 y. 23-bet

o'rganilgan. K.Marks Britaniyaning Hindiston qishloq xo'jaligi rivojlanishiga keltirgan zarari ko'lamiga baho berib, shunday yozadi: "G'arbda Flandriya va Italiyadagi kabi xususiy tadbirkorlarni ixtiyoriy uyushmalarga birlashishga majbur qilgan suvdan tejamkor va birgalikda foydalanishga bo'lgan bu elementar ehtiyoj, sivilizatsiya darajasi juda past bo'lgan va hududi katta bo'lgan, ixtiyoriy uyushmalar tuzilishiga imkoniyat bermagan Sharqda - hokimiyatning markazlashtiruvchi kuchining aralashuvini majburiy ravishda talab qildi. Aynan shundan barcha Osiyo hukumatlari bajarishga majbur bo'lgan iqtisodiy funktsiya, ya'ni jamoat ishlarini tashkil etish funktsiyasi yuzaga keldi"<sup>59</sup>.

Butun XX asr davomida ham Sharqiy mamlakatlar taraqqiyotining ko'pchiligiga xos bo'lgan Osiyo ishlab chiqarish usuli haqida munozaralar Yevropa va Osiyo mintaqalarida marksistlar va sotsialistlar o'rtasidagi asosiy nizolardan biri bo'lgan. Chunki bu termin va uning ortida turgan chuqur ma'noni ko'pgina Yevropalik marksistlar to'la tushunib yetmagan va masalaning mohiyatidan kelib chiqmay, ko'proq o'zlarida Sharq tarixi va madaniyati haqida yuzaga kelgan stereotiplardan kelib chiqib, bunday ishlab chiqarish uslubi paydo bo'lishi sabablari masalasida "joxillik", "qoloqlik", "vahshiylik" kabi sifatlarga urg'u berganlar<sup>60</sup>. Bu masalada G.V.Plexanov<sup>61</sup> ham muntazam ravishda izlanishlar olib borib, Osiyo ishlab chiqarish usulini feodalistik ishlab chiqarish uslublaridan biri, deb talqin qilgan. Bu mavzu R.Foksning<sup>62</sup> asarlarida ham asoslangan bo'lib, unda R.Foks 3-muhim hislatni e'tirof etdi: "Marks va Engels ... Osiyo ishlab chiqarish usuli haqidagi qarashlarini juda aniq shaklda ilk marta rivojlantiradi. Ular ushbu ishlab chiqarish usulini uchta usulda aniqlaydilar. Birinchi va eng muhimi, yerga xususiy mulkchilikning yo'qligi. Umuman, hamma joyda bo'lmasa-da, Sharqda hukmdor davlatdagi barcha yerlarning egasi hisoblanadi. Ijara unga yerdan olingan mahsulot bilan to'lanadi va ko'plab amaldorlar tomonidan qat'iy belgilangan qonun va

---

<sup>59</sup> K.Marks: "Britaniyaning Hindistondagi boshqaruvi haqida". To'la asarlar to'plami, 9-Tom. 132-133 betlar: <http://uaio.ru/marx/09.htm>;

<sup>60</sup> В.Н.Никифоров: "Восток и всемирная история". АН СССР, Институт Востоковедения. "Наука", 1977 й. 34-бет. <https://studfile.net/preview/7877840/>

<sup>61</sup> G.V.Plexanov, III tom. "Marksizmning asosiy masalalari", 1957-yil. 165-bet.

<sup>62</sup> R.Foks "Marks va Engelsning Osiyo ishlab chiqarish uslubiga munosabatlari va ularning manbalari", 56-bet

qoidalarga muvofiq undiriladi. Ikkinchidan, bu iqtisodiy tizimning negizi qishloq jamiyati ichida dehqonchilik va hunarmandchilikning yaqindan integratsiyalashuvidir. Uchinchidan, suv ta'minoti qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i hisoblangan sharqiy mamlakatlarda barcha jamoat ishlari – sug'orish, kanallar, aloqa yo'llari va hokazolar davlat hukmdor qo'lida bo'lishi muqarrar". Ya'ni R.Foks ishlab chiqarishning Osiyo modeli yuzaga kelishida yerga egalik huquqi bo'lmaganligi ma'lum ma'noda suv resurslari tanqisligining yuridik hosilasi, deb qarasa ham, aynan dehqonchilik va hunarmandchilikning yaqindan integratsiyalashuvini belgilovchi omil sifatida e'tirof etadi. Mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish vositalarisiz katta yer maydonlariga ishlov berib bo'lmasdi.

1991-1998 yillar O'zbekiston mustaqilligini himoya qilish va iqtisodiy barqarorlikka erishish davri deb belgilagan edik. Iqtisodiy barqarorlikka erishish maqsadi strategik nuqti nazardan avvalambor asosiy ishlab chiqarish tarmoqlarida (qishloq xo'jaligi va sanoatda) ishlab chiqarish hajmlarining keskin qisqarishiga, taqsimot logistikasini uzilishiga yo'l qo'ymaslikda edi. O'zbekiston jamiyati va iqtisodiyotida, Osiyo mamlakatlarining ko'pchiligida bo'lgani kabi, qishloq xo'jaligining o'rni katta bo'lgan. 1990-yillar boshida ishlab chiqarish munosabatlari eski sovet tizimi inersiyasi bilan davom etar edi. Tabiiyki, qishloqda umumiy aholining aksariyati (61 %dan ortig'i)<sup>63</sup> yashab, qishloq xo'jaligida umumiy mehnat resurslarining 41 %dan ortiq qismi band edi<sup>64</sup>. Ammo dastlabki mustaqillik yillari davomida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni sotish borasida katta o'zgarishlar yuz berdi:

- asosan paxta va bug'doy yetishtirishga mo'ljallangan xo'jaliklar (o'sha vaqtlarda O'zbekiston iqtisodiy potensialining 40% paxtachilik, paxtachilik mashinasozligi va paxta mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq edi<sup>65</sup>) davlat tomonidan beriladigan investitsiyalar va moddiy-texnika yordami hajmi keskin kamayib borayotgan sharoitda o'z iqtisodiy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini

---

<sup>63</sup> О демографических процессах в Узбекистане

<sup>64</sup> Узбекистан Занятость в сельском хозяйстве - данные, диаграмма | TheGlobalEconomy.com

<sup>65</sup> Ахмедов Д.К. "Эффективность функционирования хлопководства Узбекистана". Автореферат диссертации на соискание ученой степени д.э.н., Т.- 1994 г. <https://economy-lib.com/disser/527820/> 4-б.

yo'qota boshladilar;

- yirik ishlab chiqarish birliklari bo'lgan kolxozlar va sovxozlar yo'q bo'lib, ularning yerlari mayda fermer va dehqon xo'jaliklariga bo'lib berilgan edi, faqatgina o'z oila a'zolari va qarindoshlari kuchiga tayangan fermerlar bunday katta yer maydonlarini davlatning avvalgi hajmlardagi moddiy-texnika yordamisiz bu yer maydonlarini samarali qayta ishlay olmas edilar. Davlatning imkoniyatlari cheklanib borayotgan, mashina-traktor stansiyalaridagi mavjud texnika borgan sari yemirilib borayotgan<sup>66</sup>, ko'pchilik xo'jaliklarda texnika va qo'shimcha ish kuchini yollashga moddiy imkoniyatlar yo'q edi;

- paxtachilik va bug'doychilik eng ko'p qo'l mehnatini talab qiluvchi sohalar bo'lgani uchun tegishli xo'jaliklarda yetarli daromad topa olmagan ishchilar shaharlarga va boshqa yurtlarga ko'cha boshladilar (mavsumiy yoki doimiy migrantlar sifatida).


Natijada 1990-yilda qayta ishlanadigan yerlarning 43,6 foizini paxta, 23,9 foizini bug'doy maydonlari egallagan bo'lsa, 2004-yilga kelib bu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 38,2<sup>67</sup> va 35,3<sup>68</sup> foizlarni tashkil etdi. Katta mehnat hajmini talab qiladigan paxta maydonlarining kamayishi qishloq aholisining shaharlarga, boshqa yurtlarga ko'chishi ortidan qishloq aholisi kamayib, shahar aholisi orta boshladi (doimiy ro'yxatdan o'tish (propiska) rejimi bo'lishiga qaramay, bu tendensiya sekin, lekin barqaror bo'ldi). 2011-2012 yillarga kelib qishloq aholisining tabiiy o'sish hajmi shaharlarga va boshqa yurtlarga ko'chib o'tayotgan aholi soni hajmi bilan deyarli tenglashdi. Shu tufayli qariyb 13 yilki, qishloq va shahar aholisi o'rtasidagi nisbat deyarli o'zgarishsiz qolib kelmoqda (qar. 1-grafika).

---

<sup>66</sup> Дашковский И.: Станции тяжелых времен. Журнал «Агротехника и технологии». 16.12.2009 г.

<sup>67</sup> Под ред. Хикматова А.Х.: Узбекистан: 10 лет по пути формирования рыночной экономики. ИЭ АН Узбекистана, Т.-2001, 5-стр. <https://cyberleninka.ru/article/n/2005-01-015-uzbekistan-desyat-let-po-puti-formirovaniya-rynochnoy-ekonomiki-an-resp-uzbekistan-in-t-ekonomiki-pod-red-hikmatova-a-h-tashkent/viewer>

<sup>68</sup> Bug'doy ekiladigan maydonlar ulushining o'sishi umumiy ishlov beriladigan maydonlar qisqarishi va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash siyosati ostida bog'lar o'rniga bug'doq maydonlari xajmining keskin oshishi bilan bog'liq



2011-yildan so'ng qishloq va shahar aholisi o'rtasidagi nisbat 49-50 %ni tashkil qilmoqda. Qishloqda 3 mln. uy xo'jaliklariga tomorqa yerlari tarqatilib berilgan edi<sup>69</sup>. Tabiiyki, qishloq aholisi birinchi e'tiborni o'z tomorqasiga qaratadi, chunki tomorqa xo'jaliklari ustidan ma'muriy nazorat yo'q edi. Oxirgisi faqatgina paxtachilik va bug'doychilik uchun ajratilgan yer maydonlari, ya'ni qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlari) va fermer xo'jaliklari ustidan o'rnatilgan edi. Qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish huquqi, yerni qayta ishlash uchun moddiy-texnika xizmatlar bilan birga bozor munosabatlari elementiga aylanishi o'z davri sharoitiga nisbatan juda katta ilgari qo'yilgan qadam bo'lishiga qaramay, qabul qilingan boshqaruv modelining<sup>70</sup> bir necha ichki ziddiyatlari bor edi. Eng avvalo, yerni ijaraga kimga, qanday mahsulotlarni davlatga yetkazib berish evaziga, davlatga tegishli bo'lgan resurslarni tuman miqyosida taqsimlash huquqi tuman halq deputatlari sovetiga yoki ularning topshirig'i bo'yicha – ijroiya qo'mitalariga topshirilgan. 1992-yilda Konstitutsion islohotlar doirasida tuman, shahar,

<sup>69</sup> Под ред. Хикматова А.Х.: Узбекистан: 10 лет по пути формирования рыночной экономики. ИЭ АН Узбекистана, Т.-2001, 4-стр.

<sup>70</sup> Qarang: <https://lex.uz/docs/233867?ONDATE=30.04.2021>

viloyatlarda ijroiya qo‘mitalari hokimliklar instituti bilan almashtirgandan so‘ng, bu masalalar butunlay hokimlar ixtiyoriga o‘tdi. Xo‘jalik faoliyati ustidan jamiyat va partiya nazorati yo‘q bo‘lgani sabab yangi yakkahokimlik yuzaga keldi va tezda mustahkamlandi. Mutafakkir Ibn Xaldun ta’kidlaganidek, “Hokimiyat kimningdir yakka vakolatiga aylanishi bilan u ahillik qanotlarini qirqadi va ahil ustiga arg‘in tashlaydi va barcha boyliklarni o‘ziga o‘tkazadi”<sup>71</sup>. Aynan shu yakkahokimlik O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlanishida Osiyocha ishlab chiqarish usulining vujudga kelishida asosiy rol o‘ynadi<sup>72</sup>.

Avvaliga texnik-tashkiliy va iqtisodiy asoslarga ega bo‘lgan hokimiyat va fermer, ya’ni davlat va qishloq xo‘jaligi tadbirkori munosabatlari asta-sekin moddiy-iqtisodiy hamkorlik munosabatlariga aylandi. Bunday hollar ketidan tez orada hokimlarni yer ajratish va moddiy texnika resurslarini taqsimlash ishlari samarasini baholashga bu ishlarda umuman kompetensiyasi bo‘lmagan prokuratura va milliy xavfsizlik strukturalari aralasha boshladi. 90-yillarning o‘rtalariga kelib davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda to‘laqonli bozor prinsiplariga asoslangan institutsional asoslar hali yuzaga kelmagani, umumiy moddiy yetishmovchilik bo‘lgani uchun ijtimoiy mahsulot va rag‘batlarni taqsimlash hokimlar va kuch ishlatar organlari vakillaridan tashkil topgan tor doiradagi insonlarning qo‘liga o‘tgan. Ibn Xaldun ta’kidlaganidek, jamiyatdagi ustunlikni ta’minlab turgan ahillik yo‘q bo‘lganidan so‘ng “davlat sohibiga boshqa yordamchi va himoyachilar kerak bo‘ladi. U ko‘p sonli o‘z himoyasiga o‘tganlarni hokimiyat ishlariga jalb qiladi, davlat ishlariga sal bo‘lsa-da nafi tekkanlarini yollaydi”<sup>73</sup>.

O‘zbekistonda Osiyo ishlab chiqarish usuli o‘ziga xos shaklda yuzaga kelib, keyinchalik Osiyocha (Xitoy, Hindiston va ko‘pgina Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi kabi) qishloqda taraqqiyotning rivojlanishiga to‘siq bo‘la boshladi. O‘zbekistonda sobiq Sovet davrida sug‘oriladigan yer maydonlarining

---

<sup>71</sup> Ibn Xaldun “Al-Muqaddima”, III-Bob, 13-bo‘lim: <https://coollib.cc/b/548063-ibn-haldun-vvedenie-al-mukaddima/read>

<sup>72</sup> Djo Stadvell: Osiyo boshqaruv modeli: dunyodagi eng o‘zgaruvchan xududning yutuq va hatoliklari. 12-bet.

<sup>73</sup> Ibn Xaldun “Al-Muqaddima”, III-Bob, 14-bo‘lim: <https://coollib.cc/b/548063-ibn-haldun-vvedenie-al-mukaddima/read>

ochilishi va ularga suv yetkazib berishda markazlashtirilgan davlatning roli katta bo'lgan. Professor T.Yu.Lesnikning aytishicha, 1924-yilda sobiq O'zbekiston SSR tuzilishi bilanoq Suv ishlari boshqarmasi tuzilgan va 1928-yilda "Yer va suv islohoti" haqidagi Dekret davlatning suv xo'jaligiga bo'lgan munosabatini uzil-kesil aniqlab bergan<sup>74</sup>. Aynan shu faktor intensiv qishloq xo'jaligini yuritish uchun katta mexanizatsiyalashgan kuchlardan foydalanish zarurati bilan birga, davlatning qishloq xo'jaligi iqtisodiy subyektlari faoliyatiga keng aralashishiga va mamlakatda Osiyocha ishlab chiqarish usuli shakllanishiga asos bo'ldi. Ishlab chiqarish vositalari butunlay davlat mulki bo'lib, u yerda individlar mehnatidan foydalanib, ularning mehnatiga ishchi kuchi imkoniyatlarini qayta tiklash uchun yetarli miqdordagina haq to'lanib, mehnat natijalari ham undagi ishchi kuchi qiymatidan birmuncha yuqori bo'lgan qo'shilgan qiymat bilan to'la miqdorda davlat tomonidan taqsimlanar va qayta taqsimlanar edi.

Davlat asosiy yerlarni o'zlashtirish, hosildorligini ta'minlash borasida asosiy ishlarni bajargani uchun barcha tegishli (tranzaksion) xarajatlar ana shu yer egasi (davlat) zimmasida bo'lgan. Lekin sotsializmdan o'tish davrida yerga egalik huquqi davlatda qolib, yerdan foydalanish huquqi xususiylashtirildi, ya'ni huquq transaksiyasi yuzaga keldi va uning oqibatida yerni saqlab va hosildorligini ta'minlash xarajatlari ulardan foydalanganlar zimmasiga o'tdi (bu tranzaksiya amalda bo'ldi, lekin huquqiy ma'noda aniq belgilanmadi). Empirik tajriba shuni ko'rsatadiki, har qanday iqtisodda bozor qatnashchilarining huquqlari, mas'uliyati aniq belgilangan bo'lmasa, davlat – xususiy tadbirkorlik (biznes) institutlari munosabatlari balansi buzilib, tranzaksion xarajatlar<sup>75</sup> ikkala tomon zimmasida qolib, ular keskin oshadi. R.Kouz (R.Coase) ta'kidlashicha "korxonalar ochishning foydali ekanining asosiy sababi shunda ko'rinadiki, baholar mexanizmini qo'llashning o'z xarajati bor". Tadbirkor har bir individ bilan alohida shartnoma munosabatlariga kirmay, bu munosabatlarni korxonalar doirasida standart holatga keltiradi, ishchilari, sotuvchilari, xaridorlari tomonidan ma'qullagan standart holatni

---

<sup>74</sup> T.Yu.Lesnik: <http://www.cawater-info.net/bk/improvement-irrigated-agriculture/files/nasrulin-et-al.pdf>, 51-bet

<sup>75</sup> Institutsonal iqtisodiyot nazariyasiga "tranzaksion xarajatlar" terminining kirib kelishi 1991-yil



qayta va qayta ishlatish hisobiga o'z xarajatlarini jiddiy kamaytiradi. Xarajatlarni minimallashtirish har bir tadbirkorning shartnomalarga institut sifatida qarashdan asosiy maqsadi. Tranzaksion xarajatlar yo shartnoma tuzgan tomonlarda ichki, integrativ xususiyat sifatida yuzaga kelishi, yoki uchinchi shaxsda (eksternal), masalan, davlat yoki jamiyatda yuzaga kelishi mumkin. Masalan, maishiy chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish xarajatlari asosan davlat zimmasida. Aholidan to'plangan mablag'lar qanchalik bu xarajatlarni samarali qoplashligi o'ta mavhum. Davlatning chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari va poligonlarni saqlash xarajatlari to'la qoplanmayotgan bo'lsa, bozor muvozanati buzilgan bo'ladi va tegishli transaksiya xarajatlari adolatli ravishda qoplanmasligi bu munosabatlarning tiklanmasligiga olib kelishi mumkin.

Tranzaksiya xarajatlari institutsional iqtisodiyot nazariyasida eng ko'p qo'llaniladigan iboralardan biri bo'lib, ba'zi iqtisodchilar ularni institutsional iqtisodiyotning bazaviy elementi<sup>76</sup> (fizikada atom kabi) deb ataydi. Yerdan foydalanish huquqini amalga oshirish chog'ida ham ichki va tashqi tranzaksion xarajatlar yuzaga keladi. Ichki (inklyuziv) tranzaksion xarajatlar deb huquq va mulk taqsimoti (tasarrufi)ga kirgan tomonlarning bevosita va bozor tan olgan xarajatlari deb tushunilsa, tashqi tranzaksion xarajatlar aynan shu mulk va huquq taqsimoti (tasarrufi) munosabatlariga kirmagan shaxslarning (davlat va jamiyat institutlari, boshqa individlar) xarajatlari tushuniladi.

Tranzaksion xarajatlarni aniqlash va ularning hisobini yuritish qishloq xo'jaligida katta ahamiyatga ega, chunki yerning oilaviy tadbirkorlikka asoslangan kichik va o'rta korxonalar faoliyati negizida qayta ishlanishi Djo Stadvell<sup>77</sup> ta'kidlaganidek, agrar iqtisodiyotga tayangan ko'pgina mamlakatlarda qishloq xo'jalikdagi iqtisodiy munosabatlarni qayta tuzishga olib kelishi mumkin edi. O'zbekistonda ham 1992-yildan boshlab dehqon va fermerlarga ajratib berilgan yerlarda oilaviy tadbirkorlik keng rivojlandi. Lekin bu oilalar zimmasiga yerdan

---

<sup>76</sup> John. R. Commons's Pricing Theory, 1924 y. 4-6er; "John R. Commons: His Assault on Laissez-Faire" by Lafayette G. Harter, Jr., 1962 y., 224-bet

<sup>77</sup> Djo Stadvell: "Osiyo boshqaruv modeli: dunyodagi eng harakatchan xududning yutuqlari va tanazzuli", 6-bet. <https://readli.net/chitat-online/?b=904129&pg=1>

foydalanish huquqi bilan birga bu yerni saqlash va samaradarligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan transaksion xarajatlarni yuklashning iqtisodiy va huquqiy imkoni yo'q edi. Bu muammo hozirgacha o'z yechimini topmagan va qishloq xo'jaligi samarasini oshirishga to'siq bo'lib qolmoqda.

Qishloqda yerdan foydalanish huquqi qo'shimcha foyda olishning manbaiga aylanishi va bu aktiv foyda keltirish negizi sifatida investitsiyalarni jalb qilishga asos bo'lishi mumkin edi. Lekin haddan tashqari markazlashgan hokimiyat O'zbekiston qishloq xo'jaligida Osiyochoa ishlab chiqarish usulining elementlari o'rnatilishiga olib kelib, investitsiyalar kiritish imkoniyatlarini chegaraladi. Hattoki 2017-2023 yillar davomida qishloq xo'jaligining hajmi 2,7 barobar o'sgan bo'lsa-da (91 trln so'mdan 245,2 trln so'mgacha), uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 28,7 %dan 23,0 %gacha tushib bordi<sup>78</sup>. Iqtisodiyotning asosiy drayveri bo'lishiga barcha potentsiali bo'lgan soha o'z mavqeini yildan yilga yo'qota boshladi. 2017-2022 yillar davomida qishloq xo'jaligiga jalb qilingan umumiy investitsiyalar miqdori (barcha yo'nalishlar bo'yicha) atigi 77,6 trln so'mni tashkil etdi<sup>79</sup>. Qishloq xo'jaligi sohasidagi tanazzul u bilan bevosita bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohalariga (tekstil, organik kimyo, oziq-ovqat sanoati, kon-teri qayta ishlash, go'sht va sut mahsulotlarini qayta ishlash va hokazo) investitsiyalar kelishini keskin chegaraladi, chunki:

- asosiy ishlab chiqarish vositasi - yer davlat tasarrufida qolib, undan foydalanish huquqi vaqtincha va aniq bo'lmagan shartlar asosida ishlab chiqaruvchilarga berilar edi;

- ishlab chiqaruvchilar yerni saqlash va sifatini oshirish uchun ketgan xarajatlarini to'la hisoblab, uni isbotlab, bu xarajatlarini yer egalariга kompensatsiya qilish uchun davlat institutlariga ko'rsatib bera olmas edilar, - transaksion xarajatlarni aniqlash, ularni hisobini yuritish atrofida bozor munosabatlari yuzaga kelmagan edi. Yerga ijara haqqi pul qiymatida o'rnatilgan bo'lmasada (ijara haqqi yo'q edi, yerdan dehqonlar "tekin"ga foydalanar edi), dehqonlar bilan hosil bo'yicha

---

<sup>78</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>

<sup>79</sup> <http://interfinance.tfi.uz/wp-content/uploads/2023/11/Kuchkarov-Fayzullo-Abdujabborovich.pdf>

to'lovlar qisman natural ayirboshlash orqali amalga oshiriladi. Dehqonga moddiy-texnika xizmatlari, o'g'itlar va ma'lum miqdorda pul kredit resurslari bo'lajak hosilning umumiy pul hajmidan kelib chiqib, uning 50% miqdorigacha avvaldan ajratilib, bahor va yoz oylarida beriladi. Ammo katta inflyatsiya ortidan qishloq xo'jaligida ishlatiladigan yoqilg'i-moy, kimyoviy vositalar va o'g'itlarning narxi birdaniga hosil bo'lgan katta talab tufayli yil davomida uzluksiz ortib boradi. Shu bilan birga qishloq xo'jalik mahsulotlariga yil davomida davlat xarid narxlari bir marotaba belgilanar va juda kam hollarda qayta ko'rib chiqiladi. Oqibatda ana shu 50% deb belgilangan tovar-moddiy boyliklar qiymati kuzga borib hosil qiymatining aksariyatini tashkil etardi, hosilning katta qismi avans tarzida olingan va hosil yetishtirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika, o'g'it va yoqilg'i resurslari qiymatini qoplash uchun davlat tashkilotlariga (zagotpunktlarga) natural tarzda beriladi;

- asosiy ishlab chiqarish vositasi markaziy hokimiyat vakili tomonidan turli asosli/asossiz, muhimi obyektiv o'lcham va mezonlarga ega bo'lmagan sabablar bilan har qanday vaqtda tortib olinishi mumkin edi;

- yerni sifatini saqlash, unga minimal miqdorlarda bo'lsa-da agrotexnika qoidalari bilan ishlov berish uchun dehqon/fermer to'liq davlat taqsimotida bo'lgan agrokimyo va mashina-traktor korxonalarini bilan muloqotga kirishi evaziga moddiy haq taklif qilishi kerak edi;

- dehqonlar qishloq xo'jalik mahsulotlariga narxlar belgilashdagi xatolar, hamda shahar va qishloq mahsulotlari o'rtasidagi narxlar qaychilari tufayli yerni tashlab ketish imkoniyatlari chegaralangan edi, chunki yer nafaqat ishlab chiqarish vositasi, balki hayot tarzi, an'anaviy makon ham edi.

a) yerga ishlov berishda dehqon/fermer birinchi navbatda oila a'zolari va yaqin qarindosh, qo'shnilari mehnatidan foydalanar edi. Yerga va mehnat natijalariga to'la ega bo'lmagan fermer/dehqon mashina va mexanizmlarni qo'llashda chegaralangan imkoniyatlarga ega edi. Dehqonlar bu natural ayirboshlash girdobidan mustaqil chiqib keta olmasdilar, yerga xuddi feodalga bog'langan kabi bog'lanib qolgan edilar. Yer faqatgina davlat uchun kerakli bo'lgan mahsulot

(asosan paxta, bug‘doy, sholi, chorva) yetishtirib berish shartlari bilan berilar edi. Agar xo‘jalik davlat buyurtmasidan ma‘lum bir sabablar tufayli bosh tortsa (rentabelligi yo‘qligi, yerga ishlab berishga iqtisodiy, jismoniy imkoniyati yo‘qligi sababli), undan yer tortib olinardi. Ko‘pgina qishloq aholisi va oilalari uchun yer nafaqat davlat buyurtmasini bajarib daromad topish, balki o‘z birlamchi turmush ehtiyojlarini qondirish uchun yagona daromad manbai edi. Ba‘zi fermerlar o‘z shaxsiy mulklarini garovga qo‘yib bo‘lsa-da davlat buyurtmasini bajarishga harakat qilar edilar. Kelgusi yil hosilidan umid qilish qarzga botgan fermerlar uchun yerni saqlab qolishning yagona imkoniyati edi.

Yuqorida ko‘rsatilgan barcha faktorlar jamlanmasi Osiyocha ishlab chiqarish usuli negizida yerdan foydalanishdagi neofeodal munosabatlar yuzaga kelishiga va o‘z-o‘zini takroran har bir ishlab chiqarish siklida tiklashiga asos bo‘ldi. Yerga bo‘lgan huquq munosabatlarining rudimentar holda qolib ketishi, hokimlar almashganda fermerlar bilan bo‘lgan barcha shartnomalarning mohiyati qayta ko‘rib chiqish amaliyotlari yer sifatini saqlash va oshirish bilan bog‘liq ishlarni samarasi pastligiga olib keldi. Mulkchilik shaklidagi mavhumlik bu sohada keskin to‘siq bo‘la boshladi. Davlat yakkahokimligi qishloq xo‘jalik korxonalarini bilan bo‘lgan shartnomalar har bir ma‘muriy o‘zgarish sharoitida qayta-qayta ko‘rib chiqilishiga sharoit yaratib berar edi (hokim o‘zgarishi asosiy sabab).

Xulosa qilib aytganda, yerdan foydalanuvchi na yerdan qanday foydalanish (maqsad), na yerdan foydalanish jarayonini tashkil etish, na qo‘shimcha ishlab chiqarish vositalarini jalb qilish, na yetishtirilgan mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlashda erkin edi. Dehqon/fermer asosiy ishlab chiqarish vositasi - yerga qaram bo‘lib, yerning qiymatini yuzaga chiqaruvchi ishlab chiqarish kuchiga - qo‘shimcha va zarur “o‘simtasi”ga aylangan edi. Qilgan mehnatining asosiy natijasi davlatga sotilgan yuqori likvidlik tovardan bir qismi o‘z ixtiyorida qolib, bunday tovarlar egallamagan yerlarda bozor va tirikchiligi uchun yetishtirilgan mahsulotda edi. Shu alfozda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida o‘ziga xos Osiyo ishlab chiqarish usuli vujudga kelib, uning tom mohiyati na feodalizm, na kapitalizmning klassik tushunchalariga mos kelmas edi: yer egasi feodal yo‘q, uning o‘rniga davlat, lekin

yerdan foydalanuvchi yer egasi - hususiy mulkdor ham emas va bu holat yerdan foydalanish jarayoni davlatning cheksiz aralashuviga sharoit yaratdi va yerni qayta ishlash mahsuliga egalik huquqini ham mavhum kategoriyaga aylantirdi. Yerdan foydalanish tufayli ustama qo‘shimcha qiymat fermer tomonidan yaratilayapti, lekin u kollektiv mulkdor – davlat tomonidan asosan o‘zlashtirilayapti.

Djo Stadvell aytganidek, “Intensiv kichik ko‘lamli qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash sanoatiga kapital jalb qilish uchun moliya sohasiga murojaat (intervensiya) qilish, jadal iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning uchinchi kalitini o‘zida ifoda etadi”<sup>80</sup>, ya’ni qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar u bilan bog‘liq bo‘lgan tutushgan sohalarga ham bevosita unumli ta’sir qilib, iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida yangi imkoniyatlar yaratgan bo‘lar edi. “Bu ma’noda davlatning roli taraqqiyot strategiyasi maqsadlariga imkoniyatlarni monand qilib borishda, bu o‘z navbatida texnologik bilimlarni singdirishni tezlatadi va individual iste’mol, qisqa muddatli foyda emas, kelajakda kattaroq foydaga erishishga sharoit yaratadi. Bunday choralar odatda hukumat bilan strategik gorizonti cheklangan ko‘pgina biznesmenlar va iste’molchilar o‘rtasida qarama-qarshiliklarga olib keladi”<sup>81</sup>.

Qishloq xo‘jaligida mulkdorlar sinfi yuzaga kelmasligi shaharlarda xususiylashtirish dasturlari natijalari tufayli yangi toifadagi mulk egalari vujudga kelishi orqali nivelirlashtirilgan bo‘lishi mumkin edi. Ammo davlat mulkini xususiylashtirishning O‘zbekistonda tanlangan modeli bu vazifani shaharlarda bajarishga to‘la imkoniyat bermadi. 1990-yil oxirida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida qonuni” xususiy mulkchilikning asosiy prinsiplarini birinchi marta belgilab berdi. Bir yildan so‘ng “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”<sup>82</sup> qonun qabul qilinib, u O‘zbekiston hududida “mulkni o‘zgartirishning tashkiliy-huquqiy yalpi asoslarini belgilab”

---

<sup>80</sup> Djo Stadvell: “Osiyo boshqaruv modeli: dunyodagi eng harakatchan xududning yutuqlari va tanazzuli”, 9-bet. <https://readli.net/chitat-online/?b=904129&pg=1>

<sup>81</sup> Джо Стадвелл: “Азиатская модель управления: Удачи и провалы самого динамичного региона в мире”: 12-бет. <https://books.google.co.uz/books?id=V3jJDQAAQBAJ&pg=PT7&lpg=PT7&dq#v=onepage&q&f=false>

<sup>82</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/acts/127010>

berdi, Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish qo‘mitasi tuzildi<sup>83</sup>. Qanday mulk turi xususiylashtirmasligi (manfiy ro‘yxat) va qaysi davlat tashkiloti xususiylashtirish ishlari bilan shug‘ullanishi belgilab berildi. Lekin xususiylashtirish tartibi, ya’ni xususiylashtiriladigan obyektlar ro‘yxatini tasdiqlash tartibi, davlat mulkini turli potensial xaridorlarga sotish mezonlari, mulkni baholash, sotib olgan mulk bo‘yicha davlat bilan hisoblashish kabi o‘ta muhim masalalar qonuniy hujjatlar bilan o‘rnatilmadi.

1994-yil 21-yanvarda qabul qilingan PF-745 Prezident Farmonida<sup>84</sup> ham davlat korxonalarini xususiylashtirishning asosiy mexanizmi sifatida ularni ochiq aksionerlik jamiyatlariga aylantirish, deb ta’kidlanib, aksionerlik kapital miqdori va aksiyalar narxini belgilash, ularning bozordagi kotirovkalarini aniqlash tartiblari e’tibordan chetda qoldi. 1994-yil may oyida sobiq Davlat mulk Qumitasi tomonidan “Davlat mulki obyektlarini auksion va konkurslar orqali xususiylashtirishning vaqtincha tartibi” qabul qilindi (17.05.1994y. Adliya vazirligi ro‘yxatidan o‘tgan) va O‘zbekistonda butun xususiylashtirish jarayoni aynan shu “Vaqtincha tartib” asosida amalga oshirildi. Bu holning asosiy sababi shunda ediki, davlat rahbari tomonidan xususiylashtirish jarayonlarini tezlashtirish orqali yangi tadbirkorlar sinfini yaratish asosiy imperativ deb belgilangan bo‘lsa-da, ijrochilar uchun ma’lum ma’noda manevrlar uchun joy qolishi kerak edi, ya’ni amaliyotda haridorgir davlat mulkini qachon va qaysi shartlarda xususiylashtirish davlatning ijroiya organi tasarrufida qolgan edi.

Davlatning siyosiy rahbariyati uchun xususiylashtirishdan obyektiv maqsad - sifat jihatdan yangi xususi mulk egalari sinfini tashkil etish edi, va bu imperativ yuqorida aytilgan “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonun matnida aniq ko‘rsatilgan edi.

Xususiylashtirish shaharlarda asosan to‘rt bosqich va yo‘nalishda o‘tdi:

1) davlat va davlat korxonalarini balansida bo‘lgan uy-joyni ommaviy va bepul

---

<sup>83</sup> “O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish komiteti (Davlat Mulki komiteti)ni tashkil etish to‘g‘risida” Prezident farmoni. 1992-yil 10-fevral PF-337-son.

<sup>84</sup> “Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, xususi mulkni himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish choralari haqida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 21.01.1994 g. PF-745

xususiylashtirish (1992-1994 yillar);

2) turli avvalgi sovet vazirliklari va davlat qo‘mitalari, davlat ishlab chiqarish assotsiatsiyalari qoshida bo‘lgan savdo va xizmat ko‘rsatish, kichik va o‘rta mashinasozlik, metallga ishlov berish, transport va aloqa tarmoqlari korxonalarini ommaviy xususiylashtirish (1993-yildan keyingi yillar);

3) turli yirik va o‘rta korxonalarni mulk kompleksi qilib mahalliy va xorijiy investorlarga sotish (doimiy);

4) yirik davlat korxonalarini hissadorlik jamiyatlariga aylantirish va ularning aksiyalarini 4 xil paketga bo‘lib (davlat qismi, kollektiv va xorijiy investorlarga mo‘ljallangan qism va ochiq bozorda sotish uchun mo‘ljallangan qismlarga deyarli teng bo‘lib), ochiq bozorda xorijiy investorlar va ochiq bozor ulushlarini sotish (1995-yildan boshlab kollektiv ma‘lum muddatda sotib olmagan ulush ham ochiq bozorga sotiladigan bo‘ldi). Bu jarayon hozirgacha sekinlik bilan davom etmoqda.

Bu talablar qonun asosida emas, balki “Vaqtincha Nizom”<sup>85</sup> asosida belgilangan bo‘lib, Nizomni buzganlik uchun qonunchilikda belgilangan aniq jazo yo‘q edi. Aksiyalar paketining bunday sun‘iy taqsimlanishining o‘zi katta bir savollar tug‘dirar edi, chunki ko‘p hollarda kollektivning aksiyalarni sotib olishga na imkoniyati, na xohishi bo‘lmas edi. Chet el investorlari esa mamlakat iqtisodiyotidan bexabar, valyuta ayirboshlash cheklangan sharoitda (milliy valyutada olingan daromadni erkin konvertatsiya qilish imkoniyati yo‘qligida) turli aktivlarga investitsiya qilish mumkinligini hayoliga ham keltirmas edi.

Ammo bozorda biron bir likvid aktiv chiqib qolsa, turli yo‘llar bilan korxonalar aksiyalarining katta qismi bozordagi chayqovchilar qo‘liga tushib, ulardan asl investorlar (aktiv egalari) qo‘liga “o‘rtakashlik rolini ijro etgan” turli rasmiy va norasmiy funksionerlar faoliyati tufayli katta ustama xarajatlar bilan o‘tar edi. Katta talabga ega bo‘lgan korxonalar aksiyalarining “xorijiy investorlar” va “kollektiv ulushi” uchun mo‘ljallangan qismi ham turi bozor spekulantlari qo‘lida

---

<sup>85</sup> Временное Положение о приватизации объектов государственной собственности на аукционе и по конкурсу. Зарегистрировано Министерством юстиции Республики Узбекистан от 17 мая 1994 г. Регистрационный № 54

bo‘lar edi. Qonunchilikda bunday ichki va muhim hollar umuman ko‘rilmagan va xususiylashtirish tartibi va muammolarni yechish mexanizmlari belgilanmagan edi. Barcha jarayon Davlat mulki qo‘mitasi xodimlarining malakasi va shaxsiy manfaatiga bog‘liq bo‘lib qolgan edi.

Xususiylashtirish amallari o‘zini oqlamagan shoshma-shosharlik bilan yuritilar edi. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, yuqori davlat boshqaruv organlarida bunday shoshma-shosharlik tagida siyosiy maqsadlar turgan bo‘lsa, quyi bo‘g‘inlarda xususiy manfaatlar, ya’ni davlat aktivlarini bozorda sotish jarayonini nazorat qilish ortidan boylik orttirishga intilish istagi turar edi. Sobiq Davlat mulk qo‘mitasi yillik, oylik, haftalik “xususiylashtirish” rejalarini tuzar edi, bu rejalarda “xususiylashtirildi” degan yuridik ma’no aslida “bu haqida davlat boshqaruv organining tegishli buyrug‘i chiqdi va aksiyalarning emissiyasiga sobiq Moliya vazirligining ruxsati olindi” degan ma’noni berar edi.

Xususiylashtirish jarayonida institutsional kamchiliklar uzoq vaqtgacha davlatning bu sohada olib borilayotgan ishlarning ustidan professional nazorat bo‘lmagani uchun ham yuzaga kelgan edi. Bir qaraganda, 1995-yilga kelib qimmatli qog‘ozlar bozorida barcha bozor infrastrukturasining institutsional asoslari mavjud edi, jumladan:

- savdoni amalga oshirish maydonchasi – Toshkent fond birjasi;
- aksiyalarni fizik yoki elektron holda saqlaydigan va ularga mulk huquqini tasdiqlaydigan sobiq “Vaqt” Milliy depozitariysi;
- sotuvchi va xaridorlar manfaatini ifoda etuvchi 20 tadan ortiq brokerlik kontoralari;
- katta aksiya paketlarini o‘zida mujassamlashtira olgan va yetarli kapitalga ega bo‘lgan sobiq “Milliy investitsiya fondi”;
- aksionerlik jamiyatlari tomonidan emissiya qilingan aksiyalarni hisobga oladigan va mulk huquqlari haqida dalolatnoma beridagigan aksiya egalari reyestrini yurituvchi kompaniyalar 10 dan ortiq sonda mavjud edi.

Lekin shuncha bozor ishtirokchilari faoliyati xususiy investorlar tomonidan nazorat qilinib, ular yagona affillangan guruhlariga tegishli edi. Boz ustiga ularning



xizmat ko'rsatish standartlarini belgilovchi va bu standartlarni amal qilinishi ustidan nazorat olib boruvchi davlat nazorat instituti bo'lmagan. Bu fundamental muammolarga 1996-yilning 25-aprelida 218-I sonli "Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatining mexanizmi haqida"<sup>86</sup> O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingani va ushbu qonunni amalda ijrosini ta'minlash uchun sobiq Davlat mulk qo'mitasi qoshida Qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarish va amaliyoti ustidan nazorat qilish Markazi tuzilmaguniga qadar<sup>87</sup> umuman e'tibor ham berilmagan edi.

Katta va o'rta korxonalarni ochiq savdolarga tayyorlashda ularning dastlabki bozorga taklif etish narxini aniqlashda (belgilashda) ham jiddiy muammalar bor edi. Bu muammolar hatto tegishli Qonun qabul qilinishi<sup>88</sup>, uning asoslari amaliyotda qo'llanilishi natijasida ham to'la hal bo'lmadi. Ko'p hollarda korxonalarining balansida turli ijtimoiy obyektlar (maktabgacha tarbiya muassasalari, energetika, suv va gaz ta'minoti obyektlari, va hokazo) bo'lib, ularning xususiylashtirish jarayonidagi taqdiri haqida hech qanday qarorlar qabul qilinmas edi. Mahalliy hokimiyat vakillarining esa bu obyektlarni hokimiyat balansiga olish va saqlash imkoniyatlari yoki vakolati bo'lmas edi.

Yana bir katta muammolardan biri – xususiylashtirilgan korxonalar va turli davlat, kvazi-davlat boshqaruv organlari (vazirlik, ishlab chiqarish konserni, xolding, assotsiatsiyalar) bilan munosabatlari aniqlanmagan edi. Ko'pgina hollarda ana shu davlat va kvazi-davlat organlari xuddi yuqori turgan davlat tashkilotidek bu korxonalarining kadr siyosatidan tortib, mahsulot ishlab chiqarish va sotish sohalariga ma'muriy tarzda aralashar edilar. Davlatning regulyativ roli turli tarmoqlarda vazirliklar o'rniga tuzilgan konsernlar, assotsiatsiyalar va birlashmalar ihtiyoriga butunlay tashlab qo'yilgan edi. Natijada texnik norma va normativlar, loyiha va boshqa injener-texnik, texnologik talablarga roiya qilish ustidan nazorat borasidagi muhim davlat vazifasi ko'p hollarda bajarilmay qolayotgan edi.

Qonun asosida xususiylashtirish normalari aniq belgilanmagani, bozor

---

<sup>86</sup> [https://nrm.uz/contentf?doc=290480\\_zakon\\_respubliki\\_uzbekistan\\_ot\\_25\\_04\\_1996\\_g\\_n\\_218-i\\_o\\_mehaniz-me\\_funkcionirovaniya\\_rynka\\_cennyh\\_bumag&products=1\\_vse\\_zakonodatelstvo\\_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=290480_zakon_respubliki_uzbekistan_ot_25_04_1996_g_n_218-i_o_mehaniz-me_funkcionirovaniya_rynka_cennyh_bumag&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)

<sup>87</sup> Muallif ana shu Markaz faoliyatini muntazam 4-yil davomida boshqarib kelgan.

<sup>88</sup> O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida" Qonuni 19.08.1999 y., №811-I

ishtirokchilarining mas'uliyati va huquqlari ko'rsatilmagani, aksiyalar paketi taqsimotini amal qilmaganlik uchun javobgarlik bo'lmagani tufayli ba'zan davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarining aksiyalari erkin bozorlarda sotilib, tegishli bozorlarda o'yin qoidalarini belgilaydigan tadbirkorlar va boshqa turli tipajlar qo'lga o'tib qoldi. 1997-yilda boshida sobiq Davlat mulk qo'mitasi qoshida Qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarish va amaliyoti ustidan nazorat qilish Markazi xususiylashtirilgan korxonalar aksiya paketlarini sotish amaliyoti ustidan o'tkazilgan tekshirishlar natijasida sobiq "O'zdonmahsulot", "O'zbeksavdo", "O'zbekbirlashuv", "Paxtasanoattozalash", "Yog'moytamakisavdo" va boshqa likvid aktivlar yoki daromadli faoliyat turiga ega bo'lgan birqancha davlat birlashmalari (jumladan, turli vino va aroq ishlab chiqarish) korxonalarining xususiylashtirish natijalari qayta ko'rib chiqildi. Qayta ko'rish natijasida xususiylashtirish natijalarini bekor qilish, aktivlarni qayta milliylashtirish jarayonlariga birinchi marotaba yo'l ochib berildi va bu amaliyot keyingi yillarda muntazam takrorlandi.

Izlanishimiz natijasida aniqlangan va urg'u berilgan jiddiy kamchiliklar O'zbekistonda xususiylashtirish o'zining tarixiy missiyasini bajarmagani, jarayonining samarasi past bo'lgani, jamiyat rivojlanishi yo'lida davlat kapitalini turli mayda ishlab chiqariuvchilar o'rtasida qayta taqsimlash, dastlabki kapital yaratish uchun yetarli turtki bo'lmagani va kelajakda jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishi vektorini aniqlab bermagani haqida xulosa chiqarishga asos bo'la oladi. Xususiylashtirish jarayoni o'z oldiga qo'yilgan katta missiyani bajara olmadi, ya'ni yangi sifatlarga ega bo'lgan haqiqiy mulk egalari sinfi yuzaga kelmadi, jamiyatning absolut aksariyatiga boshlang'ich kapital sifatida davlat aktivlari nasib qilmadi.

Xususiylashtirish natijasida umid qilingan davlat va biznes o'rtasida institutsional hamkorlik, o'zaro muloqot asoslari yaratilmadi. Davlat boshqaruv va xo'jalik institutlari o'z orbitasi doirasida, yangi tuzilgan biznes vakillari o'z aylanuv doirasida, lekin tortishuv markazlari asosida tuzilgan institutlarga birlashmagan holda aylanishda davom ettilar. Mustaqillik boshida tadbirkorlarning tashabbusi bilan tuzilgan sobiq "Tadbirkorlar Ittifoqi" asta-sekin davlat tashabbusi bilan

tuzilgan sobiq Savdo-sanoat palatasiga aylantirildi. Tadbirkorlarga yordam berish uchun tuzilgan turli ishlab chiqarish assotsiatsiyalari, hissadorlik jamiyatlari davlat va xususiylashtirilgan korxonalarining ma'muriy majmuasiga aylanib, mohiyatan xolding bo'lgan markazlashtirilgan kvazi davlat boshqaruv tuzilmalariga, eng muhimi bozor talablari, raqobat emas, balki avvalgidek ma'muriy tazyiq asosida ish yurituvchi birlashmalarga aylandilar. Jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabat va muloqotlarda balanslashtiruvchi kuch sifatida yangi biznes elitasi, uni ifoda etgan tashkiliy institutlar yuzaga kelmadi.

2000-yillarga kelib ayon bo'ldiki, xususiylashtirish davlat aktivlarini tarqatish, sotish evaziga raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratish emas, davlat hokimiyati qo'lida bo'lgan va noshaffof tarzda dastlabki kapitalga ega bo'lgan turli shaxslarga iqtisodiyot ustidan nazorat o'rnatishga ilk asoslarni yaratib berdi. Bu holat kelajakda katta ijtimoiy adolatsizliklarga, kambag'alchilikning ko'lami kengayishiga, jamiyatda tenglik asoslarining nurashiga sabab bo'ldi. Davlat aktivlarini qo'lga kiritgan nomenklatura turli tarif va notarif boshqaruv usullari asosida davlat hokimiyatidan foydalanib, iqtisodiy faoliyat natijalarini taqsimlash va qayta taqsimlash imkoniyatini qo'lga kiritdi. Litsenziya berish, sertifikatsiyalash, ta'qiqlash, kvotalar o'rnatish, baho belgilash, cheklash mexanizmlarini joriy etish, turli defitsit bo'lgan moddiy resurslarni taqsimlash kabi amallar davlat xodimiga (chinovnikka) deyarli cheksiz imkoniyatlar yaratdi.

Qishloqda va shaharlarda asosiy ishlab chiqarish vositalariga yangi egalar paydo bo'lmagani, mulkdorlar sinfi paydo bo'lmagani, mulkiy munosabatlar bozor me'yorlari asosida qayta o'rnatilmagani jamiyatda paternalistik qarashlar kuchliligi, ishlab chiqarish kuchlarining iqtisodiy, ijtimoiy imkoniyatlari, malakasi, qadriyatlari o'zini-o'zi boshqarish imperativi darajasiga yetib kelmagani haqida eng kuchli signal edi, va bu yillar o'tib iqtisodiyotni boshqarishda davlat rolining yanada kuchayib borishiga asos tug'dirib berdi.

### **1.3 Davlat boshqaruvi metodologiyasidagi o‘zgarishlar, yangi davlat byurokrtiyasining institutsional evolyutsiyasi**

1991-1995 yillarda O‘zbekistonning strategik taraqqiyot maqsadlari qanchalik mantiqan to‘g‘ri va sifat jihatdan yangi iqtisodiy boshqaruv modelini tuzishga qaratilgan bo‘lmasin, iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyoti o‘z yo‘lagi bilan borayotgan edi. Bu yo‘lak – jamiyatning asosiy qismi ovoz bergan davlat paternalizmi metodologiyasiga asoslangan kuchli markazlashtirilgan boshqaruvning “yakka so‘qoqli yo‘lidan” tashkil topgan edi. Mamlakatning bozor munosabatlariga o‘tish, ichki va tashqi siyosatni shakllantirish prinsiplari, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy ustuvorliklari va yo‘nalishlari dastlab O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari bo‘lgan IX sessiyasida Prezident I.Karimov tomonidan e‘lon qilinib, keyinchalik rasmiy narrativga aylandi<sup>89</sup>. Islohotlarning asosiy yo‘nalishlari davlat rahbarining dastlabki fikrlarida inklyuziv taraqqiyot modeliga tayangan edi. O‘zbekiston davlatchiligi tarixining asosiy saboqlarini, islom madaniyatining jamiyat tarixi va rivojlanishiga ta’sirini inobatga olish, mamlakatning geosiyosiy holatidan kelib chiqib iqtisodiy aloqalarni qurish, evolutsion taraqqiyot yo‘lidan borish, milliy qadriyatlarga asoslangan holda ijtimoiy taraqqiyot modelini rivojlantirish, soni tezlik bilan o‘sib borayotgan aholining demografik sharoitini hisobga olgan holda ish o‘rinlarini yaratish, hamda yillar davomida davlatning ko‘magiga suyanib qolgan xalqning kayfiyatlarini, stereotiplarini inobatga olish zarurati kabi o‘ta mantiqiy g‘oyalar bor edi<sup>90</sup>.

Ammo keyinchalik yozilgan, rasmiy ideologiya tusi berilgan asarlarda yuqorida aytilgan asosiy g‘oyalar tubdan o‘zgarishga uchrab<sup>91</sup>, bir qarashdan juda mantiqli ko‘ringan, aslida davlat monopoliyasini barcha sohalarda o‘rnatuvchi islohotlarni amalga oshirishning beshta tamoyillariga aylandi. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligini ta’minlash tamoyili barcha siyosiy kuchlar, partiyalar, jamoa

---

<sup>89</sup> I.Karimov: «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li». 1992-yil. 10-25 betlar..

<sup>90</sup> I.Karimov: «O‘zbekiston: yanglanish va taraqqiyotning o‘z yo‘li». — T.: «O‘zbekiston», 1992 y. 1 Tom, 43-bet..

<sup>91</sup> I.Karimov: «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida», 1993-yil; I.Karimov: «O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga hos yo‘li» 1995-yil.

tashkilotlari uchun va nihoyat xalq uchun taklif qilingan “ijtimoiy shartnomaning” asosiy mohiyati edi va o‘ta markazlashtirilgan hokimiyat tizimini o‘rnatishga asos yaratib berar edi. Amalda mavjud bo‘lgan harbiy va xavfsizlik tahdidlaridan tashqari hokimiyatning o‘ta markazlashtirilgan boshqaruv modelini joriy etishning bir qancha obyektiv sabablari bor edi:

- turli tanazzullik alomatlari va noaniqliklar ko‘p bo‘lgan davrda hokimiyatni markazlashtirish qarorlar qabul qilishda, amaliyot yuritishda zarur bo‘lgan tezlikni ta‘minlab beradi. Klassik demokratik hokimiyat boshqaruv modeli sotsialistik tizimdan yangi siyosiy va iqtisodiy tizimga o‘tishda to‘g‘ri kelmaydi, jamiyatda inersiya hali kuchlik. Sovet sotsialistik hokimiyat o‘ta markazlashtirilgan boshqaruv model bo‘lib, barcha mavjud siyosiy va iqtisodiy institutlarning faoliyat yuritishi hududiy va vertikal vakolat jihatidan o‘ta markazlashtirilgan edi. Mamlakatda demokratik qadriyatlar tushunchalari, an‘analar, kuchlar yetilishiga ma‘lum fursat va sharoit kerak. Lekin bu vaqtda mamlakat ichki hayotida va atrofda destruktiv kuchlar soni va xavfi juda katta edi;

- markazlashtirilgan boshqaruv davlat va jamiyatda tartib, ijro intizomini o‘rnatish, qonuniylikni ta‘minlash jabhalarida qisqa muddatli o‘tish davrida demokratik boshqarishdan ko‘ra samaraliroq ko‘rinadi. Chunki milliy suverenitetning asosi bo‘lgan harbiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda mustaqillikka, ijtimoiy hayotda sokinlikka, energiya va oziq-ovqat mustaqilligiga erishish kabi strategik vazifalar yagona iroda va qattiq intizomsiz mushkul amaliyotga aylanadi;

- sotsialistik jamiyat tomonidan yaratilgan moddiy boyliklar va imkoniyatlarni umumxalq foydasiga taqsimlash funksiyasini bajarishga markazlashtirilgan boshqaruv tizimi ko‘proq mos keladi, chunki yagona siyosiy iroda bo‘lmagan yerda ijtimoiy adolat buzilishi, cheksiz imkoniyatlik shaxslar paydo bo‘lishi ehtimoli katta;

- iqtisodiyot, siyosiy tizim uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan turli hudud va xalq xo‘jaligi tarmoqlari o‘sishiga davlat tomonidan turtki berishda, taraqqiyotini tiklashda markazlashgan boshqaruv afzalligi aniq;

- va nihoyat, turli etnik va diniy guruxlar, hatto qabilaviy aloqalar kuchi

sezilarli bo‘lgan, sifat va son ko‘rsatkichlari negizida segregatsiyalashgan jamiyatda boshqarish modeli markazlashishga moyil bo‘ladi.

Mamlakatimiz siyosiy va iqtisodiy hayotida 90-yillardagi markazlashtirishga bo‘lgan umumiy intilish o‘tgan ijtimoiy tizimning tarixiy merosi, geosiyosiy voqe‘lik va boshqaruvdagi qulaylik kabi obyektiv, va ayni pragmatik omillar bilan belgilangan. Bu omillar ta’siri hajmini va vaqtini cheklash esa xalqning umumiy tafakkuri, o‘z qadriyatlari va manfaatlarini to‘g‘ri anglash, ularni aniq ifodalash, ular uchun kurashishga iroda borligi darajasi bilan chegaralanishi mumkin edi. Shuning ortidan 1990-yillarning ikkinchi yarmida qo‘shni mamlakatlarda (Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Gurjiston, Armaniston kabi) tartibsiz va biron strategiyasiz amalga oshirilgan turli xususiylashtirish dasturlari ortidan osongina va haddan tashqari boyib ketgan biznes elitasi paydo bo‘lib, ular siyosatga aktiv aralashib, “bozor va erkin raqobat hamma narsani hal qiladi” shiori ostida davlat hokimiyatiga kuchli ta’sir o‘tkaza boshladilar. J.Hellmann ta’biri bilan aytganda “state capture” jarayonlari boshlanib, biznes elitasi o‘z narrativlarini siyosatga shiddat bilan singdira boshladilar<sup>92</sup>. Natijada davlatning iqtisodiy siyosati ko‘proq yirik biznesning qisqa muddatli va jamiyat uchun mohiyatan cheklangan manfaatlariga monand bo‘la boshladi. Vaholanki, biznes va davlatning asl qadriyatlari o‘rtasida juda katta ziddiyatlar bor: davlat klassik holatlarda ko‘p yillik strategiyaga asoslanib, jamiyatning asosiy qatlamlarini teng ravishda rivojlanishiga sharoit yaratib berishni o‘z missiyasi deb bilsa, biznes faqat o‘zining tor doirasidagi faoliyatida biznes egalari va ularga affillangan kishilar uchungina optimal sharoit yaratib berishga intiladi.

Davlat yangi mulkdorlar sinfini yaratish missiyasini muvaffaqiyatli bajara olmadi. Natijada, davlat biznes va jamiyat o‘rtasidagi muloqot, o‘zaro ta’sir mohiyati va vositalari institutsional asosda qayta ko‘rib chiqilmadi. Shu uch ta’sir kuchi (davlat, biznes, jamiyat) o‘rtasida institutsional muloqot yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa, yoki ularning o‘zaro ta’siri zaif bo‘lsa, a) biznes davlat va jamiyatga ko‘proq

---

<sup>92</sup> <https://documents1.worldbank.org/curated/en/537461468766474836/pdf/multi-page.pdf>, 5-bet

tazyiq o'tkazishiga imkon tug'iladi (state capture); va/yoki b) davlat biznesni, u orqali jamiyatni o'z manfaatlariga xizmat qiluvchi obyektga aylantiradi (business capture)<sup>93</sup>.

Davlat zo'ravonlik, cheklash monopoliyasini ma'lum moddiy boyliklar va erishish mumkin bo'lgan qadriyatlar evaziga taqsimlashga moyil bo'lsa, biznes davlat uchun e'tiborli bo'lgan vazifalarni bajarish, qadriyatlarni jamiyatga singdirish evaziga davlatdan qo'shimcha indulgensiyalar olishga doim intiladi. Bu siyosiy-iqtisodiy spekulatsiya (savdoning) bir ko'rinishi. Davlatning biznesga yoki biznesning davlatga tazyiq o'tkazishi aslida normal voqe'lik. Ammo bu tazyiq qanchalar jamiyatning tor qismiga xizmat qilsa, jamiyat shunchalar o'z taraqqiyotida orqaga qarab ketaveradi. Chunki katta-katta guruhlarning manfaatlari bu konstruksiyada qisman yoki butunlay inkor etilishi ko'proq uchraydigan hol va jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy ziddiyatlar borgan sari kuchayib boradi. Davlat apparatining ta'siri asosan uning ihtiyoridagi taqsimlash va kuch ishlatish mexanizmlari samarasi bilan belgilansa, biznesning ta'sir doirasi uch muhim omil: o'z qo'lida jamlagan kapital ko'lami, xalq xo'jaligi tarmoqlarini qamrashdagi, yalpi ichki mahsulot, yangi ishchi o'rinlari yaratilishidagi ulushi bilan belgilanadi.

Sobiq SSSR kollapsidan so'ng Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Qirg'iziston, Armaniston, Gurjistonda o'tish davri state capture (biznes davlatni zabt etishi) leytmotivi asosida kechgan bo'lsa, O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanish shakli o'ta markazlashgan boshqaruv modeli tufayli "business capture" modeliga ko'proq sharoitlar yaratib berdi. Xususiylashtirish va dastlabki davrlardagi so'z erkinligi kabi (1992-yilgacha) tarixiy imkoniyatlardan to'la foydalana olmagan jamiyatimiz va tadbirkorlar 1993-2016 yillar davomida ma'muriy boshqaruv bosimi ostida institutsional kuch sifatida shakllana olmadilar va o'z manfaatlari, imkoniyatlarini himoya qila olmaslik ortidan juda katta tovon to'ladilar. Davlatning ma'muriy boshqaruv kuchi yillar davomida tor doiradagi iqtisodiy boshqaruv va kuch ishlatar organlariga bevosita ta'sir o'tkaza oladigan shaxslar qo'lida to'plana boshladi.

---

<sup>93</sup> Qarang: <https://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/2001/09/hellman.htm>

O‘ziga xos jamiyat boshqaruvi nomenklaturasi paydo bo‘ldi<sup>94</sup>. Bu holatga siyosiy va iqtisodiy zamin yaratib beruvchi 3 ta yirik omillar bor edi:

- jamiyatning aksariyat qismi sotsializmga erishilgan yutuqlarni (bepul maorif va sog‘liqni saqlash xizmatlari, iste‘mol bozorida eng kerakli mahsulotlar mo‘lligi va narxlar ustidan nazorat, ishchi o‘rinlarini yaratish va ish haqi, jamoat tartibi ustidan nazorat kabi) himoyachisi sifatida davlatni ko‘rar edi va davlatning jamiyatni barcha jabhalarini boshqarishdagi absolut rolini tabiiy holdek qabul qilgan. Bu jarayondan hech qanday negativ natija kutmay, aksincha, o‘z foydasiga deb ko‘rgan, davlatning o‘ta markazlashtirilgan boshqaruv usullari, kimlarnidir to‘la asoslanmagan, subyektiv qarorlari katta ommaning hayotini hal qilishi xalqning ongida deyarli hech qachon o‘z borlig‘i va kelajagi uchun xavf deb qaralmagan;

- xususiylashtirish, yuqorida ko‘rsatilganidek, davlat mulkini qayta taqsimlab, jamiyat va biznes foydasiga hal qiluvchi darajada xizmat qilmadi, biznes kapitalini paydo bo‘lmadi, institutsional tarzda uyushgan yangi tadbirkorlar sinfi, jamiyat ishlab chiqarish kuchlarida tadbirkorlik ruhiyati paydo bo‘lishiga olib kelmadi;

- davlatni qo‘lga olgan xo‘jalik va ma‘muriy elita biznesga va jamiyatga tazyiq o‘tkazish uchun avvaliga moliya, bank, ichki va tashqi savdo mexanizmlari nazoratini ham qo‘lga kiritgan bo‘lsa, keyinchalik turli davlat aktivlari va boshqarish imkoniyatlarini (ruhsat berish, ta‘qiqlash, savdo qoidalarini belgilash, davlat moliyasini taqsimlash va hokazo) qo‘lga kiritdilar va shu asnoda o‘zlarining qudratli xususiy aktivlarini yaratdilar.

Biznes uchun institutsional muloqot tayanch yuzaga kelmagan sharoitda 90-yillar oxiridan boshlab davlat o‘z investitsiyalari bilan biznesga kirib, xususiy kichik va o‘rta biznesni qisman yoki to‘la cheklab qo‘ya boshladi, katta biznes bilan esa alohida shartlar asosida kelishishga intildi<sup>95</sup>. Katta biznes davlatga o‘z ta‘sirini keng o‘tkaza boshlagach, davlatning uzoq va qisqa muddatli maqsadlarini o‘zining

---

<sup>94</sup> Восленский М. «Номенклатура». Overseas Publications Interchange Ltd, London, 1990, 15-бет; [https://vtoraya-literatura.com/pdf/voslensky\\_nomenklatura\\_vtoroe\\_izdanie\\_1990\\_text.pdf](https://vtoraya-literatura.com/pdf/voslensky_nomenklatura_vtoroe_izdanie_1990_text.pdf)

<sup>95</sup> Нещадин А., Заздравных А., Сорокоумов С. Стратегия в условиях кризиса // Общество и экономика. 2008. 31 декабря.



maqsadlariga bo'ysundira olgan vaqtdan boshlab biznes va davlatning bir-biriga singib ketish holatlari<sup>96</sup> kuzatildi va bu holat jamiyat taraqqiyoti uchun juda katta xavf tug'diradi. Aynan davrga kelib O'zbekistonda davlat va biznes elitasi kayfiyatlari bir oz o'zgarib boshladi. Qiyinchilik va moddiy yo'qchilikni ko'rgan rahbar lavozimdagi mansabdorlar (nomenklatura) o'zining mavjud statusi ko'pga bormasligi va kutilmaganda hamma narsadan judo bo'lishlari mumkinligini yaqqol anglay boshladilar, ularda betoqatlik kayfiyatlari kuchaya boshladi. Amaldorlarning katta qismi sobiq sovet tizimidan beri rahbarlikda bo'lgan va pensiya yoshiga yaqinlashgan edi. Ular o'z amallarini monetizatsiya qilish yo'llarini qidira boshladilar va korrupsiyaga qarshi qonunchilik normalari, amaliyoti tizimli yaratilmagan, huquq-tartibot organlari rahbarlari orasida ham betoqatlik kayfiyatlari tarqalayotgan bir sharoitda, hokimiyatdan dividendlar olish imkoni nisbatan oson paydo bo'ldi. Davlat organlaridagi xodimlar o'z xo'jalik boshqaruv imkoniyatlaridan foydalanib, biznesni nazorat qilish, bundan sezilarli miqdorda foyda olish ("biznesni yengish" - business capture) imkoniyatlariga ega bo'ldilar va bu imkoniyatlar amaliyotda turli ko'rinishlarga ega bo'ldi:

- xalq xo'jaligi tarmoqlariga ajratiladigan davlat mablag'larini sarflanish yo'nalishi va taqsimotini nazorat qilish<sup>97</sup>;
- tashqi savdo va valuta almashuvi qoidalarini belgilash va nazorat qilish (tashqi savdo qoidalarini belgilovchi davlat institutlari, bojxona va bank to'lovlari tizimini qamragan holda);
- yirik, pul aylanmasi katta, sof foyda darajasi yuqori bo'lgan korxonalarining nazorat (kontrol) aksiya paketlarini kvazi-davlat tashkilotlari ihtiyorida saqlash;
- aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati (kuzatuv kengashi va boshqaruv) nazoratini turli kvazi-davlat yuqori boshqaruv organlari qo'lga topshirish;
- davlat korxonalarining narx-navo, xarid mexanizmlariga aralashish, turli

---

<sup>96</sup> Hellman J., Kaufmann D. Confronting the Challenge of State Capture in Transition Economies // Finance and Development (A quarterly magazine of the IMF). 2001. Vol. 38. № 3; Hellman J., Jones G., Kaufmann D. Seize the State, Seize the Day: State Capture, Corruption, and Influence in Transition Economies: World Bank Policy Research Working Paper 2444. September 2000. ([http://www.anti-corr.ru/archive/Seize the state seizes the day.pdf](http://www.anti-corr.ru/archive/Seize%20the%20state%20seizes%20the%20day.pdf))

<sup>97</sup> Qarang: <https://academic.oup.com/ser/article/21/2/1217/7030814?login=false>

xususiy strukturalar foydasiga narxlar, xaridlarni hal qilish;

- o‘z nazorati va ta’siri doirasida bo‘lgan korxonalarining raqobatchilariga davlat tazyiqini o‘tkazib, ularning raqobatbardosh xislatlarini “sindirish”;

- korxonalar ishlab chiqargan mahsulotini ma’lum strukturalarga ma’lum narxlarda kvotalar asosida sotilishini ta’minlash, va hokazo.

Davlat tomonidan avvalgi vazirliklar o‘rnida tuzilgan turli kompaniyalar, assotsiatsiyalar va konsernlar<sup>98</sup> aslida xolding tuzilmasiga o‘xshab, ularga hozircha xususiylashtirilmagan davlat aktivlarini, xususan hissadorlik jamiyatlari aksiyalari paketini boshqarish huquqi berilgan edi<sup>99</sup>. Davlatning ishonchli boshqaruvchisi sifatida bu konsern, birlashma, assotsiatsiya va xoldinglarning rahbarlari turli tarmoqlaridagi korxonalarini ilgarigi sovet tizimi vazirliklari kabi boshqarar, va ularning joriy faoliyatiga to‘laqonli aralashar edilar. Natijada 1990-yillar so‘ngiga kelib mamlakatda o‘ta qudratli amaldorlar sinfi – yangi xo‘jalik nomenklaturasi paydo bo‘ldi va tez orada deyarli cheksiz imkoniyatlar va boyliklar egasiga aylandi.

Qo‘shni mamlakatlardagi siyosiy va iqtisodiy holatlarni nazarda tutilsa, O‘zbekistondagi siyosiy barqarorlik nisbiy va mintaqada tinchlik hukmron bo‘lishi uchun harbiy, jamoa tartibini saqlash organlari talablariga ko‘proq e’tibor berilishi kerak edi. 1990-yillar so‘ngiga kelib mamlakatning ichki va tashqi xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha barcha konseptual yondashuvlar qayta ko‘rib chiqildi, kuch ishlatar davlat idoralarining vakolatlari kengaytirildi. Har bir davlat boshqaruv organlari va yirik korxonalari, banklarida kadrlar va rejim bo‘yicha muovinning lavozimi kiritilib, ular sobiq mahfiy xizmat xodimlari tomonidan egallandi. Natijada tez orada yana bir kuchli davlat nomenklaturasi – ma’muriy kuchlar (siloviklar) nomenklaturasi yuzaga kelib, u asta-sekin avvalgi xo‘jalik nomenklaturasining faoliyatiga aralashib, uning imkoniyatlarini nazorat qilib, absolut hokimiyatini o‘z ta’siri, shartlari asosida bo‘lishishga majburladi. 2000 yillar boshiga kelib eski

---

<sup>98</sup> “O‘zbekiston oziq-ovqat sanoati davlat-aksionerlik konserni (“O‘zoziqovqatsanoat”) ustavini tasdiqlash to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 30.08.1993 y. №435; <https://lex.uz/docs/894015>

<sup>99</sup> “Xoldinglar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 12.10.1995 y. №398

xo'jalik nomenklaturasi bilan yangi ma'muriy nomenklatura o'rtasida kelishuv (o'ziga hos biznes protokoli) va mehnat taqsimoti o'rnatildi:

Bu mehnat taqsimotida xo'jalik nomenklaturasi:

- davlat yoki jamiyat manfaatlarini shiorlari ostida markazlashgan moddiy va pul resurslarini taqsimlash mexanizmini asoslab berish;
- bu mexanizmlarini ishlashining tashkiliy va ma'muriy asoslarini ko'rsatib berish, kerakli xo'jalik agentlarini ko'ndirish;
- bu mexanizmni amalga oshirishda ishonchli kadrlarni tanlash va ularga kerakli ko'rsatmalar berish;
- kerakli taqsimot hujjatlariga moddiy va moliya resurslarini boshqaruvchisi sifatida davlat tomonidan imzo chekish vazifalarini o'z zimmasiga olgan.

Ma'muriy kuchlar nomenklaturasi esa:


- xo'jalik nomenklaturasi ko'rsatgan muammolarni davlat prioriteti ekanini xavfsizlik argumentlari bilan asoslash, shu sohalarga davlatning resurslari ajratilishini ta'minlash;
- xo'jalik nomenklaturasi markazlashtirilgan moddiy, moliyaviy resurslarini taqsimotidan olgan u yoki bu shakldagi foydani taqsimlash chog'ida birinchi navbatda ma'muriy nomenklatura manfaatlarini ko'zda tutilishini ta'minlash;
- imzo chekuvchi, kelishilgan jarayonlarni amalga oshiruvchi xo'jalik nomenklaturasi faoliyatiga sohadagi vertikal boshqaruv a'zolari, qonunchilik ijrosi nazorati organlari tomonidan e'tirozlar bo'lmasligini ta'minlash, kabi vazifalarni o'z zimmasiga oldi.

Xo'jalik nomenklaturasi davlat ishlab chiqarishning jismoniy va moliyaviy ko'rsatkichlarini bajarish, davlat ajratgan investitsiyalarni, moddiy-texnika resurslarini o'z vaqtida va samarali taqsimlash uchun javobgar bo'lsa, ma'muriy nomenklatura kadrlarni tanlash, ularni himoya qilish, mas'uliyat doirasini belgilash, pul oqimlari yo'nalishlarini va xo'jalik faoliyatida yuzaga keladigan turli daromadlarni (rasmiy va norasmiy) taqsimlash, investitsiyalar yo'nalishlarini belgilash, tashqi savdo va konvertatsiya operatsiyalarini nazorat qilishni o'z zimmasiga oldi. Xo'jalik nomenklaturasi ko'proq o'z ta'sir doirasini ushlab turishga

urinishlari bilan shug'ullansa, ma'muriy nomenklatura ko'proq xo'jalik nomenklaturasining bunday faoliyati natijasida yuzaga keladigan ma'muriy muammolarini hal qilib, o'z rentasi uchun sharoit yaratish bilan band bo'ldi. Bu sharoitda katta biznes bilan norasmiy muloqot butunlay ma'muriy nomenklatura qo'lida bo'lib, ular davlat va tadbirkor o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'im bo'lib ham xizmat qildilar. Ma'muriy sohada kuchli nazorat mavjudligiga qaramay, sobiq SSSR ishlab chiqarish va almashuv tizimi kollapsi ta'siri kuchli bo'lsa-da, yaratilgan makroiqtisodiy boshqaruv elementlari va har tomonlama davlat xarajatlarini belgilashda tejamkorlikka asoslangan boshqaruv metodologiyasi iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlarini keskin tushib ketmasligiga ma'lum darajada xizmat qildi. 1991-1995 yillarda iqtisodiyot ko'lamini sobiq SSSR qulashigacha bo'lgan darajada saqlab qolish uchun kurashish yillari bo'lgan va obyektiv ravishda bu yillarning ko'rsatkichlarini o'zaro taqqoslash ham mohiyatan ko'p natija bermaydi. 1990-yillarda mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti hajmlarini solishtirganda nazarda tutish muhim bo'lgan omil shundaki, xo'jalik aloqalari buzilgani, sobiq SSSR bozori uni tarkibidagi bir respublika bozori bilan cheklangani, makroiqtisodiy boshqaruvda (fiskal va monetar sohalarda) obyektiv muammolar tufayli O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligi yalpi ichki mahsulot hajmi qiymat ko'rsatkichi jihatidan solishtirma narxlar negizida 2010-yilga kelibgina 1990-yil darajasiga yetgan (qar.2-grafika)<sup>100</sup>.

2-grafika


### O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining 1990-yilga nisbatan o'sish sur'atlari



<sup>100</sup> O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra

1996-2016 yillar oralig'ida taraqqiyot sur'atlari umuman pozitiv bo'lgani bilan ba'zi yillarda juda keskin o'sish sur'atlariga erishilgan. Izlanishimiz maqsadlarida biz bu oraliqda bo'lgan iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini YaIMning yillik o'sish sur'atlariga bilan ifoda etib, ularni past (4 %gacha), mo'tadil (4,1 % dan 6 %gacha) va yuqori (6 %dan ortiq) templarga bo'ldik. Bunday yondashuv tarixiy taraqqiyot davrlari mohiyati siyosiy rahbarlar bergan nomlardan keskin farq qilganini ko'rsatadi. 1996-2003 yillar rasman iqtisodiy barqarorlikka erishish yillari deb aytilgan bo'lsa-da, past taraqqiyot sur'atlari, YaIMning hajmi 1990-yil ko'rsatkichlariga yetmaganligi bunday barqarorlikka erishilmaganidan dalolat beradi. Bu davrda YaIMning o'rtacha o'sish sur'atlari 4% atrofida bo'lgan. Boshqa yillarga nisbatan bu pastroq ko'rsatkichning asosiy sabablari 1993-1994 yillar davomida sobiq SSSR bozori milliy bozor bilan cheklangani, xo'jalik aloqalarining uzilishi, milliy valutani kiritishda yo'l qo'yilgan xatolar<sup>101</sup>, 1999-yil boshida kuchaygan siyosiy tahdid ortidan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimining pasayishi edi. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, 2004-2016 yillarda mamlakatda juda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan (qar.3-grafika).


3-grafika



<sup>101</sup> Abdulkadirov A.: Milliy valyutani kiritishda yo'lga qo'yilgan hatolar sadosi. T.-2024-yil

Bu holatning sabablari asosiy homashyo eksport tovarlariga dunyo bozorlarida narxlarning keskin o'sgani, kichik va o'rta biznes rivoji uchun qulay fiskal va monetar sharoit yaratilgani, bu omillar ortidan asosiy kapitalga bo'lgan investitsiyalarning keskin o'sishi. Jumladan, 1998-yilda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi YaIMning 1,1 %iga yetgan bo'lsa, 1999-yildan keyingi davrda, investitsiyalar hajmida pasayish kuzatilgan<sup>102</sup>. 2010-2016 yillar davomida mamlakatda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi absolut tarzda 3,1 barobar oshib, 2012-2015 yillarda iga o'rtacha o'sish sur'atlari yillik 10% atrofida bo'lgan. (qar.4-grafika).

4-grafika



Biz yuqorida 1990-yillarda markazlashgan boshqaruv tizimining yuzaga kelishi sharoitlari, sabablari va evolutsiyasini ijtimoiy-siyosiy va institutsional omillar nuqtai-nazaridan tahlil qilib chiqdik. Shubhasiz, markazlashgan hokimiyatning o'ziga hos tomonlari makroiqtisodiy boshqaruv asoslarida ham o'z aksini topadi. K.Marks ta'kidlab o'tganidek, mulkka egalik huquqi jamiyatda kim hukmron bo'lishini belgilab, aynan shu hukmron boshqaruvda qanday usullardan foydalanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mulkka bo'lgan munosabat har qanday jamiyat rivojlanishining asosini tashkil etadi<sup>103</sup> va bu makroiqtisodiy boshqarish

<sup>102</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

<sup>103</sup> K.Marks: Kapital. Siyosiy iqtisod tanqidi. I-jild. 13-bob. «Yirik sanoat va dehqonchilik» [https://www.marxists.org/russkij/marx/1867/capital\\_vol1/index.htm](https://www.marxists.org/russkij/marx/1867/capital_vol1/index.htm)

chegaralaridan tashqaridagi materiya. Lekin bu materiyaning tahlil qilmay mamlakatda yuzaga kelgan makroiqtisodiy boshqaruv asoslari va tarkibiy elementlarining mohiyatini anglash qiyin. Biz V.Gegel falsafasida keltirilgan ziddiyatlar birligi va kurashi<sup>104</sup> falsafa kategoriyasi asosida davlatning institutsional mohiyatidagi ziddiyatni ko'rsatib o'tdik. Bir tomondan davlat (nomenklaturasi) yagona mulk egasi sifatida o'z gegemoniyasini imkoni boricha saqlab qolishga intilsa, ikkinchi tomondan mulkni saqlash va samarali foydalanish imkoniyatlari davlat uchun keskin kamayganligi ortidan, jamiyat barqarorligini ta'minlash uchun jamlangan kapitalning bir qismini tarqatib berish zarurati, jumladan, uy-joylarni, kichik savdo va xizmat shohobchalarini tarqatish, qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish huquqining xususiy shaxslarga berilishi taqozosi hosil bo'ldi. Uchinchi tomondan esa mulkka egalik qilishni eplay olmagan davlat (nomenklatura) mulkdan foydalanish evaziga olingan daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash mexanizmlarini qo'lga olishga muvaffaq bo'ldi. Bu qarama-qarshiliklar mamlakatda dastlabki makroiqtisodiy boshqaruv institutlari yuzaga kelishi va bu institutlarning faoliyat yuritish metodologiyasi evolutsiyasiga bevosita ta'sir qildi.

#### **1.4 Dastlabki makroiqtisodiy boshqaruv institutlari, boshqaruv metodlari va ijtimoiy shartnoma asoslarining eroziyasi**

1991-1999 yillar davomida O'zbekistonda o'ta markazlashgan davlat tizimi in'ikosi sifatida yuzaga kelgan makroiqtisodiy boshqaruv institutlari quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topgan edi:

1. Qat'iy reglamentlangan Davlat budjeti. Bu institutning asosiy obyekti davlatning fiskal siyosati va uni amalga oshirish uslublari bo'lib, ularning imperativ mazmuni davlat xarajatlarini keskin o'sishiga yo'l qo'ymaslik, davlatning zimmasiga asosan ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarnigina yuklash edi. Soliqlar va bojlar yuzaga chiqayotgan tadbirkorlik faoliyati stimullarini yo'qqa chiqarmasligi, budjet esa xarajatlarni keskin

---

<sup>104</sup> Гегель Г.В.Ф.: "Наука логики" В 3-х томах. Т. 1. М., «Мысль», 1970. 501-бет.  
<https://hegel.rhga.ru/filosof/logik/detail.php?>

oshiradigan subsidiya, investitsion ajratmalarni o‘z tarkibiga kiritmasligi qattiq belgilangan edi. Bu prinsiplar 1990-yildayoq amalga oshirilgan bo‘lib<sup>105</sup>, o‘zining mukammal ifodasini “O‘zbekiston Respublikasining Budget Kodeksi”da<sup>106</sup> topdi. Davlat budjeti tashqi qarz va grantlar orqali jalb qilingan resurslarni ham o‘zida jamlab, mamlakat moliyaviy imkoniyatlarning yadrosini tashkil etar edi. Tabiiyki, budget daromadlarining katta qismi fiskal omillar, avvalam bor soliqlar, bojxona bojlari va turli boshqa davlat bojlari orqali jamlanar edi. Lekin o‘ta markazlashtirilgan boshqaruv modeli fiskal siyosatda budgetga davlat korxonalari va banklarining sof foydasining katta qismini, tashqi savdo faoliyatida ichki va tashqi eksport narxlari o‘rtasidagi tafovutidan keladigan daromadlarni mobilizatsiya qilishni ham ko‘zda tutgan edi. Bu yerda davlat mulk, ya’ni korxonalar, banklar va yer osti resurslari egasi sifatida bu mulklardan kelgan daromadni o‘zlashtirar edi. Iqtisodiy tanglik davrida davlat korxonalari va banklari foydasini budgetga maksimal imkon darajasida mobilizatsiya qilish 1991-1999 va 2021-2022 yillar davomida budget ijrosini ta’minlash uchun keng qo‘llanilgan amaliyot bo‘ldi.

2. Tashqi savdo va transchegaraviy o‘tkazmalardan keladigan valyuta tushumlarini mobilizatsiya qilish<sup>107</sup> va qayta taqsimot qilish instituti. Barcha eksport davlat nazoratida bo‘lib, asosiy hom-ashyo tovarlarini sotishda ichki va tashqi bozor narxlari o‘rtasidagi tafovut Respublika valyuta jamg‘armasiga mobilizatsiya qilinadi. Davlatning to‘lov balansini boshqarish sohasida tashqi savdo, jalb qilingan qarzlarni, transchegaraviy o‘tkazmalardan tushgan valyuta mablag‘larini mobilizatsiya qilish va markazlashtirilgan taqsimot tizimi (Respublika valyuta jamg‘armasi) yo‘lga qo‘yilgan edi<sup>108</sup>. Valyuta almashuv operatsiyalari faqat kritik oziq-ovqat va iste’mol mollari importi, hamda xorijiy investorlar, moliya institutlari mablag‘iga amalga oshirilgan investitsiya loyihalariga jalb qilingan mablag‘larni

---

<sup>105</sup> O‘zbekiston SSRning 1991-yilga davlat byudjeti haqida” O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 1991 y. 12-mart №60.

<sup>106</sup> O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi: <https://lex.uz/docs/2304138?ONDATE=02.08.2023>

<sup>107</sup> O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining qarori. "O‘zbekiston Respublikasi hududida valyutani boshqarish to‘g‘risida 1993 y. 25 may, №251

<sup>108</sup> O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 18-martdagi 146-son qarori. <https://lex.uz/acts/689520>



qaytarish operatsiyalari bo'yichagina amalga oshirilar edi<sup>109</sup>. Almashuv kursiga bo'lgan bosimni pasaytirish uchun banklarda korxonalar va fuqarolar bilan naqd pul operatsiyalarini cheklash (bankdan naqd olish miqdori va sabablarini cheklash hisobiga) tadbirlari keng qo'llanilar edi. Makroiqtisodiy boshqaruv institutlari ichida valyuta tushumlari ustidan nazorat taraqquyotni chegaralovchi omillardan biri edi;

3. Monetar siyosat o'sha vaqtlarda makroiqtisodiy boshqaruvning sezilarli darajada ta'sirchan instituti emasdi. Bu siyosat obyekti asosan Markaziy bank tomonidan aylanmadagi pul massasini tovarlar massasiga nisbatan muvozanatini ushlab turish edi. Lekin pul emissiyasi Rossiya Banki qo'lida bo'lgan bir sharoitda monetar siyosat davlat va xususiy tijorat banklari aktiv va passivlari hajmi, ularning sifat talablarini belgilashga qaratilgan edi. Pul emissiyasi nazorati, uning hajmini boshqarish rubl aylanmasi vaqtida ham, so'm-kupon va so'm kiritilgan dastlabki yillarda ham aslida Markaziy bank emas, hukumat qo'lida edi. Markaziy Bank 2016-yilgacha mustaqil moliya va regulyativ organ emas, balki davlat ijroiya organlarining bir tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritardi. Pul-kredit, emissiya siyosati hukumat tomonidan belgilanib, bu holat dastlabki yillarda minglab foizlarga chiqqan inflatsiyaning sababiy negizlaridan biri edi. Birgina 1991-1992 yillarda hukumatning 35 dan ortiq turli qarorlari bilan Markaziy bankka va tijorat banklariga pul davlat muassasalari va tashkilotlarining turli joriy va kapital xarajatlarini qoplash, qishloq xo'jalik mahsulotlarini davlat zaxirasiga sotib olish, markazlashtirilgan tarzda oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini tashkil etish maqsadlariga mablag' ajratish haqida aniq ko'rsatmalar berilgan. Aslida bu nazoratsiz va ta'minlanmagan pul emissiyasi edi, chunki na Markaziy bankda, na tijorat banklarida davlatning bunday xarajatlarini qoplashga yetarli zaxiralar yo'q edi. Tabiiyki, bu sharoitda inflatsiyani nazorat qilish va moliyaviy tuyg'unlikka erishish borasida hech qanday amaliyot yuritilmas edi;

4. Markazlashgan investitsiyalar davlatning ichki mablag'lari, hamda davlat kafolati ostida jalb qilingan, u davlat banklari orqali qayta taqsimlangan mablag'lar

---

<sup>109</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 31-oktyabrdagi 376-sonli qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-490258?ONDATE=31.10.1996%2000>

negizida amalga oshiriladi. Markazlashtirilgan tartibda yirik investitsion loyihalarni davlat mablagʻlari hisobiga moliyalashtirish keng tarqalgan amaliyot edi. 1994-2016 yillar davomida har yili Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlari bilan qabul qilinadigan Davlat investitsion loyihalari roʻyxatini<sup>110</sup> tasdiqlanish, ularni bajarilishi ustidan davlat nazoratini oʻrnatish, sarflangan mayublagʻlar samarasini tekshirish tegishli davlat boshqaruv organlari amaliyotining (asosan Iqtisodiyot va Moliya vazirliklarining) bir qismi edi. Investitsion dasturlar jamlanmasiga bagʻishlangan qarorlarda odatda davlatning ichki resurslari<sup>111</sup>, hamda jalb qilingan kreditlari<sup>112</sup> asosida amalga oshirilgan investitsion loyihalar toʻplami tasdiqlanadi. Jumladan, 1997-yilda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi<sup>113</sup>, 2001-yilda Shoʻrton gaz-kimyoo kompleksining<sup>114</sup> ishga tushirilishi shunday qarorlar negizida boʻldi.

Xususiylashtirishni turli mayda davlat jamgʻarmalari va tijorat banklari zimmasiga yuklangan boʻlib, kichik va oʻrta biznesni rivojlantirishga fiskal qulayliklar va imtiyozli shartlarda investitsiyalarni moliyalashtirish sharoitlarini yaratib berilgan edi. Sobiqlar Mehnat va ijtimoiyl himoya vazirligi huzuridagi “Bandlikni rivojlantirish Fondi”, “Dehqon va fermer xoʻjaliklarini qoʻllab-quvvatlash fondi” kichik biznes korxonalariga imtiyozli (Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi miqdoridan birmuncha past) kreditlar berish huquqiga ega edilar<sup>115</sup>. 2011-yil “Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik yili”<sup>116</sup> deb eʼlon qilinib, bu yilga kelib tadbirkorlikni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning maʼlum bir tizimi ishlab chiqilgan edi. Bu tizim tarkibida sobiq “Madad” davlat agentligi ham boʻlib, u xususiylashtirishdan tushgan mablagʻlarning bir qismini hisobidan kichik tadbirkorlikni kreditlash<sup>117</sup>, kichik biznes

---

<sup>110</sup> Oʻzbekiston Vazirlar Mahkamasining qarori 1999 yil 31 dekabr 550-sonli: “2000 yilga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining investitsion dasturi haqida” - <https://lex.uz/ru/docs/2305092?query=216>

<sup>111</sup> Oʻzbekiston Vazirlar Mahkamasining “Respublika valyuta jamgʻarmasi hisobidan chet el valyutasida kreditlar berish va ularni toʻlash tartibini tasdiqlash toʻgʻrisida” qarori 1994 yil 03 noyabr, 534-sonli.

<sup>112</sup> Oʻzbekiston Vazirlar Mahkamasining qarori 1999 yil 31 dekabr 1998 yil 548-sonli: “1999 yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokida amalga oshiriladigan kapital qurilish ishlarini amalga oshirish dasturi haqida”. <https://lex.uz/m/acts/1614001>

<sup>113</sup> <https://bnpz.uz/history>

<sup>114</sup> <https://plastinfo.ru/com/5206/>

<sup>115</sup> Qarang: <https://uzreport.news/finance/aktualnyie-voprosyi-kreditovaniya-malogo-biznesa>

<sup>116</sup> Qarang: Oʻzbekiston Prezidentining 2011-yil 2-iyuldagi PQ-1474-son qarori. <https://lex.uz/docs/1745084>

<sup>117</sup> 1995 yil 26 iyuldagi VMning 292-sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/436136?ONDATE=26.07.1995>

strukturalariga xususiylashtirilayotgan obyektlarni sotib olishga mablag'lar berish huquqiga ega edi. Kichik biznesga turli fiskal yengilliklar yaratish mexanizmlari tadbirkorlikni qo'llashning asosiy bo'g'imlaridan biri edi<sup>118</sup>. Bu omillar tufayli 2000-yil natijalari bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik zimmasiga YaIMning 31 %i to'g'ri kelgan bo'lsa, 2012-yilga kelib bu ko'rsatkich 54 %ga yetdi<sup>119</sup>.

Barcha yuqorida keltirilgan makroiqtisodiy boshqaruv vositalari iqtisodiy rivojlanish bosqichlari ichki dialektikasidan kelib chiqqan. Budjetni shakllantirish va uning ijrosini ta'minlash sohasidagi masalalarga biz keyingi boblarda mukammal to'xtab, bu yerda makroiqtisodiy siyosatning asoslaridan biri bo'lgan milliy valutani kiritilishi va uning aylanmasi haqida alohida to'xtalib o'tmoqchimiz, zero bu sohada yo'l qo'yilgan xatolar iqtisodiyotning rivojlanishiga keyingi o'n yillarda ham keskin negativ ta'sir ko'rsatdi. 1994-yil 16-iyunda Prezident qarori bilan o'sha yilning 1-iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasining hududida 1000 so'm-kuponga bir «So'm» nisbati bilan O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi — «So'm» muomalaga kiritildi. Yangi milliy valyutaning aylanmadagi pul birligini denominatsiya qilish bilan birga kiritilishi oxirgi 3 yilda valyuta aylanmasidagi ikkinchi qattiq zarba edi (rubl denominatsiyasi va almashuvidan so'ng). Denominatsiya bir texnik tadbir sifatida ko'ringani bilan, bu tadbirni o'tkazgan barcha mamlakatlar tajribasi uning chuqur negativ makroiqtisodiy ta'siri borligini ko'rsatadi. Xo'jalik subyektlariga kreditlar bergan banklar olayotgan foizlari pulning qadsizlanishi tufayli yo'qotishlarni qoplamay qoldi. Ko'pgina banklar kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishga, kredit muddatlarini qisqartirishga, berilgan kreditlarni muddatidan ilgari qaytarishga majburlashga bordilar. Bunday umumiy vahima sharoitida bozor agentlari o'zlarining ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan investitsion loyihalarini to'xtatib qo'ydilar, chunki 2-3 yillik sharoitni prognoz qilishni umuman imkoniyati bo'lmay qoldi. Oradan ko'p o'tmay

---

<sup>118</sup> Qarang: O'zbekiston Prezidentining 2011-yil 2-iyuldagi PQ-1474-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/1745084>

<sup>119</sup> Qarang: [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/26\\_R.T.Axmedxodjayev.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/26_R.T.Axmedxodjayev.pdf), 1-bet


Hukumat<sup>120</sup> barter amaliyotlarini chekladi. Mamlakatning tashqi savdosida negativ balans keskin kuchaygan edi (milliy valuta konvertatsiyasi bo‘lmagan sharoitda barcha eksporterlar barterga o‘tishga majbur bo‘ldi va barter hajmi karrasiga oshdi). Barter iqtisodiyotni normal funksiyasini ta’minlab, MDH mamlakatlarning milliy valyutasi kiritilgan sharoitda yagona bozor mexanizmiga asoslangan mahsulotning iste’mol va pul qiymati (narxini) belgilovchi ishlab turgan mexanizm edi. MDH mamlakatlarida kiritilgan yangi pul nominallarining qiymati va ayirboshlash kursi hatto ichki ishlab chiqarish agentlari tomonidan ba’zan tan olinmas edi.

Denominatsiya ta’siri hali bartaraf bo‘lmay turib, 1994-yil oktabrida hukumat qarori bilan O‘zbekiston hududida barcha rezident va norezident yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi hisob-kitoblar faqat milliy valutada olib borilishi belgilandi, erkin muomaladagi valutilarda O‘zbekiston hududida hisoblarni amalga oshirish ta’qiqlandi<sup>121</sup>.

Ko‘rsatilgan barcha faktorlarning jamlanmasi sifatida tovar va xizmatlarning narxi ko‘tarilib, ular ortidan rasmiy inflatsiya keskin oshdi, (5-grafika).

*5-Grafika*

### 1991-2008 yillarda rasmiy inflatsiya ko‘rsatkichlari



Markaziy bankning pul emissiyasi nazoratchisi sifatida roli minimal bo‘lgani va u asosan xalq xo‘jaligi, budjet ehtiyojlari miqyosida deyarli nazoratsiz emissiyani


<sup>120</sup> Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-avgustdagi 409-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/803656?ONDATE=13.01.2003>

<sup>121</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O‘zbekiston Respublikasida valyuta bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori. 07.10.1994 y., No499: <https://lex.uz/docs/696054>

amalga oshirishga majburlangani, ichki valutaning almashuv kursi makroiqtisodiy muvozanat o'rnatish uchun keraksiz bo'lgan oddiy bir texnik ko'rsatkich bo'lib qolgan holda (chunki valyuta konvertatsiyasi mavjud emasdi) 1994-2008 yillar oralig'ida AQSH dollariga nisbatan o'sha vaqtdagi talab va taklif paritetidan kelib chiqib 1:1 nisbatda kiritilgan milliy valyutaning rasmiy kursi 2008-yil oxiriga kelib 1:1300 nisbatga tushib ketdi (6-grafika).

6-grafika

### O'zbek so'mi almashuv kursi dinamikasi (1994-2008 yillar)




Pulning umumiy massasini va xarid kuchini belgilashda tobora torayib borayotgan ichki iste'mol mollari bozori, sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari natural hajmining tushib borishi, mahsulotlarning pul qiymati, kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarish va iste'mol hajmi, hamda to'xtovsiz o'sib borayotgan budjet xarajatlari belgilovchi muhim faktorlar edi. Pulning qadrsizlanishidagi bu omillar ko'p yillar davomida o'zi ta'sirini saqlab qoldi.

Bu tashvishli tendensiyalar oqibatlari 2000-yillar boshida dunyo bozorlarida asosiy xomashyo mahsulotlari narxiga bo'lgan konyunkturaning keskin o'zgarishi (Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Amerika va umuman global Janub davlatlari iqtisodiy taraqqiyotining kuchayishi mantiqiy natijasi sifatida) tufayli birmuncha yumshadi. Xomashyo resurslari narxlarining eng yuqori ko'rsatkichlari (paxtaga bo'lgan narxdan tashqari) aynan 2005-2016 yillarga to'g'ri keldi va bu O'zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi. Dunyo xomashyo bozoridagi konyunkturaning O'zbekiston eksporti, hamda oltin-valuta

jamg'armalarini katta miqdorlarda yaratish uchun qulayligi uzoq davom etgan trendga aylandi. 2000-yillarning boshlari aholisi dunyo aholisining yarmini tashkil etgan Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi davlatlar, va ayniqsa, ikki yirik davlat (Xitoy<sup>122</sup> va Hindiston<sup>123</sup>) iqtisodiyoti jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan ajralib turdi. Bu kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarish jarayoni tobora ko'proq moddiy resurslarni jalb qilishni talab qildi va mintaqadagi qo'shni mamlakatlarga katta imkoniyat yaratdi (7-grafika).

7-grafika



Manba: Jahon banki

Agar 1980-yilda Xitoy yalpi ichki mahsuloti 305 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilga kelib bu ko'rsatkich 19,5 trln AQSH dollariga yetdi. Xitoy iqtisodiyoti 2009-yilda Yaponiyani ortda qoldirib, dunyoda ikkinchi iqtisodiyotga aylandi. Shu bilan birga, 1980-yildan 2015-yilgacha Xitoyning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 %dan 17 %gacha oshdi. 2000-yildan 2017-yilgacha bo'lgan davrda Hindiston iqtisodiyoti 3,3 baravar o'sdi, bu yalpi ichki mahsulot hajmi 2,65 trln AQSH dollarini tashkil etdi. Hindiston real yalpi ichki mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7,1 %ni tashkil etdi.


Tabiiy resurslarga bo'lgan talabning dunyo bozorlarida oshishi, narxlarning

<sup>122</sup> Qarang: China economy update: <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2023/12/14/sustained-policy-support-and-deeper-structural-reforms-to-revive-china-s-growth-momentum-world-bank-report>

<sup>123</sup> Qarang: India – economic situation and prospects. <https://documents.vsemirnyjbank.org/ru/publication/documents-reports/documentdetail/471311468034809114/india-economic-situation-and-prospects>

o'sishi O'zbekistonning eksport potensialiga, mamlakat iqtisodiy potentsiali o'sishiga juda ijobiy ta'sir qildi. 2005-yil natijalari bo'yicha umumiy eksport miqdori 4,8 mlrd. AQSH dollari tashkil etgan bo'lsa, 2015-yil natijalari bo'yicha bu ko'rsatkich 9,8 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi (2,04 barobar o'sish). Lekin, shu bilan birgalikda 2011-yildan so'ng mamlakat tashqi savdo hajmlarida manfiy tafovut - defitsit paydo bo'ldi. 2012-yil natijalari bo'yicha eksport importdan 23% ortda qolgan bo'lsa, 2023-yil natijalariga kelib 63 %ga o'sdi (qar. 8-grafika).

8-grafika




Albatta, importning o'sishi mamlakatning importga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkoniyatlari kengaygani va eksportga mo'ljallangan tovarlarni ishlab chiqarish uchun ham ma'lum miqdorda homashyo, ikkilamchi qismlar, texnika va uskunalarni import qilish zaruratlarini anglatadi. 2011-yildan boshlab tashqi savdodagi defitsit hajmining bunday keskin o'sishining o'ziga xosligi shunda ediki, eksport narxlari o'sgan sharoitda importning absolut xajmlari o'sib bordi. Bundan tashqari bir qator omillar mavjud edi:

- cheklanilgan konvertatsiya sharoitida almashuv kursi bozor talab-taklifi o'rtasidagi muvozanat emas, sun'iy belgilangani uchun import, ayniqsa, iste'mol mollari importi foydali biznesga aylanib, xo'jalik va ma'muriy nomenklatura bu biznesni to'la nazorat qilardi;

- eksport asosan davlat korxonalari tomonidan va jahon bozorida yuqori likvidli homashyo mahsulotlari asosida amalga oshiriladi va bu davlatga qo'shimcha daromadlar keltiradi. Masalan, 2022-yil so'ngida 1 unsiya (31,1 gramm) oltinni qazib olish tannarxi Navoiy TTK uchun 778 AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, o'sha vaqtdagi jahon bozoridagi oltin narxi 1900 AQSH dollaridan baland edi<sup>124</sup> (eng past tannarx ko'rsatkichi Newmont<sup>125</sup> va Barrick<sup>126</sup> kompaniyalariga tegishli bo'lgan). Ya'ni mamlakat iqtisodiyoti asosini tashkil etgan kichik va o'rta biznes eksportda emas transchegaraviy oqimlar hajmi talab yaratgan importda daromad toparadi;

- davlat amalga oshirishni boshlagan yirik energetika, temiryo'l va avtomobil transporti, mashinasozlik sohasidagi investitsion loyihalar borgan sari ko'proq import mahsulotlarini talab qilayotgan edi (qar.9-grafika).

9-grafika



Narxlar o'sishi va eksport imkoniyatlarining kengayishi mamlakatda ma'lum moliyaviy resurslarni kelajakdagi muhim infrastrukturaviy va strategik ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish uchun zahira qilish imkoniyatini ham yaratdi (10-grafika). Oltin-valuta zaxiralari hajmi o'zgarishi trendlari tabiiy resurslar

<sup>124</sup> <https://t.me/ngmkofficial/15235>; <https://www.gold.org/about-gold/gold-supply/responsible-gold/all-in-costs>

<sup>125</sup> <https://www.newmont.com/investors/reports-and-filings/default.aspx>

<sup>126</sup> <https://www.barrick.com/English/investors/annual-report/default.aspx>



narxlarining keskin o‘shishi mos kelib, tashqi savdo hajmi sur‘atlari va qiymati o‘shishiga biroz monand emas. Bu holat tashqi savdodan kelayotgan daromadlarning katta qismi davlatning oltin zaxiralari hajmini oshirishga sarflangani<sup>127</sup> haqida dalolat beradi. Bu taktika milliy valyutadagi moliya oqimlarini konvertatsiya qilish asosan oziq-ovqat mollari importi doirasida cheklangan, jamiyatning tadbirkorlik va sayohat qilish sohasidagi talablari ortga surilib kelayotgan bir sharoitda oqlangan omil edi.

10-grafika



Eksport tovarlariga dunyo bozorlarida narxlar keskin o‘sgan sharoitda boshlang‘ich ustav fondi 1,0 mlrd. AQSH dollariga teng bo‘lgan O‘zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi (O‘TTJ) tuzilib, uning mablag‘lari strategik resurslarni dunyo bozorida sotganda ichki o‘rnatilgan narxlar o‘rtasidagi farqni, xususiylashtirilgan obyektlarni xorijiy investorlarga sotganda boshlang‘ich narxidan ortgan mablag‘larni, O‘zbekiston hukumatining valuta aktivlarini bir qismi hisobiga va boshqa manbalar hisobiga shakllanishi belgilandi<sup>128</sup>. Keyingi yillarda bu Jamg‘arma O‘zbekistonda amalga oshirilgan prioritet ahamiyatga ega bo‘lgan, bazaviy tarmoqlardagi texnik qayta tiklash va modernizatsiya qilish, injener infrastruktura obyektlarinin barpo qilish loyihalarini moliyalashtirishda bevosita

<sup>127</sup> Federal reserve economic data (FRED) ma’lumotlariga ko‘ra.

<sup>128</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 11-maydagi 3751-sonli farmoni, <https://lex.uz/docs/1004492>

ishtirok etdi va mamlakat moliyaviy tizimining stabilligini (uyg'unligini) oshirishda eng muhim suveren jamg'arma statusidagi moliyaviy institutlardan biriga aylandi (qar. 3-jadval).

3-jadval


2017-2022 yillarda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari

mld. so'm

Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022 <sup>129</sup>
<b>Aktivlar</b>	202 535	209 542	242 171	248 453	250 663	267 805
<b>Kapital</b>	161 206	169 273	204 133	210 415	212 625	212 600
<b>Daromad</b>	89 500	15 460	38 905	27 136	17 884	69 086
<b>Xarajatlar</b>	2 259	9 870	4 044	20 854	15 674	20 186
<b>Foyda</b>	87 241	5 590	34 861	6 282	2 210	48 900

Davlatning moliyaviy imkoniyatlari oshishi ichki rezervlar, ichki mahsulotning hajmi, mehnat unumdorligining o'sishi emas, balki eksport ashyolarining narxlari o'sishi hisobiga yuz berishi mamlakat makroiqtisodiy rivojlanishida dastlabki tashvishli signallarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bular ichida eng muhimi – davlat xarajatlarining keskin o'sishi edi. Albatta, bu o'sish o'z mohiyatida avvalgi yillarda davlat tashkilotlarining zarur bo'lgan xarajatlarining ham qoplanmaganligini (davlat tashkilotlari binolarining kapital va joriy remontga, turli ish jihozlariga muxtojligi, ortga surilgan zarur ijtimoiy xarajatlar) ham aks ettirar edi. 2005-2016 yillar davomida konsolidatsiyalashgan davlat budjeti xarajatlari 7,18 barobar oshib, 12,2 mld. AQSH dollari ekvivalentini tashkil etdi. Bu o'sish sur'atlari YaIMning o'sish sur'atlari bilan solishtirilsa, davlat xarajatlari nisbatan tez o'sayotgani aniqlashadi (qar. 11-grafika).

11-grafika



<sup>129</sup> Bundan keyingi davrlar uchun ko'rsatkichlar rasman e'lon qilinmagan.


Nominal ko'rsatkichlar taqqoslanganda davlat xarajatlarining o'sish sur'atlari YaIM parallel ravishda davlat zahiralarining o'sishi bilan yuz bergan, ya'ni davlat o'sayotgan xarajatlarni iqtisodiyotga bo'lgan fiskal bosimni orttirish hisobiga qoplagan. Uzoq davom etgan bu tendensiya yillar o'tib joriy to'lov balansiga katta negativ ta'sir ko'rsatdi. Taqqoslab qaralganda aynan shu yillarda YaIM hajmi 8,8 barobar o'sdi.

YaIM va davlat xarajatlarini taqqoslashda quyidagi mantiqiy omilni yuzasidan ta'kidlash lozim: jahon bozoriga eksport qilingan resurslar narxi jahon narxlarida aks topib, ular amaldagi nominal hajmlarda e'tirof etiladi. Biroq davlat xarajatlarini tahlil qilganda esa bu mablag'lar davlatning ichki ehtiyojlari uchun sarflanishi, asosan ichki bozordagi tovarlar bilan qoplanishini e'tiborga olib, nominal emas, to'lov pariteti kuchi (purchase power parity) ko'rsatkichlariga qarab baho berilgani ma'qul.

O'zbekistonda ichki talabni doimiy yuqori darajada ushlab, ichki taklif va import hajmlari o'sishiga eng katta ta'sir qilgan omil – transchegaraviy o'tkazmalarning, ya'ni O'zbekiston hududiga boshqa mamlakatlardan vatandoshlardan kelayotgan moliyaviy mablag'larning saldo hajmlari 2010-yildan keyin keskin oshib borgani hamdir.

2010-2016 yillar davomida bu o'tkazmalarning O'zbekiston iqtisodiyotiga bo'lgan absolut oqimi hajmi yiliga 2,9 mlrd. AQSH dollari miqdoridan 4,1 mlrd. gacha ko'tarildi (1,4 barobar), lekin shu yillar davomida aholi qo'liga kelib tushgan, ichki talabni oshiruvchi va importni stimullagan bu ko'rsatkichning kumulyativ hajmi 30,4 mlrd. AQSH dollarga yetdi. Bu pullar iqtisodiyotga xususiy sarf va jamg'armalar sifatida kirdi.

2015-yil davomida transchegaraviy o'tkazmalarning absolut hajmi RFning Ukrainaga nisbatan qilgan xurujlari tufayli birmuncha kamaydi, lekin 2016-yildan boshlab yana doimiy o'sish trendiga tushdi (qar. 12-grafika).



Transchegaraviy o'tkazmalar oqimi tufayli 2010-2016 yillar davomida aholining real daromadlari ham uzluksiz o'sib borgan. Real daromadlarning o'sish sur'atlari, hamda transchegaraviy mablag'lar (ikkilamchi daromadlar) oqimi o'rtasida kuchli korrelatsiya bo'lgani uchun real daromadlarning o'sish trendi transchegaraviy o'tkazmalar trendi bilan juda monand (2014-2015 yillarda keskin tushish).

Shu bilan birga, aholi real daromadlari va YaIMning o'sish sur'atlari o'rtasida 2010-2016 yillar davomida hech qanday korrelatsiya ko'rilmaydi, chunki:

- aholining real daromadlarining o'sishi ko'proq asosiy bandligidan keladigan daromadlar hisobiga emas, balki ikkinchi darajali daromadlar – transchegaraviy o'tkazmalar hisobiga yuz bergan;


- aholi bu pullarning katta qismini shaxsiy iste'molga (consumer demand increase) emas, ichki investitsiyalarga (investment growth) qaratgan.

2010-2011 yillarda aholining real daromadlari o'sish sur'atlari yiliga 20 %dan (bu O'zbekiston tarixidagi eng yuqori ko'rsatkich) ortiq bo'lgan va 2012-2016 yillarda 8,8% va 11,6% o'rtalarida bo'lgan. Lekin 2010-2015 yillar orasida YaIMning o'sish sur'atlari yuqori (yiliga 7 %dan ortiq) bo'lsa-da, aholi real daromadlarining o'sish sur'atlaridan birmuncha ortda bo'lgan. Ya'ni aholi o'z daromadlarini o'stirishda borgan sari ko'proq tashqi manbalarga tayanib, daromadlarini ham ichki iste'molga, ham mayda tadbirkorlik harakati ortidan ichki

ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, ichki bozorni turli tovar va xizmatlar bilan to'ldirishga ishlatdi (qar.13-grafika).

13-Grafika


### Aholi real daromadlari va YaIMning o'sish sur'atlari



Kuzatilayotgan davrda mahalliy kichik va o'rta tadbirkorlik rivojlanib, tegishli korxonalar soni birmuncha oshdi. Lekin 15 mlndan ortiq mehnat resurslari bo'lgan O'zbekistonda har 50 tadan ortiq mehnatga layoqatli kishilar soniga bitta korxonaga to'g'ri kelishi rasmiy tadbirkorlik hajmlari kichikligidan dalolat berar edi (qar.14-grafika).

14-grafika

### Korxonalar demografiyasi (mingta)



2010 -il yakunlari bo'yicha ro'yhatdan o'tgan korxonalar soni 229,9 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilga kelib, bunday korxonalar soni 278,5 mingtani tashkil

etdi (48,6 mingtaga, yoki 17,5 %ga o'sish). Ro'yhatdan o'tgan va amaliyot yuritayotgan korxonalar o'rtasida doimo tabiiy farq bo'ladi (faoliyatni boshlamagan, kasodga uchragan korxonalar hisobiga) va bu farq O'zbekistonda odatda 14-15 %dan oshmaydi. O'rganilgan oraliqda ham bu ko'rsatkich shunday bo'lgan.

Yuqorida aytilganidek, aholining real daromadlari asosan transchegaraviy pullar oqimining o'sishi hisobiga yuz bergan bo'lsa-da, bu daromadlarning sezilarli qismi ishlab chiqarish vositalarini sotib olish,


Yuqoridagi izlanishlarimiz ko'rsatadiki, 2000-yillarda jamiyatning tadbirkorlikka bo'lgan munosabatida sifat o'zgarishlari yuz berdi:

- transchegaraviy o'tkazmalarining sezilarli qismi iste'molga emas, tadbirkorlik subyektlarini yaratishga qaratildi;

- asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi keskin oshib import ichki tuzilishida mashina va uskunalarning hajmi sezilarli katta bo'ldi (bu faktga keyinroq qaytamiz);

- mamlakatga shuncha katta hajmda kirib kelgan mablag'larga qaramay talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblik keskin buzilmadi, inflatsiya ko'rsatkichlari (qar. 5-grafika) mo'tadil chegaralarda qoldi.


Tadqiqot davomida o'rganilgan asosiy taraqqiyot ko'rsatkichlari quyidagi ziddiyatni aniqladi: jamiyatning, turli individlarning iqtisodiy taraqqiyotga hissasi ortgan sari, davlat xarajatlar oqimini ko'proq ijtimoiy muammolarni yechishga emas, balki samarasi aniq bo'lmagan katta investitsiyalar loyihalarni amalga oshirishga, turli avvaldan samara bermaydigan tadbirkorlik faoliyati xarajatlarini kompensatsiya qilishga ko'proq qaratadi. Katta miqdordagi investitsion xarajatlar (arzon uy-joy qurilishi, eneregetika sohasidagi loyihalar) davlat budjeti xarajatlarining keskin o'sishiga olib keldi. 2010-2016 yillar davomida davlat konsolidatsiyalashgan budjetining xarajatlari qismi hajmi (qar.15-grafika) investitsiyalar va qishloq xo'jaligi faoliyati yurituvchi korxonalariga turli subsidiyalar, hamda ijtimoiy xarajatlar hisobiga o'sib borib, 2015-2016 yillarda tegishli ravishda 21 va 20 mlrd. AQSH dollari ekvivalentini tashkil etdi (6-7 yil davomida o'sish sur'atlari 160 va 152,7 foizlarni tashkil etdi).



Davlat borgan sari iqtisodiyotni subsidiyalash (qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish va uy-joy qurilishi ipotekasi sohalarida) va yirik infrastrukturaviy investitsion loyihalarni moliyalashtirishni o'z zimmasiga olishi buning asosiy sabablari edi. Natijada 2015-yildan boshlab davlat budjeti kamomadli bo'la boshladi va iqtisodiyot hajmiga nisbatan fiskal yukning yuqorilashib ketgani haqida dastlabki ishoralar paydo bo'ldi, davlatning daromadlari hajmi YaIM hajmiga nisbatan deyarli bir me'yorda to'xtadi.


2010-2016 yillar davomida shu yillari davlat konsolidatsiyalashgan budjetining xarajatlari YaIM ga nisbatan 26,4 %lik ulushdan 23,3 %gacha tushishi pozitiv holat deb talqin qilinishi mumkin edi, lekin bu o'zgarish xarajatlarning qisqarishi emas, YaIMning absolut miqdordagi o'sish sur'atlari yuqoriroq bo'lganligi uchun yuz bergan edi. 2005-yildan 2014-yillargacha davlatning konsolidatsiyalangan budjetida xarajatlarning YaIMdagi ulushi daromadlar ulushiga nisbatan sezilarli kam bo'lgan (eng katta farq 2012-yilda kuzatilgan va 5,9% punktini tashkil etgan (qar.16-grafika).

### Budjet daromadlari va xarajatlarining YaIMdagi ulushi dinamikasi



Fiskal daromadlarni oshirish imkoniyatlari cheklangan (kichik va o'rta biznes katta foyda miqdorlarini ko'rsatmayotgan va ularning hajmi o'smayotgan) sharoitda davlat budjeti xarajatlarining bunday keskin o'sishi yuzaga kelgan budjet kamomadini qisman tashqi qarz o'sishi hisobiga qoplashga undadi. 2010-yilda davlatning tashqi qarzi hajmi 3,28 mlrd. AQSH dollari ekvivalentini tashkil etgan bo'lib, YaIMning 6,6 %ga teng bo'lgan bo'lsa, 2015-yilga kelib bu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 8,62 mlrd. dollar (6 yilda o'sish sur'ati 260%) va 10,0% tashkil etgan (qar.17-grafika).

17-grafika




Bu ko'rsatkichlar umumiy makroiqtisodiy barqarorlik holatig katta ta'sir ko'rsatmas edi, chunki tashqi savdo hajmlari ko'tarilib, oltinning narxi oshib borishi



davom etayotgan edi. 2016-yilda davlat zahiralari hisobiga oshirilgan katta to'lovlar evaziga tashqi qarz hajmi va uning YaIMdagi ulushi ko'rsatkichlari bir oz tushgan (7,06 mlrd. dollar va 8,2%).

2010-yildan so'ng tashqi savdo balansi ichki bozorda iste'mol mahsulotlarining, hamda avtomobil, metallurgiya va mashinasozlik sohasidagi talabning katta qismi import mahsulotlari hisobiga qondirilayotgani evaziga umumiy import hajmlari keskin o'sa boshladi. 2016-yilda bu manfiy ko'rsatkich 2.4 mrd AQSH dollarini tashkil etib, bu miqdor 2000-yillar boshida mamlakat yillik importining hajmi bilan deyarli barobar edi. Muhimi statistikada "timsohning ochiq og'zi" deb atalgan fenomenga o'xshab, import hajmi bilan eksport hajmi o'rtasidagi manfiy munosabat yillar o'tgani sari ortib bordi va bu olib borilayotgan iqtisodiy siyosat importga moyillikni kuchaytirib borayotganiga ishora qiladi. Davlat nomenklaturasi valuta va xorijiy investitsiyalar defitsiti sharoitida turli sohalarda importni qisqartirish va mahalliyashtirish muhimligi ta'kidlab, mahalliy ishlab chiqaruvchini qo'llagandek bo'lar edi. Lekin aslida esa importni qisqartirish siyosati juda katta ijtimoiy-iqtisodiy talofotlarga olib keldi (qar.18-grafika).

18-grafika



O'zbekiston boshqa Markaziy Osiyo davlatlari kabi kontinent markazida joylashgan bo'lib, har qanday mahsulotni (hom-ashyo, komplektatsion qismlar va

parchalarni) mamlakatga qayta ishlash uchun olib kirganda va ularni tayyor mahsulot sifatida dunyo bozoriga taklif qilganda qo‘shimcha logistika xarajatlarini qoplashga majbur. Aynan shu tufayli apriori raqobatbardosh bo‘lish ehtimoli juda past. Faqatgina ichki bozorda bo‘lgan hom-ashyoga tayangan sohalargina raqobatbardosh bo‘la oladi. Hech bir mamlakat texnik jihatdan murakkab bo‘lgan buyumlarni ishlab chiqarishni butunlay o‘zida mujassamlashtirishga muvaffaq bo‘lmagan. Har qanday mahsulotni mahalliyashtirish mamlakatda juda katta injener-texnik xodimlar va dizaynerlar maktabi yaratilishini taqozo qiladi. Kuchli izlanish va rivojlanish (research and development – R&D) markazlariga ega bo‘lmagan mamlakatlar o‘zlarini innovatsion rivojlanishdan mahrum qilib, texnik va texnologik jihatdan qoloq yechimlarni kengaytirilgan ko‘lamlarda takrorlayverib, texnik qoloqlikka mahkum bo‘lib qoladilar, ularning raqobatbardoshligi yanada qisqartiradi.

2017-yilgacha milliy valuta konvertatsiyasining cheklanganligi, iqtisodiyotda monopol tizimlarning yuzaga kelishi, ayrim guruhlar tomonidan turli biznes yo‘nalishlarining taqsimlab olingani va bu faoliyat turlari davlatning nomenklaturasi tomonidan himoyalaniishi mamlakatda xukm surgan va hanuzgacha surayotgan importni kamaytirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish kabi iqtisodiy nosog‘lom g‘oyalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahsuli. Mahalliyashtirish g‘oyasi asosan O‘zbekistonda katta qismlarni yig‘ish texnologiyasiga tayangan bo‘lib, logistika va hom-ashyo, komplektatsiya andjomlari narxidagi ustama narxlar ishchi kuchi narxi sohasidagi raqobat ustunligini yo‘qqa chiqaradi. Natijada bu g‘oyalarning deyarli barchasi importga bo‘lgan talabni keskin oshiradi.

Valyuta tushumlari ustidan o‘rnatilgan qattiq cheklanishlarga qaramay, import va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning hajmi o‘sishi ma‘lum bir nuqtaga yetganda, kapitalning teskari oqimi mamlakatdan chiqib ketishi kuzatiladi<sup>130</sup>. Bu oqim import tovarlar va xizmatlar narxlaridagi qo‘shimcha ustama hajmi va kiritilgan kapital ustama foydasi va tanasi sifatida hisobiga hosil bo‘ladi. Eksport


---

<sup>130</sup> Леонова Н.В.: Факторы бегства капитала: обзор проблемы. Экономический журнал ВШЭ. DOI: 10.17323/1813-8691-2020-24-2-215-267. <https://ej.hse.ru/data/2020/06/28/1610022365>

imkoniyatlari cheklangan sharoitda import qilish va valutani erkin konvertatsiya qilish huquqini qo‘lga kiritgan tadbirkorlik institutlari import tovarlari narxiga ustamani eng yuqori darajada qo‘yadi. Ichki bozorda taklif cheklangan va bu taklif borgan sari import hisobiga qondirilayotgan sharoitda narx ma’lum miqyosgacha talabni cheklovchi faktor bo‘la olmaydi. 2011-yilda joriy hisoblar balansi pozitiv bo‘lib (qar.19-grafika), 2.8 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yilga kelib bu ko‘rsatkich 0,2 mlrd. AQSH dollari miqdoriga tushib qoldi (6 yilda 14 barobar qisqarish).

19-grafika

### Joriy hisoblar balansi dinamikasi



Ushbu bobning xulosalari shuki, 2005-2015 yillari dunyo bozorlarida konyunkturaviy o‘zgarishlar tufayli O‘zbekistonning an’anaviy eksportini tashkil etgan homashyo resurslariga narxlarning o‘sishi, transchegaraviy pullar oqimining ortishi, aholining tadbirkorlikka bo‘lgan intilishi, asosiy kapitalga investitsiyalar oshishiga qaramay, shu 9 yil davomida iqtisodiyotga bo‘lgan fiskal yukni yengillashtirish borasida keng imkoniyatlardan yetarli foydalanilmadi. Yangi daromadlar asosan strategik loyihalarni kelajakda moliyalashtirish uchun maxsus jamg‘armalar, oltin-zahira jamg‘armalarini to‘ldirish uchun sarflangan bo‘lsa-da, davlat budjetida qoniqtirilmagan turli ijtimoiy va institutsional xarajatlar ko‘paygani

uchun davlat xarajatlarining hajmi ham keskin oshdi, ularning YaIMdagi ulushi ba'zi yillari hatto 29,8 %gacha chiqdi. Empirik amaliyotdan ma'lumki, davlat xarajatlari YaIMning 20 %dan ohsa, bu davlat taraqqiyoti zudlik bilan sekinlasha boshlaydi<sup>131</sup>. Davlat budjeti xarajatlarining oshishi "tutashgan idishlar" kabi tashqi qarzni o'sishiga olib keldi

- 2000-yillarga kelib transchegaraviy o'tkazmalar мамлакат taraqqiyoti uchun juda katta ahamiyat kasb etib, oilalarning real daromadi o'sishiga, tadbirkorlik faoliyati oshishiga stimuly bo'ldi. Lekin shu bilan birga aholi real daromadlarining o'sishining tashqi omillarga bog'liqligi kuchaydi;

- tahlil qilinayotgan yillarda iqtisodiy stabillikka erishilmadi, tashqi savdo balansi, tashqi qarz, tashqi investitsiyalar dinamikasi borgan sari joriy to'lovlar balansiga negativ ta'sir o'tkazib, uning absolut va YaIMga nisbiy ko'rsatkichlari tashvishli darajaga yetdi;

- valuta konvertatsiyasini cheklash siyosati turli valuta kurslari paydo bo'lishiga, avvaldan kamomadli biznesni foydali biznesga aylantirish imkonini tug'dirdi;

- mahalliyashtirish, importni cheklash siyosati valuta konvertatsiyasini cheklash sharoitida raqobatbardosh bo'lmagan investitsion amalga oshirishga undadi. Natijada mahalliyashtirish, importni cheklash g'oyasining o'zi valutaga bo'lgan talabni keskin oshirib, import hajmini ko'paytirdi, iqtisodiyotni importga borgan sari qaram qildi. Bu negativ tendensiyalar nomenklatura tomonidan biznesga aralashuv ko'lami ortib borishi, bu jarayonning negativ ta'siri borgan sari iqtisodiyotning barcha sohalarini qamrab olishi, o'zining o'rta ko'lamlilikka ega bo'lgan deyarli har bir tadbirkor nomenklaturaga ma'lum boj to'layotgani<sup>132</sup>, xalq boyligi deb e'tirof etilgan resurslarning noshaffof "mahsulotni bo'lishish

---

<sup>131</sup> Qarang: "Бюджетный дефицит в оптимизации": <https://www.cer.uz/en/post/publication/budzetnyj-deficit-v-optimizacii>

А.Илларионов: Российская экономика в рецессии. <https://www.rbc.ru/economics/03/06/2002/5703bf1a9a7947afa08cd318>

А.Илларионов: действия государства в экономике не могут быть оптимальными. <https://libertarium.ru/67536.html>

<sup>132</sup> Строгий контроль правоприменения законодательства о защите прав предпринимателей. [https://www.norma.uz/nashi\\_obzori/strogiy\\_kontrol\\_pravoprimeneniya\\_zakonodatelstva\\_o\\_zashchite\\_prav\\_predprinimateley?ysclid=m2q9evm3vk211227479](https://www.norma.uz/nashi_obzori/strogiy_kontrol_pravoprimeneniya_zakonodatelstva_o_zashchite_prav_predprinimateley?ysclid=m2q9evm3vk211227479)

shartnomalari”<sup>133</sup> asosida sotilishi, aholining daromadlari chetdan kelayotgan transaksionalarga qaram bo‘lib qolgani fonida edi. Bundan tashqari, yuqorida ko‘rsatilganidek, jamiyatning, kichik va o‘rta biznesning iqtisodiy taraqqiyotga hissassi ortgan sari, davlatning iste‘molchilik kayfiyatlari kuchayib bordi. Dastlabki ijtimoiy shartnomaning iqtisodiy asoslari eroziyaga uchray boshladi (qar. 1-infografika).

*1-infografika*

## DASTLABKI IJTIMOIIY SHARTNOMA ASOSLARINING EVOLYUSIYASI

- ▶ Davlat xalqaro savdodan kelgan mablag‘larni qisman ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish, ko‘proq zaxiralar yaratishga qaratdi. Ichki investitsiyalar asosan infrastruktura loyihalariga qaratilib, iqtisodiy o‘shishning qiymat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ldi;
- ▶ Ortga surilgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechimi davlat xarajatlarining va tashqi qarzni sezilarli o‘shishiga olib keldi;
- ▶ Mahalliyashtirish, importni cheklash siyosati o‘zini oqlamadi, kichik va katta sun‘iy monopoliyalar hosil bo‘ldi;
- ▶ Valyuta nazorati kichik doiradagi tadbirkorlarga xizmat qilib, iqtisodiyotni keskin ortga tortdi, jamiyatda segregatsiya kuchaydi;
- ▶ Maqsad deb e‘lon qilingan iqtisodiy barqarorlikka to‘la erishilmadi: ko‘p kurslik valyuta almashuv tizimi, yuqori inflyatsiya, davlat xarajatlari o‘shishi, tashqi savdo balansi defitsiti, investitsiyalar hajmi pastligi
- ▶ Aholi demografiyasining xususiyatlari fonida kambag‘allikka qarshi kurashish muammosi aktual bo‘lib qoldi.

Keyingi boblarda biz ana shu tendensiyalar yangi O‘zbekiston sharoitida siyosiy voqe‘lik o‘zgargani va yangi makroiqtisodiy boshqaruv usullari qo‘llanilganiga qaramay, mamlakat iqtisodiyotini hanuzgacha orqaga tortayotganini tahlil qilamiz, chunki tarixiy obyektiv faktorlarga asoslangan taraqqiyot yo‘laklaridan chiqib ketish oson yengib bo‘ladigan siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy muammo emasligini asoslaymiz.

<sup>133</sup> Закон Республики Узбекистан от 7 декабря 2001 года №312-II «О соглашениях о разделе продукции».

## **II-BOB. YANGILANISH DAVRI VA MAKROIQTISODIY BOSHQARUV EVOLYUTSIYASI. “YANGI KEYNSCHILIK” MODELI**

### **2.1 Iqtisodiyotni liberallashtirishga asoslangan makroiqtisodiy boshqaruv modelining yuzaga kelishi, “yangi keynschilik” narrativlari**

2016-yil kuzida O‘zbekistonda siyosiy hokimiyat o‘zgarib, uning strategik rivojlanish yo‘nalishlari haqidagi asosiy hujjati “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha **Harakatlar Strategiyasi**” nomini oldi<sup>134</sup> (bundan keyin Harakatlar dasturi). Bu hujjatda “Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini saqlab qolish” masalasi eng muhim prioritet sifatida ko‘rsatilgan edi. Izlanishimiz davomida biz bu vazifani tayanch nuqtasi deb qarab, 2016-yildan keyingi davrda makroiqtisodiy barqarorlik omillari, oqibatlari tahliliga, hamda makroiqtisodiy boshqaruv metodologiyasining evolutsiyasiga asosiy e‘tibor qaratamiz. Dissertatsiyaning I-bobida ta’kidlanganidek, biz Yangilanish davrini ham uchta shartli bo‘limga bo‘lib o‘rganamiz:

- 2017-2019 yillar – makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish va yuzada turgan to‘siqlarni bartaraf etish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning yangi modeli bazasini barpo etish davri;

- 2020-2021 yillar favqulodli kuchli ijtimoiy siyosat Covid-19 zarbasi ta’siriga qarshi kurash va dastlabki tiklanish davri. Umumjahon (global) xavflar negizida boshqaruvning reaktiv (tezda ta’sir ko‘rsatish) uslubi joriy etildi va xalqda bu “qo‘l boshqaruvi” deb nomlandi;

- 2022 va hozirga qadar – inson qadrini yuksaltirish va milliy iqtisodiyotni yuqori o‘shish sur‘atlarini ta’minlash davri.

Harakatlar strategiyasi doirasida yangilanish davri iqtisodiy siyosatining uch ustuni namoyon bo‘lib, ular boshqaruvning fiskal, monetar, huquqiy-ma’muriy ma’muriy jabhalarini qamrab oldilar (qar.4-jadval).

---

<sup>134</sup> Qarang: 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi: <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>

Yangilanish davri iqtisodiy siyosatining uch ustuni ("yangi keynschilik")		
Fiskal stimullar	Makroiqtisodiy barqarorlik	Institutsional va ma'muriy islohotlar
“Har bir oila tadbirkor”, “Obod mahalla”, “Obod qishloq” kabi dasturlar ortidan iqtisodiy o‘shishga fiskal turtki berish;	Bazel III regulyativ normativlarini qo‘llash	Taraqqiyot strategiyalari asosida tizimli taraqqiyot modeliga o‘tish
Drayver sohalarga katta davlat investitsiyalarini, jumladan, qarzlarni hisobiga jalb qilish;	Asosiy stavka bilan inflyatsiya darajasi o‘rtasidagi farqni katta tutish. Banklarning daromadlarini stabillashtirish;	Ma'muriy davlat boshqaruv organlari faoliyatini aniqlashtirish va takroriylikni kamaytirish
Ipoteka dasturlari, shaharlar potensialini oshirish uchun davlat xarajatlari hajmini kengaytirish;	Huquqiy normalarni qabul qilish jarayonlarini Prezident qarorlari asosida jadallashtirish	Davlat boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini isloh qilish
Eksportni qo‘llash uchun turli fiskal yengilliklar berish;	Moliya bozorida regulyator emas, bozor qatnashchisi sifatida moliya bozori instrumentlari narxiga ta'sir o‘tkazish	Tadbirkorlar, biznes bilan muloqot platformasini yaratish
Qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga katta subsidiyalar berish	Inflyatsiyani targetlash	Korporativ boshqaruv islohoti

Eng prinsipial va nufuzli ikki qarorni alohida tahlil etish lozim:

a) **milliy valyutani erkin konvertatsiya** qilish asosini yaratib bergan tarixiy Prezident Farmoni<sup>135</sup>; b) **inflatsiyani targetlash** (ya'ni maqsadli parametrlar doirasida ushlab turishga intilish) amaliyotiga o‘tishni belgilovchi Prezident qarori<sup>136</sup>.

Shubhasiz, iqtisodiy rivojlanish, xalqaro tovar almashuv bozoriga integratsiya qilish, tashqi savdoni normallashtirish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, turizmni rivojlantirish, boshqa o‘ta muhim sohalarni jadallashtirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va birinchi to‘siq bo‘lib kelayotgan milliy valutaning cheklanilgan konvertatsiya muammosi edi. Valuta muomalasi sohasining haddan ziyod ma'muriy nomenklatura nazorati mavjudligi tufayli, tanlangan xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun valuta resurslariga erishishda mavjud imtiyoz va preferensiyalar bo‘lgani uchun, bozorda

<sup>135</sup> “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbe-kis-ton Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.09.2017y. №PF-5177

<sup>136</sup> “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 13.09.2017 y. №PQ-3272

raqobat buzilgan va iqtisodiyotning talab-taklif muvozanatlari qing'ir tashkil topgan va aks etgan edi. Ya'ni iqtisodiyotda "qiyshiq oynalar" effekti hosil bo'lgan edi. Texnik-iqtisodiy asoslari va mohiyati tahliliga ko'ra tubdan raqobatbardosh bo'lmagan biznes va investitsiya loyihalari bozor va rasmiy almashuv kursi o'rtasidagi deyarli 2 barobar farq tufayli nisbatan raqobatbardosh bo'lib ko'rinar edi. Import xomashyosiga asoslangan juda ko'p loyihalarda ozgina eksportga erishilsa ham, importdan olgan zararlarini eksport hisobiga qoplash imkoni mavjud edi.

Cheklangan konvertatsiya tashqi investitsiyalar va tijorat qarzlarini jalb qilish uchun eng katta to'siq edi. O'zbekiston rezidentlari o'z xalqaro "majburiyatlarini o'z vaqtida bajaradigan ishonchli, to'lovga layoqatli xalqaro sherik sifatida imidj"ga<sup>137</sup> ega bo'lishlariga muhim sharoit ta'minlanishi prinsipial ahamiyatga ega edi. Konvertatsiya investorlarga ishonch berib, jalb qilingan valuta resurslarini real iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik qayta jihozlash va diversifikatsiya qilishni amalga oshirish, jahon moliyaviy inqirozining salbiy oqibatlarini yumshatish imkonini berdi. Yuridik va jismoniy shaxslarga o'z mablag'larini o'zining xohishiga ko'ra erkin tasarruf etish huquqi berildi, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun valutaga bo'lgan talabni qondirishda teng raqobat sharoiti yaratildi. Eng muhimi - konvertatsiya O'zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotining integral tashkiliy qismiga aylanishiga to'la sharoit yaratdi.

Shu bilan birga barcha katta qadamlar kabi erkin konvertatsiyaga o'tish bir qator monetar va amaliy muammolarni ham keltirib chiqardi:

- o'rnatilgan yangi almashuv kursi ungacha mavjud bo'lgan kursdan deyarli 2 barobar past bo'ldi va bu milliy valyutaga bo'lgan talabni mahalliy importerlar tomonidan keskin oshishiga va bu talab o'z navbatida pul massasini belgilovchi normativlar qayta ko'rilishiga, M2 agregat hajmining o'sishiga olib keldi;

- konvertatsiya kiritilgan vaqtda xo'jalik sub'ektlarida O'zbekiston tijorat banklari va O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, xalqaro moliya institutlaridan valyutada berilgan kreditlar mavjud edi. 01.01.2018 yil holati

---

<sup>137</sup> "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 02.09.2017 y., №5177: <https://lex.uz/docs/3326421>



bo'yicha banklarda chet el valyutasidagi uzoq muddatli kreditlar qoldig'i 68 168,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Ushbu summa 2017-yil 1 sentyabrgacha taxminan 30 000 mlrd. so'mni tashkil qilardi<sup>138</sup>. Bunday holatlar qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va to'qimachilik sohalarida ko'p edi. Xorijiy valyutada kreditlari bo'lgan yirik korxonalariga davlat tomonidan maxsus qarorlar qarzni restrukturizatsiya qilishda yordam berilgan bo'lsa-da<sup>139</sup>, 200 ga yaqin umumiy qarzi miqdori 160 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lgan kichik va o'rta biznes vakillariga<sup>140</sup> bunday sharoitlar yaratib berilmadi;

- tashqi savdo balansi yanada buzildi, importerlar qiyin ahvolga qolib eksporterlarga qulay sharoitlar yaratib berildi, ularning so'm ekvivalentiga daromadi deyarli 2 barobar oshdi (importerlarning xarajati shunchaga ko'paygan bir sharoitda). Lekin ma'muriy boshqaruv tizimi bu mexanik hosilani tezda o'zgartirishga, import hajmi va nomenklaturasini karralarga oshirishga, miport narxida baholar transferi (transfer pricing<sup>141</sup>) to'la miqdorda aks etilishiga erishdi. Keyingi 12-15 oy davomida bozorda yangi almashuv kursi bazasida yangi darajada narxlar, savdo (talab-taklif) balansi yuzaga keldi: surunkali import biznesi bilan shug'ullanadiganlar ichki bozorning yangi narxlarga ko'nikmasiga ekstremal tezlikda erishdilar; eksport qiluvchilar esa likvidligi katta bo'lgan, xalqaro bozorlarda talabga bo'lgan tovarlarni eksport qilishga imkoniyat topdilar.

Yangi hokimiyat siyosatining mohiyati yuzada turgan muammolarnigina hal etish emas, balki iqtisodiyot va jamiyatda yig'ilib qolgan va uzoq vaqtlar amalga oshirilmagan makroiqtisodiy, avvalambor, monetar va fiskal barqarorlikka qaratilgan islohotlarni amalga oshirishda edi. Tabiiyki, bu jabhalarda avval o'zini oqlagan vositalar – davlatning institutsional va ma'muriy imkoniyatlariga murojaat qilindi. O'sha davrlarda ko'pgina mashhur iqtisodchilarning, iqtisodiy

---

<sup>138</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

<sup>139</sup> Qarang: "Tadbirkorlik sub'ektlarining xorijiy valyutadagi kredit majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq yukini kamaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 27.10.2021 y., №PK-5268: <https://lex.uz/docs/5696124>

<sup>140</sup> Tashqi iqtisodiy aloqalar qumitasining joylardan yig'ilgan operativ ma'lumotlariga ko'ra

<sup>141</sup> Transfer Pricing and Economic Substance: <https://exactera.com/resources/transfer-pricing-and-economic-substance>

islohotlarning asosiy avtor va moliyalashtiruvchisi – Jahon tiklanish va taraqqiyot banki turli rahbarlari va konsultantlarining eng ishongan fikri – davlatning iqtisodiyotni boshqarishda yetakchi roli bo‘lishi kerakligi g‘oyasi edi. Turli boshqa xalqaro moliyaviy tashkilotlarning islohotlar mohiyatini kengaytirishga moyilligi ularning o‘z mablag‘laridan bu islohotlarni moliyalashtirish istagi va majburiyatlari bilan tasdiqlangan edi.

Yumshoq regulativ omillar g‘oyalari O‘zbekiston rasmiylarida keng qo‘llovni topdi. Bu ta‘limotga aslida Garvard universitetining eng atoqli bitiruvchilaridan va bu iqtisodni davlat tomonidan boshqaruvining g‘oyaviy mohiyatini yaratgan olimlardan biri - Djon Meynard Keyns (John Maynard Keynes) asos solgan<sup>142</sup>. Dj.Keyns yaratgan iqtisodiy sikllar, ularning sabablari, haqidagi ta‘limot XX asrda iqtisodiy fikrning avangardi va samara mezoni bo‘lib qoldi. Olimning asosiy g‘oyasining ma‘nosi iqtisodiy inqirozga uchragan mamlakatlar taraqqiyotini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri - davlatning iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan xarajatlarini keskin oshirish va jamiyatdagi umumiy talab va iste‘mol hajmini davlat xarajatlarini o‘stirish hisobiga erishish postulatida edi. Dj.Keynsning bu g‘oyasi o‘zi yaratgan “asosiy psixologiya qonuni”dan kelib chiqib, jamiyat a‘zolarining daromadlari ortgan sari pul massalari turli jamg‘arma institutlari bo‘lgan banklar va davlat jamg‘arma fondlarida to‘plana boshlaydi, deb ta‘kidlaydi. Bu jamg‘armalar bevosita va bilvosita asosiy investitsiyalar va xaridlar manbai bo‘lib, jamiyatda umumiy talabni ko‘taradi, iqtisodiyot o‘sishiga ta‘sir qiladi, va aksincha, jamiyat a‘zolari aksariyatining real daromadlari tushib borsa, ular o‘z jamg‘armalarini banklardan olib o‘z turmush darajasini ushlab turishga harakat qiladilar. Bu shaxsiy iste‘mol talabni oshirsada, jamiyat rivojlanishi uchun ko‘p imkoniyatlar tug‘dirmaydi. Keynsga ko‘ra, davlat jamiyatdagi bo‘layotgan hodisalarni o‘zining imkoniyati doirasida aktiv boshqarishi mumkin va makroiqtisodiy uslublar yordamida investitsiyalar va unumli iste‘mol oqimlarini boshqarishi mumkin: kerakli vaqtda pul aylanmadagi massasini oshirib (bank

---

<sup>142</sup> Дж.Кейнс. Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. ООО “Издательство ЭКСМО”. М-2022г.  
82

protsentlarini tushirib) va kerakli vaqtda tejamli makroiqtisodiy rejimni qo'llab (protsentlarni, ya'ni pulning qarz olish narxini oshirib, aylanmadagi pul massasini kamaytirib).

Iqtisodiy fiqhda "yangi keynschilik" deb atalgan ta'limot XX asrning ikkinchi yarmida nufuzli olimlar va davlat rahbarlarining ongini egalladi. Yuqorida aytilgan sharoitlar fonida Yangilanish davrida O'zbekistonda ham Keynes g'oyalari keng tatbiq etildi. Aynan shu holatning oqibatlari haqida batafsil to'xtab o'tamiz, zero keyingi 6-7 yil davomida biz bu g'oyalar tufayli yutuqlarga ham erishdik, mag'lubiyatga ham.

Yuqorida urg'u berilganidek, O'zbekistonda yangi Keynschilik iqtisodiy taraqqiyotni jonlantirishda davlat sarflarining, investitsiyalarining hal qiluvchi rolini tan olib, makroiqtisodiy boshqaruv metodlarini liberallashtirish, jumladan, turli asossiz ta'qiq va cheklashlarni bekor qilish, milliy valyuta erkin almashinuvi barqarorligini ta'minlash, O'zbekiston iqtisodiyotining dunyo bozoriga integratsiyalashuvini tezlashtirish ortidan tashqi savdodagi ta'qiqlarni olib tashlash, tarif va notarif boshqaruv metodlarini soddalashtirish va minimallashtirish, O'zbekistonga xorij investitsiyalarini jalb qilish, xalqaro va yetakchi davlatlarning moliyaviy institutlari bilan aloqalarni kengaytirish, eksportga mo'ljallangan yirik ishlab chiqarish quvvatlarini, zamonaviy texnologiyalarni xalq xo'jaligiga joriy etish kabi chora-tadbirlar majmuasidan iborat edi. Bu tashabbuslarga umumiy nom bersak taraqqiyot tezlashuviga davlat mablag'lari asosida turtki berish g'oyasi edi. Bu g'oyaga erishishning asosiy yo'nalishi fiskal stimullar yaratishda edi.

Ikkinchi muhim yo'nalish moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, ya'ni narxlarni o'sishi, inflyatsiya darajasi, kredit foizlarining o'sishi umuman talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni kekin buzilishiga yo'l qo'ymaslik edi. Bu g'oyani ro'yobga chiqarishning asosida monetar cheklashlar, birinchi navbatda aylamadagi pul massasi ustidan qattiq monetar nazorat o'rnatish asosida talab hajmini keskin o'sishini oldini olish, pul narxini keskin oshirish hisobiga banklarning, korxonalarining investitsion faoliyatini cheklash kabi amaliyot usullari turar edi.

Uchinchi muhim yo'nalish - ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib,

u aholining turli qatlamlarining bandligini ta'minlash (ayollar va yoshlar prioritet tarzda), fuqarolarning ijtimoiy sohadagi eng bazaviy ehtiyojlarini qondirish (salomatlik, fan, ta'lim, madaniyat va sport sohalarida), ishlab chiqarish va aholi mobilligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan edi.

Bu makroiqtisodiy boshqaruv prinsiplari yuzaki qarashda bir-birini to'ldirayotgandek tuyuladi. Lekin fiskal stimullar bilan taraqqiyot tezlashuviga erishish, hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash g'oyalari amaliyotda o'zaro nisbiy qarama-qarshilikda bo'ladi: bir tarafdin davlatning investitsiyalari (jumladan, katta miqdorlarda olingan tashqi qarzlar) evaziga iqtisodiyotni jonlantirish, ya'ni davlat sarflarini oshirish. Ikkinchi hisobdan, bu davlat investitsiyalari bozorni haddan tashqari qizdirib yubormasligi uchun<sup>143</sup> iqtisodiyot rivojlanishiga katta miqdorlarda moliyaviy mablag'lar ajratayotgan xalqaro moliyaviy institutlar talabidan kelib chiqib, monetar va fiskal barqarorlikka erishish, ya'ni inflyatsiyani jilovlashni eng muhim imperativ deb qarash. Iqtisodiy adabiyotda inflyatsiyani jilovlash mamlakatlarning iqtisodiy o'sishini cheklashi, demakki, ijtimoiy sohani rivojlantirishga davlat budjeti va davlat moliyaviy institutlari imkoniyatlarini kamaytirishi mumkinligi haqida juda ko'p va har tomonlama fikrlar bildirilgan.<sup>144</sup> Bu fikrlar O'zbekiston iqtisodiyoti rivojida o'z tasdig'ini to'la topdi va inflyatsiyani jilovlash siyosati iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini amaliyotda qanchalik cheklaganini keyingi boblarda batafsil ko'rib chiqamiz.

Davlatning makroiqtisodiy siyosatida yangi Keynshilik alomatlari 2017-yildan so'ng to'la ko'rina boshladi. Bu siyosatning asosiy elementlari quyidagi postulatlarida edi:

- fiskal siyosatda davlat daromadlari va xarajatlarini keskin oshirish asosiy maqsadlardan biri bo'ladi, chunki dastlabki kapital konsentratsiyasi hosil

---

<sup>143</sup> МВФ: в Узбекистане наблюдаются ранние признаки перегрева экономики. МВФ: в Узбекистане наблюдаются ранние признаки перегрева экономики

<sup>144</sup> Agarwal I., Baron M.: Exploring the link between rising inflation and economic growth: The role of the banking sector. World Bank blogs. <https://blogs.worldbank.org/en/allaboutfinance/exploring-link-between-rising-inflation-and-economic-growth-role-banking-sector>

bo'lmagan, o'rtacha darajadagi tadbirkorlar sinfi tashkil topmagan, ichki rezervlar cheklangan, aholining va xususiy mayda tadbirkorlarning investitsion imkoniyatlari minimal darajada bo'lgan, o'rtacha sinf yuzaga kelmagan bir sharoitda davlat o'z zimmasiga juda katta iqtisodiy, ijtimoiy mas'uliyatlarni olishga majbur;

- katta hajmdagi sanoat, qishloq xo'jaligi va hududlardagi investitsion loyihalarni davlat jalb qilgan mablag'lar hisobiga amalga oshirish. Davlatning investitsion va joriy xarajatlari (public investments/spending) keskin oshadi, jamiyatda yangi ish o'rinlari ko'payishi, iqtisodiyotdagi talab yuqori darajada bo'lishi kutiladi;

- yirik infrastrukturaviy (ichimlik suvi, sug'orish inshootlari, arzon uy-joy, yo'llar, ko'priklar, sanitar tozalash zonalari, ekologiyani yaxshilash) loyihalar ham davlat hisobiga amalga oshirish (ular tijorat banklari va boshqa investorlarga foyda perspektivalari aniq bo'lmagani uchun qiziq emas);

- mamlakatning energetika, oziq-ovqat suverenitetini ta'minlash, eksport hajmini oshirish, transport, logistika kabi sohalarga davlat tomonidan prioritet yo'nalishlar (drayverlar) sifatida qaraladi;

- ijtimoiy sohada aholining yashash sharoitini yaxshilash (ayniqsa, periferiya va qishloqlarda), mahallalar kesimida maxsus taraqqiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari amalga oshiriladi. Aholining kam ta'minlangan qatlamlariga to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy yordam va "liftlar" tizimi ishlab chiqiladi va joriy etiladi.

Ma'lum bir ma'noda yuqorida keltirilgan postulatlar yangi ijtimoiy shartnomaning tarkibiy qismi ham edi. Turli sohalardagi loyihalarning aksariyati davlat moliyasi asosida amalga oshirilgani tufayli davlat xarajatlarining o'sishi - yalpi ichki mahsulotning yuqoriroq darajada o'sishi bilan, aylanmadagi pul hajmining keskin o'sishi esa - Markaziy bankning monetar siyosati samarasi bilan kompensatsiya qilib borilishi nazarda tutilgan edi, ya'ni Markaziy bankning monetar siyosati davlatning asosiy investitsiya siyosatining komplimentar (to'ldiruvchi) va giperinflyatsiya xavfidan cheklovchi qismi deb qaralgan edi.

Amaliyotda monetar siyosat komplimentar emas, asta-sekin asosiy dominant siyosatga aylana bordi, chunki u iqtisodiyotning kengroq qatlamini, aynan butun pul

aylanmasi qoidalarini belgilab, kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarishning eng muhim elementlari xomashyo va asosiy vositalarning narxi, ularning iglab chiqarish jarayoniga jalb qilish sharoitlarini belgilab berar edi. Xususan, valyuta bozorining erkinlashuvi, fiskal sohada oborot soliqlarining roli oshishi milliy valyutaga, oborot mablag'lariga talabni ko'tardi, Markaziy bank tomonidan o'rta muddatga mo'ljallangan (4-5 yil) inflyatsiyani ma'lum belgilangan doirasida ushlab turishga qaratilgan amaliyotlari<sup>145</sup> ishga tushirilib, ular M2 va M1 pul agregatlari hajmini chegaralashga mutlaqo qaratildi. 2018-yil 1-yanvar holatiga tor ma'noldagshi pul agregati (M1) hajmi 33,142 trln so'mni va shundan muomaladagi naqd pullar 19,449 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil 1-yanvar holatiga kelib bu ko'rsatkichlar mos ravishda 92,494 trln so'm (o'sish 2,8 barobar) va 45,608 trln so'mni (o'sish 2,3 barobar) tashkil etdi<sup>146</sup>. Lekin bu vaqt davomida YaIMning joriy narxlarda o'sish sur'ati 3,34 barobarni tashkil etib absolyut miqdorda 1192,2 trln so'mni tashkil etdi<sup>147</sup>. Aslida pul agregatlari hajmi parametrlarini belgilash umumiqtisodiy yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, xususan, tadbirkorlik faoliyatiga stimullarni yaratish, fiskal va monetar siyosatlarni muvofiqlashtirish, jumladan, davlat budjeti xarajatlarini cheklash, narxlar barqarorligini ta'minlash asosida amalga oshirilishi kerak edi. Lekin hukumat darajasida qabul qilingan qarorlarning fiskal va investitsion mohiyati samoradorlik sohasidagi muammolar tufayli (iqtisodiyot rivojlanishiga katta miqdorda pullarni jalb qilish siyosati) boshqa mamlakatlarda yuz bergani kabi O'zbekiston Markaziy bankining monetar cheklash amallari mohiyatiga borgan sari ko'proq zid kela boshladi<sup>148</sup>. Natijada monetar cheklash faqatgina Markaziy bank faoliyati va mas'uliyati doirasida bo'lgan instrumentlar bilangina amalga oshirildi. Hukumatning faoliyatini cheklay olmagan Markaziy bank o'z vakolati doirasida monetar barqarorlikni ta'minlashda qat'iqlik qildi:

---

<sup>145</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 13.09.2017 y., №PQ-3272

<sup>146</sup> Pul agregatlari: <https://cbu.uz/oz/statistics/dks/847195/>

<sup>147</sup> Milliy hisoblar: [https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx\\_data\\_544.xlsx](https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_544.xlsx)

<sup>148</sup> Jinankar P.N., Wong Ch.Y.: The impact of inflation targeting on inflation and growth: how robust is the evidence? May, 2020. Institute of labor economics. <https://www.iza.org/publications/dp/13284/the-impact-of-inflation-targeting-on-inflation-and-growth-how-robust-is-the-evidence>

- tijorat banklarining likvidligini ta'minlash shiori ostida ularning kapitaliga va rezerv jamg'armalariga bo'lgan talablar keskin oshirildi va banklarning katta rezervlari Markaziy bank avuarlariga aylandi (Markaziy bank depozit siyosati tufayli aylanmadan chiqarildi). Markaziy bank tijorat banklarining amaldagi kredit portfeli foyda darajasini inobatga olgan holda bozorda depozitlar va qimmatli qog'ozlar taklif qilib, tijorat banklarini hech qanday risksiz o'rtacha va mo'tadil daromadlarga qanoat qilishga o'rgatdi;

- Markaziy bankning qayta moliyalash stavkalari ko'tarildi va uning ortidan depozitlar va kreditlarning stavkalari keskin oshdi;

- Markaziy bank tomonidan kreditlarni kafolatlash, garov miqdori va miqyosini hisoblash, kreditlarni tasniflash talablari oshirildi.

2015-yildan boshlab Markaziy bank tijorat banklariga o'rnatiladigan standartlarni jahon banklarining eng yaxshi amaliyotlariga moslashga harakat qilar edi. 2017-yilga kelib jalb qilingan depozitlarga nisbatan zaxira talablari, riskka tortilgan aktivlar darajasini belgilash va banklar kapitalining aktivlariga nisbatan belgilangan prudensial normativlari bo'yicha xalqaro Basel III<sup>149</sup> normativlarini joriy etishning ikkinchi va 2018-yilda esa uchinchi bosqichlari amalga oshirdi. Markaziy bankning amaliyotlari natijasida tijorat banklarining kichik va o'rta biznesga kreditlar berish "ishtahasi" keskin kamayib, kreditlar narxi oshdi. Kichik va o'rta korxonalar aylanma mablag'lari uchun borgan sari qiyinchilik va katta foizlar evaziga kreditlar ola boshladilar. Markaziy bank tomonidan bunday choralarning ko'rilishi inflyatsiyani targetlash mexanizmining tabiiy hosiloti edi. Lekin ikkinchi tomondan, hukumat tomonidan olib borilgan fiskal va tariflar siyosati Markaziy bankni monetar boshqarish instrumentlarini keskin va keng ko'lamda qo'llashga majbur qildi.

Yangi Keynschilik nazariyasiga asoslangan siyosatni yuritish uchun davlat eng avvalo o'z moliyaviy resurslari va makroiqtisodiy boshqaruv samarasiga tayanishi lozim edi. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash davlatning moliyaviy

---

<sup>149</sup> Qarang: Basel III: international regulatory framework for banks: <https://www.bis.org/bcbs/basel3.htm>

tizimi ustunlarini tashkil etuvchi beshta prinsipial manbaning hosil bo'lishi va sarflanishidagi son va sifat o'zgarishlariga bog'liq bo'lishi kerak edi, aynan:


- Davlat budjeti hajmi va uning prioritetlari, ichki tuzilishi;
- Markaziy bankning oltin-valyuta zahirasi hajmi, ichki tuzilishi;
- Davlatning boshqa suveren zahira jamg'armalari stabiligi;
- Davlat banklarining moliyasi, uning stabiligi (tuyg'unligi va uyg'unligi),

aktiv-passivlari ichki tuzilishi va sifati;

- Davlat korxonalarining moliyasi, faoliyati stabiligi (ishlab chiqarish hajmlari, foyda, investitsiyalar, qarzlar, fiskal bosim va boshqalar), istiqbollari.

Ana shu beshta manba dinamikasida 2017-yildan so'ng juda katta o'zgarishlar yuz berdi. Jaxon banki tavsif etgan ma'lumotlarga ko'ra 2017-2023 yillarda davlatning konsolidatsiyalashgan budjetining xarajatlari keskin o'sib bordi. Bu vaqt ichida xarajatlar 13,9 mlrd. AQSh dollari miqdoridan (YaIMning 22,7 foizi) 31,3 mlrd. dollargacha ko'tarildi (YaIMning 34,4 foizi), ya'ni yetti yil davomida davlat xarajatlarining o'sish sur'atlari 230 %dan ortiq bo'ldi (qar. 20-grafika).

20-grafika





Vaholanki, ana shu yillar davomida YaIMning hajmi 2017-yildagi hajmidan (\$61,2 mlrd.) 148,5 %ga o'sib, 2023-yilda \$90.9 mlrd.ni (joriy davrdagi o'rtacha almashuv kursi bilan hisoblangan ekvivalenti bo'yicha) tashkil etdi. Lekin davlat xarajatlarning o'sishi, iqtisodiyotga bo'layotgan xususiy va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmiga deyarli ta'sir qilmadi. Tahlil qilinayotgan yillar davomida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning sof oqimi juda volatil (o'zgaruvchan) holda bo'lib, 1,8 mlrd. dollardan 2,1 mlrd.ga o'sdi (o'sish sur'ati 16,7 %ni tashkil etdi). Konvertatsiya kiritilgan yildan keyingi 2018-yilda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning sof oqimi 0,6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi, ya'ni bir tomondan iqtisodiyot qatnashchilariga yangi voqe'likka ko'nikish uchun bir oz vaqt talab qilingan bo'lsa, ikkinchi tomondan uzoq yillar davomida orqaga surilib kelinayotgan dividendlar va boshqa tashqi to'lovlar oqimi tufayli mamlakatdan kapital oqimi avvaliga keskin oshdi va keyingi yillarda stabillashdi Yuqoridagi grafikadan bir tarafdin YaIM, davlat xarajatlari va tashqi qarz dinamikasida chiziqli to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik borligini ko'rsak, ikkinchi tarafdin - to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning sof oqimi va transchegaraviy pullar oqimi o'rtasidagi zaif bo'lsa-da, lekin avvalgi bo'limlarda asoslab berilgan bog'liklikni ham ko'rish mumkin. Davlat tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar, budjet xarajatlarning keskin o'sishi 2017-2023 yillar davomida davlatning tashqi qarzi (O'zbekiston Respublikasi nomidan va davlat kafolati asosida jalb qilingan mablag'lar summasi) keskin o'sib borishiga sabab bo'ldi. Jahon Banki, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yilda davlatning tashqi qarzi 11,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa (YaIMning 19,3%), 2023-yil natijalari bo'yicha 33 mlrd. AQSh dollarini (YaIMning 36,3%). Shunga qaramay, 2020 yildan boshlab qonunchilikda davlat qarzlarni jalb qilishning maksimal yillik chegarasi o'rnatila boshlagandan so'ng, davlatning tashqi mablag'larini jalb qilish hajmi o'rnatilgan chegaradan biroz past bo'lgan.<sup>150</sup>

Davlat xarajatlari va tashqi qarzining o'sishi, shubhasiz uchinchi moliyaviy

---

<sup>150</sup> "Davlat qarzi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni. 29.04.2023 y., №YoRK-836:  
<https://lex.uz/ru/docs/6446817?ONDATE=02.08.2023%2000>

ustun - davlatning oltin-valyuta zaxiralari dinamikasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazdi. Bu zaxiralar tashqi savdo negativ balansi, investitsiyalar sof oqimi muvozanati buzilgan tarzda va oqibatda xorijiy valyutaga keskin talab oshganda, davlatning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi (joriy to'lov balansi) manfiy bo'lganda ishga tushiriladigan bufer vazifasini bajardi. 2018-yilning yanvar oyida O'zbekiston Respublikasining oltin-valyuta zaxiralari hajmi 28'076,9 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil 1-oktyabriga kelib bu raqam 41'139,1 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi (46,52 %ga o'sish). Lekin bu o'sish asosan oltin narxining jahon bozorida o'sishi hisobiga yuz bergan, chunki zaxiralar ichki tuzilishida 2018-yil yanvari oyida xorijiy valyutadagi zaxira aktivlarining hajmi 13'663,9 mln. AQSh dollariga teng, 2024-yil oktyabriga kelib bu ko'rsatkich 8'709,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi (36,25 %ga qisqarish yuz bergan). Yiliga 100 tonna atrofida oltin ishlab chiqaradigan mamlakatda 2024-yil uchinchi choragiga kelib 360 tonna oltin zaxiralarda mavjud bo'lgan va bu ko'rsatkich 337,47 tonnadan (2022-yil 1-iyul) 395,94 tonnagacha o'zgarib borgan (2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)<sup>151</sup>.

O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi o'sgani bilan eksport va import hajmi o'rtasidagi tashqi savdo defitsiti ham borgan sari o'sib bordi. Bu holat faqat 2022-2024 yillar davomida joriy to'lov balansi hamda oltin-valyuta zaxiralari hajmiga negativ ta'sir o'tkaza boshladi. Shu davrgacha joriy to'lov balansi transchegaraviy o'tkazmalar hisobiga balanslashib kelgan edi. 2017-2023 yillar davomida transchegaraviy o'tkazmalarining kumulyativ hajmi 48,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, 2022-yilda eng yuqori 13,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan (oxirgi 2 yilda qariyb 20 mlrd. AQSh dollari mamlakatga kirib kelgan).

Turli ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan va quyi jabhalarda (mahalla, qishloq va tumanlarda) tadbirkorlik harakatini rivojlantirish, arzon uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan loyihalarga ("Har bir oila tadbirkor"<sup>152</sup>), "Obod qishloq",

---


<sup>151</sup> O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralari.

[https://cbu.uz/oz/statistics/intlreserves/?arFilter\\_DATE\\_ACTIVE\\_FROM\\_1=&arFilter\\_DATE\\_ACTIVE\\_FROM\\_2=&arFilter\\_ff%5BSECTION\\_ID%5D=3514&year=2024&month=11&set\\_filter=&set\\_filter=Y](https://cbu.uz/oz/statistics/intlreserves/?arFilter_DATE_ACTIVE_FROM_1=&arFilter_DATE_ACTIVE_FROM_2=&arFilter_ff%5BSECTION_ID%5D=3514&year=2024&month=11&set_filter=&set_filter=Y)

<sup>152</sup> "Har bir oila – tadbirkor" dasurini amalga oshirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 90

“Obod mahalla”<sup>153</sup> va ipoteka dasturlari) davlat budjeti va davlat banklari tomonidan katta mablag‘lar ajratildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan Osiyo taraqqiyot banki (keyingi o‘rinlarda — OTB) bilan birgalikda O‘zbekistonda ipoteka bozorini rivojlantirish dasturini 2019 — 2021 yillarda amalga oshirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Aytilgan Prezident Farmoni asosida uzoq muddatli barqaror ipoteka moliyalashtirish tizimini yaratish uchun OTB tomonidan 200 mln. AQSh dollari miqdoridagi qarz mablag‘lari ajratildi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan boshlang‘ich ustav kapitali miqdori 25 mlrd. so‘m bo‘lgan aksiyadorlik jamiyati shaklidagi Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasini (O‘zIQMK) ta‘sis etildi<sup>154</sup>. Bu kompaniyaning tuzilishi ipoteka bozorining keskin tezlanishiga sabab bo‘ldi va kompaniyaning ma‘lumotlariga ko‘ra 2020 yilning 3-choragidan 2023-yilning 1-choragi yakunlarigacha ana shu kompaniya bilan hamkor bo‘lgan tijorat banklarining umumiy ipoteka portfeli 26,05 trln so‘mdan 47,63 trln so‘mgacha o‘sdı (1,83 barobar). Ipoteka kreditlari taklif etgan banklar orasida eng katta kreditlar Ipoteka banki tomonidan berilgan bo‘lib, 2023-yil 9-oyligi natijasiga ko‘ra bu bankning umumiy ipoteka kreditlari hajmi ichidagi ulushi 25%, Qishloq-qurilishbankning ulushi 19 %ga yetdi (qar.2-diagramma).

2-diagramma\*



\*Ma‘lumotlar O‘zIQMK tomonidan tasarruf etilgan

07.06.2018 y., PQ-3777: <https://lex.uz/docs/3772869>

<sup>153</sup> “Obod mahalla” dasturi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.06.2018 y., PF-5467: <https://lex.uz/docs/3797772>

<sup>154</sup> Qarang: <https://www.uzmrc.uz/>

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbari tashabbusi 2017-yildan boshlab bilan yangilanish siyosati amalga oshirildi. Iqtisodiy sohada islohotlar Dj.Keynsning asosiy g'oyalariga asoslangan makroiqtisodiy boshqaruv modeliga<sup>155</sup> tayangan holda olib borildi. Bu modelning o'ziga hos tomonlari uy xo'jaliklari va hukumatning xarajatlarini oshirish, hamda biznesni daromadlarini stimullashtirish asosida jamiyatdagi talabni imkoni boricha maksimal yuqori darajada ushlab turishga qaratilgan. Xalqaro moliyaviy bozorlarda pulning narxi arzon, O'zbekiston iqtisodiyoti asosini tashkil etgan tabiiy resurslar va oltinga bo'lgan narxlar uzluksiz ko'tarilib borgan, hamda transchegaraviy pul oqimlari stabil va uzluksiz oshib borgan sharoitda bunday siyosat o'zini to'la oqladi.

## **2.2 Prudensial monetar siyosat va uning taraqqiyot sur'atlariga o'tkazgan ta'siri**

Biz yangi Keynschilik deb atagan makroiqtisodiy boshqaruv modeli O'zbekiston Markaziy bankining yuqori prudensial normalarida, so'nggi yillarda olib borilayotgan qattiq monetar siyosatida yaqqol ko'rinadi. Bu siyosatning o'rta muddatli (5-6 yil ichida) maqsadi yillik inflyatsiya ko'rsatgichini 5 foizlik darajaga tushirish deb belgilangan<sup>156</sup>. Joriy prudensial monetar siyosatning ichki mohiyati quyidagilardan iborat<sup>157</sup>:

– asosiy foiz stavkasi, hamda o'rtacha tortilgan kreditlar stavkalari bilan rasmiy inflyatsiya o'rtasidagi farqni imkon boricha yuqori darajada ijobiy holda saqlab turish;

– tijorat banklar kapitali banklar aktivlarining hajmi va sifatiga bo'lgan talablarni surunkali qayta ko'rib borish;

– banklarning aktivlarini hosil qilish va ularning sifatini ta'minlash uchun qo'shimcha institutsional nazorat turlarini belgilash;

– banklarning aktivlari likvidligini oshirish maqsadida Markaziy bank bilan

---

<sup>155</sup> Qarang: <https://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/2014/09/basics.htm>

<sup>156</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki: Pul-kredit siyosati maqsadi va tamoyillari. <https://cbu.uz/oz/monetary-policy/concept/>

<sup>157</sup> Qarang: <https://cbu.uz/oz/monetary-policy/concept/>; <https://cbu.uz/oz/monetary-policy/trend/>

olib boriladigan operatsiyalar ulushini ko‘paytirish;

– banklarning passivlariga bo‘lgan rezerv talablarini yuqori darajada tutish va valyutalar turi bo‘yicha differentsiatsiya qilish.

Bu yo‘nalishlarning barchasi pulning narxini yuqori darajada ushlab, bozor qatnashchilarining investitsion xarajatlarini, joriy aylanma mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini kreditlar hisobiga qoplash imkoniyatini keskin toraytiradi va aylanmadagi pul hajmini keskin chegaralarda ushlab hisobiga moliyaviy barqarorlikka erishishga qaratilgan.

Izlanishimiz natijalari sifatida biz moliyaviy barqarorlik g‘oyasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish sur‘atlariga ko‘rsatayotgan salbiy ta‘sirini ko‘rsatib, bu g‘oya mamlakatning ichki rivojlanish mantiqiy talablari emas, balki ko‘proq tashqi kreditorlar, jumladan, xalqaro moliya institutlari talablari ortidan amalga oshirilayotgani va oqibatda iqtisodiy o‘shishni keskin cheklayotgani haqida xulosa va asoslarni keltiramiz. Har qanday kreditor berayotgan qarzini qaytishi haqida ma‘lum majburiyatlarni qarz oluvchi mamlakatning makroiqtisodiy boshqaruv organlaridan talab qiladi. Ikkinchi tomondan, izlanishimiz shuni ko‘rsatdiki, prudensial tadbirlarning barchasi hech qanday qo‘shimcha qiymat yaratmagan holda transaksion xarajatlarning hajmini oshiradi, transaksiyalarni amalga oshirishni murakkablashtiradi, pul-kapital aylanmasini sekinlashtiradi.


2017-2024 yillar davomida O‘zbekiston Markaziy banki tomonidan muntazam olib borilgan kredit stavkalarini inflyatsiya ko‘rsatkichlariga nisbatan imkoni boricha yuqori darajada qo‘llab-quvvatlash siyosati iqtisodiyotdagi barcha boshqa amaliyotlarga nisbatan bank yuritish amaliyoti eng samarali sohaga aylanishiga olib keldi. Real ishlab chiqarish emas, xizmatlar sohasiga imtiyoz bergan bu teskari imperativ iqtisodiyotimizga juda katta zararlar keltirdi. Ko‘rish mumkinki, O‘zbekistonda bank sektorining rivojlanishi 2017-2023 yillarda Akademik Auzan iborasi<sup>158</sup> bilan aytganda “ikkinchi kosmik tezlik”da yuz bergan. 2017-2018 yillar davomida O‘zbekiston Markaziy bankining Bazel III talablariga

---

<sup>158</sup> Аузан А.: Миссия университета: взгляд экономиста. М.-2013. 278-бет.: <https://cyberleninka.ru/article/n/missiya-universiteta-vzglyad-ekonomista/viewer>

moslash uchun tijorat banklari kapitalini oshirib borish talabi tufayli O‘zbekistondagi jami tijorat banklarining kapitali 2,3 barobar o‘sgan bo‘lsa, 2018-2020 yillar oralig‘ida shu talablar ketidan banklar kapitali hajmi yana 2,47 barobar, 2020-2023 yillar oralig‘ida esa 1,74 barobar oshib, absolyut miqdorda 89,030 trln so‘mni tashkil etdi (qar.21-grafika).


21-grafika



Banklarning ana shu davrlarda aktivlari hajmi, sof foydasining o‘shish sur‘atlari bo‘yicha barcha boshqa turdagi bizneslardan ustun bo‘lib qoldi: 2017-2023 yillar davomida barcha tijorat banklarining aktivlari 7,32 barobar (732,44%) o‘shib absolyut miqdorda 615,802 trln so‘mni, ularning sof foydasi esa 4,27 barobar (426,53%) o‘shib, absolyut miqdorda 8,023 trln so‘mni tashkil etdi. Tijorat banklari bo‘yicha RoA ko‘rsatkichi 01.01.2023 holatiga 1,796% ni tashkil etgan. 2017-yilda YaIM tarkibida moliyaviy va sug‘urta xizmatlari hajmi 9,2 trln so‘mni tashkil etib YaIMdagi ulushi 6,2% bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkichlar 2023-yilga kelib mos ravishda 44,1 trln so‘m va 6,7%ni tashkil etdi - 4,8 barobar o‘shish kuzatildi. Boshqacha qilib aytganda, mamlakatdagi 2017-2023 yillarda amalga oshirilgan fiskal va monetar siyosat umumiy pul massasi oqimlarini banklar va davlat budjeti qayta taqsimoti hisobiga moliyaviy resurslarni borgan sari ko‘proq ishlab chiqarish sohalaridan banklar va boshqa mahalliy moliyaviy institutlar foydasiga taqsimlay

boshladi<sup>159</sup> (qar.2-diagramma). Bu tendensiya vaqt o'tishi bilan ishlab chiqarish tarmoqlarida aylanma mablag'larining yetishmasligi va ularning bak kreditlariga muxtojligi darajasining o'sishiga olib keldi.

2-diagramma




Bu muammo Markaziy bankning inflyatsiyani targetlash siyosati ortidan asosiy stavkani inflyatsiya darajasidan sezilarli darajada yuqori tutishga qaratilgan siyosati ketidan tobora chuqurlashdi. Mamlakatimizning iqtisodiy tarixining qaysi bir bo'lagini olmaylik, 2017-yilga qadar real foiz stavkasi (kreditlar stavkasining inflyatsiyaning protsentdagi darajasi o'rtasidagi farq) ijobiy bo'lmagan. 2023-yilning 1-iyun holatiga kelib bu farq +5 %ga yetgan. Asosiy foiz stavkasi va kredit stavkalari orasidagi farq 2019-yildan beri 10 %dan yuqori. Milliy valyutadagi kreditlar uchun o'rtacha tortilgan foiz stavkasi hamda inflyatsiya orasidagi farq 2023-yilning may oyi holatiga 12,4 %ni tashkil etgan (bunda: imtiyozli kreditlar va mikroqarzarlar bo'yicha foiz stavkalari hisobga olinmagan). Real foiz stavkasi 2018-yildan keyingi davrda hech bir oyda 6 foizdan past bo'lmagan bo'lsa, asosiy stavka hamda o'rtacha foiz stavkasi o'rtasidagi farq 2018-yildan keyingi davrda 4 %dan past bo'lmagan<sup>160</sup>. Pul bozorida asosiy stavka pasaygan tarzda ham pul narxida

<sup>159</sup> <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/1422026/>

<sup>160</sup> <https://cbu.uz/oz/statistics/buletin/1688710/>

(kredit foiz stavkalari) deyarli o‘zgarish kuzatilmagan (22-grafika<sup>161</sup>).

22-grafika



Xususan, 2024-yilning dastlabki oylariga qadar asosiy stavkada hech qanday o‘zgarish kuzatilmagan bo‘lsa-da, kreditlarning narxida o‘shish kuzatilganligi ortidan asosiy foiz stavkasi hamda kreditlar stavkasi o‘rtasidagi farqda o‘shish kuzatildi. Jumladan, 2024-yilning yanvar oyida bu ko‘rsatkich 7,2 %ni tashkil etgan bo‘lsa, may oyiga kelib bu ko‘rsatkich 8,8 %ga yetgan. Real foiz stavkasi esa yanvar oyida 10 %ni, may oyiga kelib esa 12,4 %ni tashkil etgan. Bu davrda inflyatsiyaning 1,8% bandga pasayganligi fonida o‘rtacha foiz stavkasining 0,6% bandga o‘sganini qayd qilish lozim.

Markaziy bank inflyatsiya darajasi hamda asosiy stavka orasidagi farqni yuqori ushlab turishi ortidan yalpi talabni pasaytirish, hamda bu orqali inflyatsiya darajasini pasaytirishga erishdi. Lekin, ikkinchi tomondan asosiy stavkaga tijorat banklari tomonidan o‘ziga xos oriyentir sifatida qaralgani tufayli amaldagi kredit stavkalari ham inflyatsiya darajasidan ancha yuqori darajada (real foiz stavkasi sifatida) shakllana boshladi. Buning oqibatlaridan biri moliya bozorlarida pul

<sup>161</sup> O‘zbekiston Markaziy banki ma’lumotlariga ko‘ra



narxining keskin ko'tarilishi va kredit stavkasi tadbirkorlarning o'rtacha foyda darajasi bilan kuchli raqobatga kirdi.

Asosiy foiz stavkasi hamda o'rtacha kredit stavkalari o'rtasidagi farq bo'yicha O'zbekiston dunyoda yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Xususan, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda kreditlash narxi hamda asosiy foiz stavkasi o'rtasidagi farq **6,7 %ni** tashkil etgan.

Asosiy foiz stavkasi hamda kreditlarning foiz stavkasi o'rtasida yirik farqning mavjudligi, shuningdek asosiy foiz stavkasi hamda kreditlarning o'rtacha foiz stavkasi o'rtasidagi korrelyatsiyaning past ekanligi Markaziy bank inflyatsion targetlash siyosatini yuritishda boshqa regulyativ qurollardan foydalanayotganligi bilan izohlanadi, xususan:

- bank kapitaliga boshqa mamlakatlar markaziy banklariga nisbatan qo'yilgan yuqori talablar;

- riskka tortilgan aktivlarni hisoblash tartibining xalqaro standartlarga muvofiq emasligi;

- depozitlar bo'yicha zaxiralash talablarining yuqoriligi;


- tijorat banklari kredit portfelli, garovga olinadigan aktivlar sifati ustidan haddan tashqari qattiq nazorat.

Markaziy bank tomonidan banklar regulyativ kapitaliga o'rgatilgan talabga binoan, uning miqdori tavakkalchilikka (riskka) tortilgan aktivlarning 13 %idan kam bo'lmasligi zarur. Basel III standartlariga ko'ra regulyativ kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati 8 %dan, bufer bilan esa 10,5 %dan kam bo'lmasligi zarur (qar. 23-grafika<sup>162</sup>).

Mintaqada faqatgina Qirg'izistonda (18,0%) bizga nisbatan yuqori kapital talablari o'rnatilgan. Qozog'iston (9,0%) hamda Tojikistonda (12,0%) kapitalga qo'yilgan talablar nisbatan yumshoq. Bunday qattiq prudensial talablarning O'zbekiston iqtisodiyoti hajmi va ichki tuzilishga qanchalik monandligi haqida biz joriy stavkalar yuqoriligi misolida batafsil to'xtab o'tamiz.

---

<sup>162</sup> Jahon banki hamda Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlari asosida tayyorlandi




Kapital monandligini hisoblashda, xususan riskka tortilgan aktivlarni hisoblash qoidalari ham Basel III hamda boshqa davlatlar bilan taqqoslaganda agressiv darajada konservativ hisoblanadi. Xususan, jismoniy hamda yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning risk darajasi ularning foiz stavkasiga bog'langan. Jumladan, hozirgi kunda jismoniy shaxslar uchun 23 %gacha, yuridik shaxslar uchun esa 20 %gacha bo'lgan kreditlar 100 %lik riskka tortilsa, kredit foiz stavkasining ortib borishi bilan risk darajasi ham 150 %dan 200 %gacha oshib boradi. Yuridik va jismoniy shaxslar kreditlarining riskka tortilganlik darajasini hisoblashni foiz stavkasiga bog'lash hamda boshqa davlatlar bilan taqqoslaganda riskka tortilgan aktivlarni hisoblashning sezilarli darajada konservativ bo'lishi amalda bank kapitaliga ta'sir qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, banklarda kreditlarning foiz stavkasini oshiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Riskka tortilgan aktivlarni hisoblash nisbatan kichik hamda resurslarining asosiy qismi qimmat depozitlar bo'lgan banklarga katta ta'sir o'tkazadi (ayniqsa, uzoq muddatli va arzonroq depozitlarning "ulgurji bozori" yo'q sharoitda), ya'ni resurslarni nisbatan qimmatroq jalb qilgan banklar nisbatan yuqori foiz stavkasida kreditlar ajratadi bu esa, tabiiyki, ularda risk darajasi yuqori bo'lishi hamda o'z navbatida bu banklar kapitaliga yuqoriroq bosim bo'lishini anglatadi.

Markaziy bank tomonidan banklarning o'z ihtiyoridagi aktivlar aylanmasini cheklashning yana bir monetar instrumenti majburiy zaxiralash normasi bo'ladi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda milliy valyutada jalb qilingan depozitlar uchun banklar 4% miqdorida zaxira yaratishlari zarur. Xorijiy valyutada jalb qilingan depozitlar uchun esa 2024-yilning may oyiga qadar 18% miqdorda zaxira shakllantirilishi, hamda bu zaxirani banklar milliy valyutada shakllantirishi talab etilar edi<sup>163</sup>. Agar bank resursni 5 %dan jalb qilsa, unda zaxira yaratilgandan keyin bu resursning asl narxi 5,9 %ga yetar edi (hozirda 5,7%), ya’ni banklar uchun hozirgi amaliyot xorijiy valyutada resurs jalb qilishga bo‘lgan rag‘batni keskin pasaytiradi. Shu bilan birga, tijorat banklari tashqi resurslardan qimmatroq narxlarda qarz olishi har tomonlama rag‘batlantiriladi. Masalan, 2024-yil yozida Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki va Sanoatqurilishbank tomonidan xalqaro kapital bozorida jalb qilingan kapital narxi bu keltirilgan ko‘rsatkichlardan sezilarli baland<sup>164</sup>. Boshqa davlatlar bilan taqqoslaganda ham mamlakatimizda eng yuqori zaxiralash talablari mavjud hisoblanadi. Bunday katta farqni milliy iqtisod hajmi va o‘ziga hosliklari bilangina izohlab bo‘lmaydi. Gap aynan inflyatsiyani targetlash O‘zbekiston Markaziy banki tomonidan eng muhim imperativ deb belgilanganligida (qar.24-grafika).

24-grafika



Manba: tanlangan davlatlar Markaziy banklari ma'lumotlari.  
 \* 2024.07.01 dan O‘zbekistonda rezerv talablari 14% belgilangan.

<sup>163</sup> 2024 yilning 1 iyulidan O‘zbekiston Markaziy banki boshqaruvining 2024 yil 13 iyundagi qarori bilan bu ko‘rsatkich 14% ga tushirilgan. [https://cbu.uz/oz/press\\_center/releases/1729504/](https://cbu.uz/oz/press_center/releases/1729504/)

<sup>164</sup> TIF Milliy banki: <https://nbu.uz/uz/news/o-zmilliybank-aj-london-fond-birjasida-navbatdagi-xalqaro-obligatsiyalarini-joylashtirdi/>

Xususan, Qozog‘istonda zaxiralash talablari milliy valyuta uchun 2 %ni tashkil etsa, xorijiy valyutada jalb qilingan depozitlar uchun 3 %ni tashkil etadi. Qirg‘izistonda esa bu talab milliy valyutadagi depozitlar uchun 4% qilib belgilangan bo‘lsa, xorijiy valyutadagi depozitlar uchun 14 %ni tashkil etadi, ya’ni O‘zbekiston Markaziy banki tomonidan banklarning o‘z ihtiyoridagi aktivlar aylanmasini cheklashning qaysi bir monetar instrumentini qo‘llash amaliyotini olmasak, u yerda biz Basel III normativlari va boshqa mamlakatlarning markaziy banklari qo‘llagan monetar cheklashlardan ancha agressivligini ko‘ramiz.

Monetar usullar bilan birga Markaziy bank depozit hamda qimmatli qog‘ozlar bozorida yirik akterlardan (o‘yinchi) biri bo‘lib, bu bozorlarda neytral bo‘lish o‘rniga “o‘yin qoidalarini” o‘rnatish quvvatiga ega. 2023-yilning 1 avgust holatiga ko‘ra, jami bank tizimi depozitlarining 10,2 %i (yoki 21,3 trln so‘mi) Markaziy bankdagi mablag‘lar hissasiga to‘g‘ri keladi. Markaziy bank monetar siyosatni yuritishda neytral pozitsiyaga ega bo‘lish o‘rniga, qimmatli qog‘ozlar va banklararo depozitlar bozorida katta o‘yinchilardan biriga aylandi. Bu o‘z navbatida manfaatlar to‘qnashuviga olib kelmoqda (qar. 5-jadval)<sup>165</sup>.

5-jadval

Ko‘rsatkichlar nomi	01.08.2022 y.		01.08.2023 y.	
	mlrd. so‘m	umumiy depozitlarga nisbatan ulushi, %	mlrd. so‘m	umumiy depozitlarga nisbatan ulushi, %
Bank tizimi umumiy depozitlari	195,505	100.0%	208,370	100.0%
Markaziy bankdagi mablag‘lar	32,045	16.4%	21,310	10.2%
Boshqa banklardagi mablag‘lar-rezident	14,373	7.4%	23,866	11.5%
Boshqa banklardagi mablag‘lar-norezident	54,271	27.8%	28,625	13.7%
Chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar	10,680	5.5%	11,258	5.4%

O‘zbekiston Markaziy banki tijorat banklaridagi likvidlik darajasini oshirish va ularga yetarli miqdorda investitsion daromad taklif qilish maqsadida qimmatli qog‘ozlar bozorida ham katta o‘yinchilardan biri (qar.6-jadval). Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun taklif qilingan obligatsiyalarni joylashtirish hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Markaziy bankda joylashtirilgan depozitlar kabi,

<sup>165</sup> Markaziy bank ma’lumotlari

obligatsiyalar tijorat banklariga hech qanday risklarsiz o'rtacha kredit portfelidan topiladigan daromad darajasini kafolatlangan tarzda beradi.

*6-jadval*

Yillar	Muomalaga chiqarilgan obligatsiyalar hajmi, (mlrd.. so'm)	O'rtacha tortilgan foiz stavkasi, foizda
2020	5,271	14.1%
2021	24,200	13.5%
2022	86,948	17.0%
2023(6 oy)	19,841	16.5%

Shunga qaramay, O'zbekiston Markaziy bankining inflyatsiyani tushirish borasidagi erishgan yutuqlarini e'tirof etish muhim. Iste'mol mollari narxlari indeksi ko'rsatkichi 2019-yilda 14,3% tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 10,7%, 2021-yilda 9,6%, 2022-yilda 11,6% va 2023-yilning 9-oyida 5 %ni tashkil etdi. Sanoat mollari indeksi: 2019-yilda – 25,7%, 2020-yilda – 19,1%, 2021-yilda – 12,2%, 2022-yilda – 16 %, 2023-yilda – 4,5%. Bu ko'rsatkichlarga erishish avvalgi boblarda tahlil qilingan 2017-2023 yillardagi iqtisodiyotni jonlantirish uchun sarflangan katta miqdordagi davlat xarajatlari va investitsiyalari fonida bo'lganini ham alohida ta'kidlash kerak. Bu katta xarajatlar, moliyaviy barqarorlikni yo'qotish xavfi O'zbekiston Markaziy bankini o'z vakolati doirasida bo'lgan monetar siyosatni mintaqadagi boshqa markaziy banklarga nisbatan agressivroq o'rnatishga majburladi deb taxmin qilish mumkin.

Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatini belgilash, pul bozorida aktiv ishtirok etish, jumladan, banklararo depozitlar va qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari, bu bozorlarda foizlar, daromadlar chegarasini belgilash borasida olib borgan siyosati oxirgi 4 yilda barcha bozor qatnashchilari uchun kuchli indikator bo'lib, iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishga qaratilgan mablag'larini keskin chekladi. Banklar xo'jalik sub'ektlariga kreditlar berish o'rniga, ko'proq tashvishsiz bo'lgan investitsion vositalarga, ya'ni Markaziy bank taklif qilgan depozit va qimmatli qog'ozlarga pul ajratdilar.

O'zbekistonda Basel III normativlarini joriy qilishning bir qator risklari bor edi va amaliyotda ular o'zini to'la darajada ko'rsatdi. Eng avvalo, banklarning kapitaliga bo'lgan talablar keskin oshdi va bu jarayon bankning daromadligi darajasi kamayishiga sharoit yaratib, bank kapitaliga ko'proq pullarni tikishga undadi va

banklarning investitsion aktivlar sifatida jozibadorligi tushib bordi. Ikkinchi tomondan, banklarning risklari (tavakkali)ni aniqlash amaldagi hisob yuritish va hisobotlarni shakllantirishga katta talablar qo'yildi, risk boshqarishda bir necha jabhalar alohida ko'rib, har bir operatsiyani bajarishda bir necha qo'shimcha nazorat bo'g'imi paydo bo'ladi. Natijada bank xodimlari soni ko'payib, har bir operatsiyani bajarish vaqti ortdi.

Uchinchi salbiy holat shuki, ko'pgina mamlakatlarda mavjud IT kompaniyalar operatsion tizimga bo'lgan yuqorida ko'rsatilgan talablarga to'la javob beruvchi sistema yaratishga qodir emas, ya'ni texnologik muammolar bor. Natijada ko'p bank operatsiyalari hisoboti, amaliyoti va risklarini aniqlash qo'shimcha ishchilarni yollash va "qo'l uslubida" amalga oshiriladi.

To'rtinchi katta salbiy holat - kreditlarni berishda kreditni saralash va klassifikatsiya qilish jarayoni o'zgarib, kapital hajmiga va qo'shimcha rezervlar tuzishga bo'lgan talablar (ayniqsa, riskka tortilgan aktivlarga nisbatan) keskin oshadi.

Beshinchi holat - "universal standartlar muammosi" deb ataladi va bu har qanday umumiylikka intilish jarayonida ana shu umumiylikka hos bo'lgan kamchiliklar barcha banklarga ta'sir nazarda tutiladi, ya'ni bank kapitali va rezervlari, hisob va hisoboti tizimlariga bo'lgan umumiy, yagona talablar barcha banklarning faoliyatida va o'zini tutishida ham birxillikka olib kelib, hilma-xillik va konkurensiya asoslari keskin pasayadi. Banklar "gomogenlashadi".

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mamlakatda bank nazorat prudensial normativlarini qayta ko'rib chiqib ularni Basel III normativlariga moslashga asosan 2015-2023 yillar davomida tom ma'noda erishdi. Natijada bir tomondan moliya institutlarining stabilligi oshgan bo'lsa, ikkinchi tomondan transaksiyalar tezligi sekinlashib, jarayonlar qimmatlashdi. Yetarli raqobat va banklarni klonlashtirish sharoitida banklar xizmatlari narxlari oshib, ular tez foyda ko'rish tadbirkorlik institutlariga aylana boshladilar.

Markaziy bank amaliyotlari shubhasiz, bank-moliya tizimi stabilligini oshirdi, mamlakatda yangi Keynesianlik falsafasi hukmron bo'lgan sharoitda narx-

navolarning keskin o'sishi, inflyatsiyaning jilovlab bo'lmas darajaga o'tishiga yo'l qo'ymadi. Lekin shu bilan birga bu amaliyot O'zbekiston iqtisodiyoti hajmi (atigi 60-80 mlrd. AQSh dollari atrofida) va banklar o'rtasida raqobat deyarli bo'lmagan, ularga alternativa yuzaga kelmagan (MB yuzaga kelishiga yo'l qo'ymagan) sharoitda pulning narxi bozor qatnashchilari uchun o'ta yuqori bo'lishi, mahalliy xususiy investitsion faoliyat batamom tugashi, ijtimoiy boylikni ishlab chiqarishdan banklar foydasiga qayta taqsimlashga to'la xizmat qildi.

### **2.3 Iqtisodiy voqelikning o'zgarishi va yangi makroiqtisodiy boshqaruv prioritetlari**

2019-yilning oxiri 2020-yilning boshlariga kelib mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanlantirish, yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash sohasida erishilgan yutuqlar tufayli jamiyatda bir tomondan biroz eyforiya kayfiyatlari yuzaga kelgan edi<sup>166</sup>. 2020-yilning so'ngiga kelib, O'zbekistonda va asosiy savdo va investitsiyalar hamkori bo'lgan davlatlarda YaIM hajmlarining keskin tushishi, davlat xarajatlarning, ularning ketidan tashqi qarz hajmining o'sishi, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va kambag'allikni kamaytirish borasidagi erishilgan kamtar yutuqlar iqtisodiy voqelik o'zgarganining ilk alomatlari paydo bo'layotganiga ishora berar edi.

Covid-19 sharoitida (2020-2021 yillarda) davlat paternalizmi juda katta mablag'larni tashqi manbalardan mobilizatsiya qilish va ularni asosan sog'liqni saqlash tizimini qayta tuzish, aholi salomatligini tiklash, iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini saqlab qolish maqsadlarida safarbar qilishda juda muhim rol o'ynadi. Covid-19 davri va undan keyin pandemiya asoratlari bilan kurash, albatta, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi rolini oshirdi va bu davlat xarajatlari o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qildi.

Shu bilan birga tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, 2021-yilga kelib O'zbekiston hukumati shunchalik yangi Keynschilik makroiqtisodiy siyosat

---

<sup>166</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020.01.24

oqibatlarining dastlabki pozitiv natijalaridan katta taassurotda ediki, ichki va tashqi voqe'likda yuz berayotgan tektonik o'zgarishlarni payqamadi. M.Rotbard aytganidek: "Har xil diagrammalar, matematik hisoblar va o'rnashmagan jargonlar bilan amal yurituvchi keynschilarning kutilmagan o'sish va toyilish sabablariga nisbatan munosabati juda oddiylik va hatto soddalik darajasida. Agar jamiyatda inflyatsiya kuzatilayotgan bo'lsa, uning sabablari katta ehtimol bilan xalq tomonidan qilinayotgan "ortiqcha xarajatlarda" deb aytadilar; kasallikni yengish uchun esa – holatni uyg'unlashtiruvchi va milliy iqtisodiyotni boshqaruvchi deb o'z o'zini e'lon qilgan hukumatga aralashishni va soliqlar orqali jamoaning "ortiqcha to'lov qobiliyatini sindirish" yo'li bilan kamroq sarflashga majburlashni tavsiya etadilar". Agar buning ketidan retsessiya yuz bersa, keynschilar hukumatni o'z xarajatlarini hatto kattagina budjet defitsiti hisobiga bo'lsa ham keskin oshirishni ma'qul ko'radilar<sup>167</sup>, ya'ni haddan tashqari ma'lum bir iqtisodiy ta'limot mantig'i bilan ish ko'rish ortidan O'zbekiston iqtisodiyoti va jamiyati voqe'ligida yuz bergan o'zgarishlar o'z vaqtida ilg'anmadi. Davlat va jamiyat o'rtasida muloqot institutlarining yetarli rivojlanmaganligi, turli strategik loyihalar jamiyat qadriyatlari bilan bevosita monandlashtirilmaganligi tufayli jamiyat kayfiyatidagi o'zgarishlar, ularning namoyon bo'lishi shakllariga, ta'sirini tushunishga yetarli e'tibor berilmadi deb xulosa qilish mumkin.

Covid-19 pandemiyasi va undan keyingi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda xalqning dunyoqarashida jiddiy o'zgarishlar yuz bergani ayon bo'ldi (qar.7-jadval).

---

<sup>167</sup> Myurrey Rotbard: "Iqtisodiy depressiyalar (ularning sabablari va davolash uslublari)". Lansing Konstitutsion Alyansi litsenziyasi asosida. AKSh, Michigan shtati, 1969 y., 1-bet. <https://www.klex.ru/rrn>



<b>Covid-19 va iqtisodiy voqelikning o'zgarishi</b>	
<b>Xalqaro moliyaviy va tovar bozorlaridagi omillar:</b>	<b>O'zbekiston moliyaviy va ichki tovar bozoriga ta'siri:</b>
Ishlab chiqarish harajatlari va narxlar o'sishi Moliya bozorlarida pul narxi ko'tarilishi Xalqaro siyosiy tanglikning kuchayishi Jahon to'lovlari tizimi risklari oshishi Yangi bozorlar uchun kurashning keskinlashuvi Mehnat resurslariga talab mezonlari o'zgarishi Erkin faoliyatga asoslangan daromadga talabning ortishi Rivojlanayotgan mamlakatlardan kapital oqimining kuchayishi	Davlat xarajatlari keskin o'sib, YaIMning o'sish sur'atlaridan yuqori bo'ldi Tashqi investitsiyalarga asoslangan iqtisodiy taraqqiyot modeli imkoniyatlari qisqardi Davlat byudjeti va to'lov balansi defitsiti hajmi 5 va 8 %lardan oshdi Talabning tobora katta qismi import hisobiga qondirila boshladi Logistika harajatlari ortishi tufayli eksport imkoniyatlari toraydi Hizmatlarga bo'lgan ehtiyoj iqtisodiyotning asosiy drayveri bo'lib qoldi Demografik holat va geosiyosiy tanglik ichki ish o'rinlariga talabni oshirdi Kambag'allikka qarshi kurashish iqtisodiy siyosatning mohiyatiga aylandi

Bir necha davlatlarda olimlar tomonidan olib borilgan keng qamrovli kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, kishilar uy va ishda bo'lish jarayonlarida depressiya va tashvish belgilari kuchaygan, uyda boshqalarga g'amxo'rlik qilish uchun moslashtirishga intilgan insonlar soni keskin ortib, ishga bo'lgan layoqat darajasi keskin tushgan. Insonlar vaqtincha bo'lsa-da uyda qolishdan juda kuchli ruhiy tushkunlik va tashvishga tushishlari, oilada moliyaviy tanglik va ijtimoiy izolyatsiya muhiti maishiy zo'ravonlik xavfini karralab kuchaytirishi mumkinligi ayon bo'lgan. Kishilar o'rtasida davlatning iqtisodiy siyosatiga ishonchsizlik, jamiyatda o'zaro qo'llab-quvvatlash institutlariga talab kayfiyatlari yaqqol namoyon bo'lgan.<sup>168</sup>

Xalqaro moliya bozorlarida 2020-2023 yillarda yuz bergan bir necha prinsipial o'zgarishlar O'zbekiston iqtisodiyotining keyingi rivojlanish yo'nalishlari va mohiyatiga bevosita ta'sir o'tkazdi. BMT ma'lumotlariga ko'ra 2021-yilga kelib dunyo iqtisodiyotida o'sish sur'atlari kutilganidan birmuncha past bo'ldi va 2022-2023 yillarda bu tendensiya davom etdi<sup>169</sup>. 2021-2022 yillarga dunyo iqtisodiyoti o'sish ko'rsatkichlari 1 % gacha deb bashorat qilingan bo'lsa, 2023-yilda bu bashorat

<sup>168</sup> How the COVID-19 pandemic has changed our lives: A study of psychological correlates across 59 countries


<sup>169</sup> Dunyo iqtisodiyoti ahvoli va uning istiqbollari: <https://documents.un.org/doc/undoc/gen/n23/130/40/pdf/n2313040.pdf?token=CGL4xq9WYUbohfp60w&fe=true, 3-bet>

2,3 %ni tashkil etdi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda 2020-2023 yillarda o‘rtacha o‘sish sur‘atlari 4% tashkil etdi<sup>170</sup>. Bu holat tabiiy natija sifatida investorlarning yuqori riskli aktivlarga bo‘lgan qiziqishini sovutdi va portfel investitsiyalari hajmi rivojlanayotgan mamlakatlarda keskin kamaya boshladi (qar.4-diagramma).<sup>171</sup>

4-diagramma

#### Norezidentlarning bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarga portfel investitsiyalari oqimi

(milliard AQSH dollarida)



Manba: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Iqtisodiyot va Xalqaro moliya instituti (XFI) ma'lumotlariga asoslangan ijtimoiy masalalar.

Dunyo emissiya markazlari iqtisodiy o‘sishga turtki berish, jonlantirish uchun 2020-yil davomida katta miqdorlarda pul emissiyasiga yo‘l qo‘ygan edilar va shu bilan bir vaqtda dunyo markaziy banklarining asosiy stavkasi ko‘rsatkichlari 2021-yilning boshigacha tushib borgan edi. Dunyo bozorlarida pulning, kapitalning narxi arzon bo‘lgan sharoitda ko‘pgina mamlakatlarning davlatlari va xususiy tadbirkorlik tizimlari anchagina qarz miqdorini yig‘ib qo‘ygan edilar. Albatta, moliyaviy resurslar narxining nisbatan arzon bo‘lishi qarzga bo‘lgan talabni keskin oshirgan edi. Ammo bu hol uzoq muddat davom etmasligi aniq edi va 2021-yilning 2-choragidan “qayta oqim” boshlandi va asosiy stavkalar ko‘tarila boshladi va 2022 yilning avgustiga kelib eng yuqori darajaga yetdi<sup>172</sup> (qar.5-diagramma).


<sup>170</sup> O‘sha yerda, 7-bet

<sup>171</sup> O‘sha yerda, 13-bet

<sup>172</sup> Dunyo iqtisodiyoti ahvoli va uning istiqbollari: <https://documents.un.org/doc/undoc/gen/n23/130/40/pdf/n2313040.pdf?token=CGL4xq9WYUubOhfp60w&fe=true>, 15-bet

## Markaziy banklar tomonidan asosiy stavkani o'zgarishi

(foiz ball)



Manba: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti,

Asosiy stavka ketidan tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlarning kredit stavkalari uzluksiz ko'tarila boshladi. Bu holat tashqi qarzlarni keng miqdorda olayotgan mamlakatlarning moliyaviy rejalariga keskin ta'sir ko'rsatdi. Xususan, O'zbekiston 2020-yilning ilk fevralida jahon bozorida 500 mln. AQSh dollari hajmidagi 30 yillik Yevrobondlarni 5,375% narxda joylashtirgan bo'lsa, 2023-yil oktabr oyiga kelib 660 mln. AQSh dollari miqdoridagi 5 yillik Yevrobondini 8,125% narxda investorlar orasida joylashtirdi. M.Rotbard ta'kidlaganidek<sup>173</sup> "iqtisodchilar o'zlarining biznes sikli va umumiy narx tahlili nazariyalarinig uyg'unlashtirishga intilmagani uchun, ular yana bir muammoni – iqtisodiy inqiroz va tushkunlik davrida tadbirkorlik funksiyasining o'ziga hos holda izdan chiqishini hisobga olmaydilar."

Ikkinchidan, davlat investitsiyalari va xarajatlari uzluksiz oshib borishiga qaramay, aholining real daromadlari, kambag'allik darajasi va tadbirkorlik faoliyatida sezilarli pozitiv o'zgarishlar yuz bermadi. Davlatning juda katta resurslarini sarflanishiga sabab bo'lgan "Har bir oila tadbirkor", "Yosh tadbirkor",

<sup>173</sup> Ротбард М.: "Экономические депрессии". «Бум, крах и будущее. (Сб. ст.)»: Социум; Челябинск; 2002, 3-бет


“Tadbirkor ayol” kabi dasturlar orqali yangi tadbirkorlik xujayralarini, infrastrukturasi yaratish g‘oyasi o‘zini oqlamadi va kambag‘allik darajasini ma’lum bir vaqtga birmuncha tushirishga erishilgani bilan, kambag‘allik sirtmog‘idan aksariyat aholi qatlamini chiqarishga olib kelmadi. Bu ijtimoiy loyihalar doirasida kichik asosan qishloq sharoitida va natural almashuvga ko‘proq tayangan iqtisodiy hududlarda (mahalla, qishloq) deyarli bir hil turdagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi (chorvachilik, parrandachilik, meva-sabzavot yetishtirish) mayda-mayda tadbirkorlar faoliyati tashkil etildi. Lekin bu mahallalar va qishloqlarning tovar almashuv masshtabi juda cheklangan edi. Ular qo‘shimcha mahsulotni asosan natural almashuv bo‘lgan hududlar doirasida taklif etishga mahkum edilar. Aksariyat mayda tadbirkorlarning o‘zi yetishtirgan mahsulotni hatto viloyat markaziga olib borib sotish imkoniyati yo‘q edi, chunki saqlash, qadoqlash va logistika infrastrukturasi yaratilmagan edi va bunday kichik hajmlarda ularning yaratilishi iqtisodiy samara jihatidan mavhum ham edi. Oqibatda mayda ishlab chiqaruvchilar miqdor va to‘lov qobiliyati cheklangan kichik iqtisodiy hududda o‘zaro raqobatda edilar, chunki ular bu mahsulotlarni qayta ishlash, yanada qo‘shilgan qiymat yaratish zanjirlarni tuzishga qodir emas edilar. Xitoyda, masalan, bu mayda ishlab chiqaruvchilar kattaroq kooperativ va klasterlarning uzviy qismi bo‘lib, o‘zaro raqobatda emas, umumiy ishlab chiqarish va qayta ishlash zanjirlarining tarkibiy qismi bo‘lib faoliyat yuritadilar. Biri ishlab chiqargan narsani ikkinchisi saqlaydi, uchinchisi qadoqlaydi, to‘rtinchisi tashiydi va talab kattaroq bo‘lgan yerlarga yetkazadi.

Makroiqtisodiy stimullashtirish rejalari asosida amalga oshirilgan “Har bir oila tadbirkor”, “Yosh tadbirkor”, “Tadbirkor ayol” kabi ijtimoiy loyihalarga ketkazilgan davlat mablag‘larining samarasi o‘z hayot sharoitini davlat mablag‘lari hisobiga yaxshilashga intilgan shaxslarga tadbirkorlik ruxini singdirishga emas, balki faoliyat yuritib turgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga ko‘proq qaratilganda ancha yuqoriroq bo‘lar edi. Yangi tadbirkorlar tabaqasini tuzish muammosi turli aholi qatlamlariga mehnat vositalarini taqdim etish, moliya imkoniyatlari yaratish bilangina hal bo‘lmadi. Tadbirkor bo‘lish uchun shijoat,

daromad topish g'oyasi, ma'lum ko'nikmalar bo'lishi zarur va bular moddiy kategoriyalar emas.

Uchinchidan, tadbirkorlikni qo'llash va rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari mamlakatda asosiy ish beruvchi, kambag'allik sirtmog'idan olib chiquvchi kichik va o'rta korxonalarining ishlab chiqarish potensialini oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatmadi. 2019-yil oxiriga kelib 18 mln. mehnatga layoqatli doimiy aholisi bo'lgan O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni atigi 323,5 tani tashkil etib, yiliga o'rtacha 32 mingtadan ortiq korxonalar (10%) faoliyat ko'rsatmay, ularning yarmi yil davomida faoliyatini tugatayotgan edi (qar.25-grafika).

25-grafika



2020-yilda kuchga kirgan Soliq Kodeksining kichik tadbirkorlikka ta'siri bevosita narxlarning oshishi va mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabning tushishiga olib keldi. 2019-yilgacha surunkali kamayib kelayotgan faoliyat yuritmaydigan kichik korxonalar va kichik tadbirkorlik sub'ektlari (yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'z-o'zini band qiluvchilar) soni 2020-yildan ko'paya boshladi. 2023-yilga kelib faoliyat ko'rsatmaydigan korxonalar soni 35,1 mingtani tashkil etib 2019-yilga nisbatan 2,26 marta o'sdi, faoliyati tugatilgan korxonalar soni 24,1 mingtaga yetib, 1,44 barobar ko'paydi

Shu davr ichida aholining iqtisodiy faollik darajasi 75 %dan (2019-yil ko'rsatkichi) 73,7 %gacha tushdi (2017-yil darajasi). Ishsizlik darajasi doimiy aholi soniga nisbatan 2019-yilda 9% tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 0,1 %ga kamaydi, absolyut miqdorda esa 213,2 kishiga ko'paydi. Mehnat resurslari soni tahlil qilinayotgan yillarda 3 %ga o'sib, 19,52 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, mehnatga layoqatli aholining ulushi umumiy aholi sonida kamaya boshlab, 56,4 %dan 54,8 %ga tushdi<sup>174</sup>.

To'rtinchidan, Covid-19 pandemiyasi arafasida va undan bevosita keyingi yillarda O'zbekiston aholisi ichki tuzilishi va turmush darajasida ko'z ilg'amas siljishlar boshlanib, ular amaliyotdagi makroiqtisodiy uslublar birmuncha samarasiz darajaga yetganini, dastlabki yillardagi ijtimoiy shartnoma asoslari yemirilayotganini ko'rsatdi. Bu **yangi ijtimoiy-iqtisodiy** voqe'lik doimiy aholi sonining tez sur'atlarda o'sib borayotgani fonida bo'lib uchta tendensiya ko'rinishida yuzaga chiqdi:

- ko'p farzandli oilalar ulushining o'sishi;
- kambag'allik miqyosining o'sishi;
- aholi daromadlari sohasida kuchli segregatsiyaning paydo bo'lishi.

Bu omillarning ortga tortuvchi ta'siri yildan-yilga ortib bordi va Covid-19 pandemiyasining yuz berishi, uning oqibatlari aholining turmush darajasiga keskin negativ ta'sir qildi<sup>175</sup>. Hatto davlat rahbari darajasida kambag'allik tushunchasi rasman tan olindi<sup>176</sup> va unga qarshi kurash davlat ijtimoiy va iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri deb qaraldi. Bunday iqrorlik boshqaruv tizimi iqtisodiy taraqqiyot mazmunini, voqe'lik mohiyatini to'la tasavvur qila oladimi degan savolni aktual darajaga ko'tardi, chunki 70-80-yillarda iqtisodiy rivojlanish darajasi tezlashgan mamlakatlarning barchasida (Xitoy, Janubiy Koreya, Vetnam, Malayziya) eng birinchi to'siq sifatida aholining "kambag'allik sirtmog'i"ga tortuvchi faktorlar to'plami mavjudligi ko'rsatilgan edi.

---

<sup>174</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

<sup>175</sup> COVID -19: Социальная роль правительств: <https://review.uz/post/covid-19-socialnaya-rol-pravitelstv>


<sup>176</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi: <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

2021-yil may oyi holatiga ko‘ra, mehnatga layoqatli resurslar soni 19,52 mln. kishini tashkil etgan bo‘lsa, 5 mln.dan kam miqdorda aholi jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘i to‘lar edi. Muhimi shundaki, bu soliq turidan tushadigan daromadlarning 62,3 %ni oyiga 2 mln. so‘mgacha bo‘lgan daromad oluvchi ishlovchilar va 85,4 %ni oyiga 4 mln. so‘mgacha daromad oluvchilar to‘lar edi<sup>177</sup>. Ya‘ni jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar asosan kam daromadli ishchilarni eng ko‘p soliqqa tortishga qaratilgan edi.

O‘zbekistonning demografik sharoitida yuzaga kelgan tendensiyalar ham yangi voqe‘likni yuzaga keltirib, iqtisodiy siyosatga o‘z ta‘sirini o‘tkaza boshladi. 6,1 mln.ga teng bo‘lgan umumiy uy xo‘jaliklari soni ichida 5 va 6 kishilik xonadonlar 61,9% tashkil etib, aynan shu xo‘jaliklarda kambag‘allik darajasi eng yuqori ekanligi qayd etilmoqda (6-diagramma).

6-diagramma

Umumiy uy xo‘jaliklari a‘zolari soni bo‘yicha 2023-yil natijalari bo‘yicha aholi tarkibi<sup>178</sup>



Shu vaqtgacha umumiy va mehnatga yaroqli aholi soni nisbatan tez o‘sib borayotgani fonida jamiyatda 20-29 yoshli yoshlarning ulushi doimiy umumiy aholi sonida kamayib bormoqda<sup>179</sup> va “Prognoz ma‘lumotlariga qaraganda, 2030-yilga

<sup>177</sup> <https://www.gazeta.uz/ru/2021/07/14/personal-income-tax/>

<sup>178</sup> Qarang: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/6809-o-zbekiston-respublikasi-uy-xo-jaliklarining-a-zolari-soni-bo-yicha-tarkibi>

<sup>179</sup> X.X.Abduraxmonov: “Oilaning demografik rivojlanish tendentsiyalarini baholash”: [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/2\\_Abduramanov.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/2_Abduramanov.pdf), 3-bet

borib 24-29 va 30-34 yosh guruhlaridagi aholi sonining kamayishi kutiladi”. Bu siljishlar 2024-yilning ikkinchi yarmiga kelib aholi ko‘payishi sur‘atlarini birmuncha tushishiga sabab bo‘ldi<sup>180</sup>. Buning aholining turli qatlamlari ichida erkaklar va ayollar o‘rtasidagi nisbat o‘zgarib bormoqda, ayollar sonining erkaklar sonidan ortiqchaligi 35-40 yoshdan katta barcha yosh guruhlarida qayd etilmoqda.

Daromadi darajasi sifatidan kambag‘al deb tasniflangan oilada har safar yangi bolaning tug‘ilishi davlatning maxsus ko‘magisiz kambag‘allik sirtmog‘ining kuchliroq tortilishiga olib keladi. Kambag‘al oilalarda bolalar oddiy turmush komfortini belgilovchi (uy jihozlari, uy mehnatini yengillashtiruvchi) vositalarga yetarli ega bo‘lmaydilar va ularning aksariyati o‘zlarining ota-onalari tomonidan singdirilgan kambag‘al turmush “oddiy qadriyatlarini” bilan cheklanib o‘sadilar, bilimlarni o‘zlashtirishga qattiq intilmay, o‘quv qobiliyati boshqalarga nisbatan birmuncha past bo‘ladi. Ko‘p hollarda ular maktabni 14-15 yoshida tashlab mehnat qilishga va oilaga daromad keltirishga harakat qiladilar. Boz ustiga bunday oilalarning aksariyatida tashqi va tasodifiy omillarning, masalan, barvaqt boquvchilardan mahrum bo‘lish, turli ofatlar tufayli mulkdan mahrum bo‘lish, o‘ylamay qilingan xarajatlar tufayli qarz girdobiga tushish kabi hollarning ko‘p uchrab turishi barcha soha mutahassislari va izlanuvchilar tomonidan e‘tirof etilgan<sup>181</sup>. Oilada nogiron bola tug‘ilgan hollarda esa oila a‘zolaridan biriga ish taklif qilish chorasi ham natija bermaydigan holat bo‘lishi mumkin. 2017-yil natijalariga ko‘ra O‘zbekistonda kambag‘al deb tan olingan aholining ulushi umumiy aholi sonining 11,9 %ini tashkil etgan (3,82 mln. kishi) bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 11,0 %ga (3,96 mln.kishi) tushdi,<sup>182</sup> yoki absolyut miqdorda 0,14 mln. kishiga ko‘paydi.

Kambag‘allikka qarshi kurash tashkiliy modeli mamlakatimizda asosan 4 yo‘nalishda olib borildi:

---

<sup>180</sup> O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat statistika qumitasi ma‘lumotlari. [https://stat.uz/img/demografiya-press-reliz-24\\_10\\_2024-uzb\\_p25802.pdf](https://stat.uz/img/demografiya-press-reliz-24_10_2024-uzb_p25802.pdf)

<sup>181</sup> Ловушка для бедности. Как Узбекистан планирует сокращать долю бедного населения. <https://ia-centr.ru/publications/lovushka-dlya-bednosti-kak-uzbekistan-planiruet-sokrashchat-dolyu-bednogo-naseleniya/>

<sup>182</sup> [https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx\\_data\\_1737.xlsx](https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_1737.xlsx). Yangiroq ma‘lumotlar e‘lon qilinmagan.



– “kambag‘al” kategoriyasiga kiruvchi turli aholi qatlamlari ichidagi yordamga muhtoj insonlarni aniqlash (BMTning bir kunlik iste‘mol qiymatining pullik normasi asosida) va ularga markazlashtirilgan, tizimli va surunkali davlat nafaqalarini to‘lab borish. Bunda gender farqi va yoshlar masalalariga alohida e‘tibor bilan qarash;

– ijtimoiy yordamga muhtoj deb topilgan aholi qatlamlarini turli tadbirkorlar tomonidan o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarga jalb qilib, ularni daromad topishlariga yordam berish;

– davlatning markazlashtirilgan jamg‘armalari, qisman davlatning mulkiy tasarrufida bo‘lgan banklarning yordamida ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlamlariga mayda tadbirkorlik loyihalarini tavsiya qilib, boshlang‘ich kapitalini (ishlab chiqarish vositalari va hom-ashyo olish uchun) imtiyozli va ko‘p yillik kreditlar yordamida dastlabki tadbirkorlik faoliyatiga turtki berish;

– kambag‘allikka qarshi kurash bo‘yicha J-PAL global tashabbusi, BMT, BMTTD, Jahon banki, UNISEF, ADB, GIZ va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar hamkorlik qilish va bu borada ikki tomonlama va ko‘p tomonlama loyihalarni O‘zbekistonda amalga oshirish.

Eng birinchi prioritet bu - aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamining manzilli, ya’ni ismlari, sharoiti va sababi aniqlangan ma’lumotlar bazalarini yaratish bo‘ldi<sup>183</sup>. 2021-yildan boshlab kam ta’minlanganlarni “Ijtimoiy himoyaning yagona reyestri” axborot tizimiga kiritish va har oyda bu bazani jonli intervyular asosida yangilab borish mexanizmi joriy etilgan. Natijada, “2017-yilda 500 ming nafar kam ta’minlangan oilaga ijtimoiy yordam ko‘rsatilgan bo‘lsa, bugungi kunda ushbu ko‘rsatkich 2,2 milliondan ziyodni tashkil qilmoqda. Ajratilayotgan mablag‘lar hajmi yetti baravar oshirilib, yiliga 13 trillion so‘m (1,1 milliard dollar)ga yetdi”<sup>184</sup>. 2023-yilning o‘zida 810 ming ishchi o‘rinlarini mamlakat bo‘ylab tiklash, yangi 310 ming kishiga teng doimiy va 633 mingga teng

<sup>183</sup> Эффективна ли социальная политика в Узбекистане? <https://review.uz/post/effektivna-li-socialnaya-politika-v-uzbekistane>

<sup>184</sup> Qarang: <https://gov.uz/uz/bv/news/view/1599/>

mavsumiy ishchi o‘rinlarini yaratish ko‘zda tutilgan edi. Birgina o‘z-o‘zini band qilish kategoriyasiga kiruvchi mehnat sohalari ro‘yhatini kengaytirish (24 tadan 67 gacha faoliyat turlariga) hisobiga yana 100 mingdan ortiq ishchilarni rasmiy mehnat bozoriga jalb etish nazarda tutilgan edi.

2018-2022 yillar davomida mahallabay tekshirishlar natijasida 540 mingdan ortiq kam ta‘minlangan oilalar reyestri tuzilgan va ularga davlat tomonidan 306,8 mlrd. so‘mlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri moddiy yordam berilgan. 37,7 ming ishsiz yurgan kishilarga doimiy ish, 93,2 ming kishiga mavsumiy ish topib berilgan, 7,2 ming kishiga esa qishloq xo‘jaligida ijaraga yer ajratib berilib, mehnati hisobiga daromad olish imkoniyati yaratib berilgan. Kam ta‘minlangan oilalarga 110,1 mlrd.. so‘m miqdorga teng oziq-ovqat mahsulotlari va 544,5 mln. so‘mga teng dori -darmon vositalari hamda 14,8 mlrd. so‘mga uy mollari sotib olishga, 2,4 mlrd. so‘mga teng miqdorda uy parrandalari sotib olishga banklardan uzoq muddatli va kam foizlik kreditlar ajratib berilgan<sup>185</sup>. Kambag‘allikka qarshi kurashning asosiy mohiyati uni keltirib chiqaruvchi muhim omillar, tarmoqlar va sharoitlarga qarshi qaratilmay, turli shaxsiy muammolari yig‘ilib turgan aholi qatlamlariga moddiy yordam berish dasturiga monand bo‘lib qoldi.

Xitoy, Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Amerika davlatlarining umumdavlat iqtisodiy potensialini oshirishga qaratilgan yaxlit inklyuziv siyosat modelini yaratish (mayda ishlab chiqaruvchilarni yirik kooperatsion jarayonning uzviy bo‘limiga aylantirish) va yuritish amalga oshirilgan. O‘zbekistonda esa tarmoqlararo gorizontal yoki matritsa aloqalarini o‘rnatish yuzasidan tajriba etarli bo‘lmagani uchun bir-biri bilan mantiqan to‘la bog‘lanmagan, qilinayotgan ishlar natijasini aniq o‘lchamini belgilab bo‘lmaydigan, muammoga funksional aloqasi bo‘lmagan ijrochilar qo‘liga topshirilgan amallar, mas‘uliyatlar to‘plamini ma‘lum bir reja deb qabul qilinib, ularni hayotga tatbiq etishga harakat qilindi<sup>186</sup>. Oqibatda joylarda

---

<sup>185</sup> Qarang: Qanday qilib O‘zbekiston kambag‘allikka qarshi kurashmoqchi:

<https://www.cer.uz/en/post/publication/kak-uzbekistan-planiruet-sokrasat-dolu-bednogo-naselenia-mnenie-ekspertov>

<sup>186</sup> Почему необходима параллельная политика, направленная на улучшение условий бедных. Мнение эксперта ЦЭИР. <https://review.uz/post/pochemu-neobxodima-parallelnaya-politika-napravleniya-na-uluchshenie-usloviy-bednx-mnenie-eksperta-ceir>

kambag'allikni kamaytirish amallari umumiy koordinatsiya sifati past bo'lgan, qilinayotgan ishlarning tub mohiyati ijrochilar tomonidan to'la anglanilmagan shroitlarda amalga oshirildi. Davlat tomonidan ko'proq **mavjud tadbirkorlarni** qo'llab, ular yaratgan ijtimoiy qiymatni **inklyuziv fiskal siyosat** negizida yordamga muxtoj kishilar manfaatiga qayta taqsimlash aslida tadbirkorlikdan butunlay xabari bo'lmagan, unga moyilligi bo'lmagan aholi qatlamlarini yangi muhitga jalb qilishga urinishdan ko'ra samaraliroq bo'lar edi.

Kambag'allikka qarshi kurashish uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag'larning aksariyati "Har bir oila tadbirkor", "Yosh tadbirkor", arzon ipoteka kreditlarini ta'minlash kabi loyihalar negizida tijorat banklari orqali xalqqa tarqatildi. Banklar ko'p hollarda mahalla aktivlari tuzgan va mahalliy hokimiyatlar tasdiqlagan ro'yxatlar bo'yicha juda katta miqdordagi kredit resurslarini oilalarning xaqiqiy sharoiti va kreditni qaytarish imkoniyatini yetarli o'rganmay, hech kanday garovsiz, ma'muriy tazyiq ostida tarqatib berishga majbur bo'ldilar. Natijada bu kredit resurslari bo'yicha tez orada nafaqat foizlar, balki asosiy summalarni qaytarib olishning ham hech qanday imkoniyati yo'qligi aniqlandi. Davlat ijtimoiy loyihalarida ishtirok etgan ko'pgina davlat tijorat banklarida "foyda olinmaydigan kreditlar" (non performing loans) darajasi 2019-yildagi umumiy kreditlar hajmining 0,5 % dan 2024-yil kuziga kelib 7 % gacha ko'tarilib ketdi<sup>187</sup>.

Xulosa qilib aytganda, yangilanish davrida davlatning islohotlar kun tartibini belgilash va ularni amalga oshirishda yetakchilik rolini asoslab bergan birgina iqtisodiy taraqqiyot nazariyasini, - aynan "yangi keynschilik"ka asoslangan iqtisodiy taraqqiyotni davlat investitsiyalari hisobiga stimullashtirish siyosati tarixiy davrda yagona to'g'ri keluvchi qo'llanma deb qarash xususan bizning ijtimoiy-iqtisodiy voqeligimiz negizida qator xatolarga olib keldi. Bu xatolarning kelib chiqishi va o'z vaqtida anglanilmaganining asosiy sababi - mamlakatda ko'pgina boshqa sohalar kabi iqtisodiy islohotlarni mohiyati va samarasini muhokama qilib, har bir g'oyani salbiy va ijobiy oqibatlarini oldindan nazariy va amaliy ekspertiza qilish borasida

---

<sup>187</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

yetarli institutlar tuzilmaganligi va borlari o'rtasida raqobat va muloqot yo'qligidadir. Davlatning turli ilmiy tekshirish va akademik iqtisodiy markazlari ko'targan masalalar va g'oyalar hukumat organlari tomonidan kerakli e'tibor bilan o'rganib chiqilmadi, g'oyalar fragmentar qo'llanilib, ular yaxlit bir mantiqli konsepsiyaga aylantirilmadi. Amalda g'oyalar bir-biri bilan antogonizmga kirishdi (Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat mablag'larini iqtisodiyotga ko'p miqdorlarda kiritish hisobiga yumshoq stimullashtirish modeli va Markaziy bankning inflyatsiyani targetlashtirish – maqsadli rejalashtirish harakatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik kabi) va bozor qatnashchilari hukumat institutlaridan turli mazmundagi signallar va cheklanishlar olib, oxiri faqat o'zlari bilgan model doirasida o'ralashib qoldilar. 2020 yil boshida yuzaga kelgan favqulodda hodisa – Covid-19 pandemiyasi, uning tarqalishini oldini olish va iqtisodiyotni yangi voqe'likka moslashtirish qiyinchiliklari yangi Keynshilik yondashuvining salbiy oqibatlarini yanada chuqurlashtirdi.

#### **2.4. Davlat xarajatlari dinamikasi va moliyaviy muvozanatlar tuyg'unsizligining dastlabki alomatlari**

2017-2024 yillar davomidagi davlat boshqaruv siyosati mohiyatini bir so'z bilan aytish zarurati bo'lsa, buni "paternalizm" deb atash mumkin. Bu munosabatlarda davlat jamiyatning asosiy ehtiyojlarini qondiradi, lekin bu funksional davlat budjeti va tashqi qarzi hajmining keskin o'sishi, oqibatda ijtimoiy ishlab chiqarish kuchlari potensialining sezilarli darajada tushishi evaziga bajarilishi ehtimoli katta. M.Rotbard ta'kidlaganidek<sup>188</sup> "iqtisodchilar o'zlarining biznes sikli va umumiy narx tahlili nazariyalarinig uyg'unlashtirishga intilmagani uchun, ular yana bir muammoni – iqtisodiy inqiroz va tushkunlik davrida tadbirkorlik funksiyasining o'ziga hos holda izdan chiqishini hisobga olmaydilar."

Aslida sotsializm qa'ridan unib chiqqan davlatda boshqacha ijtimoiy-siyosiy munosabatlar bunday qisqa vaqt ichida yuzaga kelishi ham mumkin

---

<sup>188</sup> Rotbard M.: "Экономические депрессии". «Бум, крах и будущее. (Сб. ст.)»: Социум; Челябинск; 2002, 3-  
bet

emas edi (kuchli tashqi ta'sir bo'lgan Sharqiy Yevropa va Boltiq bo'yi mamlakatlari bundan mustasno). Paternalizmning kuchli fuqarolik jamiyati va institutlari bo'lmagan, turli kuchlar qarama-qarshiligi balanslanmagan jamiyatda o'z afzalliklari bor. Paternalizm jamiyat rivojlanishi uchun kuchlarni nisbatan tez va samarali mobilizatsiya qila oladi. Lekin bu fenomenning juda katta o'ziga xos xususiyati borki, u ham bo'lsa davlat o'ziga funksional hos bo'lmagan va samarali darajada eplay olmaydigan ishlarni ham o'z zimmasiga olib, transaksion xarajatlar miqdorini, muammolarni yechishga sarflanadigan ijtimoiy mablag'lar hajmini keskin ko'tarib yuboradi. Oxir oqibatda bu funksiyalar bajarilmay, chala holda qolib ketadi, lekin ularni me'yoriga yetkazish uchun jamiyat to'laydigan tarixiy qiymat juda yuqori bo'ladi.

2021-yil so'ngiga yilga kelib iqtisodiy voqe'lik keskin o'zgarib, tashqi resurslar hisobiga rivojlanish imkoniyatlari toraydi. Davlat xarajatlarining o'sishi, davlatning ijtimoiy muamolarini yechishga katta pul mablag'larini dunyo moliya bozoridan arzon narxlarda mobilizatsiya qilish imkoniyatlarining torayishi, samarasi tushib borayotgan ortiqcha paternalizm, kambag'allik darajasining yuqorilashi va hokazolar faqatgina O'zbekiston uchun hos, unikal xolatlar emas. Ko'pgina mamlakatlar bu va boshqa negativ signallarni o'z vaqtida va to'g'ri qabul qilib, makroiqtisodiy siyosat yo'nalishlari va parametrlariga o'zgarish kiritdilar. Jumladan, ko'pgina Janubi-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari kichik va o'rta biznesga ko'proq imkoniyatlar (arzon kredit va fiskal yengilliklar) yaratib, xususiy-davlat hamkorligi (XDH) asosida shaharlarda yashash muhitini tubdan o'zgartirishga, sog'lom hayot tarzini targ'ib etishga qaratilgan smart city konseptual loyihalarni amalga oshira boshladilar. Bu loyihalar ijtimoiy sohadagi (sog'liqlik saqlash va shaxarlarda yashash muhitini sog'lomlashtirish) davlat xarajatlarini asta-sekinlik bilan xususiy sektor zimmasiga yuklashga, jamiyat a'zolarining o'z hayotini yaxshilashga hissa qo'shish imkoniyatini yaratib berishga olib keldi<sup>189</sup>.


Mavjud ilmiy-tadqiqot va aql markazlarining ogohlantirishlariga qaramay,

---

<sup>189</sup> What is the future for smart cities after Covid-19? - Oxford Business Group

boshqaruv markazlari tomonidan davlat xarajatlari yo‘nalishlari va mohiyatini qayta ko‘rib chiqishga yetarli e‘tibor berilmadi.<sup>190</sup> Ijtimoiy xarajatlar, iqtisodiyot xarajatlari (ayniqsa, turli kompensatsion to‘lovlar hisobiga, masalan, ichki bozorda tabiiy gazni ulgurji sotib olish va sotish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan kompaniya zararlarini qoplash, joriy budjet ijrosi faoliyatini moliyalashtirish, jumladan, aholiga issiqlik ta‘minoti xizmatlari tariflarini past qo‘llash hisobiga ko‘rilgan zararlarini qoplash maqsadida issiqlik ta‘minoti korxonalariga to‘lovlar), markazlashgan investitsiya loyihalari va hududlar infratuzilmalarini rivojlantirish xarajatlari keskin o‘shib borgani<sup>191</sup> natijasida umumlashgan budjet xarajatlari 2023-yil natijasi bo‘yicha 30 mlrd. AQSh dollari ekvivalentini tashkil etdi (qar.26-grafika).

26-grafika



Bu ko‘rsatkich 2020-yilda 17,3 mlrd. AQSh dollari ekvivalenti miqdorida bo‘lgan, ya‘ni 3 yil davomida davlat xarajatlari miqdorining o‘shish sur‘atlari 173 %ni tashkil etdi. O‘shib borayotgan davlat xarajatlarini hajmini qoplashining ichki imkoniyatlari yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmini, mehnat unumdorligini, hamda fiskal yig‘imlar hajmini oshirishda bo‘lsa, tashqi imkoniyatlari transchegaraviy o‘tkazmalarni iste‘molga qaratish va tashqi investitsiyalar va qarz

<sup>190</sup> <sup>190</sup> Пределы долговых обязательств. <https://review.uz/post/predel-dolgovx-obyazatelstv/>

<sup>191</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining 2023-yil ijrosi to‘g‘risida ma‘lumot. [https://api.mf.uz/media/document\\_files/IB\\_2023\\_uz.pdf](https://api.mf.uz/media/document_files/IB_2023_uz.pdf)

hajmini ko'paytirishga bog'liq. 2023-yilga kelib, ichki imkoniyatlar ishga solinmasligi va asosan tashqi qarz o'sishi hisobiga budjetning katta xarajatlari qoplanishi ma'lum bir tendensiyaga aylandi. Yuzaga kelgan holat investorlarning undan avvalgi davrdagi negativ kutilmalar darajasini keskin ko'tardi.<sup>192</sup> Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farq (budjet defitsiti) ham o'sib borib, 2023-yil yakuniga kelib 4,6 mlrd., yoki YaIMning 5,5 %ini tashkil qildi<sup>193</sup>

Davlatning paternalistik siyosati asosan ijtimoiy dasturlar hajmini keskin oshirishda namoyon bo'ldi. 2017-2022 yillarga belgilangan Xarakatlar strategiyasiga muvofiq 6 ta umumlashgan dasturlar doirasida ichki va tashqi resurslar asosida har bir yilning asosiy ijtimoiy mazmunidan kelib chiqib sarflangan xarajatlar umumiy miqdorda 168,4 trln. so'mni va qo'shimcha 42,3 mlrd. AQSh dollarini (qar.3-infografika) tashkil etdi.<sup>194</sup> Ijtimoiy xarajatlarning yil sayin o'sib borishi davlat budjeti sarfdlaring o'sishiga katta hissa qo'shdi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida birgina 2022-yil uchun maxsus davlat dasturi tuzilib, u yerda umumiy qiymati 55 trillion so'm va 11,7 milliard dollarlik 398 ta chora-tadbirlar ko'zda tutilgan edi. 2021-yilda belgilangan davlat dasturini bajarish uchun esa 29 trillion 492,7 milliard so'm va 2 milliard 600,4 million AQSh dollari, 2020 yildagi davlat dasturini bajarish uchun esa 18 trillion 171,4 milliard so'm va 10 milliard 301,5 million AQSh dollari ajratilgan edi<sup>195</sup>. Davlatning mafkuraviy sohaga sarflanadigan xarajatlari hajmi ham keskin oshgan edi. 2017-2023 yillarda O'zbekistonda nodavlat, notijorat tashkilotlar faoliyatini moliyalashtirishga umumiy hisobda davlat budjetidan 496,3 mlrd. so'm miqdorida mablag'lar sarflangan.<sup>196</sup>

*3-infografika*

---

<sup>192</sup> Нужно ли государству вмешиваться в экономику? <https://review.uz/post/nujno-li-gosudarstvu-vmeshivatsya-v-ekonomiku>

<sup>193</sup> Iqtisodiyot va moliya vazirligi axboroti: <https://t.me/minecofinuz/9021>

<sup>194</sup> [https://uza.uz/uz/posts/harakatlar-strategiyasi-va-taraqqiyot-strategiyasi-farqli-zhihatlari-nimada\\_342807?q=%2Fposts%2Fharakatlar-strategiyasi-va-taraqqiyot-strategiyasi-farqli-zhihatlari-nimada\\_342807](https://uza.uz/uz/posts/harakatlar-strategiyasi-va-taraqqiyot-strategiyasi-farqli-zhihatlari-nimada_342807?q=%2Fposts%2Fharakatlar-strategiyasi-va-taraqqiyot-strategiyasi-farqli-zhihatlari-nimada_342807)

<sup>195</sup> [https://uza.uz/uz/posts/harakatlar-strategiyasi-va-taraqqiyot-strategiyasi-farqli-zhihatlari-nimada\\_342807?](https://uza.uz/uz/posts/harakatlar-strategiyasi-va-taraqqiyot-strategiyasi-farqli-zhihatlari-nimada_342807?)

<sup>196</sup> "Taraqqiyot strategiyasi" markazining rasmiy kanalima'lumotlariga ko'ra. <https://t.me/dscuzbekistan/2619>



2017-2022-yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasi doirasida



2012-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi doirasida:



Davlat xarajatlarning shiddatli o'sib borishi makroiqtisodiy mantiq jihatidan katta muammo bo'lib, 2022-yil boshida bu muammo nafaqat dunyo moliya bozorlarida kredit mablag'larining qiymati o'sishi bilan, balki geosiyosiy tanglik keskinlashishi oqibatidan chuqurlashib bordi. Xususan, makroiqtisodiy prognozlarda ko'zda tutilmagan Rossiya va Ukraina o'rtasidagi harbiy to'qnashuv bir nechta salbiy oqibatlarga olib keldi:

- Yevropa mamlakatlari bilan savdoda an'anaviy logistika yo'llari Rossiya, Ukraina va Belorussiya hududlari orqali o'tgani uchun mavjud bo'lgan logistika zanjirlari buzildi, mahsulot tashish imkoniyatlari toraydi, narxlar oshdi. Birgina avtomobil bilan tashish marshrutlarida 2022-yilning mart-aprel oylarida narxlar 20-40 % ga o'sdi<sup>197</sup>, mahsulot yetkazish vaqti 2 haftadan 4 haftaga cho'zildi;

- Rossiya, Belorussiya va Ukraina bozorlari O'zbekiston eksporti uchun eng jozibador makonlardan biri bo'lib, 2021 yilga O'zbekiston eksportida mana shu uchta mamlakatning ulushi 17,03 % ni tashkil etar edi. Urush tufayli bu bozorlarning hajmi keskin kamayib, mahsulot turiga bo'lgan talab o'zgardi;


<sup>197</sup> Qarang: <https://trans.info/ru/logistika-v-period-voynyi-kak-izmenilis-tsepochki-postavok-i-kak-adaptirovat-biznes-k-noviyim-realiyam-281166>



- qurolli konflikt tufayli importlar tomonidan O‘zbekistondan eksport qilingan ashyolarga to‘lovlarni amalga oshirish cheklandi va alternativ yo‘llarni topish ham birmuncha vaqt talab qildi;

- xalqaro miqyosda narxlar o‘shishiga “dunyo fabrikasi” bo‘lgan Xitoyning Covid-19 kasallik asorati bilan kurashishda “zero tolerance” siyosatining, ya’ni kasallikni tarqalishiga umuman yo‘l qo‘ymay, kasallik aniqlangan ko‘cha, tuman va shaharlarni qattiq karantinga olish va faoliyatni to‘xtatish siyosatini tutgani (2022-yilning oxiriga qadar)<sup>198</sup> to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatdi (qar.27-grafika);

27-grafika



- O‘zbekistonning ikkinchi katta iqtisodiy hamkori bo‘lgan Turkiyada 2021-2022 yillar davomida davlatning markaziy bank siyosatiga keskin aralashuvi tufayli kuchli moliyaviy inqiroz yuz berib, turk lirasi qadri keskin tushib ketdi<sup>199</sup> va bu holat tashqi savdo hajmlari va ichki tuzilishiga keskin negativ ta’sir o‘tkazdi. Xitoy va

<sup>198</sup> China’s Zero Covid Policy is double-edged sword: <https://carnegieendowment.org/posts/2022/12/chinas-zero-covid-policy-is-a-double-edged-sword?lang=en>

<sup>199</sup> Qarang: Turkey: economic problems and international ambitions: <https://www.iiss.org/en/publications/strategic-comments/2022/turkey-economic-problems-and-international-ambitions/>

Turkiya evaziga 2021-yil natijalari bo'yicha O'zbekiston eksportining 30,0% qismi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ko'rsatkich 19,1 %gacha tushib ketdi.

O'zbekistonga kelayotgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi 2021-2023 yillar davomida sezilarli darajada volatillikda bo'ldi,<sup>200</sup> chunki asosiy donorlardan biri Rossiya Federatsiyasi edi (qar.28-grafika).

28-grafika<sup>201</sup>



Bu omillarning umumiy ta'siri hali Covid-19 pandemiyasi asoratlari va oqibatlaridan o'nglanmagan iqtisodiyotga kumulyativ ravishda ta'sir ko'rsatayotgan edi va bu ichki o'sish imkoniyatlarini keskin chegaralayotgan prudensial monitar va o'ta balanslanmagan fiskal siyosat fonida yuz berayotgan edi. Ichki o'sish imkoniyatlari chegaralanganligi o'z navbatida o'sayotgan budjet xarajatlarini qoplash uchun tobora qimmatlashib borayotgan tashqi qarz resurslaridan foydalanishga majburlar edi. Va bu omillar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar dinamikasining 2022-2023 yillar davomida sustlashishiga olib keldi. 2021-2023 yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyotini moliyaviy stabillikda ushlab turgan omillar makroiqtisodiy boshqaruv usullarining samarasi emas, balki oltin va boshqa


<sup>200</sup> <https://t.me/Mirkonomika/2025>

<sup>201</sup> Davlat statistika Qumitasi ma'lumotlariga ko'ra.

asosiy eksport xomashyo narxlarining uzluksiz o'sib borishi,<sup>202</sup> xalqaro moliya bozorida jalb qilingan qarzlarning, hamda mamlakatga kirib kelgan transchegaraviy oqimlarning yuqori darajada bo'lishi edi.

2010-2016 yillar davomida davlat xarajatlarining o'sish sur'atlari YaIM hajmining o'sish sur'atlaridan pastroq bo'lgani uchun budjetning YaIMdagi ulushi kamayib borganini kuzatgan bo'lsak, 2017-2023 yillar davomida teskari tendensiya kuzatildi, ya'ni davlat xarajatlarining o'sish sur'atlari YaIMga nisbatan yuqoriroq bo'ldi. Bu esa ijtimoiy ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasida iqtisodiy disbalans kuchayib borayotgani haqida dastlabki ishora edi. Budjet xarajatlarining o'sishi o'z ortidan davlat qarzining o'sish sur'atlarini keskin tus olishiga olib keldi. 2024-yilning may oyiga kelib davlat qarzi umumiy miqdori 34,9 mlrd. AQSh dollari tashkil etib, tashqi qarz miqdori 29,6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi va umumiy davlat qarzi YaIMning 38,4 %ni tashkil etgani e'tirof etildi<sup>203</sup> (qar.29-grafika).

29-grafika




<sup>202</sup> <https://goldprice.org/gold-price-history.html>

<sup>203</sup> O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga asosan: [https://api.mf.uz/media/menu\\_attachments/IB\\_2023\\_uz.pdf](https://api.mf.uz/media/menu_attachments/IB_2023_uz.pdf)

2023-yil boshidayoq tashqi qarz va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha majburiyatlar hajmi, tashqi savdodagi negativ saldoning o'sishi, chetga kapital chiqishi tufayli mamlakatning joriy to'lov balansi salbiy shakllana boshladi va bu jiddiy tashvishga sabab bo'ldi. Davlat xarajatlarining, uning ortidan tashqi qarz miqdorining keskin o'sishi va tashqi qarzni qoplash uchun ketadigan joriy xarajatlarning o'sishi, tashqi savdodagi salbiy balans, nostabil to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ko'rsatkichlari joriy to'lov balansi holatiga negativ ta'sir ko'rsatdi. 2023-yil yakuniga kelib joriy operatsiyalar bo'yicha hisob balansi defitsitining kumulyativ miqdori birinchi marta 7,8 mlrd. dollarni tashkil etib,<sup>204</sup> YaIMga nisbatan 8,6 %ga yetgan (qar.30-grafika). Joriy operatsiyalar hisobi defitsiti 2018-yildan beri muntazam mavjud bo'lib, uni qoplash uchun asosan transchegaraviy pul oqimlari, hamda oltin zaxiralarini sotishdan tushgan mablag'lar qo'llanilgan. Lekin umumiy oltin-valyuta jamg'armasining qiymat hajmida (jismoniy oltin hajmida emas) bu o'zgarishlar aks etmagan, chunki aynan shu yillardan boshlab oltin narxining o'sishi keskinroq tus olgan<sup>205</sup>.

30-grafika

### Joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi dinamikasi



<sup>204</sup> <https://cbu.uz/oz/statistics/bop/1651171/>

<sup>205</sup> <https://goldprice.org/gold-price-history.html>

Biz bu bobda davlatning yangi taraqqiyot strategiyasi maqsadlari yo'lida tanlagan makroiqtisodiy (**fiskal, monetar va regulyativ**), investitsiya va institutsional siyosatlarining mohiyati va natijalarini aholining real daromadlarining o'sishi, kambag'allik darajasining kamayishi mezonlari nuqtai-nazaridan batafsil tahlil qildik, fikrlarimizni tasdiqlovchi mavjud ob'ektiv ma'lumotlarni ilova qildik. **Dissertatsiyaning ikkinchi bobi xulosalari** sifatida quyidagi izlanish natijalarini ta'kidlab o'tishimiz muhim:

1. O'zbekistonda iqtisodiy liberallashtirish, taraqqiyotga stimullar berish g'oyasi Dj.Keynsning davlat moliyaviy mablag'larining sarfini oshirish ortidan umumiy talabni yuqori darajada ushlab turish, hamda ichki iqtisodiyotda taklif cheklangan bir sharoitda umumiy pul massasini qattiq nazorat qilib, yuqori kredit stavkalari bilan investitsion faoliyatni cheklab turish usullariga asoslangan edi. Bu iqtisodiy boshqaruv modeli aksariyat hollarda cheklanuvlar va davlat paternalizm g'oyalariga asoslangan bo'lib, davlatni ichki imkoniyatlarga emas, ko'proq tashqi moliyaviy oqimlarga qaram qila boshladi. Davlatning ichki rivojlanish imkoniyatlari cheklangan sharoitda (o'ta konservativ monetar siyosat va balanslanmagan fiskal siyosat tufayli) bu g'oya kerakli mablag'larni dunyo moliya bozorlaridan imkon qadar jalb etishga mone qildi, ya'ni tarixan qisqa muddatda xalqaro moliya bozorlarida kreditlarning arzonlashganligi iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun asosiy imkoniyatga aylandi. Ammo Covid-19 pandemiyasi ta'siri biroz susayishi bilan 2022-yildan boshlab bu tarixiy imkoniyat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yopildi. Xalqaro moliyaviy bozorlarda pul narxi oshdi va ko'pgina davlatlar kreditlar hisobiga (ichki imkoniyatlar emas) o'sib ketgan davlat budjeti xarajatlarini, pul aylanmasi hajmini qisqartirish, inflyatsiyani jilovlash yo'liga o'tdilar. Ular kichik va o'rta biznesga fiskal stimullar berish, davlat-xususiy hamkorlikni rivojlantirish, smart cities, smart villages kabi g'oyalar negizida sog'liqni saqlash, uni tiklash kabi ijtimoiy xarajatlarning katta qismini xususiy sektor zimmasiga o'tkazishga, davlatning budjetdan amalga oshiriladigan investitsiyalar va kompensatsiyalar hajmini keskin qisqartirishga muvaffaq bo'ldilar.

2. O‘zbekistonda esa 2022-yildan keyin ham iqtisodiy o‘shishni tanlangan yumshoq moliya siyosati bilan amalga oshirish, inflyatsiyani cheklash, aylanmadagi pul massasini YaIM va kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarish ehtiyojlariga nisbatan past miqdorda saqlash g‘oyasidan qaytildi. Iqtisodiy rivojlanish drayverlari kritik nuqtai-nazardan qayta ko‘rib chiqilmadi, davlat xarajatlarini keskin kamaytirish, makroiqtisodiy boshqarish usullarini ichki stimullarga qaratishga, ichki bozorda kichik va o‘rta tadbirkorlikni fiskal va monetar usullar bilan qo‘llab-quvvatlashga erishilmadi. Kichik korxonalar uchun soliq rejimi soddalashtirilib, qo‘shilgan qiymat solig‘idan uncha katta bo‘lmagan (4% darajada) aylanma soliqqa o‘tish, aylanma mablag‘lari uchun arzon kredit (yillik 14%)<sup>206</sup> olish imkoniyatlarini yaratib berish kabi amaliy ishlarning o‘zi kuchli ijobiy natijalar bergan bo‘lar edi<sup>207</sup>.

3. Davlat moliyaviy mablag‘lari yordamida stimullash siyosati davlatning moliyaviy stabiligini buzish xavfini yuzaga keltirdi. Aynan shuning uchun Markaziy bank 2015-yildanoq inflyatsiyani targetlash siyosatini keskin ravishda amalga oshira boshladi, lekin bu institutning cheklangan imkoniyatlari faqat monetar uslublariga qaratilgan bo‘lib, qilinadigan ishlar **pul massasi o‘shishini cheklash** amaliyotlari majmuasiga aylandi. Bu amaliyotlar o‘z navbatida xususiy (bank) investitsiyalarini jalb qilish, kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish imkoniyatlarini keskin kamaytirdi. Bir hisobdan davlat xarajatlari o‘sib, mamlakatning ichki iqtisodiy potentsiali toraygan holatda, mamlakat taraqqiyoti omillari tashqi investitsiyalar va tashqi qarzga tobe’ bo‘lib qoldi. Oxir oqibatda iqtisodiy potentsial kichik bo‘lgan O‘zbekiston sharoitida cheklovchi monetar siyosat taraqqiyotni stimullashtirish siyosatiga nisbatan komplimentar emas, o‘z ta’siri bo‘yicha dominant siyosatga aylandi.

---

<sup>206</sup> Bu ko‘rsatkichlar muallifning davlat boshqaruv organlaridagi faoliyati va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullangan yillarida o‘tkazgan izlanishlari va kuzatuvlari natijasida empirik tarzda aniqlangan. Ularni asoslab berish muhim va alohida katta masala bo‘lib, bu maqsad joriy izlanishimiz doirasiga kirmaydi.

<sup>207</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan bo‘ladigan an’anaviy muloqotlarida bu fikrlar 2022, 2023 va 2024 yillarda tadbirkorlar tomonidan ko‘p ta’kidlangan.

4. Markaziy bank asosiy stavka va inflyatsiyaning o'rtacha yillik ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqni yuqori darajada saqlamoqda, natijada bu ko'rsatkichlar barcha tijorat banklari uchun oriyentir bo'lib, kredit stavkalarining o'rtacha tortilgan stavkalari yuqori darajada saqlanib turishiga, tadbirkorlarning oborot va investitsion so'rovlariga moliyaviy resurslar mavjudligi cheklanganligiga olib kelmoqda. Markaziy bankning monetar siyosati katta miqdorlarda unumsiz investitsiya loyihalari, turli ijtimoiy-siyosiy loyihalarga asosan davlat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar ("Har bir oila tadbirkor", "Obod qishloq", "Obod mahalla" va ipoteka dasturlari) hajmining pasayishiga yoki kreditlarning qaytmaslik darajasi (NPL) koeffitsiyenti oshmasligiga olib kelmadi. Shunday harakatlar evaziga ham mamlakat miqyosida makroiqtisodiy uyg'unlikka erishilmadi.

5. Tijorat banklarining faoliyatini nazorat qilishda Basel III normativlaridan ham sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichlarni targ'ib qilish (depozitlarga nisbatan zaxira talablari, riskka tortilgan aktivlar darajasini belgilash va banklar kapitalining aktivlariga nisbatan belgilangan prudensial normativlar) kreditlarning narxi keskin oshishiga olib keldi. Markaziy bank neytral regulyator bo'lish o'rniga ko'proq imkoniyati cheksiz bo'lgan depozitlar va qimmatli qog'ozlar bozori o'yinchisiga aylanib bormoqda. Natijada Markaziy bankning "o'yin qoidalari" bozor tomonidan eng kuchli indikator va belgilovchi omillar deb qabul qilinmoqda;

6. Investitsion siyosatda O'zbekiston iqtisodiyoti uchun o'ziga hos lokomotiv bo'lishi mo'ljallangan sohalarda ishlab potensiali oshib, samaradorlik ham o'smadi. Umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sish sur'atlari aksincha tushib bormoqda: joriy narxlarda o'tgan yillarga nisbatan – 2021-yilda 23,7 % ga, 2022-yilda esa 21,3 % ga, 2023-yilda 19,1 % ga o'sgan (sanoat narxlari deflyatori bu yerda inobatga olinmagan) bo'lib, bu asosan yog'ochdan yasalgan buyumlar, to'qimachilik va farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi hisobiga erishildi. Jumladan, uy-joy qurilishi qurilish materiallari, metall konstruksiyalari, armatura, mebel, yog'ochdan yasalgan buyumlar, uy-ro'zg'or elektronika buyumlari sohalariga turtki

bo'lishi kerak edi.<sup>208</sup> 2024-yil 1-sentabr holatiga ko'ra jalb qilingan umumiy davlat qarzining 19% - yoqilg'i-energetika sanoati, 9% - transport va transport infratuzilmasi, 9% - qishloq va suv xo'jaligi, 9% - uy-joy va kommunal xo'jalik sohasi loyihalariga sarf qilingan.<sup>209</sup> Bu loyihalar ko'proq budjet hisobidan iste'mol xarakteriga ega bo'lib, ularning daromad keltirish potentsiali turli sabablar tufayli olgan kreditlarni to'la qaytarish fursati davomida (5-7 yil ichida) kreditlash xarajatlarini (asosiy qarz va foizlar) va ushbu kreditlardan foydalanish bilan bog'liq tranzaksiya xarajatlarini qoplash uchun yetarli darajada bo'lmasligi aniq. Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra<sup>210</sup>, 2023-yil yakuni bo'yicha umumiy tashqi qarz (davlat va davlat tomonidan kafolatlangan qarz, kafolatlanmagan davlat korxonalarini qarzi va xususiy tashqi qarz) 53 mlrd. dollar yoki YaIMning 60 %iga yetgan. Garchi klassifikatorlarda bu kabi qarzlarning xususiy qarzlarning baholangan bo'lsa-da, ularning absolyut katta qismi davlat aktivlari garovga qo'yilib, davlat korxonalarini tomonidan jalb qilingan qarzlarning. Ularni to'lashga ketgan barcha xarajatlarning davlat korxonalarini umumiy foydasidan bo'lib, budjetga jalb qilish mumkin bo'lgan moliyaviy resurslar bazasini jiddiy kamaytirgan.

Keskin o'sib borayotgan budjet xarajatlari va tashqi qarz hajmi, yuqori kredit stavkalari sharoitida past darajadagi investitsion faoliyat, joriy to'lov balansi defitsitining ko'tarilishi, kambag'allik darajasining shuncha qilingan stimullashtirish omillariga qaramay kutilgan darajalarda tushmasligi<sup>211</sup>, yetarli sur'atlarda pasaymayotgan inflyatsiya<sup>212</sup> yuqoridagi xulosalarda keltirilgan fikrlar bilan birgalikda O'zbekiston moliyaviy tizimida barqarorlikdagi risklarga ishora qildi va yangi ijtimoiy shartnomaning zaruratini ochib berdi. Bu yangi ijtimoiy shartnoma konturlari iqtisodiyot taraqqiyotga turtki berishning fiskal, monetar va

---

<sup>208</sup> Qarang: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>

<sup>209</sup> Iqtisodiyot va moliya vazirligining tashqi qarz bo'yicha axboroti. <https://www.imv.uz/static/umumiy-jadval>

<sup>210</sup> Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation-Press Release; and Staff Report. July 11, 2024/ <https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2024/07/11/>


<sup>211</sup> Почему необходима параллельная политика, направленная на улучшение условий бедных. Мнение эксперта ЦЭИР. <https://review.uz/post/pochemu-neobxodima-parallelnaya-politika-napravlenneya-na-uluchshenie-usloviy-bednyx-mnenie-eksperta-ceir>

<sup>212</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy axboroti: <https://t.me/centralbankuzbekistan/10366>



huquqiy-institutsional asoslarini qamrab olishi zarurati paydo bo'lgan (qar.4-infografika).

4-infografika



Bu yangi ijtimoiy shartnoma fiskal va monetar boshqaruv metodologiyasini o'zgartirish bilan bir qatorda, yig'ilib qolgan huquqiy va ma'muriy muammolarning yechimini qamrab olishi muhim va bu haqda biz keyingi boblarda batafsil to'xtaymiz.

### **III-BOB. MAKROIQTISODIY UYG‘UNLIKKA ERISHISHNING INSTRUMENTAL ASOSLARI**

#### **3.1 Strategik taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilash amaliyoti va huquqiy asoslari**

Tadqiqotimiz davomida strategik maqsadlarni belgilash jarayonini jamiyatga o‘rta muddatlik ijtimoiy shartnoma taklif qilish va amalga oshirish mohiyati bilan bir deb baho berib keldik. Bu nazariy naqtai-nazar amaliyotda o‘z aksini qanday topganini o‘rganib chiqdik. 2022-2024 yillar davomida O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi boshqa xalqaro hamkor tashkilotlar bilan birgalikda (Olmoniya xalqaro hamkorlik agentligi - GIZ, hamda Latviya taraqqiyot va xamkorlik agentligi – DCAL), muallif boshchiligidagi tashabbuskor gurux bilan amaldagi strategik rejalashtirishning huquqiy, hamda institutsional asoslarini, mexanizmlarini o‘rganib chiqqan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, 2024-yil 1-sentabr holatiga ko‘ra mamlakatda umumiy miqdorda 125 ta strategik taraqqiyot xujjatlari (strategik taraqqiyot konsepsiyasi va strategiyalar) qabul qilingan<sup>213</sup>. Mohiyati jihatidan yuqorida ko‘p marta sharh berilgan 2 xujjat tom ma‘noda (ya‘ni o‘rta muddatga mo‘ljallangan va ma‘lum qadriyatlarni nazarda tutgan holda turli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarga erishish dasturi) “strategiya” tushunchasiga mos keladi, bular ham bo‘lsa Taraqqiyot dasturi (2017-2021 yillar uchun), hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. Boshqa xujjatlarda o‘rganish davomida qator tizimli kamchiliklar topildi va tadqiqotlar aksariyat xujjatlarni teran ma‘noda bo‘lsa ham strategiya deb nomlashga asos bermadi. Lekin 2017-yildan boshlab o‘zaro bog‘liqligi bo‘lmagan turli tasodifiy qarorlar asosida davlat resurslarini jalb qilgan holda turli ijtimoiy harakatlarni to‘xtatishga qaratilgan amallar kuchga kirganini yaqqol ta‘kidlash mumkin. Yillar kesimida qararak, eng ko‘p sonli strategik ahamiyatli xujjatlar (strategiyalar, konsepsiyalar va harakatlar dasturi) 2018-2022 yillar davomida qabul qilinib, keyin bu faollik sustlashgan

---

<sup>213</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.11.2024 yildagi 800-sonli “O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan 126-strategiya qabul qilindi,


(qar.31-grafika).

31-grafika



Sohalar bo'yicha eng ko'p strategik xujjatlar ijimoiy sohada qabul qilingan (qar.5-infografika).

5-infografika



Bu xujjatlar qamrab olgan sohalari va ob'ekti bo'yicha umummamlakat strategiyalari - 38 ta (Taraqqiyot Strategiyasi, Strategiya-2030 kabi), xududiy rivojlanish strategiyalari - 8 ta (jumladan, Zomin qo'riqxonasini, Chorvoq dam olish xududini, Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz xududlarini rivojlantirish haqida)

va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat tarmoqlari bo'yicha - 79 tani (jumladan, ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish, ekologiya va atrofni muhofaza qilish, innovatsiyalarni amalga oshirish, sanoat, qishloq xo'jaligini rivojlantirish) tashkil etadi. Ular turli vakolatli davlat boshqaruv organlari tomonidan tegishli ravishda tasdiqlangan va amalga oshirilib kelinmoqda. Eng qo'p xujjatlar "strategiya" so'zi bilan nomlangan, hatto uning mohiyati bunday xujjatga bo'lgan norasmiy talablarga umuman to'g'ri kelmagan holatlarda ham (qar.6-infografika).

6-infografika


### 2017-2024 yillar davomida qabul qilingan strategik turlari



Amaldagi strategik xujjatlarning mazmuni va mohiyatini tahlil qilganimizda eng ko'p uchraydigan kamchiliklardan biri ko'rilayotgan masala yoki muammo yuzasidan hozirgi davrda yuzaga kelgan holatning tahlili (turli aholash mezonlari asosida) berilmasligi. Ikkinchi ko'p uchraydigan holat – taklif qilinayotgan amaliy yechimlarning budjeti va sarf parametrlari umuman ko'rsatilmaganligida. Keyingi katta kamchilik keltirilgan turli rejalarning amalga oshirish jarayonida monitoring va hisobot yig'ish tizimining yo'qligi, hamda monitoring qilish uchun qo'rsatkichlarining turi va hisoblash metodologiyasining yo'qligi. Va nihoyat, taklif qilingan amaliy harakatlar qanday natijalarga olib kelishi umuman aytilmagan, yoki asoslanmagan startegiya va konsepsiyalar ham anchagina katta ulushni (umumiy miqdordan 73 %dan ortiq) tashkil etadi (qar.7-infografika). Ushbu kamchiliklar bu hujjatlarni tayyorlashda umumiy metodologiya yoki barcha uchun ayon va


anglangan yondashuvning yo'qligidan dalolat beradi.

7-infografika



Tahlil qilingan strategiyalar turli vaqt gorizontiga mo'ljallangan bo'lib, eng ko'p uchraydigani 4 yildan 7 yilgacha (saylov oralig'i vaqti). Lekin qariyb 40 tasida amalga oshirish muddati ko'rsatilmagan (qar.8-infografika).

8-infografika



Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, turli strategik xujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish jarayonlarida bir qator huquqiy, institutsional va tashkiliy-amaliy kamchiliklar mavjud:

– mamlakat miqyosida strategik boshqaruv asoslarini belgilab beruvchi, jumladan, strategik boshqaruv xujjatlari ta'rifi, ularning tasnifi, ishlab chiqish,

ekspertiza qilish, qabul qilish, tegishli resurslarni mobilizatsiya qilish, amalga oshirish, monitoring qilish, belgilangan tadbirlar bajarilmaganda javobgarlik darajasini belgilash, zarur bo'lganda o'zgarishlar kiritish tartibi aniqlanmagan;

- strategik xujjatlar tasniflanmagani uchun turli darajadagi boshqaruv organlarining vakolati va javobgarligi ham belgilanmagan;

- turli tadbirlarni tanlash mezonlari ishlab chiqilmagan, tadbirlar ko'p hollarda o'zaro mantiqan bog'liq, bir maqsadga intilgan yaxlit yig'im emas, ixtiyoriy tanlab olingan tadbirlar yig'indisidek namoyon bo'ladi. Ularni tanlashda moliyaviy va boshqa resurs imkoniyatlari nazarda tutilgani aniq emas;

- strategiyalarda belgilangan tadbirlar bilan davlat budjeti xarajatlarining inklyuzivligi ta'minlanmagan;

- turli strategiyalarni muvofiqlashtirish, o'zaro singdirish va amalga oshirilayotgan tadbirlarni o'zaro bog'lash mexanizmlari ishlab chiqilmagan.

Taxlil qilingan 125 ta strategik xujjatlar ichida bir yoki bir nechta kamchilik aniqlangan:

- 97% hollarda yechilishi lozim bo'lgan muammolarning aniq tarifi, mavjud muammo ko'lamini baholari berilmagan;

- 78% hollarda maqsadlarga erishish bilan bog'liq bo'lgan turli iqtisodiy, hisobot va normativ ko'rsatkichlar belgilanmagan, ya'ni strategiyani amalga oshirishda qanday ko'rsatkichlar dinamikasi kuzatilishi butunlay noma'lum;

- 77% hollarda umumlashtirilgan hisobot va monitoring tizimi belgilanmagan, turli vakolatli shaxslar javobgarligi belgilanmagan;

- 30% hollarda harakatlar rejasi, vazifalarning iyerarxiyasi va prioritetlari belgilanmagan, katta natija beruvchi, lekin vaqt talab qiluvchi natijalar, tez bajariladigan ishlar bir xil rejalashtirilgan;

- 78% hollarda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish rejasi (ijrochilar, vaqti, resurslar ajratish mexanizmi, javobgarlik, hisobot va monitoring tizimi) belgilanmagan.

Umumiy xulosa shuki, agar davlat miqyosida qonunchilikka o'zgartirish

qiritib, strategiya, konsepsiya kabi tushunchalarga yuridik maqom berilmasa, ularni qabul qilish va ijrosini ta'minlash sohasida turli davlat va ijtimoiy institutlarning mas'uliyati to'g'ri belgilab berilmasa, juda muhim mohiyatga ega bo'lgan xujjatlar tizimsiz qabul qilinib, ularning ijrosi muallaq bo'lib qolaveradi. Amaliyotda kamdan-kam hollardan tashqari qabul qilingan strategik xujjatlar ijrosini kuzatish, ta'minlash va zarur hollarda tegishli o'zgartirishlar kiritish imkoni deyarli yo'q. Ko'pgina qabul qilingan strategik xujjatlar tarkibidagi harakatlar dasturining aksariyati mohiyati deklarativ bo'lib qolgan. Bu holat makroiqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot sohasidagi ba'zi ko'rsatkichlarni rejalashtirish va ularga erishishdek o'ta muhim sohaga ham ma'lum darajada tegishli.

Keltirilgan tahlillar mantig'idan kelib chiqib, strategik rejalashtirishni qonunchilik xujjatlari negizida tizimli yo'lga qo'yish dolzarb masalalardan biri ekanligi ayon bo'ladi (qar.9-infografika).

9-infografika



Eng yuqori darajada, tushunarli mezonlarga ko'ra Strategiya-2030 turadi, chunki bu xujjat 2023-yilda tasdiqlangan bo'lib 5 ta asosiy yo'nalish bo'yicha mamlakat taraqqiyot istiqbolini ancha detallashtirgan tashabbuslar yig'indisini o'z ichiga olgan. Keyingi o'rinda mamlakat taraqqiyoti strategiyasining tashkiliy qismi bo'lgan turli mintaqalar (aglomeratsiyalar) va xududlarni rivojlantirish

strategiyalari. Bu ikki turdagi strategik vazifalarni belgilashdagi asosiy mezonlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston xalqi va parlamentga murojaatlari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar yuzasidan o'z zimmasiga olgan majburiyatlari va mahalliy xalq deputatlari kengashlarining turli tashabbus va so'rovlari yotadi. Bu vazifalar umumiy holda Birlashgan millatlar tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) mantiqi va mohiyatidan kelib chiqadi.

Aynan shu asosiy maqsadlar belgilangandan so'ng ularning inklyuzivligini ta'minlash, mohiyati, belgilangan ko'rsatkichlari ta'minoti nuqtai-nazaridan mamlakatning fiskal va monetar siyosati tegishli ravishda belgilanishi lozim. Bu yerda har bir rejalashtirilgan ko'rsatkichning sifat belgisi uning ma'lum bir ijtimoiy muammoni hal etishga qaratilgani bilan tasniflanishi muhim. Masalan, shifoxonalar qurish va ularga mablag' ajratish metodologiyasi ma'lum kasallarni davolash o'rindiqlari soniga qarab emas, mamlakat miqyosida aynan shu kasallikning me'yoriy ko'rsatkichlarini kamaytirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Ta'lim muassalari soni va moliyalashtirish mezonlarini belgilashda bolalar soni bilan birga fanlarni o'zlashtirish mezoni ham katta vaznga ega bo'lishi kerak. Chunki mamlakatda sifatsiz ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini tirajlashdan ko'ra, resurslar tanqisligi sharoitida sifat markazlarini ta'minlash strategiyasi afzalroq. Xuddi shu mantiq yuzasidan makroiqtisodiy boshqaruvda ham dissertatsiyada asoslangan gipotezalardan biri – cheklangan me'yorlarga asoslangan iqtisodiy boshqaruv modelidan (inflyatsiyaning, asosiy stavkaning, almashuv kursining ma'lum darajasi) bozor mexanizmlariga asoslangan ichki iqtisodiyot potensialini o'stirishga qaratilgan stimullashtirish modeliga o'tish (arzon pul rezervlarini tashkil qilib, ularni tijorat banklarining kichik va o'rta biznesni qo'lash loyihalarni qayta moliyalashtirishga qaratish, fiskal siyosatda kichik va o'rta biznesga soliq yukini keskin kamaytirib, soliqni yig'ish ma'muriyatini soddalashtirish, almashuv kursini liberallashtirish). Lekin bu takliflar strategik rejalashtirish tizimini qayta qurish jarayonida turli institutlar va ekspertlar tomonidan muhokama qilinib amalga oshirilishi zarur (qar.10-infografika).






Har qanday strategiyani ishlab chiqish vazirlik va idoralarning asosiy vazifalaridan kelib chiqib, strategik maqsadlarni tanlashning minimal mezonlarini ishlab chiqishdan boshlanishi kerak. Aks holda muhim maqsadlar vazni va ahamiyati o'zining zarur fokusini (ma'muriy va boshqa resurslar talab qilingani uchun) yo'qotadi. Strategiyaning boshqa xujjatlardan farqli muhim xususiyati shundaki, u davlat siyosatiing eng muhim jabhalarini qamrab ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarni yechishga qaratilgan bo'ladi. Aynan shu jihati bilan strategiya ijtimoiy shartnomaning bir turi deb qaralishi lozim.

Yuqorida keltirilgan strategik loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishdagi kamchiliklar strategik rejalashtirish xujjatlarini ishlab chiqish, kelishish, ekspertiza qilish, qabul qilish, tegishli resurslarni mobilizatsiya qilish, amalga oshirish, monitoring qilish, belgilangan tadbirlar bajarilmaganda javobgarlik darajasini belgilash, zarur bo'lganda o'zgarishlar kiritish jarayonlarini huquqiy belgilashni taqozo qiladi. Albatta bu normalar qonun asossida kiritilib, strategik maqsadlarni rejalashtirish va amalga oshirishda jarayonidagi boshqaruv tizimining inklyuziv qismi bolishi muhim (qar.11-infografika). Modomiki, strategik maqsadlarni amalga oshirish, belgilangan ko'rsatkichlarga erishish davlatning stimullashtirish va zo'ravonlik o'tkazish institutlarining mohiyatiga aylammasa,

hech bir davlat ma'muriyati va boshqaruv xodimi mas'uliyatni anglamaydi va jarayon sabotaj, profanatsiyaga o'tishi ehtimoli katta bo'ladi.

### 11-infografika



Fikrimizcha, jarayon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston xalqi va parlamentga murojaatlari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar yuzasidan o'z zimmasiga olgan majburiyatlari va mahalliy xalq deputatlari kengashlarining turli tashabbus va so'rovlarini tahlil qilishdan boshlanadi. Loyihalarning mohiyati jamoatchilik va ekspertlar tanlovidan o'tgach, O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligiga taqdim etiladi. Agentlik loyihalarni ma'lum mezonlar asosida ko'rib chiqib, uning sifatini oshirish borasida turli fikrlar beradi va shu alfozda takliflar bir nechta umumiy filtrlardan o'tadi. Bunday yondashuv kerakli shaffoflikni ta'minlab, strategik loyihalarning sifatini keskin oshirishi muqarrar, chunki jarayonga nafaqat davlatning vakolatli mutahassislari, balki soha ekspertlari, jamoatchilik vakillari tortiladi.

Xulosa qilib aytganda, strategik loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda quyidagi omillar huquqiy bazasini topadi:

- strategik rejalashtirish hujjatlarining Yagona reyestri tuziladi, ularning iyerarxiyasi aniqlanadi, davlat organlari va tashkilotlarning o'zaro hamkorligi ta'minlanadi;

– strategik rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish va amalga oshirilishini monitoring qilish bo‘yicha metodologiya (tartib)ni ishlab chiqiladi;

– strategik islohotlar Agentligi strategik rejalashtirish hujjatlarini va tizim samaradorligini oshirish hamda uzluksiz monitoringini ta‘minlash (elektron platforma orqali) bo‘yicha vakolatli organ etib belgilanadi;

– barcha davlat dasturlari joriy budjet bilan inklyuziv monandligi kafolatlanib, tegishli ravishda moslashtirilishi, muvofiqlashtirilishi, monitoring va baholanishi ta‘minlaniladi;

– strategik rejalashtirish tizimi salohiyatini oshirish maqsadida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining markaziy apparatlari strategik rejalashtirish va metodologiya bo‘limlari xodimlari malakasini oshirish bo‘yicha tegishli seminar va treninglar tashkil etilishi ta‘minlaniladi.

O‘zbekistonda strategik rejalashtirishni shakllantirishning yangi tizimini yaratish yuzasidan ishlab chiqilgan bu takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ma‘muriyatiga 2024 yil kuzida kiritilgan.

### **3.2 Makroiqtisodiy boshqaruvda alternativ iqtisodiy parametrlar asosida simulyatsiya modeli va metodologik tahlilni takomillashtirish**

Belgilangan strategik maqsadlar va bashorat qilingan iqtisodiy rivojlanish parametrlariga erishishning asosiy omillaridan biri -iqtisodiy tahlil uchun tanlab olingan dastlabki kiritish ko‘rsatkichlari, ularni yakuniy parametrlarga ta‘siri vazni, umuman prognozlashtirishning metodologik asoslari mamlakatda mavjud va nufuzli xalqaro moliya institutlari (XMI) tomonidan keng miqyosda tan olinishidadir. Iqtisodiy rejalashtirish jarayonlarida qatnashmayotgan izlanuvchilar uchun O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanish parametrlarini prognozlashtirishda qanday amaliyotlardan foydalanishi va jarayonda tadqiqotlar va fikrlar raqobati darajasi mavhum. Shu holatni e‘tirof etgan holda, izlanishimiz davomida Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi mutahassislari makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognoz qilish uchun qo‘llaydigan bir necha usullarga to‘xtab o‘tmoqchimiz. Eng keng

qo‘llaniladigan tahlillar turli ekonometrik modellarga asoslangan, masalan, ko‘rsatkich va faktor orasidagi bog‘liqlikni aniqlovchi va faktorlarning vaznini belgilovchi regressiya tahlili. Tarixiy davr ko‘rsatkichlari va faktorlar orasidagi bog‘liqlikni kelajakdagi tendensiyalarni bashorat qilish uchun ekstrapolyatsiya qilish modellari va hokazolar. Izlanuvchilar orasida qo‘llaniladigan eng ommaviy texnikalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Vektorli avtoregressiya (Vector Autoregression - VAR): Bir nechta vaqt seriyalari orasidagi chiziqli o‘zaro bog‘liqlikni ushlaydi.

- Avtoregressiv integral harakatlanuvchi o‘rtacha qiymat (Autoregressive Integrated Moving Average (ARIMA): bir o‘zgaruvchan vaqt seriyasini prognoz qilish uchun ishlatiladi.

- Strukturaviy modellar (Structural Models): Bu modellar iqtisodiy nazariyaga asoslanadi va turli iqtisodiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Ular ko‘pincha iqtisodiy mexanizmlarni ifodalovchi turli tenglamalarni o‘z ichiga oladi.

- Dinamik stoxastik umumiy muvozanat (Dynamic Stochastic General Equilibrium (DSGE) Models) modellari: Ular tasodifiy zarbalar va turli iqtisodiy agentlarning vaqt o‘tishi bilan xatti-harakatlarini o‘z ichiga olgan holda iqtisodiyotni tahlil qilish uchun ishlatiladi.

- Sifatli prognozlash (Qualitative Forecasting): Bu usul ekspert mulohazalari va sifat ma‘lumotlariga tayanadi, ko‘pincha miqdoriy ma‘lumotlar kam yoki ishonchsiz bo‘lganda qo‘llaniladi.

- Ssenariy tahlili (Scenario Analysis) - bu tashqi omillar, siyosat o‘zgarishlari yoki zarbalar haqidagi turli taxminlarga asoslangan turli iqtisodiy ssenariylarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Ushbu usullar ko‘pincha prognozlarning aniqligi va ishonchliligini oshirish maqsadida birgalikda, turli ehtimollar e‘tirof etilgan holda qo‘llaniladi<sup>214</sup>

Ta‘kidlab o‘tilgan qo‘llanmalarning aksariyatidan foydalanib, biz ham turli

---

<sup>214</sup> <https://ccamtac.imf.org/content/CCAMTAC/home/Technical-Assistance/Uzbekistan.html>


ssenariylarga tayangan holda mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari istiqboli 2025-2027 yillarda qanday bo'lishi mumkinligini tahlil qildik. Bunda biz asosiy tayanch modeli sifatida Xalqaro valyuta jamg'armasining FPP (**financial programing and policies**) modelidan foydalandik. Barcha izlanishlar O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi tomonidan dissertatsiya muallifi boshchiligidagi ishchi guruhi tomonidan olib borildi.<sup>215</sup> Amalga oshirilgan prognoz (bashorat) ikki ssenariyga: asosiy hamda muqobil ssenariylarga ajratilgan. Muqobil ssenariyga ham 2024-yilning dastlabki natijalari mohiyatidan kelib chiqib, ba'zi aniqliklar kiritilgan va natijada qo'shimcha muqobil ssenariy ko'rib chiqilgan.

Guruh a'zolarining aksariyati tomonidan asosiy ssenariy eng yuqori ehtimollikka ega prognoz deb hisoblangan, muqobil ssenariy mamlakatning asosiy savdo hamkorlarida rivojlanish ko'rsatkichlarining o'zgarishlari bilan bog'liq ehtimollikni hisobga olib amalga oshirilgan. 2024-yilning o'rtasiga kelib muqobil ssenariy ko'rsatkichlari ehtimoli yuqoriroqligi muallif tomonidan isbotlangan. Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, biz bu yerda ko'proq aynan shu ssenariyni tafsilotli ko'rib chiqamiz.


Asosiy ssenariyga ko'ra, 2024-yilda YaIMning real o'sish ko'rsatkichi 5,5 %ni tashkil etishi nazarda tutilgan (33-grafika). Asosiy tashqi savdo hamkor mamlakatlar iqtisodiy o'sishining 1 foiz bandga sekinlashishi O'zbekistonda YaIM o'sishini 0,4 - 0,6% bandga pasayishiga olib kelishi mumkin. Xususan, Xitoy iqtisodiyotining 1% bandga sekinlashishi O'zbekistonda YaIM o'sishi sur'atlarini 0,1 - 0,2% bandga kamaytirishi mumkin, chunki mamlakatning ichki bozorining talabi 40 % gacha import hisobiga qoplanilmoqda. Taqiqot shuni ko'rsatdiki, 2019-yildan so'ng YaIM tafovuti manfiy ko'rsatkichlarni tashkil etgan, ya'ni YaIMning real o'sish sur'atlari uning potentsiali (imkoniyatlaridan) amalga oshirilgan inflyatsiyani jilovlash tadbirlari hamda fiskal bosimni oshirish ortidan pastga, manfiy ko'rsatkichlarga tushgan. Vfjolanki, 2019 yilgacha bozordagi katta investitsiyalar tufayli YaIMning real o'sishi potentsialdan yuqori bo'lgan. (32-33-grafikalar).

---

<sup>215</sup> Izlanish avtorining rahbarligida O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi tomonidan 2023 yil davomida XV Fning bazaviy dunyo iqtisodiyoti prognozlarini asosida tuzilgan model.




Bu hol **2017 - 2023** yillar davomida mamlakatda investitsiyalar hajmining keskin o'sishi bilan (yiliga o'rtacha 14,5% va jami 1 460,4 trln so'mlik kapital qo'yilmalar amalga oshirilgan) bilan izohlanadi (34- va 35-grafikalar).



Investitsiyalarning YaIMga ta'siri inersion bo'ladi va biroz vaqt o'tgandan so'ng ko'rinadi. 2017 – 2023 yillarda YaIMning o'rtacha o'sishi 5,3 %ni tashkil etib, mazkur o'sishning 3,9% bandi investitsiyalar tufayli yuz berdi. Xususiy investitsiyalarning YaIMdagi ulushi **2017-yilda 19,2 %ini** tashkil etgan bo'lsa, **2023-yilga** kelib bu ko'rsatkich **29,1 %ga** yetgan. Asosiy ssenariyga ko'ra kelasi yillarda xususiy investitsiyalarning o'sish tempi biroz sekinlashib, YaIMdagi ulushi **29%** darajada saqlanib qoladi. Yalpi taklif hajmi bo'yicha xizmatlar va sanoat asosiy drayverlar sifatida iqtisodiy o'sishning mos ravishda **2,6%** bandi va **1,5%**

bandini tashkil qildi (qishloq xo‘jaligi – **0,9% bandi**, qurilish – **0,4% bandi** va sof soliqlar – **0,5% bandi**).

Asosiy ssenariyga ko‘ra, joriy yilda inflyatsiya ko‘rsatkichi pasayuvchi trendni namoyon qilib, Markaziy bankning **2024-yil** uchun target (**8 – 9%**) koridorida shakllanib, agar nazorat qilinadigan tovarlar narxi oshirilishining (aholi uchun elektr energiya narxlarining oshirilishi) salbiy ta’siri kutilmalar doirasida bo‘lsa, unda yillik inflyatsiya darajasi **8,1%** atrofida shakllanishi kutilayotgan edi (36-37 grafikalar). Amalda 2024-yilning noyabr oyi natijalari bo‘yicha yillik inflyatsiya darajasi 8,8 %ni tashkil etdi. Bu nazarda tutilgan simulyativ ko‘rsatkichdan birmuncha yuqori va 2024-yil may oyida energetika resurslariga oshirilgan narxlarning birmuncha mnersion vaqtdan so‘nggi in’ikosi.



Ammo 2024-yil may oyida energetika resurslariga narxlarning keskin ko‘tarilishi va bu bilan bog‘liq iste’mol va sanoat mollari narxlarining 2024-yil oktabr oyidan boshlab sezilarli oshishi bu asosiy ssenariy shartlari yuz bermasligini ayon qilib qo‘ydi.

Fiskal soha:


2023-yilda konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari o‘sish sur‘ati 12,3 %ni (2022-yilda - 39,9%) tashkil qilgan edi va nominal YaIM o‘sishidan (19%) past bo‘lgan. 2024-yilda ham nominal YaIM o‘sishi (22,1%) budjet daromadlari o‘sishidan (16,8%) yuqori bo‘lishi kutilmoqda. 2024-yil konsolidatsiyalashgan

budjet defitsiti 4 %dan oshmasligi belgilangan edi. Lekin o'tgan 3 yil davomidagi tendensiyani bu yilga ham ekstrapolyatsiya qilishga barcha asoslar borligi, hamda davlat xarajatlarini kamaytirish borasida deyarli hech qanday ishlar amalga oshirilmayotgani nazarda tutilgani nazarda tutilib, 2024-yilda ham budjet defitsiti belgilangan yuqori chegaradan oshib, asosiy ssenariy bo'yicha YaIMning 5,5 %ga yetishi kutilmoqda.

Monetar soha:

Monetar stabillik nuqtai-nazaridan real valyuta kursi bo'yicha doimo neytral holatga intilish maqsadga muvofiq (ya'ni almashuv kursi milliy valyubtaning to'lov qobiliyati va inflyatsiyaga monand tushib bergani ma'qul). Ammo 2019-yildan keyingi davrda milliy valyutaning real kursi muvozanatdan uzoqlashib hamkor davlatlar valyutalariga nisbatan qariyb 10 %ga mustahkamlagan. Real valyuta kursining mustahkamlanishi o'z navbatida importni rag'batlantirib, eksportning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Bu esa o'z navbatida joriy avvalgi boblarda ko'rsatib o'tilganidek, joriy hisoblar defitsitining yanada kengayishiga ta'sir o'tkazadi. Real ko'rsatkichlarda to'lov qobiliyati kuchayib borayotgan so'm import operatsiyalari bo'yicha foydaning stabil bo'lishiga, demak bu operatsiyalarni stimulashtirishga sharoit yaratadi (38-grafika).

38-grafika<sup>216</sup>



<sup>216</sup> Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining makroiqtisodiy sharhidan (2023)




Hozirgi rasmiy inflyatsiyaning pasayib borishi sharoitida real valyuta kursining uzoq muddatli maqsadli ko'rsatkichlariga yaqinlashishi uchun nominal valyuta kursining qadrsizlanishi (yoki avgustdagi kabi to'g'rilanishi) yoki hamkor davlatlarda makroiqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi talab etiladi. Real valyuta kursining uzoq muddatli trendga yaqinlashishi (hozirgi holatda qadrsizlanishi) to'lov balansidagi nomutanosiblikni yumshatib, xalqaro zaxiralarga bo'lgan bosimni kamaytirishi mumkin deb taxmin qilingan. Voqelik shuni ko'rsatayaptiki, real valyuta kursining ko'tarilishi import hajmlarini o'sishiga olib kelib, xalqaro zaxiralar hajmi va to'lov balansiga bosimni kuchaytirayapti.

Tashqi savdo:

2018-2023 yillarda YaIM dollar hisobida 1,7 barobarga o'sgan bo'lsa, mazkur davrda oltinsiz eksport 1,5 barobar, import esa 2 baravar ko'paygan. Oltinsiz eksport YaIM o'sish sur'atiga nisbatan sezilarli darajada past o'sganligi va importning nisbatan yuqori o'sganligi sababli oxirgi yillarda manfiy savdo balansi ortmoqda. 2023-yilda savdo balansining manfiy saldosi 13,7 mlrd. dollarga yoki YaIMga nisbatan 15,1 %ga yetdi.

2023--yilda Transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmi 11.4 mlrd. dollarni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 32,5 %ga qisqargan. Bu holat transchegaraviy pul o'tkazmalari o'zining uzoq muddatli trendiga (Ukrainiga qarshi urushdan avvalgi davrdagi) qaytayotganligi bilan izohlanadi (transchegaraviy pul o'tkazmalari 2021-yilga nisbatan 40 %ga o'sgan). Tashqi savdo defitsitining o'sishi fonida to'lov balansining joriy hisoblar manfiy saldosi 2023-yilda YaIMga nisbatan 4,8 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yil natijalariga ko'ra bu ko'rsatkich 3,9 %ni tashkil etishgi kutilmoqda. Joriy hisoblar balansi defitsiti o'sishi fonida bu moliyaviy hisoblarda yetarli oqim bilan ta'minlanmaganligi natijasida xalqaro zaxiralar 2023-yilda jiddiy qisqarishga uchradi (39-grafika). Xususan, 2023-yil davomida oltin-valyuta zaxiralari 1,2 mlrd. dollarga qisqargan. Bunda, valyutadagi zaxiralar hajmi 2,2 mlrd. dollarga qisqargan bo'lsa, oltindagi zaxiralarining 1,5 mlrd. dollarga o'sishi zaxiralar qisqarishini yumshatgan (40-grafika).




To'lov balansidagi nomutanosiblik qisqarmas ekan bu holat oltin valyuta zaxiralarini qisqartirishda davom etadi. To'lov balansidagi nomutanosiblik muammosini, **fiskal intizomga** rioya qilish, yoki investitsiyalar hajmini keskin oshirish orqali yechish mumkin. Bundan tashqari, **2023-yilda** real valyuta kursining mustahkamlanganligi ham Joriy hisoblar saldosi yomonlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qilgan. Real valyuta kursining **uzoq muddatli trendiga yaqinlashishi** ham to'lov balansidagi nomutanosiblikni yumshatuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Bizning prognozlarga ko'ra, 2024-yilda joriy hisoblar balansi defitsiti oltinning dunyo bozoridagi narxi keskin o'sishi hisobiga biroz yaxshilanib YaIMning 3,9 %ini tashkil etishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkich fiskal intizomga qanchalik rioya qilinishi, investitsiya oqimining o'zgarishi va real valyuta kursining o'zgarishiga ham uzviy bog'liq.

## II. Muqobil ssenariy 1 (investment boom - investitsiyalar hajmining keskin o'sishi)

Tadqiqot davomida ikki guruhdagi muqobil faraz va tahminlar kelib chiqib, 2 xil muqobil iqtisodiy rivojlanish modeli ishlab chiqildi. Bu modellar a) xususiy investitsiyalar, hamda xalqaro zaxiralarning hajmi b) inflyatsiya darajasi hamda YaIM potensial va real o'sishi sur'atlari bilan bir-biridan farq qiladilar (qar.41-42-grafikalar). Bu erda asosiy omillar sifatida tashqi savdo va tashqi


investitsiyalarning sof oqimi hajmi bo'ladi.




2024-yil davomida yilda ko'plab investitsiya loyihalar boshlanishi va davom ettirilishi kutilmoqda. Xususan, 2024-yil yanvar oyida davlat rahbarining **Xitoyga tashrifi** doirasida katta miqdorda investitsion bitimlar tuzildi.

Muqobil ssenariyga ko'ra, **chet eldan investitsiya oqimining keskin oshishi holati inobatga olinib prognozlar amalga oshirildi**. Muqobil ssenariy farazlariga ko'ra investitsiyalar hajmi 2024 – 2026 yillarda o'rtacha 19 %ga o'sib (asosiy ssenariyda 5,6% edi), 2026-yilga kelib YaIMga nisbatan 40,5 %ga yetadi (asosiy ssenariyda 29,1%). Potensial YaIM hamda haqiqiy YaIM o'rtasidagi **ijobiy tafovut** esa joriy yilda **1,4 %ni** tashkil etsa, **2025-yilda** qariyb **2,4 %ga** yetadi (baholar deflyatori tufayli). Keyingi yillarda investitsiya oqimining biroz sekinlashib borishiga qaramasdan **2017 - 2023 yillardagi** o'rtacha ko'rsatkichdan (**14,5%**) 2024-2026 yillar davomida yuqoriroq darajada (**19%**) shakllanadi.

**Muqobil ssenariyga** ko'ra budget defitsiti, YaIMning ichki tuzilishida xususiy investitsiyalar hajmi kuchli volatil holda bo'lib umumiy tendensiyasi qisqarish bo'lib turgan sharoitda (43-grafika) iqtisodiyot hajmining nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi evaziga asosiy ssenariyga nisbatan pastroq darajada shakllanadi (44-grafika). Lekin absolut miqdorda budget defitsiti o'sishi tendensiyasi o'rta muddatli gorizontda kuzatilib boriladi.



Xususan, 2024-yilda budjet defitsiti 4,5 %ni (asosiy ssenariyda 5,8%), 2025-yilda esa budjet defitsiti 2,4 %gacha qisqarishi kutilmoqda (asosiy ssenariyda 5,3%). Investitsion oqimning bir necha yil davom etishi esa 2026-yildan budjet balansini defitsitdan profitsitga olib chiqishi mumkin (45-grafika).




Muqobil ssenariyga ko'ra, inflyatsiya prognoz ko'rsatkichlari joriy hisoblar saldosing defitsiti yomonlashib joriy yilda YaIMga nisbatan **6,6 %ga** yetadi (46-grafika). Bu holat investitsiyalar oqimining keskin ortishi natijasida **import texnologiyalar** hajmining yuqori suratda o'sishi bilan izohlanadi.

Investitsiya oqimi o'z navbatida inflyatsiya darajasining tezlashishi va **2024-yilda 9,7 %ga** yetishiga olib keladi. Inflyatsiyaning tezlashishi kelasi yillarda ham

davom etib, Markaziy bankning target darajaga (**5%**) erish muddatini kechiktiradi. **2023-yilda** real valyuta kursi **4,6%** bandga mustahkamlangan bo'lsa, investitsiya oqimining keskin o'sishi natijasida ichki bozorda chet el valyutasining taklifi ortadi (joriy hisoblar defitsiti o'sishiga qaramasdan). Bu esa o'z navbatida nominal valyuta kursini nisbatan past qadrsizlanishi va real kursining yanada mustahkamlanishiga sabab bo'ladi. Xususan, **muqobil ssenariyga ko'ra milliy valyutaning real kursi 2024-yilda 3,8 %ga, 2025-yilda 4,5 %ga mustahkamlanishi mumkin.**

Muqobil ssenariy 1 ga ko'ra, **2024-yilda** Xalqaro zaxiralar hajmi 4,32 mlrd. dollarga oshishi mumkin (47-grafika). Bu holat moliyaviy balansida **yuqori kapital oqimi** bilan izohlanadi. Ammo zaxiralarning nominal hajmi o'sishiga (48-grafika) qaramasdan uning YaIMdagi va importga nisbatan ulushi qisqarishda davom etadi.



Xususan, 2024-yilda zaxiralar hajmi oshishiga qaramasdan, ularning YaIMdagi ulushi 38,9 %gacha tushadi, shuningdek, zaxiralar hajmi 2023-yildagi 12,1 oylikdan 10 oylik importga qisqaradi. 2025-yilda esa, zaxiralarning ulushi YaIMga nisbatan 36,1 %ga, hamda 8,8 oylik importni qoplash darajasigacha qisqaradi.


### III. Ikkinchi muqobil ssenariy

Ikkinchi muqobil ssenariyga ko'ra investitsiyalar hajmining biroz sekinlashishi iste'molning yuqori darajada saqlanib qolishi va nazorat qilinuvchi (energiya resurslariga) narxlarning erkinlashtirilishi fonida inflyatsiya darajasining

tezlashishini hisobga olgan holda bajarilgan.

Ikkinchi muqobil ssenariyga ko'ra iqtisodiy o'sish asosiy ssenariyga nisbatan 1,1 foizga baland shakllanib, 6,6 foizni tashkil etadi. Bu holat iste'molning yuqori o'sish suratining saqlanib qolishi, hamda yuqori oltin narxlari hisobiga eksportning nisbatan yuqori o'sishi bilan izohlanadi. Investitsiya hajmining pasayishi va importning o'sishi iqtisodiy o'sishni sekinlashtiruvchi omillar bo'lishi ham inobatga olingan.


Investitsiya hajmining pasayishi 2026-2027 yillarda ikkinchi muqobil ssenariyda YaIM o'sishining asosiy ssenariyga nisbatan past shakllanishini ta'minlaydi. Xususan, 2026 va 2027 yillarda YaIMning o'sish surati 4,5 foiz va 4,4 foizni tashkil etadi (49-50-grafiklar).




Bunda YaIM tafovuti (potensial YaIM va haqiqiy YaIM o'rtasidagi farq) 2024-yilda 1 foizga, 2025-yilda esa 1,1 foizga yetadi. Unday keyingi yillarda esa YaIMning o'sishi sekinlashishi bilan YaIM tafovuti o'rtasidagi farq qisqarib boradi va 2027-yilga kelib - 0,8 foizgacha qisqaradi (49-grafika).

Yuqorida aytib o'tilganidek, 2024-2027 yillarda umumiy investitsiyalar hajmi o'sishida sekinlashish kuzatilishi mumkin. 2023-yilda xususiy investitsiyalar 20,6 foizga o'sgan bo'lsa, ushbu taxmin asosida, 2024-yilda bu ko'rsatkich 5,1 foizgacha sekinlashadi (51-grafika). Bu holat chet eldan investitsiya hajmining qisqarishi ehtimoli bilan izohlanadi. 2025-2027 yillarda xususiy investitsiyalar hajmi o'rtacha


3,7 foizda o'sishi kuzatilishi mumkin. 2025-2026 yillarda investitsiya o'sishida sekinlashish kuzatilsa, davr so'ngiga kelib o'sishda kuzatilib o'sish 4,8 foizgacha yetadi. Iste'mol hajmi esa joriy yilda 12,1 foizga o'sib keyingi yillarda sekinlashish tendensiyasi kuzatiladi. Hamda davr so'ngiga borib o'sish 2 foizgacha sekinlashadi. Energiya resurslariga narxlarning biroz erkinlashtirilishi natijasida joriy hamda kelasi yillarda iste'mol hajmi o'sishi sur'atlari narxlar o'sishi va to'lov qobiliyati tushib borishi hisobiga nisbatan pasayib boradi.



Xususan, joriy yilda inflyatsiya darajasi 10,3 foizni tashkil etsa, 2025-yilda 10 foizni tashkil etadi. 2026-2027 yillarda esa, asosiy ssenariyga mos ravishda pasayish tendensiyasini namoyon qiladi. Xususan, inflyatsiya darajasi 2026-yilda 8,9 foiz, 2027-yilda 7,6 foizgacha sekinlashadi (53-grafika). Joriy operatsiyalar hisobi balansi esa importning nisbatan yuqori o'sishi evaziga asosiy ssenariyga nisbatan 1,8 foiz bandga pastroq shakllanadi (54-grafika). Xususan, 2024-yilda joriy operatsiyalar hisobi defitsiti keskin tushishi ko'zda tutilmayapti va uning or'tacha yillik ko'rsatkichlaruri YaIMga nisbatan 7,5 foizni tashkil etadi. Keyingi yillarda bozorning to'yinishi bilan bog'liq tendensiya natijasida joriy operatsiyalar hisobi balansi defitsiti qisqaruvchi tendensiyani namoyon qiladi.



2024-2025 yillarda YaIMning nisbatan yuqori o'sishi va to'lov balansi defitsitining nisbatan yuqori natijasida zaxiralarning YaIMga nisbatan ulushi qisqarish tendensiyasini namoyon qiladi. 2024-yilda zaxiralar YaIMga nisbatan 39,5 foizgacha qisqarsa, 2027-yil so'ngigacha qadar YaIMga nisbatan 34,2 foizgacha qisqarish ehtimoli bor. YaIM hajmlarining 2025-2027 yillar davomida boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga nisbatan o'sish sur'atlarining yuqoriroq bo'lishi zaxira hajmlari (55-grafika) va joriy to'lov balansi ko'rsatkichlarining YaIMga nisbatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi (56-grafika).



Joriy operatsiyalar hisobi defitsiti bizning hisoblarga ko'ra 2027-yilgacha



ham qisman zaxiralar, hamda transchegaraviy to'lovlarning musbat oqimi hisobiga moliyalashtirib boriladi. 2027-yilda esa moliyaviy oqimlar joriy operatsiyalar hisobi defitsitini qoplash darajasiga yetadi natijada zaxiralarga bosim kamayishi taxmin qilinadi. Shu bilan birga zaxiralarning qiymatiga, oltinning zaxiralar chiki tuzilishida jismoniy hajmi kamaygan sharoitida ham, umumiy zaxiralarning qiymat ko'rsatkichlari bo'yicha YaIMdagi ulushi ortib boradi. Bu holat o'rta muddatli trendga aylangan oltin narxining keskin o'sishi tendensiyasining o'rta muddatli bashoratlarga ko'ra saqlanib qolishi h bilan to'la izohlanadi.

Yuqoridagi FPP modeli asosida amalga oshirilgan prognoz ko'rsatkichlarni keltirishdan maqsad makroiqtisodiy prognozlarni tuzishda ko'p muqobillik va bir nechta tahliliy metodlarni qo'llash ehtimolarning muqarrarligi darajasini ko'tarish nuqtai-nazaridan katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish edi. Ko'p variantlikni taraqqiyot ssenariylarini o'rganish va jamoatchilik e'tiboriga barcha izohlar bilan taklif etish davlat iqtisodiy boshqaruv organlari faoliyatida keng tarqalgan amaliyot bo'lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, ushbu bo'limda biz yuqoridagi FPP modeliga asoslangan bashoratlarimiz bilan Strategiya-2030 da qo'yilgan maqsadli ko'rsatkichlar qaysi ehtimollar va taxminlarga asoslanganiga aniqlik kiritib, makroiqtisodiy boshqaruv **metodologiyasini takomillashtirish** borasida takliflar ishlab chiqdik. 2023-2024 yillarda yuz bergan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar (inflyatsiyaning tezlashuvi va investitsiyalar hajmining keskin tushib borishi) 2025-2027 yillar davomida ko'proq muqobil ssenariy 2 ning taxminlari ko'proq amalga oshishiga ishora bermoqda.

### **3.3 Fiskal siyosat samaradorligini oshirish va tadbirkorlik stimullarini tiklashning dastlabki omillari**

Yuqorida keltirilgan makroiqtisodiy simulyatsiya modeli yalpi ichki mahsulotning dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganib, **fiskal siyosat** sifatini tariflab bera olmaydi. Vaholanki, davlat xarajatlarini keskin kamaytirish, kichik va o'rta korxonalariga soliq stimullarini yaratish yuzaga kelgan hozirgi makroiqtisodiy sharoitda asosiy imperativ sifatida muhim ahamiyat kasb etgan.

Biz o‘tkazgan ijtimoiy so‘rovnomada butunlay ijtimoiy soha muammosi deb qabul qilingan “ta’limni kuchaytirish” (49,2%) opsiyasidan so‘ng iqtisodiyotga bevosita bog‘liq ikki shart “ijtimoiy adolatni ta’minlash”, “kambag‘allikni yengish” opsiyalari yangi ijtimoiy shartnomaning asosi bo‘lishi kerak deb ko‘rsatilgan (ovozlar tegishli ravishda 45,8% va 37,3%). Tadqiqotlarimiz ko‘rsatganidek, iqtisodiy tanglik alomatlari yuzaga kelishining yana bir katta sababi 2019-2020 yillarda yangi Soliq Kodeksi asosida amalga oshirilgan soliq siyosati islohoti. 2019 yildan boshlab davlatning daromadlari qonuniy tasdiqlangan xarajatlar hajmidan surunkali orqada qola boshladi. 2023-yilga kelib, umumlashgan (konsolidatsiyalashgan) budjetning daromad qismi bilan xarajatlar qismi o‘rtasidagi farq (budjet kamomadi) yalpi ichki mahsulotning 5,5 foizidan oshib ketdi<sup>217</sup>. 2024-yilning birinchi yarmidagi davlat budjeti ijrosi bo‘yicha taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar davlatning umumiy xarajatlari, ayniqsa, ijtimoiy, investitsion va kompensatsion (subsidiyalar) xarajatlarini amaldagi fiskal rejim bilan amalga oshirib, balanslashtirishgan budjetga erishib bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

Yangi Soliq Kodeksi 2016-yildan amal qila boshlagan Bojxona Kodeksi bilan birgalikda davlatning fiskal imkoniyatlarining hal qiluvchi qismini belgilab beruvchi ikki muhim hujjat. Keyingi boblarda aynan ana shu ikki hujjatdagi prinsipial kamchiliklar davlatning fiskal imkoniyatlarini, demakki, iqtisodiy salohiyatini (boshqa bir qancha avvalgi va keyingi boblarda yoritilgan omillar bilan birgalikda) keskin tushirib yuborganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, yangi Soliq Kodeksidagi eng katta muammo bu kichik va o‘rta biznesni katta biznes bilan barobar soliqqa tortish, soliq ma’muriyatiga balanslanmagan vakolatlarni berilishi. Bu soliq undirish sohasidagi “tenglik” amaliyotda biz quyida ko‘rsatib o‘tgan tengsizliklarga olib keldi. Gap shundaki, kichik va o‘rta korxonalarining o‘ziga hos xususiyatlari bor va aynan ular soliq og‘irligining amalda har xil bo‘lishiga olib keladi. Eng birinchi – kichik korxonalarda mahsulot tannarxi, ayniqsa, sarflangan moddiy xarajatlar, chetdan sotib olingan xom-ashyo va tovarlar hisobiga mahsulot narxiga nisbatan

---

<sup>217</sup> <https://www.imv.uz/static/umumiy-jadval>

ancha past darajada bo‘ladi, chunki ularning aksariyati savdo va xizmatlar ko‘rsatish, hamda tayyor mahsulotga uncha chuqur bo‘lmagan ishlov berish (mayda qadoqlash, texnik xizmat ko‘rsatish) sohalarida bo‘ladi. Buni bir shartli misolda ko‘rsatish mumkin: yiliga 2 mlrd. so‘m va yiliga 50 mlrd. so‘m umumiy daromad ko‘radigan korxonalarni olaylik (qar.8-jadval).

8-jadval

**Turli masshtabli (ko‘lamli) korxonalarda soliqlar og‘irligi (shartli misol)**

	Yalpi daromad	QQS	QQSdan keyingi daromad	Mahsulot tannarxi	Foyda miqdori	Foyda solig‘i miqdori	Umumiy 2 soliq summasi	Soliqlarning daromaddagi ulushi %
1-korxonona	2 000	214	1 786	893	893	107	321	16,07
2-korxonona	50 000	5 357	44 643	35 714	8 929	1 071	6 429	12,86

Bunday korxonalar operatsion faoliyati hajmi turli bo‘lishiga qaramay, ikkalasi ham umumiy soliq to‘lash rejimida faoliyat yuritadi. Lekin, odatda kichik korxonlarda mahsulot tannarxi va tannarx ichidagi moddiy harajatlar hajmi kamroq bo‘ladi. 2024-yilga kelib YaIMning 47 foizdan ortig‘i xizmat sohalariga to‘g‘ri kelayotganini inobatga olinsa, amaldagi soliq tizimi bu o‘zgarish ahamiyatini aks ettirmaganini anglash mumkin. Xizmat sohalarida mahsulot tannarxi ichida moddiy xarajatlar 50% dan deyarli oshmaydi. Va, aksincha, yirik korxonalarda mahsulot tannarxi va uning ichida moddiy xarajatlar ulushi nisbatan katta bo‘ladi, empirik amaliyotga ko‘ra umumiy qiymatning (soliqlargacha) tegishli ravishda 85% va 80 % gacha yetib boradi.

9-jadval

**Tannarxda moddiy xarajatlar ulushi har xil bo‘lgan korxonalarda soliqlar og‘irligi (shartli misol, ming so‘m)**

	Yalpi daromad	QQS	Mahsulot tannarxi	Tannarxda material xarajatlar	Material xarajatlarga to‘g‘ri keladigan QQS summasi	Ishchi haqi ustidagi QQS summasi	QQSning to‘lanadigan summasi	To‘langan soliqlarning daromaddagi ulushi %
1-korx.	2 000	214	893	268	29	75	185,30	14,45
2-korx.	50 000	5 357	35 714	25 000	2 679	1 286	4 071,44	10,29

Ana shu kelishmalar bo'yicha soliq og'irligi bu 2 korxonaga uchun faqatgina QQS va daromad solig'i ko'rsatkichlari bo'yicha keskin farq qiladi – ko'lami kichik bo'lgan korxonaga aslida samaradorligi yuqoriroq bo'lsa ham (mahsulot tannarxi kichikroq) ko'lami katta bo'lgan korxonaga nisbatan 3,21% miqdorda ko'proq soliqlar to'layapti (qar.9-jadval).

Ikkinchi katta omil QQSning aylanma soliq sifatida ichki mohiyatiga bog'liq – barcha aylanma soliqlar ikki martalab soliqqa tortish xususiyatiga ega. QQSga kelganda moddiy xarajatlar ustidagi va mahsulot yetkazib beruvchilarga to'langan summalar ichida o'tirgan QQS summasi aslida to'lanadigan QQS summasidan chiqarib tashlanadi, lekin qo'shilgan qiymat, ya'ni ish haqi va foyda ustidagi QQS chiqarib tashlanmaydi. Ish haqi va foyda ham tegishli daromad soliqlarga tortilishiga qaramay, ularning summasi QQS soliq bazasiga ham kiritiladi. Kichik korxonalarining aksariyati aslida mahsulot tannarxi ichida moddiy xarajatlar 25-30% ortmay, tannarxning asosiy qismi ishchilarga beriladigan oyliklarni tashkil etadi. Aylanma soliqlarning tabiati shuki, ular mahsulot narxi (tannarxi) ichki strukturasiiga befarq bo'ladi, tannarxda material (moddiy) xarajatlar qancha kam bo'lsa, aylanma soliqlarning ish haqi va foydaga to'g'ri keladigan qismi shuncha katta bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda – barcha iqtisodiy nazariyalarda shubhasiz ijobiy deb belgilangan qo'shimcha qiymat yaratish hajmi qancha katta bo'lsa, bu korxonaga shuncha ko'p QQS solig'i hajmi bilan "jazolanadi". Yuqorida keltirilgan misolga qaytib, 1-korxonada mahsulot tannarxi ichida moddiy xarajatlar 30 %ni tashkil etdi deb qabul qilaylik va 2-korxonada 70 %ni. Bunda QQSning moddiy xarajatlarga to'g'ri keladigan qismi hisobiga amalda to'lanadigan QQS summasi kamayadi. Lekin bu "tozalangan" hisoblardan yana ko'rish mumkinki, endi birinchi va ikkinchi korxonaga soliq yuki o'rtasidagi farq 4,16 %ga yetdi (8-9 jadvallar).

Kichik korxonalarda asosiy xarajatlar ishchi kuchi qiymatiga qaratilgan bo'lgani, ular ko'proq aholidan, norasmiy ishlab chiqarishdan birinchi mahsulotni olib ishlagani uchun to'lanadigan QQS summasi sezilarli kamaymaydi. Natijada QQSning moddiy xarajatlar ichidan qoplanmagan qismi ham to'g'ridan-to'g'ri mahsulot narxiga borib o'tiradi, ya'ni QQS xuddi sotuvdan olinadigan aylanma soliq

kabi kichik korxonalar holatida narx oshiruvchi omilga aylanadi. 2019 yilda barcha kichik korxonalarining narxlari 12-15% ga oshgani kuzatilgan edi (o'sha vaqtda QQS stavkasi 20% edi). Narx oshishi bu umumiy talabning tushishi va bozordagi talab/taklif nisbati keskin o'zgarishini bildiradi. Biz 2018-2022 yillar davomida faoliyatini kuzatgan va import parchalar asosida aholiga xizmat ko'rsatuvchi 6 ta kichik korxonaning umumiy oboroti 2022-yilga oxiriga kelib 2018 yilga nisbatan 4 barobarga tushib ketgan. Narx-navolarning QQS hisobiga o'sishi xizmatlarni ko'rsatish va import qilingan mahsulotga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi sezilarli disproporsiyalarga olib keldi va ko'pgina kichik korxonalar yangi baholar va sotish shartlariga moslasha olmay, honavayron bo'ldilar. Kuzatilgan 6 ta kichik korxonadan 2024-yilga kelib 2 tasigina faoliyat ko'rsatadi.

To'rtinchi juda muhim negativ omil shu ediki, aksariyat kichik va o'rta korxonalar savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida bo'lib, ishlab chiqarishda ko'proq importga bog'langan edilar. Yaqindagina ochilgan konvertatsiya juda ko'p savdo korxonalarining ko'payishiga, sodda qilib aytganda bir mahsulotni bir mamlakatdan olib kelib, ikkinchi mamlakatda foyda bilan sotishga keng sharoit yaratib berdi. Tikuvchilik, poyabzal, mebel, qurilishi materiallari ishlab chiqarish, qurilish texnikasi va boshqa mashina va mexanizmlarni sotish butunlay importga bog'liq edi. Importga bog'liq korxonalar mahsulotni import qilganda (mahsulot O'zbekiston bojxona hududiga erkin muomala uchun kiritilganda) import narxlari ustidan hisoblangan QQSni 100% to'lashlari kerak. Korxonalar o'z aylanma mablag'lari hisobiga import bojlari va QQSni to'lab, mahsulot ishlab chiqarib, yetkazib berilgan hom ashyo va butlovchi moddalarga ketgan xarajatlar ichida ham QQSni to'lab, mahsulot sotilguniga qadar uzilishni qoplashlari kerak edi. Boshqacha qilib aytganda, biznes budjetni avans tarzida moliyalashtirib, hali o'zi daromad olmagan daromadni topishi kerak edi.

Bu muammolarni yechish kichik biznes faoliyatini belgilovchi fiskal rejimni keskin qayta ko'rib chiqish, birinchi navbatda QQS stavkalarini savdo (ulgurji va chakana), xizmat ko'rsatuvchi korxonalar uchun differentsiatsiya qilib, ularga 8% darajada o'rnatgan ma'qul. Buning evaziga budjetdan kamayadigan daromadlarni

kompensatsiyasini xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun pensiya jamg'armalariga to'lovlarni (majburiy va ixtiyoriy qismlarini) oshirib borish hisobiga amalga oshirish mumkin (masalan, QQSning tushirilgan stavkasi kiritilgandan so'nggi 3-hisobot yilidan boshlab, har yili 1 %ga lekin umumiy to'lov 3%dan oshmaydigan qilib).

Ikkinchi fiskal sohadagi o'zgarish bu kichik korxonalarini QQS to'lashga o'tish chegarasini bugungi kundagi 1 mlrd. so'mdan, kichik savdo korxonalarining kunlik/oylik/yillik aylanmalari hajmidan kelib chiqib 5 mlrd. so'm qilib belgilash va ularga barcha boshqa soliqlar o'rniga 4% lik oborot solig'i joriy qilish. Bu kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga olib kelib, kambag'allikka qarshi kurash borasida eng yaxshi natijalarni keltiradi. 2004-2015 yillar davomidagi iqtisodiy tajribamiz aynan shundan dalolat beradi.

Uchinchi yo'nalish, bu oborot soliqlari qo'llangan kichik korxonalarda korxonalarda soliq nazoratini oshirish jarayonida ularning qoldiqlari va tovarlarning kirimi manbasiga e'tibor berilmasligi kerak. Yashirin savdoni kamaytirishning eng muhim magistral yo'li – tadbirkorlarni o'z daromadlarini ochiq ko'rsatishdan qo'rqmaslikka o'rgatish.

To'rtinchi muhim yo'nalish bu – iqtisodiyotdagi monopolistik korxonalar himoyasi mantig'i yuzasidan katta-katta import bojlari o'rnatish amaliyotidan voz kechish va barcha import bojlarini mantiqiy asosini qayta ko'rib chiqish. Ayniqsa, qayta ishlanadigan hom-ashyo resurslari, mashinasozlik mahsulotlari (birinchi navbatda, - barcha turdagi mashina va mexanizmlar), metallurgiya mahsulotlariga, o'lchash asboblari o'rnatilgan 15 va undan ortiq foizdagi bojxona to'lovlari stavkalarini bekor qilish mantiqli qadam.

Iqtisodiyotda import qilinayotgan tovarlar va xizmatlar bilan QQS va bojxona tariflari darajasida raqobat qila olmaydigan mahalliy ishlab chiqaruvchini tashqi raqobatdan himoya qilish yaxshi oqibatga olib kelmaydi. Ichki ishlab chiqaruvchi narxi import qilingan mahsulot narxidan logistika xarajatlari, import vaqtidagi QQS, hamda bojxona to'lovlari hisobidan ob'ektiv ustunlikka ega bo'ladi. Lekin bu ustunlik kamlik qilsa, har qanday 5% dan katta bojxona to'lovlari narxlar disproporsiyasini oshirib, iqtisodiyot mantig'ini buzadi va import ustiga qo'yilgan

xarajatlarni ichki iste'molchilar to'laydi. Davlatning ichki iste'molchilar hisobiga ba'zi monopolistik guruhlarga ustunlik yaratib berish siyosati davlatning umumiy iqtisodiy siyosati mantiqiga ishonchni keskin tushiradi. Boz ustiga ko'pgina yirik korxonalar QQS bo'yicha soliq imtiyozlariga ega. Davlat soliq qumitasining soliq imtiyozlari bo'lgan korxonalar ro'yxatiga murojaat qilsak,<sup>218</sup> u yerdagi 48 mingdan oshiq korxonalar (mamlakat bo'ylab soliq to'lovchilar sonining 10%) ichida deyarli barcha yirik soliq to'lovchilarni ko'rish mumkin. Birgina 2021-yilda ularga berilgan soliq imtiyozlarining umumiy hajmi 18,8 trln so'mni tashkil etib (bundan keyingi ma'lumotlar ochiqdan olinmagan), bu summa 2021-yil davlat budjeti xarajat qismining 12,8% qismini tashkil etgan. Qonunlarda belgilangan soliq imtiyozlari tufayli davlat budjeti 56,1% yer solig'i qiymatini, 87,6% QQS qiymatini iqtisodiyotdan to'play ola olmagan;

Paternalistik siyosatning bevosita natijasi bo'lgan davlat xarajatlarining o'sib borishiga qarshi kurash makroiqtisodiy siyosatning eng nufuzli elementi bo'lishi kerak. Bugungi kunda davlat budjeti tarkibida sarflanayotgan mablag'larning katta qismi pensiya jamg'armasi kamomadini qoplash (taxminan 1 mlrd. AQSh dollariga yaqin mablag') va import qilingan gazni narxi bilan iste'mol qilingan gazning o'rtasidagi farqni gazni import qiluvchi korxonalarga subsidiya qilib berish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar.

**Dissertatsiyaning uchinchi bobi bo'yicha xulosa** qilish mumkinki, yangi makroiqtisodiy voqelik cheklashga asoslangan iqtisodiy taraqqiyot modelidan iqtisodiy va ma'naviy stimullashtirish modeliga o'tish vaqti keldi va bu yangi ijtimoiy shartnomaning asosi bo'lishi zarur. Davlat xarajatlarini keskin kamaytirish (Xususan subsidiya va davlat investitsiyalarini qisqartirish hisobiga), fiskal va monetar omillar bilan kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, monetar siyosatda esa inflyatsiyani targetlashtirish siyosatidan iqtisodiyot taraqqiyotini qo'llash falsafasiga (birinchi navbatda arzon pul resurslarini yaratish hisobiga) o'tish muhim. Bu o'z navbatida sanoat siyosatini qayta ko'rib chiqish, energetikada davlat

---

<sup>218</sup> <https://soliq.uz/page/yuridik-shaxslar-uchun>

suverenitetini tiklashga ham uzviy bog‘liq. Lekin fiskal, monetar, investitsiyaviy siyosatni qayta shakllantirish, sanoat taraqqiyoti strategiyasini yangilash omillari ham mavjud bazaviy institutsional muammolar hal qilinmagan sharoitda yetarli samara bermaydi. Bular orasida esa biz mulkiy munosabatlarni takomillashtirish va davlat boshqaruv tizimi prioritetlari va amaliyotini qayta ko‘rib chiqish muammolariga alohida e‘tibor qaratamiz.



## **IV-BOB. YANGI STRATEGIK NARRATIVLAR VA MAKROIQTISODIY BOSHQARUVNING INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

### **4.1 Institutsional islohotlarni davom ettirish boshqaruv samarasini oshirishning instrumental asosi**

Iqtisodiy boshqaruv (jumladan, makroiqtisodiy) usullari davlatning mavjud qonunchilik, sud va ijroiya institutlari faoliyati va samarasi bilan uzviy bogʻlangan boʻlmasa, ularning oʻziga hos tomonlariga tayangan boʻlmasa, samara bermaydi, ichki muvozanatini tezda yoʻqotadi. Huquqiy va tashkiliy institutlar davlat boshqaruvi mexanikasini belgilab, undagi turli unsurlar (elementlar) oʻzaro qanday munosabatlarda boʻlishini aniqlashtirib beradi. Institutsional munosabatlarni boshqaruvning asosiy faoliyat yuritish uskuna va dastgohlarini (institutlarni) oʻzaro bogʻlovchi, ularni taʼsir doirasi va samarasini belgilovchi texnologik jarayon deb tasavvur qilish mumkin. Davlat boshqaruv institutlari:

- taraqqiyot yoʻnalishlarini taklif qiladilar va ularni amalga oshirish uchun zarur resurs, qonunchilik asoslarini belgilab beradilar;
- oʻzaro muloqot, hamkorlik va raqobatga kirishib, islohot jarayonlarini mohiyati va tezligini belgilaydilar;
- qanchalik hilma-xil va keng qamrovli boʻlsa, taraqqiyot modelining sifati va mohiyati shuncha chuqur boʻladi;
- tavsiyalari va tajribasiga davlat amal qilmasa, yoki huquqiy institutlar ishlamasa (masalan, tadbirkorlarni qoʻllash uchun davlat tomonidan kiritilgan turli imtiyozlar va yengilliklar), jamiyat ularni rioya qilinishiga erisha olmasa, boshqa alternativ, norasmiy institutlar tuzila boshlanadi.

Taraqqiyot jarayonida huquqiy va tashkiliy institutlarning mavjudligi qancha muhim boʻlsa, ular oʻrtasidagi muloqot, oʻzaro raqobat va hamkorlik sifati undanda muhim.

Yangilanish davrida boshqaruv modelining yutuqlari va kamchiliklari aynan mavjud institutlar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir kuchi va doirasiga bogʻliq edi. Muammolar institutlar zaifligi, ular oʻrtasida samarali muloqot, demakki, oʻzaro

ta'sirchanlik yo'qligidan kelib chiqqan edi. Izlanishimiz maqsadlari uchun ikki asosiy makroiqtisodiy boshqaruv institutlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi, hamda Markaziy bank o'rtasidagi munosabatlarga to'xtab o'tamiz. Yaqin yillardagi amaliy ishlar tarixi shuni ko'rsatadiki, bu institutlar o'rtasida tizimli ravishda o'zaro munozara va muzokaralar olib borish, iqtisodiy siyosatda umumiy kelishilgan pozitsiyani ishlab chiqish va uni Prezidentga taqdim etish uchun maxsus muloqot platformasi yo'q. Ular faoliyatida o'zaro koordinatsiyani ta'minlashga chaqirilgan Vazirlar Mahkamasi esa o'z kompetensiyalarini borgan sari yo'qotmoqda, chunki 2023-yildan boshlab ilmiy-texnik kengashlar tashkil etish va ularda umumiy qarorlarga kelish funksiyasini rasman yo'qotdi.<sup>219</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'muriyati tarkibidagi iqtisodiy rivojlanish masalalari bo'yicha maslahatchi xizmatida asosiy iqtisodiy oriyentirlarga erishish masalasiga ko'proq e'tibor qaratilib, alernativ iqtisodiy g'oyalar, sanoat siyosati, korxonalar transformatsiyasi kabi masalalarga talab qilingan e'tiborni qaratish imkoniyatii cheklangan. Asosiy sabab bu institutlarning joriy masalalar bilan haddan tashqari bandligi va strategik, bahsli sohalarga kuch va intellektual resurslarning yetishmasligi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan "Harakatlar dasturi" doirasida ma'muriy islohotlarni amalga oshirish maxsus Konsepsiya<sup>220</sup> asosida olib borilishi belgilab berilgan edi. Ya'ni 2017-yildayoq tegishli Prezident farmonida ma'muriy islohotlar zarurligi (11 ta muhim argumentlar keltirilgan) va uning asosiy yo'nalishlari Farmonga ilova qilingan "Ma'muriy islohotlar Konsepsiyasi" va tegishli "Yo'l haritasida" yetarli darajada batafsil yoritilgan edi. Belgilangan beshta yo'nalishlaridan biri sud hokimiyatini isloh qilish edi. Ammo amalda ma'muriy islohotlarning mazmuni ijroiya hokimiyati vazifalari va mas'uliyatlarini, boshqarish tizimlarini qayta ko'rib chiqish bilan cheklandi, sud va huquqni himoya qilish institutlari amaliyotida tizimli o'zgarishlar yuz bermadi. Boshqaruv organlari

---

<sup>219</sup> "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentiing Farmoni: 21.12.2021 y., №PF-269, 1-band. <https://lex.uz/uz/docs/6324756>

<sup>220</sup> "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentiing Farmoni: 08.09.2017 y., №PF-5185: <https://lex.uz/docs/3331174>

faoliyatini optimallashtirish ishlari oxiriga yetkazilmadi. Covid-19 pandemiyasi va undan keyingi voqealar rivoji bu muhim masala ijrosini biroz ortga surdi.

2021-yil oxiridan boshlab ma'muriy islohotlarni davom ettirish masalasi mamlakat siyosiy rahbariyatining kun tartibiga qaytdi va tegishli topshiriqlar Adliya vazirligiga berildi<sup>221</sup>. Vazirlik bir yil davomida turli davlat boshqaruv organlari va ularning mahalliy boshqarmalari tomonidan bajariladigan 5000 dan ortiq funksiyani mantiq-xarajat-samara mezonlari asosida tahlil qilib chiqdi. 2022-yil oxiriga kelib 500 ta takrorlanadigan davlat boshqaruv organlari funksiyalarini bekor qilish, ularni ma'lum va yagona organga topshirish, bu funksiyalarning katta qismini raqamlashtirish, hukumatga qaram bo'lgan 61 ta davlat boshqaruvi vertikal tizimini 28 taga qisqartirish (shu jumladan, 21 ta vazirlikni qoldirish), 20 ta davlat tashkilotlarini batamom qisqartirib, ularning kerakli funksiyalarini mavjud strukturalarga qayta taqsimlash taklifi yaratildi. Natijada navbatdagi ijroiya hokimiyatini qayta tuzish g'oyasi bilan cheklangan fikrlar asnosida 2022-yil so'ngida ma'muriy islohotlarni amalga oshirish yuzasidan yangi Prezident Farmoni qabul qilindi<sup>222</sup>. Farmon yil oxirida, ya'ni 2023-yil davlat budjeti, davlat organlarining 2023-yilga mo'ljallangan tadbirlar ro'yxati tasdiqlangan vaqtida qabul qilindi. Ko'p fundamental masalalalar oydinlashmagan edi, jumladan:

- e'lon qilingan qarorlar 2017-yilda qabul qilingan Konsepsiya va "Yo'l xaritasi"ning uzviy qismi ekani haqida hech qayerda uqtirilmadi. Vaholanki, bunday uzviylik mavjudligi qilinayotgan ishlar avvaldan rejalangan va tizimli ekaniga ishora berar edi;

- islohotning asosiy mazmuni boshqaruv kadrlari va bu jarayonga bevosita aloqasi bo'lgan rahbarlarga atroflicha uqtirib berilmadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida vazirlar va ularning muovnlari uchun tashkil etilgan seminarlar hali ko'pgina rahbarlar tayinlanmagani sharoitda bo'ldi. Turli rahbarlar talqinida OAV va jurnalistlar savollariga javoban

---

<sup>221</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi. 22.11.2021 y., <https://president.uz/uz/lists/view/4862>

<sup>222</sup> "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 21.12.2022 y., №PF-269: <https://lex.uz/ru/docs/6324756>

rasmiylar qarama-qarshi ssenariylarni talqin qila boshladilar, jamiyatga noto‘g‘ri signallar berildi<sup>223</sup>;

- ma‘muriy islohotlarni boshqaruvchi, belgilangan vazifalarni amalga oshirilishini nazorat qiluvchi mas‘ul davlat organi (koordinator) aniq tayinlanmadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (ARGOS) va Adliya vazirligining tashkiliy va kadrlar potensialidan foydalanilmay, ishlar asosan Prezident ma‘muriyati darajasida koordinatsiya qilina boshlandi. Bunday markazlashtirish juda katta negativ natijalarga olib keldi, chunki zudlik bilan hal qilinishi kerak bo‘lgan texnik masalalar ham siyosiy darajada ko‘rilishi tashkiliy jihatdan noto‘g‘ri edi;

- islohotlar davlat idoralarining yillik budjetlari va amaliy tadbirlari belgilanib bo‘lgandan keyin boshlanishi har bir vazirlik va idoraning faoliyatiga birmuncha noaniqlik kiritdi. Ayniqsa, iqtisodiyot va moliya vazirliklarining birlashtirilishi bunday noaniqlikni butun mamlakat miyosida masshtablashuviga sabab bo‘ldi;

- ma‘muriy islohotlar byurokrtiyani kamaytirish, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni soddalashtirish, osonlashtirish, yangi iqtidorli kadrlarni boshqaruvga shaxsiy sadoqat emas, balki bilimlar darajasi mezoni bilan jalb qilish, davlatning ba‘zi funksiyalarini raqamlashtirish, xususiy sektorga o‘tkazish, boshqaruv samarasini, shaffofligini oshirish, “qo‘l boshqaruvi” odatlaridan, qonun ruhida amalga oshiriladigan boshqaruvga o‘tish, boshqaruvda cheklashlar va muvozanat mexanizmlarini kiritish va eng muhimi – davlat xarajatlarini qisqartirish asosiy maqsadlar ekani haqida tezislar yangramadi va bu amaliyot jamiyatda, davlat xodimlari orasida keng qo‘llov topmadi.

Oqibatda na jamiyat, na boshqaruv elitasi bu islohotlarni qabul qilmadi va ular yarim yildan so‘ng deyarli to‘xtatildi. 2023-yil o‘rtasiga kelib ma‘muriy islohotlar to‘g‘risida hech kim eslamay ham qo‘ydi. Islohotlarning bunday boshlanmasidan tugatilishining asosiy sababi – yo‘l qo‘yilgan mafkuriy, tashkiliy kamchiliklar edi.

---

<sup>223</sup> Qarang: <https://adliya.uz/uzb/posts/ma%CA%BCmuriy-islohotlarni-yoritishda-professional-yond>

Butun jarayon vazirlik portfellarini qaytadan taqsimlashga taqalib qoldi degan hissiyot barcha eshelonlarda hosil bo'lgan edi.

Iqtisodiyot va moliya vazirliklarining qo'shilishi – ma'muriy islohotlarning markaziy elementi bo'ldi. Sobiq Iqtisodiyot vazirligi 2003 yilgacha Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi deb nomlangan, uning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotni rivojlantirishning ssenariylarini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qisqa va o'rta muddatli prognozlari va dasturlarini ishlab chiqish edi<sup>224</sup>. Ya'ni YaIMning, asosiy iqtisodiyot, sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlari bo'yicha ishlab chiqarish va iste'mol balanslarini tuzish vazirlikning asosiy funksiyalaridan biri edi. 2017 yildan boshlab bunday balanslar tuzilmay qo'yildi va bu holat iqtisodiy rejalashtirishning sifatiga keskin negativ ta'sir ko'rsatdi. Bu davrdan boshlab vazirlik davlat investitsiyalari hisobiga iqtisodiy taraqqiyotni “yumshoq stimullashtirish” amaliyotini singdirishni o'zining asosiy vazifasi sifatida belgilay boshladi. Ya'ni amalda “yangi keynschilik siyosati”ni amalga oshiruvchi va bu g'oyalarni jamiyatga singdiruvchi asosiy davlat boshqaruv organiga aylandi. 2019 yilda vazirlikning vakolati kengaytirilib, sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish, mamlakatning faol investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishda ko'maklashish ham sobiq Iqtisodiyot va sanoat vazirligining vazifalari etib belgilandi. Barcha davlat investitsiyalari hisobiga amalga oshirilgan rivojlanish loyihalari (“Har bir oila tadbirkor”, “Obod mahalla”, “Obod qishloq”, bir nechta ipotekani kreditlash loyihalari va hokazolar) aynan sobiq Iqtisodiyot va sanoat vazirligi negizida tug'ilib, uning markaziy va hududiy tuzilmalarining bevosita koordinatsiyasi va ishtiroki bilan amalga oshirildi. Ya'ni davlat investitsion mablag'larini mobilizatsiya qilish (jumladan, budjet, xalqaro va milliy banklar mablag'lari hisobiga), ularni loyihalar va hududlar,

---

<sup>224</sup> Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining faoliyatini tashkil etish haqida” 22.01.2003 y., №37; <https://lex.uz/docs/242913>

benefitsiarlargacha (davlat korxonalari, turli kvazi-davlat tizimlari orasida) taqsimlash sobiq Iqtisodiyot va sanoat vazirligining vakolatiga kirar edi. Sanoat siyosatini yaratish prioritet masala deb belgilangan bo‘lishiga qaramay, oradan ko‘p o‘tmay kambag‘allikni qisqartirish iqtisodiy taraqqiyotning asosiy maqsadi deb qarala boshlandi<sup>225</sup> va sanoat siyosati ikkinchi darajali masalaga aylandi. Aslida, bu davrga kelib vazirlikdan ishlab chiqarish va iste’mol balanslarini, sanoat va boshqa tarmoqlar rivojlanishini ko‘p variantli prognozlarini tuzishni, tahlil qilishni biladigan mutahassislar ketib, ular o‘rnini chet ellarda tahsil ko‘rgan J.Keyns, M.Kaletskiy<sup>226</sup>, M.Fridman<sup>227</sup> va boshqa mashhur iqtisodchilar nazariyalarida ulg‘aygan mutahassislar egallagan edi. Ikkinchi tomondan, kambag‘allikni qisqartirish (poverty reduction) Jahon Banki (JRTB)<sup>228</sup>, YeTRB, XVJ<sup>229</sup>, OTB kabi xalqaro moliya institutlarining 90-yillardan boshlab eng ko‘p oldinga surilgan va kun tartibiga keskinlik bilan kiritilgan mavzu edi<sup>230</sup>. Demakki, bu mavzu ortida ko‘pgina mablag‘larni mamlakat rivojlanishi uchun juda qulay shartlarda, tez jalb qilish imkoniyati mavjud edi. Xullas, iqtisodiy o‘shishning inklyuzivligini ta’minlash, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va muvofiqlashtirish O‘zbekiston Respublikasi sobiq Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Sobiq Iqtisodiyot vazirligining sobiq Moliya vazirligi faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan asosiy masalalar turli davlat dasturlariga davlat budjeti va tashqi qarz mablag‘larini mobilizatsiya qilish jarayonlari bilan bog‘liq edi, halos. Mantiqiy jihatdan alohida turuvchi, mamlakat taraqqiyotining istiqbollari va bu istiqbolga

---

<sup>225</sup> Qarang: Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 26.03.2020 y., №PF-5975; <https://lex.uz/docs/4776669>

<sup>226</sup> Очерк теории роста социалистической экономики. / Под общ. ред. и с предисл. акад. Т. С. Хачатурова. — М.: Прогресс, 1970

<sup>227</sup> M.Fridman: Why Government is the Problem Milton Friedman 1993

<sup>228</sup> Qarang: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/934631468743107944/pdf/Country-policies-for-poverty-reduction-a-review-of-poverty-assessments.pdf>

<sup>229</sup> Qarang: <https://www.imf.org/external/pubs/ft/exrp/macropol/eng/>

<sup>230</sup> <https://review.uz/post/pochemu-neobxodima-parallelnaya-politika-napravleniya-na-uluchshenie-usloviy-bedn>

erishishning amaliy yo'llarini belgilovchi sobiq Iqtisodiyot vazirligini nisbatan vazifasi tor bo'lgan sobiq Moliya vazirligi bilan umuman tayyorgarlik ko'rmay, oqibatlarini hisobga olinmay qo'shilib yuborilishi juda katta tavakkal edi va mantig'i hammaga ayon bo'lmagan edi.

Deyarli cheklanmagan mas'uliyatlarga ega bo'lgan Iqtisodiyot va moliya vazirligining<sup>231</sup> vazifalari esa Prezident yoki hukumat qarori bilan emas, Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 9-apreldagi 23-70-sonli buyrug'iga 2-ilova sifatida "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi to'g'risida vaqtinchalik nizom" ko'rinishida tasdiqlandi.<sup>232</sup> 2024-yilning o'rtalariga kelib bunday yirik vazirliklarni qo'shilishi makroiqtisodiy vaziyatni og'ir ahvolga, davlat boshqaruvida katta risklar va manfaatlar to'qnashuviga olib kelgani ayon bo'ldi:

Birinchi, iqtisodiyot istiqbolini variantlar asosida belgilash, fiskal siyosatni takomillashtirish kabi yirik funktsiya bilan davlat xarajatlarini moliyalashtirish kabi tor vazifalarni bir qo'lda bo'lganligi budjet ijrosi prioritetga aylanishi bilan tugadi. Davlat iqtisodiy siyosati, fiskal siyosat sifati bu yondashuvning eng birinchi qurboni bo'ldi. Ya'ni investitsiyalarni davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtirish va rivojlanishni ta'minlash uchun subsidiyalar (energetika, qishloq xo'jaligi, eksportni rag'batlantirishda) budjet ustida turgan gilotinaga aylandi;

Ikkinchi, bunday katta vazifalarni bir vazirlik qo'lida jamlanishi o'ta markazlashtirilgan boshqaruv sharoitida barcha sohalarda rejalashtirish, qarorlar sifatini ta'minlash, ekspertiza qilish sifatini keskin tushirib yubordi. Ya'ni biron qabul qilishdan avval masalani mohiyatiga yetish, har xil ssenariylarni tahlil qilish va ularning oqibatlarini yetarli sifatda qaror qabul qiluvchilarga yetkazuvchi o'rta havolaning malakasi ham, ish hajmi ham bunday sharoitda yetarli bo'lmaydi;

Uchinchi, davlat xarajatlarining o'sib borishi tobora budjet taqchilligi, tashqi qarz va budjetni ijro etish xarajatlari miqdorini keskin oshira boshladi.

---

<sup>231</sup> "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 21.12.2022 y., №PF-269: <https://lex.uz/ru/docs/6324756>

<sup>232</sup> Qarang: <https://www.imv.uz/oz/static/vazirlikning-vazifalari-va-funksiyalari-2>

Bunday sharoitda keskin choralarni ko‘rish talab qilinadi (subsidiyalar va davlat investitsiyalarini qayta ko‘rib chiqish), lekin o‘ta markazlashgan vertikal byurokratiya bu masshtabdagi muammolarni ko‘tarish va hukumat mas‘ullari orasida bo‘lsa-da muhokama qilishga yetarli sharoit yaratib bermaydi.

Manfaatlar to‘qnashuvi, davlat boshqaruvi sifatini belgilab beradigan katta funksiyalarning zarur bo‘lgan balanslar va cheklovlersiz bir yerda to‘planib qolgani makroiqtisodiy boshqaruvning eng muhim instituti - Markaziy bank tizimida ham mavjud. Bugungi kunda Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadlari narxlarning; bank tizimining; to‘lov tizimlari ishlashining barqarorligini ta‘minlashdan iborat<sup>233</sup>. Tijorat banklari, to‘lov tizimlari va boshqa moliyaviy kredit institutlarini faoliyat yuritish standartlarini Markaziy belgilaydi, ularga litsenziya beradi va bu litsenziya shartlarini bajarish ustidan joriy nazorat olib boradi. Aynan shu yerda bizni nazarimizda manfaatlar to‘qnashuvi bor. O‘yin qoidalarini o‘rnatgan bu qoidalar amal qilinishi ustidan ham nazorat qilsa, qoidalarni o‘z tushunchasi (manfaatiga) talqin qilish, yoki ularni yetarli darajada shaffof qilmaslikka moyilligi ortadi. Ya‘ni regulyator bilan nazoratchi funksiyalari o‘rtasida ma‘lum ma‘muriy va tashkiliy chegara bo‘lishi maqsadga muvofiq va bu Xalqaro valyuta jamg‘armasi izlanishlarida ham o‘z aksini topgan<sup>234</sup>. 1971 yilda Nobel mukofoti laureati J.Stigler ta‘kidlaganidek, davlatning nazorat agentliklari barcha sharoitlarda bozor qonuniyatlarini emas, o‘zlari talqin qilgan mezonlar bilan “davlat manfaatlarini” himoya qiladilar<sup>235</sup>. Ikkinchi tomondan Markaziy bank ko‘p hollarda mamlakat taraqqiyoti manfaatlaridan kelib chiqmay, o‘zining tor funksional doirasida (masalan, inflyatsiyani targetlash borasida) mamlakatning asl manfaatlariga zid faoliyat ko‘rsatayotgani avvalgi boblarda batafsil ko‘rsatilib berildi. Regulyator bilan nazoratchini ayrim qilish ma‘muriy zo‘ravonlikni ham oldini oluvchi, bir

---

<sup>233</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Markaziy banki to‘g‘risida” qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/4590452>

<sup>234</sup> М.Квинтин, М.У.Тейлор: Должны ли органы регулирования финансового сектора быть независимыми? Вопросы экономики №32, 11-бет.

<sup>235</sup> Maqola kechroq ushbu nashrda chiqqan: "The Theory of Economic Regulation", *Bell Journal of Economics and Management Science*, Spring 1976: [https://gallery.economicus.ru/cgi-bin/frame\\_rightn.pl?type=in&links=../in/stigler/biogr/stigler\\_b1.txt&name=stigler&img=brief.gif](https://gallery.economicus.ru/cgi-bin/frame_rightn.pl?type=in&links=../in/stigler/biogr/stigler_b1.txt&name=stigler&img=brief.gif)



muhim masala yuzasidan fikrlar raqobatini yuzaga keltiruvchi, balanslar va chegaralar oʻrnatuvchi omil va juda samarali vosita. Yuqoridagi argumentlar va izlanishlarimiz natijasi sifatida maʼmuriy islohotlarning mantiqiy davomi sifatida iqtisodiyotni boshqaruv ijroiya tizimida quyidagi oʻzgarishlar taklif qilinadi:

1. Budjetning ijro qismini IMV tizimidan chiqarish va Gʻaznachilik agentligini Vazirlar mahkamasi qoshida vertikal va mustaqil tizim sifatida tuzish. Gʻaznachilik tarkibiga Oʻzbekiston tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi (davlatning oltin-valyuta jamgʻarmalarini Markaziy bank bilan birgalikda boshqarish va tashqi qarzlarni belgilangan mezonlar asosida jalb qilish funksiyasi bilan) hamda, budjetning daromad qismi ijrosiga katta hissa qoʻshuvchi davlat boshqaruv organlari – Davlat soliq va Davlat bojxona qumitalarini oʻtkazish oʻta muhim. Gʻaznachilikka davlat budjeti parametrlari va qonunchilikda koʻrsatilgan limitlar asosida qarz (ichki va tashqi bozorda) suveren qarz olish, bu qarzlarni turli likvidlik aktivlar bilan garov sifatida taʼminlash (arzonlashtirish maqsadida), Markaziy bank bilan birga (teng ovoz huquqida) oltin valyuta rezervlarini shakllantirish, taqsimlash va boshqarish siyosatini olib borish huquqini berish zarur. Gʻaznachilik belgilangan budjet parametrlarini oʻz vaqtida va toʻla hajmda bajarishi uchun fiskal siyosatni belgilovchi IMV dan toʻla mustaqil boʻlishi, kerak vaqtda qarz olishi va qarz berishi, budjet toʻlovlari, xarajatlari ijrosi jarayonlari absolyut darajada qonun doirasida boʻlishini taʼminlashi kerak. Hozirgi davrda esa IMV budjet tanqisligidan kelib chiqib har yili, baʼzan esa yil davomida fiskal qoidalarni oʻzgartirishga moyil, soliq organlari toʻlovlarni avans bilan undirib olishi koʻp uchrab turadigan amaliyot<sup>236</sup>. Bunday amaliyot moliyaviy tizimga boʻlgan ishonchni jamiyatda keskin tushirib, ichki investitsiyalarni cheklaydi, tadbirkorlarni koʻproq oʻz daromadlarini yashirishga undaydi.<sup>237</sup> Bugungi kunda budjetdan tashqari jamgʻarmalar ustidan nazorat ulardan har oyda tushgan mablagʻlar va ularning sarfi haqida hisobot olish bilan cheklangan. Sarflarning maqsadi va budjet taqchilligi sharoitida qanchalik oʻrinli ekani savol ostiga qoʻyilmaydi. Agar bu mablagʻlar yagona Gʻaznachilik

---

<sup>236</sup> <https://qalampir.uz/news/foyda-soligidan-avans-tulovlarining-talab-k-ilinishi-k-onuniymi-11252>

<sup>237</sup> Qarang: <https://www.elibrary.imf.org/display/book/9781557755179/ch05.xml>

hisoblarida bo'lsa, G'aznachilikning budjet ijrosi davomida manevr qilishiga imkoniyat ko'proq bo'ladi. G'aznachilik O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (O'TTJ) ustidan nazoratni amalga oshirib, aktivlar sifati, asosiy investitsiyalar yo'nalishlari, jamg'armaning aktivlari samarasining minimal miqdori kabi normativlarni belgilab, ular ijrosini nazorat qilishi kerak. Ba'zi Parlament yoki Prezident tomonidan ruhsat etilgan hollarda G'aznachilik operatsiyalarini amalga oshirish uchun bu suveren jamg'armaning aktivlaridan ham foydalana olishi (masalan, garovga qo'ya olishi) kerak. G'aznachilik o'z faoliyatida qanchalik joriy mustaqillik va davlat aktivlarini boshqarish huquqiga ega bo'lsa, uning budjet ijrosi sohasidagi samarasi shuncha yuqori bo'ladi. Albatta bu vakolatlar maxsus qonun va dunyo moliyaviy nazorat bozoridagi eng yaxshi amaliyotlarni qo'llagan holda ishlab chiqilgan jarayonlar (protseduralar) asosida amalga oshirilishi kerak.

2. Konsolidatsiya qilingan budjet va davlat korxonalari moliyaviy mablag'lari ishlatilishi ustidan mustaqil moliyaviy nazorat tizimini barpo etish maqsadida Prezident huzuridagi Hisob palatasi, hamda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (avval ularga o'tkazilgan Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi bilan birga) bazasida O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat moliyaviy nazorat agentligini tuzish. Bu agentlikka barcha budjetdan tashqari jamg'armalarni moliyaviy samara va belgilangan qonunchilik ijrosi yuzasidan nazorat qilish huquqi berilishi kerak. Bugungi kunda IMV qo'lida fiskal siyosatni belgilash, budjet ijrosi qoidalarini belgilash, budjet ijrosini tashkil qilish va bu budjet mablag'larini sarflash qoidalarini bajarish ustidan nazorat olib borish jamlangani manfaatlar to'qnashuviga olib keladi. Bu holatda fiskal siyosatni davlat manfaati emas, budjet ijrosia manfaatiga bo'ysundirish, nazoratni yo'l qo'yilgan kamchiliklarni haspo'shlash darajasiga tushish xavfi katta. Davlat moliyasining nazorati Prezidentga bo'ysunadigan kuchli vertikal tizim bo'lishi va u nafaqat budjet mablag'lari, balki davlatning barcha moliyaviy resurslari ishlatilishi (ayniqsa, qarzga jalb qilingan, turli budjetdan tashqari jamg'armalarda to'plangan) ustidan nazoratni samarali amalga oshirishi kerak.

3. Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yuqorida aytilgan kamchiliklarni inobatga olgan holda tarmoqlar va tarmoqlararo ishlab chiqarish va ist'emol balanslarini tayyorlash, uni Vazirlar Mahkamasi e'tiboriga kiritish vazifasi yuklanishi kerak. Bu balanslar mamlakatda eng zarur mahsulot va xizmatlar turlarini ishlab chiqarish, yaratish imkoniyatlarini bilish, yetishmagan quvvatlarni rejalashtirish, investitsiyalarni uzoq muddatli rejalar doirasida amalga oshirish, zarur bo'lgan hollarda importni stimullashtirish (yoki cheklash) imkonini beradi.

4. Barcha ijroiya iqtisodiy boshqaruv organlarida kollektiv boshqaruv tizimlari (kollegiya, boshqaruv, ilmiy-texnik kengash majlisi kabi) faoliyatini tashkil etib, ularga maxsus nizomlar bilan eng muhim bo'lgan iqtisodiy siyosat omillari va amaliyotdagi muhim ishlar yuzasidan avtonom fikr bildiruvchi va qaror qabul qiluvchi organ maqomini berish zarur. Bu volyuntarizm holatlarga qarshi cheklovchi omil bo'ladi.

5. Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish va moliyaviy institutlarga litsenziya berish departamentlari, hamda Perspektiv loyihalar milliy agentligining qimmatli qog'ozlar bozorini nazorat qiluvchi tizimi bazasida Moliyaviy nazorat agentligini Vazirlar mahkamasi instituti sifatida yaratish. Bu Agentlik Markaziy Bank va Moliya vazirligi tomonidan o'rnatilgan moliyaviy siyosat normalarini davlat tashkilotlari, bozor moliya infrastrukturasi tomonidan amal qilinayotganligi ustidan to'la nazorat o'rnatishi kerak Financial Conduct Authority<sup>238</sup> agentligiga o'xshash. Bugungi kunda tijorat banklarining faoliyati qonunchiligi, standartlari Markaziy bank tomonidan belgilanishi va ularga qanchalik amal qilinayotgani bir boshqaruv organida bo'lishi katta ma'muriy risklarga olib kelayapti. Ikkinchi tomondan esa, Perspektiv loyihalar milliy agentligiga (PLMA) qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish va uni faoliyati ustidan nazorat qilish huquqining berilishi ham bizning nuqtai-nazardan xato qadam bo'lgan. PLMA turi davlat loyihalarini rivojlantiruvchi va amalga oshiruvchi agentlik, u yaratilish va faoliyat maqsadlari bo'yicha regulyator bo'la olmaydi. Bundan tashqari qimmatli

---

<sup>238</sup> <https://www.fca.org.uk/>

qog'ozlar bozori o'zi o'ta murakkab va maxsus davlat nazoratini talab qiladigan faoliyat turi (bunga barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamalakatlar tajribasi misol bo'lishi mumkin). 1996 yilda tuzilgan Qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarish va faoliyati ustidan nazorat qilish Markazi Davlat mulk qumitasi huzurida tuzilgan bo'lishiga qaramay, o'z faoliyatida to'la avtonom bo'lgan va 1996-1997 yillar davomida 68 ta normativ-nazorat rasmiy hujjatlarini amaliyotga kiritgan, 11 ta o'z qo'rida tayyorlangan qonun loyihalarini Parlamentga kiritishga, aksariyati qabul qilinishiga muvaffaq bo'lgan<sup>239</sup>.

6. Iqtisodiy boshqaruv organlari faoliyatini umumiy koordinatsiya darajasini oshirish, qabul qilinayotgan muhim iqtisodiy qarorlar va takliflarni har tomonlama tarozga solinganini (filtratsiya qilinganini) ta'minlash maqsadida IMV va Markaziy bank qoshida Milliy moliya Kengashini tuzish ma'qul. Bu Kengash barcha makroiqtisodiy boshqaruv sohasida kiritiladigan o'zgarishlarni har tomonlama o'rganib, ular yuzasidan Hukumatga va Prezidentga mustaqil (avtonom) xulosa va takliflar beradigan hukumat va Prezidentning maslahat organi bo'lishi kerak. Barcha fiskal va monetar sohadagi o'zgarishlar yuzasidan bu Kengash o'z ekspertizasi va xulosasiga ega bo'lishi kerak.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi jamiyat qadriyatlarini o'rganish, ularni yuzaga chiqarish yo'lida jamiyatdagi eng ilg'or kuchlarning g'oyalarini birlashtirish, strategik g'oyalarni tizimli ravishda boshqaruv amaliyotining inklyuziv qismiga aylantirish borasida ishlashi kerak. Demak, bu agentlikning roli ko'proq g'oyalar inkubatori va bu g'oyalarni vazirliklar faoliyatiga, umumxalq xarakati mazmuniga singdirish mexanizmlarini ixtiro etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Yuqorida yangidan tuzilishi maqsadga muvofiq deb aytilgan mustaqil agentliklar vertikal davlat strukturasi bo'lib, ularda hududiy bo'limlar alohida ma'muriy bo'limlar sifatida bo'lmasligi, ularga kadrlar tayinlovi va rotatsiya qilinishi markazdan olib borilishi va ish xaqi ham markazdan to'lanishi kerak. Har

---

<sup>239</sup> Bu satrlar avtorini 1996-1997 yillar davomida Davlat mulk qumitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarish va faoliyati ustidan nazorat qilish Markazi Bosh direktori lavozimida faoliyat yuritgan

bir agentlikda korrupsiyaga qarshi me'yorlar va kadrlar rotatsiyasi bo'yicha ichki siyochsat mavjud bo'lishi lozim. Agentliklar faoliyati natijalari har oy, har chorak va yilda e'lon ma'lum mezonlar va minimal ko'rsatkichlar asosida qilinib borilishi kerak. Iqtisodiy boshqaruv organlarining samarasini oshirishga, ularning texnik ekspertiza darajasini ko'tarishga qaratilgan takliflar esa amaldagi davlat boshqaruv organlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish, ularda kollektiv boshqaruv ruhiyatini singdirish orqali hal qilinishi mumkin.


#### **4.2 Strategik rejalashtirish salohiyatini oshirish omillari**

Makroiqtisodiy boshqaruv asoslarini o'zgartirish mavjud ma'muriy boshqaruv tizimi qa'rida o'ta mushkul masala. Jamiyat va iqtisodiyot boshqaruvi mantig'i tufayli yuzaga kelgan ma'muriy islohotlar yo'l qo'yilgan kamchiliklarga qaramay davom etishi kerak. Ular makroiqtisodiy boshqaruv sohasidagi o'zgarishlarga turtki berishi va ularni amalga oshirishga yetarli sharoit yaratib berishi kerak. Ma'muriy islohotlar nafaqat markaziy vertikal boshqaruvi ko'lamida, balki davlat tasarrufidagi bo'lgan yirik, katta qo'shilgan qiymat zanjirlarini yasovchi korxonalarda korporativ boshqaruv usullarini o'zgartirish, kerakli transformatsiya omillarini amalga oshirish ko'rinishida ham yuz berishi kerak. Sanoat strategiyasini ishlab chiqish, uni amalga oshirish ma'muriy islohotlarning uzviy qismi bo'lgan davlat tasarrufidagi korxonalar va banklarni transformatsiya qilish, ya'ni ulardagi boshqaruvni dunyodagi eng yaxshi boshqaruv amaliyotlari bilan boyitish, ichki ma'muriy boshqaruvi sifatini kekin oshirish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikka ega. Har qanday strategiyani ijrochisi ma'lum korxonalar bo'lib, agar unda boshqaruv samarali bo'lmasa, strategiya yordam bermaydi. 2017-yilda ilk bor e'lon qilingan va 2022-yilda shiddat bilan amalga oshirilishi boshlangan ma'muriy islohotlarning tarkibiy maqsadlaridan biri iqtisodiyotda davlatning ishtirokini keskin kamaytirish edi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi boshqarayotgan strategik aktivlar o'z salohiyati tufayli o'zgacha yondashuvni – qayta yangilash, to'la transformatsiya jarayonini o'tkazishni talab qiladi (UzAssets investitsion kompaniyasi yordamida).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi (SIA) qisqa muddat ichida 2023-yilning 1-martidan o‘sha yilning 18-avgustigacha 31 ta davlat aktivini boshqarib kelgan.<sup>240</sup> Bu 31 ta aktiv (shaklan xususiylashtirishga mo‘ljallangan hissadorlik jamiyatlarining davlatga tegishli aksiyalari) O‘zbekiston YaIMning 43 %ni, jami eksportning 19%ni, davlat korxonalaridan to‘planadigan soliqlarning 88% ta‘minlar edi (12-infografika). Bular asosida katta bir investitsion jamg‘arma tuzib, Saudiya, Qozoqiston, Malayziya, Vetnam, Rumuniya davlatlari kabi davlat korxonalariga xususiy investorlarni jalb qilish asosiy maqsadlardan biri edi. Bu, albatta, davlat tasarrufida bo‘lgan korxonalarda boshqaruv transformatsiyasini bevosita taqozo qilib, korporativ boshqaruv asoslarini (moliya hisoboti tizimidan tortib stategik zaxiralarni boshqarish tizimigacha) kiritish zaruratini ko‘zda tutar edi (qar.12-infografika).

## 12-infografika















Agentlikka topshirilgan aktivlarni boshqarishdagi qisqa vaqtlik tajribadan kelib chiqib aytish mumkinki, korxonalarni xususiylashtirish va transformatsiya

<sup>240</sup> “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 01.03.2023 y., №PK-83: <https://lex.uz/ru/docs/6396140>. Yana qarang: “Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 18.08.2023 y., №PQ-283: <https://lex.uz/docs/6576274>

qilish jarayoni bir nechta, ba’zan ziddiyatli qarorlar bilan belgilangan. (qar.13-infografika).

**DAVLAT KORXONALARI VA BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISH BORASIDA ASOSIY QARORLAR**

 <p><b>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son</b> “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori</p>	 <p><b>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son</b> «2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida» Farmoni</p>	 <p><b>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son</b> “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni ni yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida» Qarori</p>
 <p><b>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktyabrdagi PF-6096-son</b> “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtrish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori</p>	 <p><b>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son</b> “2021 — 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» Qarori</p>	 <p><b>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi PQ-5171-son</b> “Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» Qarori</p>
 <p><b>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-martdagi PQ-168-son</b> “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtrishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» Qarori</p>	 <p><b>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi 446-son</b> “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar aksiyalarini fond birjasida birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirish to‘g‘risida» Qarori</p>	 <p><b>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-oktyabrdagi PQ-388-son</b> “Kimyo va gaz-kimyo sohasini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to‘g‘risida» Qarori</p>
 <p><b>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son</b> “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «insonga e’tibor va sifatli ta’lim yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida» Qarori</p>	 <p><b>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-martdagi PQ-83-son</b> “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtrish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qarori</p>	 <p><b>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ-102-son</b> “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qarori</p>

Xissadorlik jamiyatlarining qaysi birlarining qancha aksiyalari birlamchi bozorda sotilishi (IPOga chiqarilishi), qaysi bozorlarda taklif qilinishi (ichki yoki tashqi), bu IPO larga tayyorgarlik kim tomonidan va qanday koordinatsiya qilinishi, bundagi xarajatlar kim tomonidan qoplanishi, aksiyalarning boshlang‘ich narxlarini qanday hisoblanishi, bu jarayonlarga xorijiy konsultantlar jalb qilinganda, ularni tanlash, ish doirasini va mas’uliyatini belgilash kimning vazifasi bo‘lishi kabi savollar yuzasidan mutlaqo ravshanlik yo‘q edi. Har bir rahbar o‘z tushunchasi doirasida amaliyot yuritib, umumiy koordinatsiya va tushunarli bo‘lgan “Yo‘l haritasi” yo‘q edi.

SIA tomonidan olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ularning aksariyatida korporativ boshqaruv asoslari yetarli samara beradigan holatda emas, demakki ular hech qanday IPOga tayyor emas edilar:

- Asosiy aksioner bilan korxonaga o‘rtasida strategik yo‘nalish istiqbollari, moliyaviy o‘shish, xomashyo bazasini rivojlantirish, mahsulot bozorini kengaytirish kabi muhim masalalar yuzasidan muloqot deyarli bo‘lmagan, korxonalariga aksioner tomonidan “Kutilmalar va ko‘rsatmalar” muntazam berilmagan.

- Jamiyatni rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilmagan, faoliyatini transformatsiya qilish rejaları tuzilmagan;

- Kuzatuv kengashlari, ba'zi hollarda esa boshqaruv tashkiliy shakllanmagan, mustaqil a'zolar, ayniqsa, boshqaruv tajribasiga ega bo'lgan xalqaro konsultantlar jalb qilinmagan;

- Kuzatuv kengashlarining majlislari muntazam o'tmay, ularda hissadorlik jamiyati taraqqiyotining asosiy masalalari umuman ko'rilmas edi ("Toshtranspassavto" XJ, "Uztransgaz" XJ);

- Jamiyat rahbarlari va mas'ul ishtirokchilar bilan ESG, ERP, IFRS, risk management, digitalization kabi muhim mavzularda o'quvlar o'tkazilmagan, kerakli konsultantlar bilan ishlar olib borilmagan. Ko'pchiligida bu sohalardagi ishlar juda bir boshlang'ich, rudiment holatda edi.

Davlat tasarrufida bo'lgan yirik korxonalar va banklar transformatsiyasining eng muhim qismi – korxonalarda mavjud korporativ boshqaruv uslubini Yevropa iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot (OECD) tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan ESG (enviromental, social governance – atrof muhit, jamiyat talablarini inobatga olgan boshqaruv uslubi) tavsiyalari asosida yuritish. Bu transformatsiya jarayoni har qanday biznes transformatsiyasi<sup>241</sup> mantiqi asosida olib borilishi bilan bir qatorda, uni ajratib turadigan o'ziga hos quyidagi bo'g'im va bosqichlardan iborat:

- korxonalar resurslarini boshqarish (enterprise resource planning – ERP) tizimini isloh qilish.<sup>242</sup> Bu tizim korxonalar homashyo bazasi hajmini aniqlash va verifikatsiya qilishdan tortib, zahiralarda turgan barcha xomashyo resurslari, moddiy-texnika bazasini, hamda moliyaviy, mehnat resurslari ro'yxatini tuzish, hisobotini yuritishni o'z ichiga oladi;

- korxonalarda IFRS – Xalqaro moliyaviy hisobotlar standartini<sup>243</sup> joriy etish;

---

<sup>241</sup> Qarang misol uchun: <https://www.bie-executive.com/guides/guide-to-business-transformation/>

<sup>242</sup> Qarang: <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/def83a04-en/index.html?itemId=/content/component/def83a04-en>

<sup>243</sup> Qarang misol sifatida “Внедрение международных стандартов финансовой отчетности (мсфо) в России”: <https://www.oecd.org/daf/ca/corporategovernanceprinciples/35678414.pdf>



- korxonada boshqaruvini dunyodagi eng maqbul amaliyotlar asosida korporativ boshqaruv (ESG)<sup>244</sup> standartlari qo‘llagan holda qayta tuzish, balanslar va cheklamlarni belgilash;

- korxonada tavakkallarni boshqarish (Risk management<sup>245</sup>) tizimini joriy etish va hokazo.

Muhimi bu jarayonlar korxonada biznes transformatsiyasi rejasini tuzishdan boshlanib, doimo har bir bo‘g‘inda **raqamlashtirish** ishlari bilan birga olib boriladi. 2023-yil avgust oyiga kelib O‘zbekistondagi jami 4 ta yirik korxonada ESG pasportlari mavjud edi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida 2026-yilga kelib barcha 31 ta yirik davlat korxonalari va banklarida ESG jarayonlarini kiritish va tegishli sertifikatlarni xalqaro verifikatsiya auditorlaridan olish rejalashtirilgan edi (qar.14-infografika).

### 14-infografika



ESG sertifikatlarining muhim jihati – korxonalarining jahon moliya va qimmatli qog‘ozlar bozoriga chiqib, o‘zlari rejalashtirilgan investsion loyihalarni moliyalashtirish uchun birmuncha arzonroq manbalar topishga bevosita sharoit yaratib berar edi (banklar ESG sertifikati bo‘lgan korxonalariga “yashil energetika”,

<sup>244</sup> Qarang: <https://www.oecd.org/corporate/>

<sup>245</sup> Qarang ma‘lumot uchun: <https://www.oecd.org/sti/futures/globalprospects/oecdstudiesinriskmanagement.htm>

“yashil iqtisod” mezonlari asosida bozorga nisbatan 1-1,5% arzonroq darajada kreditlar<sup>246</sup> berar edilar).

Bu transformatsiya jarayonlari asosiy hissador, Kuzatuv Kengashi va Boshqaruv tomonidan ko‘rib chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Har yili asosiy aksioner hissadorlik jamiyati Kuzatuv Kengashi va Boshqaruviga o‘z **kutilmalarini**<sup>247</sup> yuborishi boshqaruvdagi muloqot darajasini ko‘tarib, ijro intizomini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy boshqaruvning samaradorligini oshirishda omillar orasida sanoat siyosatini ishlab chiqish va davlat korxonalarini boshqarish transformatsiya mulkchilik munosabatlarini o‘zgartirishning institutsional asosi bo‘lib, bu jarayonlarni tizimli amalga oshirish ma‘muriy islohotlarning uzviy va o‘ta muhim qismlaridir. Institutsional omillar davlat boshqaruv organlarining tutashgan bo‘g‘inlarini muvofiqlashtirish asosi bo‘lib, ularning o‘zaro ta‘sir o‘tkazishi samarasini ko‘taradi va bu jihatdan makroiqtisodiy boshqaruv usullari samarasidan kam ahamiyat kasb etmaydi.

Boshqa bir muhim institutsional islohotlar kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarish jarayonining asosiy aktivi bo‘lgan yerga mulkchilik munosabatlarini huquqiy va tashkiliy isloh qilish bilan bog‘liq. Strategiya – 2030 da aytilganidek “er ijara huquqini bozor aktiviga aylantirish, hamda yer maydonlari ijara huquqini garovga qo‘yish mexanizmini joriy qilish” lozim. Izlanishlarimiz doirasida ham mulkka egalik huquqi masalasiga katta e‘tibor berilgan, chunki har qanday ijtimoiy tizimning mohiyatini ishlab chiqarish vositalariga kimning va qanday sharoitlarda egalik qilishi belgilaydi, ya‘ni davlatning mohiyati aynan boshqaruvchi sinfning mulkka egalik huquqini himoya qilish uchun qaratilganligi bir necha bor ta‘kidlangan. O‘zbekiston sharoitida yerga mulk munosabatlarining o‘ta jiddiy xarakterda ekanligi doimiy aholining 49% qishloq xo‘jaligida istiqomat qilishi, yoki qishloq xo‘jaligida band aholining 25% faoliyat yuritayotgani bilangina

---

<sup>246</sup> Qarang: The future of sustainable business: <https://www.nicmar.ac.in/news/article/esg-emissions-importance>

<sup>247</sup> Принципы корпоративного управления ОЭСР: <https://www.oecd.org/corporate/ca/corporategovernanceprinciples/32159669.pdf>

cheklanmaydi. Qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat yetishtirish suverenitetini ta’minlovchi strategik soha bo‘lib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga ishlov berish sohalari bilan birgalikda bir nechta muhim sabablar tufayli (er resurslari ahamiyati va kontinent o‘rtasida joylashgan davlat uchun mahalliy hom-ashyo manbai) uzoq yillar davomida bizda drayver soha bo‘lib qoladi.

Shaharlarda o‘z-o‘zini band qiluvchilar soni ortib borayotgani statistikasi ortida qishloqlardan ish izlab kelganlarning ulushi katta ekanligi aniq. Qishloq xo‘jaligida band aholining ulushi 2011-yildagi 30% dan 2022-yilga kelib 25,1% ga tushgan. Qishloqda o‘sgan o‘ta konservativ tabiatli inson yerni tashlab shaharga yo‘l olishi yer munosabatlarini belgilash borasida printsiptial kamchiliklar borligiga ishora qiladi. Shaharga intilganidan asosiy sabab – ishlab chiqarish vositasi bo‘lgan yerdan mahrum bo‘lgani, yoki bu xavf jiddiy darajada ekanligi biz so‘rov qilgan barcha dehqonlar tomonidan ta’kidlangan. Izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, – yerdan foydalanish huquqi bilan birga yerdan foydalanuvchiga o‘tadigan **tranzaksiyon xarajatlarni**<sup>248</sup> inobatga olmaslik va ularni kompensatsiya qilish mexanizmi yo‘qligi, bu borada iqtisodiy va tashkiliy muzokaralar, munozaralar olib bormaslik hozirgi qishloq ishlab chiqarishining asosiy muammosi. Yerdan foydalanish huquqi bilan birga yuzaga keladigan transaksiyon xarajatlar qatoriga yerning sifatini saqlash va ko‘paytirish bilan bog‘liq bo‘lgan (melioratsiya, o‘g‘itlash, yerni tekislash, shamolga qarshi ekinlar ekish, boshqa agrotadbirlar o‘tkazish) barcha xarajatlar kiradi. Bundan tashqari, bu yerdan foydalanish huquqini mulk egasidan foydalanuvchiga o‘tishini muhokama qilish, foydalanish huquqi shartlarini belgilash va ularni barchasini yuridik rasmiylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar hajmi ham ba’zan juda jiddiy va ko‘p vaqtni talab qiladi. Bu muammolar ortidan yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 2022-yilda 6,9 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 7,3% va 2024-yilda 6,8% tashkil etdi.<sup>249</sup> Aksariyat mahsulot

---

<sup>248</sup> Трансакционные издержки в сельском хозяйстве: <https://my.lap-publishing.com/catalog/details/store/gb/book/978-3-659-12193-7/>; <https://1economic.ru/lib/6590>

<sup>249</sup> [https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com\\_dropfiles](https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles)

chorvachilik zimmasiga to'g'ri keladi. Ya'ni mamlakatda hanuzgacha ko'chma xalqlar daromadining asosi bo'lgan chorvachilik qishloq xo'jaligida hukmron soha.

Natijada yillar davomida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar qishloq xo'jaligida murakkablashib, chuqurlashmoqda, xususan:

– yerning asosiy qismi undan foydalanish huquqi sifatida nisbatan mayda, o'zining dastlabki kapital mablag'i va investitsiyalarni safarbar qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan dehqon va tomorqa xo'jaliklari ulushiga to'g'ri keladi. Mayda dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarning ulushi yildan-yilga yuqori darajada qolmoqda (2022-yilning 1-sentbyar holatiga ko'ra 35,7% va 2024-yilning I-choragi natijalari bo'yicha 86,1%). Mayda fermerlar ulushi 55 %dan ortiq bo'lib qolmoqda. Imkoniyati tor fermer va dehqonlar yer resurslarining samarali ishlatilishiga, yer hosildorligi va ekologik holatini yaxshilashga erisha olmayaptilar. “Mamlakatimizda 3 million gektar yaylov va ekin yerlari degradatsiyaga uchragan, 2 million gektarga yaqini turli darajada sho'rlangan”, - deb ta'kidlangan edi;<sup>250</sup>

– yerda mehnat qilish boshqa mehnat turlaridan farq qilib, bu – hayot tarzini va yashash muhitini tanlash degani. Inson bir yerni tashlab, ikkinchi yerga borib, shu faoliyatini ilgarigidek davom ettira olmaydi. Yerga egalik huquqi aynan biz yuqorida ko'rsatgan sabablar tufayli qishloq xo'jaligida feodal munosabatlarni o'rnatib, ularni qishloqda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosiy mohiyatiga va shakliga aylantirgan. Yerni tashlab keta olmagan fermer, investor shu yerga bog'lanib qolgan va “davlat irodasini ifoda etuvchi” mahalliy feodal (xokim)ning xukmiga to'la qaram;

– yerga egalik huquqini himoya qila olmagan fermer/investor ko'p hollarda yerdan olgan hosiliga ham egalik huquqini himoya qila olmaydi. Bu esa undanda ko'proq muammolarni ko'tarib, transaksion emas, to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar kompensatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan va mehnat natijalarini ekspropriatsiya qilish deb ta'birlanishi mumkin.

---

<sup>250</sup> <https://president.uz/uz/lists/view/7226>

Yerga ijara huquqi umumiy mulk huquqiniing tarkibiy qismi bo'la turib, egalik huquqidan ajratilgan holda alohida bozor munosabatlarining hosilaviy institutiga aylandi va 32 yil davomida ma'muriy boshqaruv usulining asosi sifatida xizmat qildi. Bugungi kunga kelib bunday hosilaviy instrument o'z mohiyati va samara potensialini to'la ishlatib bo'ldi va iqtisodiyot oldida turgan eksportga moyil bo'lgan raqobatbardosh ishlab chiqarish munosabatlarini yaratish maqsadiga umuman xizmat qila olmaydi. Bundan buyon yer munosabatlari istilohi faqat mulk munosabatlarini qayta ko'rish bilan amalga oshirilishi mumkin, halos. Asosiy sabab bu o'rinda - davlat asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yerga monopol egalik qilgani, yerni ijaraga berish shartlarini belgilagani, o'z sud va ta'qib institutlari orqali kuch ishlatib, yerdan foydalanish huquqini istagan vaqtda tortib olish imkoniyatiga ega bo'lgani. Bu sharoitda hech qaysi investor risklarni ko'ra turib, yerga egalik huquqini mustaqil va yuridik va amaliy jihatdan egalik huquqidan ajratgan holda qabul qilsa bo'ladigan bozor instituti, bozor aktivi deb qaray olmaydi. Yuqorida aytilganidek, yerdan foydalanish huquqi bilan birga juda katta miqdorda tranzaksion xarajatlar xavfi yerdan foydalanuvchi zimmasiga o'tadi. Ko'p hollarda yer egasi ham (davlat), yerdan foydalanuvchi ham bu tranzaksion xarajatlarning sababi va hajmi haqida umuman hech qanday tasavvurga ega bo'lmasligi mumkin.

O'zbekistonda yer sifatini yaxshilash borasidagi tranzaksion xarajatlarning aksariyati davlat mablag'lari hisobiga bo'lmoqda. Jumladan, Qoraqalpog'istonda 2024 yildan boshlab paxta, boshhoqli don va sholi yetishtiruvchilarga lazerli tekislangan har bir gektar maydonga sarflangan yoqilg'i-moylash materiallari xarajati 100 foizgacha hajmi davlat budjetidan subsidiya orqali qoplab beriladi<sup>251</sup>.

Yerdan foydalanish huquqining boshqa mulkdan foydalanish xukuqlaridan (uy, mashina ijarasi) prinsipial farqlari bor:

a) er maydonlari A.Smit<sup>252</sup> va D.Rikardo<sup>253</sup> asarlarida ko'p ta'kidlanganidek cheklangan, ularning ijara narxi ishlab chiqarish turi va olinadigan daromad bilan

---

<sup>251</sup> <https://president.uz/uz/lists/view/7226>

<sup>252</sup> [http://www.adamsmith.org/s/Condensed\\_Wealth\\_of\\_Nations\\_ASI.pdf](http://www.adamsmith.org/s/Condensed_Wealth_of_Nations_ASI.pdf)

<sup>253</sup> <https://www.marxists.org/reference/subject/economics/ricardo/tax/ch01.htm>

belgilangani uchun, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining narxi eng yomon sifatli, sharoitlari og‘ir bo‘lgan yerlarda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi bildan belgilanishi zarur. Ya’ni davlat bunday yerlarni cheklangan resurs bo‘lgani uchun aylanmada bo‘lishini quvvatlashga majbur;

b) cheklangan resurs sifatida uning sifati qancha past bo‘lsa, unga ketadigan rekreatsion xarajatlar hajmi shuncha katta bo‘ladi, bu xarajatlar kompensatsiya qilinishi mumkin, ularni boshqacha yo‘l bilan tiklash (masalan, yer egasi o‘zi bilan ko‘chirib, boshqa yerga sarflashi) mumkin emas;

b) yer sifatini yaxshilashga ketgan investitsiyalar uzoq muddatli bo‘lib, o‘z natijasini bir necha yillardan keyin va bir necha 10 yillar davomida ko‘rsatadi. Aynan shuning uchun kompensatsiya qiymati nafaqat aniq ketgan xarajatlar, balki sarflangan kapitalning o‘rtacha narxi kabi (banklardagi amaliyot) boy berilgan imkoniyatlarni ham o‘z ichiga olishi kerak. Bizning qonunchilikda bu bozor instituti umuman ifoda etilmagan va sudlar bunday ishlarni ko‘rishdan odatda bosh tortadi;

c) bir yer maydonini tashlab, boshqa yer maydonlarini ishlashga o‘tish investordan o‘z mahsuloti va bozorini yana qaytadan yaratish bilan barobar, chunki hech qaysi ikki xil yer ayni bir xil iste’mol qiymati yaratmaydi.

Xulosa qilib aytganda, yerdan foydalanish huquqi bilan bog‘liq bo‘lgan transaksion xarajatlar juda katta, ularni baholash va himoya qilish qiyinligi bu huquqni bekor qilish amaliyoti butunlay qayta ko‘rib chiqish zaruroatini anglatadi. Bozor munosabatlarini himoya qiluvchi institutsional infrastruktura yaratilmay (jumladan, yer maydonlarining bir nechta mezonlarga asoslangan sifati hisoboti - reyestri, transaksion xarajatlarni hisobga olish reyestri), bu institutlar tom ma’noda mustaqil, o‘z qarorlarini majburan amal etishga unday oladigan imkoniyati bo‘lmasdan turib, davlat tomonidan qancha yaxshi qarorlar qabul qilinmasin yerdan foydalanish huquqi bozor aktivi bo‘la olmaydi – transaksion xarajatlar katta, ularning hisoboti, demakki, kompensatsiya mexanizmi mavhum. Yerdan foydalanish huquqi to‘laqonli bozor instrumenti bo‘la olmay, qishloq xo‘jaligida huquqbuzarlik holatlari eng ko‘p, yerlar sifati yomonlashuvi, sug‘oriladigan yerlar maydoni kamayishi, fermerlar va klasterlar o‘rtasida adovat kuchayib borishini

bartaraf etish qiyin. Qishloq xo‘jaligining eksport salohiyati ham katta xavf ostida qoladi.

2022-yil noyabr oyida AQSh xalqaro taraqqiyot Agentligi (USAID) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar Agentligi bilan birgalikda “Qishloq xo‘jalik yerlarini boshqarish tizimining islohoti” nomli hisobotni O‘zbekiston sobiq Respublikasi qishloq xo‘jalik vazirligiga taqdim etgan. Hisobotda yerdan foydalanish huquqi munosabatlarini rivojlantirish sohasida beshta taklifga urg‘u berilgan. Eng muhim masala – qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanuvchilariga davlat hokimiyati vakillari tomonidan tazyiq o‘tkazishga huquq beruvchi qonun normalarini bekor qilish. Gap O‘zbekiston Respublikasi Yer Kodeksi 37-moddasining 7-qismi haqida bo‘lib, u yerda yerning hosildorligi 3 yil davomida surunkasiga kadastr qiymatiga qarab belgilangan hosildorlik normasiga nisbatan tushib borgan taqdirda yerdan foydalanish huquqini bekor qilish imkoniyati haqida. Muammo shundaki, yerning hosildorligi juda ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning bir qismini katta transaksion xarajatlar evaziga foydalanuvchi hal qila oladi, lekin katta qismi davlat aralashuvini taqozo etadi (suv, tabiiy ofat, ekin almashtirish imkoniyati yo‘qligi, yer osti suvlari ko‘tarilib tuz bosishi, yerning minerallari kamayishi kabi).

Ikkinchi taklif yer huquqining bozor me‘yorlariga asoslangan narxini hisoblash uslublarini kiritish. Bunda O‘zbekiston baholash qonunchiligida nazarda tutilgan nisbiy, bo‘ljak daromad yoki kelgusi xarajatlar metodlariga asoslangan baholash mexanizmlari mavjud bo‘lgani tavsiya qilingan.

Uchinchi taklif - yerga huquqni sotayotganda konkurs o‘rniga auksionlar o‘tkazish. Bunda sub’ektiv baho berish imkoni pasayib, oddiy auksion yerdan foydalanish huquqining dastlabki bozor narxini keltirib chiqarishi mumkin.

To‘rtinchi taklif barcha mavjud yer maydonlarini tijorat va ijtimoiy degan ikki kategoriyalarga bo‘lgan holda zonalarga bo‘lish. Bunday zonalarga bo‘lish yer atrofida bo‘layotgan turli chayqovchilik o‘yinlari oqibatini kamaytiradi. Va, nihoyat, aholi o‘rtasida yangi yer munosabatlaridan voqif bo‘lish uchun katta tushuntirish ishlarini olib borish zarur.

2023-2024 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi qishloq xo‘jaligi yer va yerdan foydalanish muammolarini muallifning bevosita ishtirokida har tomonlama o‘rganib bordi. Natijada ushbu monografiya avtoridan tomonidan yerga ketgan barcha **tranzaksion xarajatlar umumdavlat reyestrini**<sup>254</sup> ma’lum bir shaklda tuzish, uni yuritish va tranzaksion xarajatlarni verifikatsiya qilish mexanizmini ishlab chiqish g‘oyasi kiritildi. Bu vazifalarni O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasining zimmasiga yuklab, qo‘mitaning vakolatlarini qayta ko‘rib chiqish lozim. Tranzaksion xarajatlar reyestri tomonlarga yerdan foydalanish huquqi o‘tayotganda ularning o‘zaro munosabatlarini va bu munosabatlar tugatilganda, ularning moliyaviy majburiyatlarini aniqlovchi hujjat bo‘lar edi. Bu reyestr nafaqat aerofotosuratlar, yer kadastr ma’lumotlari, balki sug‘orish va melioratsiya ko‘rsatkichlari, yer osti suvlari xarakteristikalarini (satxi, fizik-kimyoviy tarkibi), qilingan agromeliorativ ishlar, yer holatini yaxshilash borasida agrar tadbirlar ro‘yxati va samarasi kabi ma’lumotlarni o‘zida jamlashi kerak. Albatta bu ishlar natijasi yerlarning geografik koordinatlari (GIS – geoma’lumotlar tizilmasi) va chegaralari, ularning barcha sifat va huquqiy egalik xarakteristikalarini bilan to‘ldirilishi lozim. Strategik islohotlar agentligi huzuridagi “Natijalarni ta’minlash bo‘limi” 2024-yil davomida O‘zbekiston hududidagi umumta’lim maktablarining geoma’lumotlar tizimini yaratish<sup>255</sup> borasidagi olib borgan ishlari bu borada orttirilgan katta tajriba deb qaralishi muhim.

Ana shu takliflarni inobatga olgan holda 2023-yilning oktyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Yer Kodeksiga tegishli o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida ID-87836 (v-1) raqami ostida O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi umumxalq muhokamasiga qo‘yilgan. Aytish kerakki, biz yuqorida ko‘rsatganimiz kabi, qisman bu takliflar Strategiya-2030 doirasida ham

---

<sup>254</sup> Аузан А.: Институциональная экономика. Лекция 4. «Права собственности и теорема Коуза». М.-2014. <https://www.econ.msu.ru/ext/lib/>

<sup>255</sup> “Ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirish” <https://asr.gov.uz/news/10719>



inobatga olingan. Lekin bu takliflar masalaning eng markaziy muammosini davlat va yerdan foydalanuvchi o'rtasida bozor munosabatlariga asoslangan huquq va uni himoya qilish, hamda transaksion xarajatlarni bozor qatnashchilari tan olgan metodologiya asosida hisoblash va kompensatsiyasi mexanizmi masalalarini hal qilmaydi.

Keyingi muhim institutsional masala - mamlakatda sanoat siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish asoslarini yaratish. 1-bobda aytilganidek, 1992-2016 yillar davomidagi xususiylashtirish jarayonida O'zbekistonning sanoat potentsiali ko'p jihatdan yo'q bo'lgan. Mayda va o'rta mashinasozlik, metallga ishlov berish bo'yicha o'rta va kichik korxonalar o'z bozorlarini yo'qotib, kasod bo'lganlar va mulkiy komplekslar sifatida xususiylashtirilgan.

Mamlakatda sanoat potentsialini tiklash, uning diversifikatsiya darajasini oshirish borasida 2017-yildan keyin ba'zi urinishlar bo'ldi. Bu borada avvalambor boshqaruv institutlarining vakolati va mas'uliyati qayta ko'rib chiqildi. 2019-yilda sobiq Iqtisodiyot vazirligining vakolatlari kengaytirilib, unga Iqtisodiyot va sanoat vazirligi nomi berilib, "mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va industrial rivojlantirish sohasida davlat siyosatini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat organi"<sup>256</sup> maqomi berilgan edi. Vazirlikning asosiy vazifalaridan biri qilib sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, mamlakatning faol investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish yuklangan edi. Bu kabi yuksak vazifalarni bajarish, tabiiyki, uzoq va o'rta muddatlarga mo'ljallangan investitsiya va sanoat siyosati strategiyasini ishlab chiqishni kun tartibiga qo'ydi<sup>257</sup>. Lekin sobiq Iqtisodiyot va sanoat, hamda sobiq Investitsiya va tashqi savdo vazirliklari (keyinchalik Investitsiya, sanoat va tashqi savdo vazirligi) o'rtasida qolib ketgan bu ikki strategiya shu kungacha yaratilmadi. Buning bir nechta ob'ektiv va sub'ektiv

---

<sup>256</sup> "Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.01.2019 y., №PF-5621: <https://lex.uz/docs/4154478?ONDATE=11.01.2019%2000#4156514>

<sup>257</sup> Qarang: <https://old.gov.uz/uz/news/view/23101>

sabablari bo'lgan, lekin eng muhimi bu davrga kelib tarmoqlar va tarmoqlararo ishlab chiqarish va iste'mol balanslarini tuzadigan iqtisodiy-ilmiiy potensial batamom tugatilgan edi. Ilgari bunday balanslar Prezident ma'muriyati huzuridagi Iqtisodiy islohotlar va tadqiqotlar Markazi (CERR - hozirgi qisqa nomi inglizcha abbreviaturada) va Iqtisodiyot vazirligi tomonidan ishlab chiqilar edi. Ishlab chiqarish va iste'mol balanslarini yaratmay turib, bu sohada doimo yuqori malakali iqtisodchi-matematik kadrlarni tayyorlab, ularga sanoat iqtisodiyoti, sanoatni joylashtirish, yuk tashish tizimini (homashyo va tayyor mahsulotlar kesimida) optimizatsiya qilish modellarini singdirmay turib, sanoat sohalarini va mehnat taqsimotini tanlamay turib, sanoat siyosati, uni rivojlantirish strategiyasi haqida gap yuritib bo'lmaydi.

O'zbekiston sanoat rivojlanishi istiqbollarni belgilovchi strategiyani ishlab chiqish quyidagi ahamiyatga ega:

– strategiya eng avvalo O'zbekiston hududida tarmoqlararo talab va taklifning hajmi, ichki tuzilishi, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab beradi. Shu asnoda O'zbekistonda qaysi sohalarda samarali rivojlangan, qaysi sohalarga davlat yoki xususiy investitsiyalar yordamida turtki berib rivojlantirish, qaysi sohalarda esa asosan/butunlay importga tayangan ma'qul degan muhim savollarga javob beradi;

– strategiya tarmoqlararo tovar-pul munosabatlarida vujudga kelgan jismoniy, moliyaviy nomutanosibliklarni aniqlashga yordam berib, ularni minimallashtirishga mantiqiy asos yaratadi;

– strategiya iqtisodiy siyosatni inklyuzivligini oshiradi, chunki davlat kerakli tarmoqlarni drayver sifatida belgilab, ularning rivojlanishiga davlat e'tiborini kuchaytirish, importga bog'liqlikni kamaytirishning imkoniyatlarini barpo etadi;

– strategiya tufayli davlat boshqaruv organlari (Iqtisodiyot va moliya, Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo vazirliklari) aynan qaysi sohalarga investitsiyalarni jalb qilish, qanday loyihalar amalga oshirilishiga monetar va fiskal, hamda regulyativ imkoniyat yaratish, tarmoqdagi qaysi texnologiya va bilimlar egasi bilan muzokaralar olib borish haqida asoslangan tasavvurga ega bo'ladilar;

– strategiya davlat boshqaruvida fokusni kuchaytirib, parallel faoliyatni

cheklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi sanoat strategiyasini yaratish masalasini o‘z e‘tiboridan tushirib qoldirmadi. 2023-2024 yillar davomida Agentlik hududlar kesimida tashkil etilgan bir qancha guruhlar yordamida bir necha strategik korxonalar faoliyatini o‘rganib, sanoat siyosatini yaratishda quyidagi **omillarga** ahamiyat berilishi kerakligini aniqladi:

1. O‘zbekiston Yovroosiyo kontinentining markazida ekani, bu yerga dunyo bozorlaridan har qanday homashyo olib kelib, uni qayta ishlab, mahsulot tarzida dunyo bozorlarida taklif etish ikki martalab logistika xarajatlarini qoplash bilan bog‘liq ekanini unutmaslik kerak. Demak, asosiy e‘tibor o‘z homashyosi yetarli bo‘lgan loyihalarga qaratilishi kerak. Bu esa asosan qishloq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlari, farmatsevtika, qurilish materiallari va tabiiy resurslarni qazib chiqarish sohalari bo‘ladi. Tabiiy resurslarning hajmi, ularni sanoat masshtabida qazib olish samaradorligi cheklangan ko‘rsatkich. Tabiiy gaz ishlab chiqarish hajmlari borgan sari kamayib, 5-10 yillik ishlab chiqarish istiqbollari mavhum bo‘lib turgan sharoitda GTL, MTO kabi har biri kamida 3,0 mlrld m<sup>3</sup> tabiiy gazni talab qiladigan (mavjud potensialning 12-15%) loyihalarni amalga oshirish mantiqsiz ko‘rinadi.

Ikkinchidan, har qanday mahsulotning ichki bozori va unga bo‘lgan umumiy talabni shakllantirishda ichki tarmoqlar va tarmoqlararo ishlab chiqarish va iste‘mol balanslaridan kelib chiqish, talab va taklifni belgilashda O‘zbekistonda ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan tovar bozorlarini himoya qilish uchun tarif va notarif to‘siqlarni qo‘llash zarur. Tarif to‘siqlari ma‘lum miqdordagina bo‘lib, ularning umumiy ta‘siri import mahsuloti narxini 20 %dan (empirik yo‘l bilan topilgan raqam) ortiqqa oshirmasligi kerak. Aks holda ichki monopoliyalar yuzaga kelib, ular o‘z shartlarini bozorga singdira boshlaydilar. AO “Uzavtomotors”, Artel kabi kvazi-davlat monopolistlar siyosati biz uchun saboq bo‘lishi kerak.

Ishlab chiqarishni rejalashtirishda ichki bozor ehtiyojlarini qondirish asosiy mezon bo‘lishi kerak. Xalqaro bozor kon’yunkturasi juda tez o‘zgaruvchan va mamlakat ta‘sir o‘tkaza olmaydigan ko‘rsatkichlarga bog‘liq. Raqobat bo‘lmagan

va bo'lishi qiyin bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasida tashqi bozorga orientir olish iste'mol va sanoat mollari narxlarining keskin o'sishiga olib keladi. Ichki bozor hajmi va ishlab chiqarish imkoniyati narxlar balansini belgilashda asosiy orientir bo'lishi kerak, qolgani almashuv kursi orqali boshqarilishi kerak. Almashuv kursining yetarli asosiz barqarorligi bu importni oshiruvchi asosiy omil bo'lib qoladi.

Uchinchidan, o'z xomashyo bazasi bo'lgan va mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynayotgan korxonalarini (masalan, metallurgiya, mashinasozlik, farmatsevtika, qurilish materiallari sanoatida) xomashyo bazalarini keskin rivojlantirish, bu aktivlarni davlat ihtiyorida ushlab turish kerak. Vaholanki, ayniqsa, metallurgiya va qurilish materiallari sohasida (jumladan, sement, armatura, oyna ishlab chiqarish) davlatning ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish mexanizmi sezilmaydi. Boz ustiga ichki logistika xarajatlari juda yuqori.

To'rtinchidan, sanoat korxonalarini ba'zi sanoqli holatlardan (boshqa tarmoqlarga ijobiy sinergetik ta'siri bo'lgan korxonalar faoliyatidan tashqari) ichki subsidiyalar va narxlarni sun'iy chegaralash, bojxona, soliq imtiyozlari, xomashyoni, energiya va boshqa resurslarni kvotali, imtiyozli taqsimlash kabi sun'iy g'oyalar asosida faoliyat yuritmasliklari kerak. Bunday korxonalar uzoq muddatlarda na ichki va na tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'la olmaydilar. Iqtisodiyotning ularni faoliyati uchun sarflagan transaksion xarajatlari (bu yerda ularning faoliyatini yuritish uchun davlat va jamiyat zimmasiga tushgan barcha xarajatlar to'plami ma'nosida) imtiyozlarni yo'q qilish oqibatlari bilan doim solishtirilishi kerak. Masalan, kvazi-davlat monopoliyalari yuqorida aytilgan logistika va qo'shilgan qiymat solig'i borasidagi ustunlik doirasida faoliyat yurita olmasa, ularni saqlash xarajatlari iqtisodiyot uchun qimmatga tushayotganini aniqlash vaqti keldi.

Va nihoyat, har bir sohada tarmoqni rivojlanishiga trigger bo'ladigan omillar bo'ladi va ularning sinergetik ta'siri nazarda tutilishi kerak. Masalan, metallurgiyani rivojlantirish uchun xomashyo bazasi ikkilamchi metall, mahalliy temir rudasi, yoki import xomashyo bo'lishi mumkin. Lekin birlamchi metallurgiya metall prokati va

yirik metall konstruksiyalari sohalari rivojlanishiga trigger bo'lsa, bu omillar birga ko'rilishi kerak.

Bu faktorlar **sanoat taraqqiyoti strategiyasini** ishlab chiqishda va har bir yirik yoki hududiy muhim sanoat korxonalarini qurishni rejalashtirishda, investitsiyalar oqimi, manbai va vaqtini tanlashda muhim ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Har bir loyiha masshtabida esa uning texnik-iqtisodiy asoslari sifati, ularni moliyalashtirishga xususiy yoki bank kapitalining moyilligi eng hal qiluvchi omil bo'lishi kerak.

### **4.3 Yangi geosiyosiy voqe'likda mintaqaviy makroiqtisodiy boshqaruv institutlari faoliyatini takomillashtirish**

2022-yilning bahorida va 2023-yilning kuzida Yevroosiyo mintaqasida geosiyosiy muvozanat keskin buzildi. O'zbekiston Rossiya-Ukraina va Isroil-Falastin harbiy konfliktlarida rasman neytral pozitsiyani egalladi. Birmuncha vaqt o'tib, bu tarixan eng to'g'ri yo'l ekani to'la ayon bo'ldi:

Birinchidan, Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston va Qozoqistonning xalqaro maydonda iqtisodiy, siyosiy jihatdan mustahkamlanishi bu mintaqaga global darajada ta'sir o'tkazishga da'vogarlik qilayotgan strategik kuchlar manfaatiga javob bermasligini biz yaxshi anglashimiz va qabul qilishimiz kerak. Mintaqadagi tortish kuchlarini nazarda tutsak, aynan Rossiya va Xitoy uchun Markaziy Osiyoda siyosiy-iqtisodiy notinchlik va qalqishlar umuman kerak emas. Boshqa kuchlar haqida biz bunday amin bo'la olmaymiz, chunki ular O'zbekistonni "Rossiya va Xitoy ta'siridan chiqarish"<sup>258</sup>ga urinishlarini yashirmaydilar ham. Umuman olganda bu tabiiy hol, chunki har bir gravitatsiya markazi o'z ta'siri doirasiga ko'proq mamlakatlarni tortishga, boshqa tortish markazlarini salbiylashtirishga harakat qiladi. O'zbekiston ilg'or texnologiyalar bilan bo'lishish, inson kapitaliga, mamlakatdagi energetika, transport, suv boshqa injener-texnik infratuzilmalariga investitsiya kiritish, bu investitsiyalarni teng hamkorlik shartlarida jalb qilish asosida, teng manfaatli

---

<sup>258</sup> "The new great game continued? How the West is trying to get (back) to Central Asia": <https://fpc.org.uk/the-new-great-game-continued-how-the-west-is-trying-to-get-back-to-central-asia/>

hamkorlik qilishdan manfaatdor. Faqatgina budjetni qo'llash, infratuzilmalarni rivojlantirishga uzoq muddatli qarzlarni berish bilangina mamlakat kelajagini yorqin qilib bo'lmaydi. Demak, O'zbekiston o'zining ichki imkoniyatlari va ma'lum ma'noda bevosita qo'shni davlatlarning ko'magiga tayanishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, har bir mamlakatning o'z strategik manfaatlari mavjud. Masalan, Rossiya urush sharoitida Yevropa bozorlarini yo'qotgani uchun asosiy tabiiy resurslarini eng katta iste'molchi – Xitoyga sotish uchun gaz, energetika, transport-logistika infrastrukturasi yaratish sohalarida O'zbekiston bilan raqobat qiladi va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun ma'lum ma'noda tazyiq ham o'tkazadi (gaz konlari va yer osti gaz saqlash zahiralarning Rossiya nazoratida bo'lgan korporatsiyalarga o'tishi, gaz tashish magistral yo'nalishlarini nazoratga olishga urinish).<sup>259</sup> Rossiyaning strategik maqsadi: barcha Markaziy Osiyo mamlakatlarini mintaqaviy energetika bozorida o'zi bilan bo'lgan raqobatdan chiqarish, mintaqadagi gazni saqlash uchun yaratilgan yer osti tabiiy rezervuarlarini, gaz quvurlarini egallash, mintaqani Rossiya energetika resurslariga tobe' qilish va Markaziy Osiyo davlatlari hududidan bu yerdagi energetikani tashish infrastrukturasi bilan to'la foydalangan holda Xitoyga, Pokistonga va Hindistonga energetika resurslarini sotish. Shu bilan birga Markaziy Osiyodan o'tadigan va o'tishi mumkin bo'lgan mintaqaviy-global (ya'ni Sharq-G'arb-Shimol-Janubni bog'laydigan) barcha transport va logistika yo'llarini to'la nazorat qilish.

Xitoy Markaziy Osiyoga bir hisobdan turli tabiiy resurslar makoni, o'z mahsulotlarining sezilarli qismini iste'mol qiluvchi va global savdo uchun transport-logistika yo'llarining mintaqasi sifatida qarashda, mintaqada islom radikalizmi kuchayishi, turli siyosiy-ijtimoiy tangliklar bo'lishini istamaydigan va bunga ta'sir eta oladigan qudratli qo'shni davlat. Xitoy mintaqada davlatlarining insoniyat taraqqiyoti trendlaridan jiddiy darajada ortda qolishidan manfaatdor emas. Aks holda, qo'shnilar muammosi tez orada boshqa mamlakatlarning ham muammosiga aylanadi.

---

<sup>259</sup> <https://orginfo.uz/organization/fcdf25f00ccf/>

O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatida ana shu geosiyosiy voqe‘liklarni inobatga olgan holda, o‘z manfaatlaridan kelib chiqibgina turli amallarni ko‘zda tutishi kerak. Mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash, savdo aloqalari, transport yo‘llarini rivojlantirish, umumiy manfaat yo‘lida turli investitsion loyihalarni amalga oshirish (ayniqsa, energetika va oziq-ovqat xavfsizligi borasida) barcha tomonlarning maqsadlariga uyg‘un keladi.

Ikkinchidan, aynan qo‘shni davlatlar – Xitoy, Rossiya va Qozoqiston asosiy savdo va investitsiyaviy hamkorimiz sanaladi. O‘zbekistonning Xitoy bilan savdo aylanmasi 2023-yil yakunida 13,7 milliard dollar (umumiy tashqi savdoning 21,9 foizi), RF bilan 9,9 milliard dollar (15,8 foiz), Qozog‘iston bilan 4,9 milliard dollar (7 foiz)ni tashkil etgan holda, mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi boshqa qo‘shni davlatlar bilan tovar ayirboshlash miqdorini jamlagandan ancha ko‘p. Xususan, so‘nggi yetti yilda O‘zbekiston – Rossiya mahsulot va xizmat ayirboshlash hajmi 2,5 barobar oshgan.

Uchinchidan, har qanday davlat uchun suverenitetni ta‘minlashning asosiy sharti energetika, oziq-ovqat va transport xavfsizligi hisoblanadi. Aynan shu bois, energetika, jumladan, atom energetikasi, qishloq xo‘jaligi, innovatsion migratsiya, xavfsizlik va boshqa masalalar qo‘shni mamlakatlar hamkorligi asosini tashkil etdi. O‘zbekistonda kam quvvatli, modulli atom elektr stansiyasi qurish Rossiya tomonidan juda qattiq qiziqish uyg‘otgan. Metallurgiya klasteri va gaz-kimyo majmuasi uchun “Gazprombank” va “VEB.RF” Davlat taraqqiyot korporatsiyasi kreditlari jalb qilingan.<sup>260</sup>

Ukraina va Rossiya o‘rtasidagi ziddiyat sabab O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ham bir necha tahlikalar tug‘ilgan,<sup>261</sup> jumladan, Rossiya rezidentlari bilan savdo aloqalarida bo‘lgan korxonalar va banklarga nisbatan ikkilamchi sanksiyalar qo‘llanilishi, milliy valyutalarda (rublda) hisob-kitobga o‘tish tahdidi va hokazo. Lekin biz muhim savdo hamkorimiz bilan savdo aloqalarini kengaytirish istagida

---

<sup>260</sup> Yoza “O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasi: Pragmatizm – mintaqa uchun tajriba loyihasi”: <https://t.me/c/1586229009/3784>

<sup>261</sup> <https://disclosure.spglobal.com/ratings/en/regulatory/article/-/view/type/HTML/id/3189679>

bo'lsak, ikkilamchi sanksiya va milliy valyutalar kursi o'zgarishi bilan bog'liq yo'qotish, shuningdek, uzoq muddatli shartnomalarda milliy valyutalarda belgilangan narxlar asosida bozorga yetkazib beriladigan mahsulotlar kon'yunkturasining o'zgarishi bilan bog'liq moddiy zararlarni qoplash mexanizmlarini birgalikda o'ylab topishimiz kerak. Milliy valyutalarda to'lov amalga oshirilishi Rossiya tovarlarining o'zbek bozorida yanada raqobatbardosh bo'lishiga xizmat qilishi aniq, zero, eksportchilar zimmasiga valyutani konvertatsiya qilish uchun qo'shimcha xarajat tushmaydi. Lekin bu yerda o'zbek rezidentlari uchun bir nechta risklar mavjud: eksportdan tushgan rublni faqat Rossiya ichki bozorida ishlatish mumkin. Bu holda uzoq muddatli kontraktlar tuzilgan bo'lsa, rublning almashuv kursi yoki tovarning kontrakt ijrosi davri davomida dunyo bozoridagi narxi o'zgarishi mumkin, demak, noekvivalent almashuvga katta sharoit yaratiladi. Bundan tashqari milliy valyuta bilan savdo qilganda o'zaro kliring mexanizmi va almashuv kurslari balansi juda murakkab masala bo'lib qoladi.

Markaziy Osiyoning mintaqa sifatida o'zining inklyuziv sifatlari bo'lib, bular - tabiiy resurslar ko'p bo'lishi zaminida renta iqtisodiyotining rivojlanishi, mamlakatlarda aholi sonining keskin o'sishi fonida, real daromadlarning tushishi, qashshoqlik va kambag'allik darajasining yuqoriligi, suv resurslarining kamayib borishi, qishloqlarda Osiyo ishlab chiqarish usulining hukmronligi, boshqaruvda nepotizm va avtokratiya asoslarining kuchliligi va buning ortida aholi o'rtasida barcha muammolarga aybdor qidiruvchi turli ekstremistik g'oyalarga moyillik mavjudligi kabi omillardir. Mintaqada joylashgan mamlakatlarning nafaqat tarixi, balki bugungi kundagi tashvishlari, tahlikalari ham katta umumlikka ega:

– barcha mamlakatlarda Osiyo ishlab chiqarish usuli xukm suradi va o'ta markazlashgan hokimiyat mulkka, ayniqsa, yerga huquq masalasi oxirigacha hal qilinmagan sharoitda keng imkoniyatlarga ega. Shu tufayli u yoki bu ko'rinishda nomenklatura hokimiyatni qo'lga olgan va avtoritar boshqaruv usullari (qonunga asoslangan bozor emas) asosiy narrativni tashkil etadi;

– hududdagi barcha davlatlarning dunyo dengizlariga bevosita chiqishga imkoniyatlari yo'q, nimaiki dunyo bozorlaridan olib kelinib, qayta ishlanib, dunyo



bozorlariga taklif qilinsa, logistika xarajatlari tufayli raqobatbardosh bo'lish juda mushkul;

– dengizlardan uzoq bo'lgani tufayli hududdagi mamlakatlar dunyo bozorida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tovarlar bilan emas, an'anaviy tabiiy resurslar va qishloq xo'jalik mahsulotlarini taklif qilish bilan ko'proq xalqaro savdoda qatnashadi. Yuqori qo'shilgan qiymatli faoliyat turlari endigina rivojlanmoqda (O'zbekistonda to'qimachilik, energetika, Qozoqistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat sanoati, neft kimyosi);

– hududdagi mamlakatlar umumiy maqsadlar va ularga erishish yo'llari ustida ob'ektiv voqe'lik yuzasidan bir-biri bilan raqobat yoki antogonizmga emas. Qozog'iston qanchalar global Janubi-Sharqiy Osiyo bilan, Shimoli-G'arbiy Yevropa o'rtasida transport va logistika, yoki sun'iy intellekt xizmatlarini taklif qiluvchi xab (hub) markaz bo'lishni istasa, xuddi shu maqsadlarni hududdagi boshqa mamlakatlar ham o'z oldiga qo'yadi va bu maqsadlar aslida bir-birini to'ldiradi, raqobat qilmaydi. Hududdagi mamlakatlar iqtisodiyoti mehnat taqsimoti jihatidan juda kam jabhalarda raqobati qilib, asosan iqtisodiyotlarning potentsiali bir-biriga komplimentar, ya'ni bir-birini to'ldirib turadi, kuchli raqobatni taqozo qiluvchi soha deyarli yo'q (transport va logistika yo'llaridan tashqari);

– aholi sonining keskin o'sib borishi fonida suv, energiya resurslari tanqisligi, transport infrastrukturasi cheklangani, hali o'zlashtirilmagan juda katta maydonlar borligi kabi umumintaqa muammolar - milliy doirada hal qilib bo'lmaydigan chaqiriqlar bo'lib va ularni yechish hududiy kooperatsiyani taqozo qiladi;

– barcha davlatlar umumiy yashash va iqtisodiy hamkorlik hududida joylashganlar, ularning xalqlari mavjud chegaralarni ming yillab bilmagan, umumiy til, tarix va madaniyatga egalar. Aholi barcha Markaziy Osiyo hududida minglab tarixiy yillari bo'lgani kabi sayohat qilishni va hamma yerda bir xil qadriyatlar, insonga munosabat ko'rishni istaydi, milliy adovatni emas.

Ana shu tahlikalardan kelib chiqib Markaziy Osiyo davlatlari umumlashgan iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni birgalikda yechish mexanizmlari negizida siyosiy


irodani shakllantira olsalar, bu holat mintaqaga ta'sir o'tkazmoqchi bo'lgan kuchlar uchun kuchli ogohlantirish bo'lib, ular bu holatni hisobga olish majbur bo'ladi. Mintaqadagi davlatlar Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va davlatchiligi, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'rifiy va madaniy merosi asosida umumiy iqtisodiy-ijtimoiy makon va siyosiy iroda yarata olsalargina kelajakda xalqaro siyosatning sub'ekti bo'lishga da'vogar bo'lishlari mumkin. Aks holda esa bizga doim kuchli gravitatsiya markazlari o'z ta'sirini o'tkazib, o'z irodasi va manfaatlarining ilovasiga aylantiradilar. Madomiki biz o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, afg'on millatlari tarixi, davlatchiligi va hozirgi holatdagi tor manfaatlaridangina kelib chiqib, fikr yuritadigan bo'lsak, o'zimiz bilmagan tarzda Stalin va Lenin irodasi bilan Turkistonni (undan avval Turonni) parchalab, milliy kataklarga tiqqan narrativni oqlagan va eng yomoni - ular tariximiz va kelajagimiz poydevoriga yashirib qo'yilgan minaning portlashiga olib kelgan bo'lamiz. Biz Markaziy Osiyodagi (MO) ayrim millatlar manfaati emas, balki tarixan va mantiqan mintaqadagi barcha xalqlar tarixi, davlatchiligi, umumiy tashvishlari va manfaati haqida gapirsak asos, ma'no va foyda yuqoriroq bo'ladi. Bugungi kunda O'zbekiston, Qozoqiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston deb atalgan va xaritada chegaralari belgilangan diyor 1925-1937 yillarda Stalinning milliy siyosati mahsuli sifatida shakllana boshlagan va xaritadagi bo'linmalar MO xalqlarini milliy kataklarga tiqish va ularni bir-biriga qarama-qarshi ko'yish kabi imperialistik siyosatni toji hisoblanadi. Bugungi xaritadagi chegaralarda MO xalqlarining birontasi o'zining "toza" milliy tarixi va davlatchiligi bo'lgan to'laqonli tarixiy, arxeologik va toponimik faktlarni keltira olmaydi. Bu bizning umumiy tariximiz va Transoksiya, Turon, Sug'diyona, Movarounnaxr, Baktriya deb turli tarixiy nomlar bilan atalgan katta bir diyordagi xalqlarning umumiy o'tmishi. Mayda millatchilik, tarixni reviziya qilish, undagi qaxramonlarni ma'lum millat doirasida "xususiylashtirish" tarixiy fojia bilan tugashi mumkin. Markaziy Osiyo xalqlari umumiy tarixiy, ruhiy, madaniy va ma'naviy merosga ega, bu yerda biron bir millat yo'qki, u o'zini boshqa xalqlardan ustun qo'yib, o'z tarixini boshqalarga qarshi qo'ya olsa. Bu

mintaqa xalqlarining tarixi va davlatchiligida biron bir fakt yoki biron bir shaxs yo‘qki, uni faqatgina bir millatning tarixi, yoki vakiliga tegishli deb ayta olsak.

Bunday yangi dunyoqarashni targ‘ib etish, xalqlarimiz ongiga singdirishda, hamda umumiyqisodiy, umumijtimoiy makonda taraqqiyot g‘oyalarini – narrativlarini shakllantirish, bu g‘oyalarni amalga oshiruvchi kuchlar va resurslarni aniqlash, xarakterlar ketma-ketligini tuzish, har bir jarayonning samarasi mezonlarini, nazorat qilish mexanizmlarini belgilash, bularni barchasini ma’lum “aql markazlari” tomonidan ekspertizadan o‘tkazish, umumxalq muhokamasiga chiqarib, kerakli darajada tushuntirish ishlarini olib borish va ma’lum qatlamlar “roziligiga”, quvvatlashiga erishish o‘ta muhimdir. Ya’ni mintaqa davlatlarida turli ijtimoiy kuchlar va institutsional tuzilmalar mavjud bo‘lishi kerak-ki, ular maqsadlar, qoidalar, me’yorlar va samaradorlik ko‘rsatkichlari haqida kelishib olish va yangi umumiy rivojlanish narrativlarini xalqlarga yetkazish, mintaqaviy dunyoqarashning yangi paradigmalarni yoyishga qudratli bo‘lishlari kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi jamiyat va biznesdan chiqadigan tashabbuslarni aniqlash, muhokama qilish va davlat kun tartibiga kiritish yuzasidan Prezident Ma’muriyatiga bir qator takliflar kiritgan (qar.15-infografika).

### 15-infografika



Ilova qilingan tasvirda ko'rsatilganidek, 100-kunlik marafon e'lon qilib, "Milliy muloqot" platformasini muntazam ishga tushirish. Bunda maxsus elektron platforma tuzib, unda ijtimoiy va biznes g'oyalari (davlatdan qandaydir turtki yoki yordamga muhtoj bo'lgan) umumlashtiriladi. Bu g'oyalar tanlangan ekspertlar tomonidan "filtratsiya qilinadi" va istiqbollari taxminan aniqlanadi. Shundan kelib chiqib, har bir loyihani amalga oshirish mexanizmlari "davlat byurokratik mashinasi harakati tiliga" o'giriladi. Bunday harakat jamiyatda umumiy jonlanishni stimulashtirib, aholi va biznesda "jarayonda qatnashish, mas'uliyatli qaror qabul qilish" hissiyotini uyg'otadi, o'zaro ishonchni orttiradi. Umumiy shaklda beriladigan takliflar tarmoq, hududiy va umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lishligi aniqlanib, amaliyot haritasi va resurslarni jalb qilish, tashkiliy-amaliy ishlar ketma-ketligi SIA tomonidan belgilanadi. Bu jarayonda barcha aql markazlari va ular faoliyatini tashkil etuvchi, koordinatsiya qiluvchi davlat tashkilotlari bevosita ishtirok etishlari zarur. Muhimi shuki, hech qaysi g'oya kishilik jamiyatining tabiatiga, ijtimoiy-tarixiy omillarga, umuminsoniy qadriyatlar majmuasiga tayanmasa, u qanchalar chiroyli qobiqqa o'ralgan bo'lmasin, umuman ro'yobga chiqmaydi. Demakki har qanday strategik rivojlanishimiz haqida falsafa va mantiq hududiy, mintaqaviy hamkorlik va umumiy qadriyatlar atrofida aylanishi kerak. Jamiyat rivojlanishi maqsadi bo'lgan umumiy qadriyatlar majmuasi aslida insonning individual talablari va tadbirkorlik faoliyati (biznes) mantiqidan kelib chiqishi muhim (6-infografika). Biznes va aholi tomonidan ko'rsatilayotgan tashabbuslarga davlatning jiddiy yondashuvi islohotlarga ijtimoiy ishonch darajasini oshirib, barcha tadbirlar jamiyat bu jarayonda ob'ekt emas, sub'ekt ekanini anglatishga xizmat qilishi zarur.


Falsafa bo'yicha Kioto Xalqaro mukofotining laureati Marta Nussbaum sanab o'tgan individ uchun eng zarur bo'lgan o'nta minimal qadriyatlar mohiyatidan kelib chiqsak<sup>262</sup> (yashash huquqi, jismoniy sog'liq, jismoniy erkinlik va daxlsizlik, insonning tabiiy hissiyotlarini ifoda qilish va atrofni ozda tutishiga intilishi va

---

<sup>262</sup> "Martha Nussbaum or the Democracy of Capabilities": <https://laviedesidees.fr/Martha-Nussbaum-or-the-Democracy>

hokazo), ularning ko'pchiligi davlat tomonidan vakolatlangan huquqlar tarzida yaratib berilmaydi. Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, Strategik islohotlar agentligi tomonidan dissertatsiya muallifi rahbarligida aholi va biznes vakillari o'rtasida turli ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuslarni aniqlash, saralash va stimullash sohasida bir qator takliflar ishlab chiqilgan (qar.16-infografika). Bu takliflar asosan SIA xodimlari rahbarligida har bir xududlar kesimida tashkil etiladigan hokimiyatlar qoshidagi ijtimoiy tashabbuslarni jamlash va saralash guruhleri faoliyatidan kelib chiqib tayyorlangan. Asosiy g'oya turli jamiyat vakillari uchun yuz berayotgan islohotlar mohiyati va maqsadini belgilashda qatnashishi uchun bevosita sharoit yaratib berish va shu ortidan islohotlarga bo'lgan ishonchni oshirish.

16-infografika



Ularning aksariyati jamiyatning individlarining o'z qadriyatlarini mohiyatini tushunish va bu qadriyatlarni jamiyat garmoniyasining universal atomi deb qabul qilishdan boshlabgina yuzaga kelishi va tabiiy ravishda takrorlanishi mumkin. Masalan, jismoniy daxlsizlik – bu ko'proq oilada, jamiyatda har bir individning o'zgaga tajovuzini tiyish bilan bog'liq. Davlat qancha harakat qiolmasin bu muammoni to'la hal qila olmaydi. Xuddi shu kabi atrof-muhit ne'matlaridan foydalanish va unga hurmat bilan uni iflos qilmaslik, yoki insonlar munosabatida muomalani yaxshi tutish. Bunday ishlarni davlat eplay olmaydi va ojiz. Faqat

jamiyat a'zolari o'z qadriyatlarini anglab, o'z hayot tarzini shularga moslay olsagina bu qadriyatlar yuzaga chiqadi. Covid-19 davrida biz minglab hollarning guvohi bo'ldik-ki, davlatning umuman qo'li yetmagan joylarda minglab ko'ngilliklar bir-biriga yordam qo'lini cho'zdi, umumiy noma'lum tabiiy jazo qarshisida insoniyat birlashdi.

Mintaqaviy doirada umumiy qadriyatlarni yaratish g'oyasi bilimli mutaxassislarning mamlakatni tark etishiga qarshi turadigan muhim omil. 2018-yilda O'zbekistondan xorijga pul ishlashga 2 593 700 kishi vaqtincha jo'nab ketgan. Ularning qariyb 80% Rossiyada<sup>263</sup>, 15 %dan ko'prog'i Qozog'istonda, qolgan oz miqdori esa Koreya va Turkiyada. O'zbekistondan ketganlarning aksariyati Samarqand, Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlaridan<sup>264</sup>. 2021-yil yanvar-iyun oyida O'zbekistondan butunlay ko'chib ketganlar soni 156,8 ming kishini tashkil qilgan, bu 2020-yilning shu davriga qaraganda 43,2 %ga ko'p bo'lgan. Bunda doimiy yashash uchun xorijga ketganlar soni 10 ming kishidan oshdi, bu 2020 yilning yanvar-iyun oyiga qaraganda qariyb 4,5 baravarga va 2019-yilning birinchi yarim yilligiga qaraganda 2,2 baravarga ko'p<sup>265</sup>. Doimiy yashashga oliy ma'lumotga, yaxshi malakaga ega bo'lgan ishchi kuchi va mamlakat intellektual salohiyatining asosi jo'nab ketayotganini tushunish qiyin emas.

Hududdagi mamlakatlarni o'z milliy suverenitetini mustahkamlash, milliy demokratiyaga intilish, o'ziga hos bozor munosabatlarini joriy etish kabi izolyatsionizmni targ'ib etuvchi va hududiy hamkorlikdagi mavjud sinergiya potensialini inkor etuvchi fikrlar birlashtirmaydi va oqibatda **gravitatsiya markazlaridan birining yo'ldoshi** holida qolib ketishga mahkum qiladi. Bizni birlashtiradigan narsalar bu – umuminsoniy qadriyatlar, tariximizda juda katta jipslashtiruvchi kuch bo'lgan qadriyatlar – yaxshi qo'shnichilik falsafasi, savdo aloqalari, yo'llarini barpo etish va rivojlantirish, xalqlarning migratsiyasiga, o'zaro qondoshligiga to'siqlik qilmaslik, ularning mahalliy urf-odatlarini, dini, tili, adabiyoti,

---

<sup>263</sup> RFning migrantlarga bo'lgan siyosati 2023 so'ngidan keskin o'zgarishi tufayli Rossiyadan millionlab vatandoshlar 2024 yil davomida qaytib keldilar.

<sup>264</sup> <https://upl.uz/policy/9600-news.html>

<sup>265</sup> <https://www.gazeta.uz/ru/2021/07/27/migration/>

tarixi va qadriyatlariga hurmat bilan qarash, o‘zaro assimilyatsiyani quvvatlash va boshqalardir.

Biz mintaqa uchun muhim bo‘lgan qadriyatlarni ikki guruxda tasnifladik: a) hududiy geosiyosiy vaziyat va sharoit voqe‘ligidan kelib chiqadigan qadriyatlar; b) individual, eng bazaviy minimal qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy rivojlanish shartlari. Agar bu guruhlar qadriyatlari mohiyatlaridan kelib chiqsak, ko‘proq mas‘uliyat toshi xalqlar (davlatlar yoki davlat organlari emas) zimmasiga tushadi. Shunday ekan, ijtimoiy institutlarning (“aql markazlari”, turli ijtimoiy fikr va biznes g‘oyalarini qo‘llovchi markazlar) inson kapitaliga bo‘lgan ta’siri masalasini ko‘ndalang qo‘yadi va aynan shu markaziy mavzuga aloqador omillarni belgilab o‘tishni taqozo qiladi.

Jamiyat, biznes va davlatning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishdagi munosabatlarida muvozanat va mas‘uliyatlar doirasini belgilashda, ya’ni bu munosabatlarning institutsional asoslarni yaratishda quyidagi to‘rtta markaziy omillarga e’tibor berilishi zarur degan xulosalarga keldik:

1) bozor munosabatlarini o‘rnatuvchi, ularning huquqiy, tashkiliy va amaliy asoslarni yaratib beruvchi institutsional infrastrukturaning jamiyatda mavjudligi va uning rasmiy emas, amaliy funksional potensiali. Bu institutlar qatorida tadbirkorlarning turli uyushmalari, biznes yuzasidan nizolarni ob’ektiv mezonlar asosida ko‘rib, verdikt chiqaruvchi sud organlari, tadbirkorlar huquqlari va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashuvchi ijtimoiy birlashmalar, turli bozor qoidalari bilan ishlovchi savdo platformalari va hokazolar. Agar bizda barcha davlat tenderlari rasman elektron tarzda o‘tsa-yu, davlat boshqaruvi tizimida bu savdolar natijalariga bevosita ta’sir o‘tkazish imkoniyati bo‘lsa, bu rasman imkoniyat borligi-yu, amalda tenglik va raqobatning yo‘qligini ifodalaydi. Yoki sudlar butunlay davlat ma’muriy boshqaruvi ta’siri ostida bo‘lib, tadbirkorlar bilan bo‘lgan har bir nizoda chiqargan qarori “davlat foydasi”ga bo‘laversa, bu yerda ham rasmiy shakl bilan amaliy mazmun o‘rtasidagi tafovutni ko‘ramiz;

2) plyuralistik g‘oyalar asosida yuzaga kelgan davlat, biznes va jamiyat o‘rtasidagi ishonchga asoslangan munosabatlar va ularni ifodalovchi turli

muammolarni muhokama qilish minbarlariniing, jumladan, turli “aql markazlari”, mustaqil ilmiy-texnika ekspertiza markazlari, erkin ommaviy axborot vositalarining (OAV) mavjudligi. Ijtimoiy jamiyat davlat va biznes o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy benefitsiari sifatida ulardan bevosita bohabar va kerak hollarda aralashish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu esa barcha qonun va amallarning davlat va biznes tomonidan oshkor olib borishini taqozo qiladi. Lekin amalda juda ko‘p qarorlar ba’zi biznes guruhlariga foydasiga hal qilinaversa, jamiyat bu haqida egri belgilardan tushunib yetib, rasmiy tushuntirishlar olmasa, tadbirkorlikni demokratik asoslarda qo‘llash sohasida davlat tomonidan minglab qabul qilingan qarorlarning kuchi umuman bo‘lmaydi;

3) davlat, biznes va jamiyat o‘rtasida ma’lum bir muloqot madaniyati o‘rnatilishi (mavjudligi) va kelishilgan shartlarning bajarilishi madaniyati. Bu sohada o‘zaro hurmat, mavjud muammolar negizini tushunish va ularni hal qilishga ikkala tomonning madaniyati va institutsional intellekti muvozanatda bo‘lishi juda katta amaliy ahamiyatga ega. Agar davlat organlari tadbirkorlarning “dard”ini eshitmasa, yuzaga kelgan muammolarni vaqtida hal qilmasa, iqtisodiyot borgan sari rasmiy aylanmadan chiqib, norasmiy sektorga o‘tadi. Va aksincha, tadbirkorlar davlat va jamiyat tomonidan ko‘tarilgan masalalarga yetarli e’tibor qaratmasa (masalan atrof muhitning ifloslanishi, aholi yoki ishchilar bilan munosabatlarda yuzaga keluvchi ijtimoiy nizolar), davlat o‘zining kuch ishlatib majburlash monopoliyasidan foydalanishi mumkin;

4) davlat biznesdagi barcha guruhlariga nisbatan neytral munosabatda bo‘lib, huquqlarni taqsimlashda (belgilashda) ulardan kelib chiqadigan transaksion xarajatlar kimning zimmasiga o‘tishiga e’tibor borib, ularni kompensatsiya qilish mexanizmini o‘rnatishi kerak. Davlatning biznes guruhlariga neytralligi unga nisbatan jamiyat ishonchini orttiradi va - teskarisi. Rim imperiyasini qulatgan asosiy sabablardan biri - huquqlar taqsimotida “barchaga - qonunlar, do‘stlarimizga – cheklanishlar” prinsipining amal qilganidir. Markaziy Osiyo davlatlari umumxalq tengligi to‘la ta’minlagan sharoitdagina garmoniyada rivojlana oladilar.

Jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishida davlatning roli haqida XIX asrdan beri



juda katta baxslar olimlar va amaliyot vakillari o'rtasida borib, bu savollarga universal javoblarning o'zi yo'q, har bir mamlakat va har bir davrning o'z imkoniyatlari va chegaralovchi omillari bor. Neoliberal iqtisodchilarning (Frans Oppengeymer, Pol Makkreken, Myurrey N.Rotbard) fikriga qo'shilib, davlat iqtisodiy munosabatlarda imkoni bor darajada kam qatnashishi kerak va biz davlat ishtirokisiz hal qilib bo'lmaydi deb o'ylagan ko'p faoliyat jabhalarini erkin bozor va undagi shartnomalar to'la hal qiladi deyish ham, yangi-keynschilarning fikriga ergashib umumiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar davlat tomonidan nazorat qilinishi kerak va targ'ib qilinishi kerak deyish ham biz uchun ikki ziddiyatlarga boshlovchi qutbni bildiradi. Yechim - bu amaliyotlar simbiozini qo'llash jabhalari, hajmi va vaqtida.

Markaziy Osiyo davlatlari kooperatsiyasi doirasida beshta fundamental yo'nalishlarga e'tibor berish taklif etilgan:

1. Inson kapitaliga, inson ongini falsafiy sifatiga investitsiyalar: eng birinchi falsafiy, ijtimoiy fanlarni o'rni va salohiyatini maktab, oliy o'quv yurtlari va ilmiy muassasalarda keskin oshirish, kerakli sohalarda kitoblarni tarjima qilish, ko'zga ko'ringan olimlarni taklif qilish, ijtimoiy kanallarda turli o'quv kurslari, munozaralar tashkil qilish, sohadagi o'qituvchilar va olimlarning mehnat haqqini keskin ko'tarish. Falsafani tushunmagan muhandis hech qachon yaxshi uskuna ishlab chiqarmaydi, chunki u o'zi ishlatayotgan moddalarning ichki mohiyatini tushunmaydi.

2. Hududda yashayotgan barcha xalqlar uchun hech qanday tashkiliy va iqtisodiy qiyinchiliklarsiz vaqtincha va butunlay migratsiyaga to'la sharoit yaratib berish: diplomlar va sertifikatlarni tan olish, pensiya va nafaqalarni tan olish va to'lovini migratsiyadagi individlarga ularga kerak valyutada tashkil etish; viza va qayd qilish talablarini bekor qilish, bank-to'lov tizimini integratsiya qilib, milliy to'lov vositalaridan cheklovlarsiz foydalanishni tashkil etish (umumiy hududiy iqtisodiy identifikatsiya g'oyasini targ'ib qilish);

3. Hududdagi barcha titul xalqlar tillarini davlat tili deb e'lon qilish va bu tillarda rasmiy axborot va maorif tizimini tashkil etish, jumladan, turli milliy xususiy

jamoalar mablag‘lari hisobiga. Bu qadam Markaziy Osiyo xalqlari o‘z tarixiy birligini tan olishi, millat yoki turar joyiga qarab segregatsiya siyosati bo‘lmasligini ta’minlash sohasida eng yirik odim bo‘ladi;

4. Hududda transport yo‘llarini birgina mamlakat manfaatlari mantig‘i bilan emas, balki barcha qo‘shni mamlakatlar rivojlanishiga keyingi 50-100 yillik perspektivada katta turtki bo‘ladigan asosiy vosita mantig‘i bilan qarash va rivojlantirish. Buning uchun eng avvalo mamlakatlarning o‘zlarining ichki moliyaviy, texnik va tashkiliy rezervlaridan foydalanish va ular yetmagan taqdirda xalqaro moliyaviy institutlar (milliy emas) yordamidan foydalangan ma’qul. “Markaziy Osiyo iqtisodiy o‘shish va investitsion faollik markazlaridan biriga aylanmoqda, G‘arbni Sharq va Shimolni Janub bilan bog‘laydigan transport xabi bo‘lishdek tarixiy vazifani yana o‘z zimmasiga olmoqda”.<sup>266</sup> Markaziy Osiyoda mumkin qadar tezroq to‘laqonli erkin savdo zonasini tashkil etish, transport va tranzit bo‘yicha kelishuvni ishlab chiqish, energetika infratuzilmasini birgalikda barpo etish va xavfsizlik bo‘yicha uchrashuvlar o‘tkazish - mintaqadagi barcha mamlakatlar rahbarlari tomonidan ma’qullangan strategiya.

5. Mintaqada umumiy suv va energetika resurslaridan foydalanish, transport-logistika yo‘llarini tuzish, oziq-ovqat resurslarini yetishtirish va savdo qilish yuzasidan nufuzli ekspert va olimlardan iborat davlatlaro Qumita tuzib, uning tavsiyalarini xalq muhokamasiga chiqarish va eng katta siyosiy e‘tiborni qaratish. Barcha jiddiy hududiy iqtisodiy-ijtimoiy masalalarda qo‘shni davlatlardagi mavjud bo‘lgan intellektual potensialdan umumiy maqsadlarda foydalanish mexanizmini yaratish. 2021-2024 yillar davomida Qirg‘iziston Respublikasi hududida “Qambarota GES-1” investitsiya loyihasi bo‘yicha kelishuvga Qirg‘iziston, Qozoqiston va O‘zbekiston tomonidan prinsipial kelishuv erishilgani<sup>267</sup> va bu loyihani amalga oshirishga kirishilgani Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy maqsadlarga erishish uchun o‘z imkoniyatlarini birlashtira olishini ko‘rsatuvchi

---

<sup>266</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2023 yulda o‘tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi Maslahat uchrashuvidagi nutqidan. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/14/uzb-ca/>

<sup>267</sup> O‘zbekiston Respublikasi energetika vazirligi: <https://minenergy.uz/uz/news/view/1164>

muhim qadam bo'ldi.

Jamiyatdagi boshqaruv (jumladan, makroiqtisodiy) usullari jamiyatning tom ma'nodagi qadriyatlariga mosligi "ijtimoiy shartnoma" konsepsiyasiga qaytishni nazarda tutadi. Biz shunday shartnoma tuzish va amalga oshirish mexanizmini yaratishimiz kerak-ki, davlat rahbari bu shartnomani buza olmasin, chunki insonlar ijtimoiy shartnomaga kirishib, o'zining "tabiiy erkinligini yo'qotadi" va uning evaziga fuqarolik erkinligini oladi va jamiyat mulkiga umumiy egalik huquqini o'z qo'liga kiritadi. Asrlar davomida aynan shu imperativ talablar mavjudligi uchundir, "ijtimoiy shartnoma" tushunchasi hanuzgacha hech bir jamiyatda o'z voqe'ligini topmagan nazariy konsepsiya darajasida mavhumligini saqlab qolmoqda. Zamonaviy jamiyat, uning elitasi "ijtimoiy shartnoma" muhimligi va o'rnini juda yaxshi e'tirof etadi-yu, unga huquqiy, ma'muriy institut maqomini berishga shoshilmaydi. Ijtimoiy shartnoma - bu kuch ishlatish monopoliyasiga ega bo'lgan davlat bilan jamiyatning aksariyat vakillari o'rtasidagi davlat kafolatlaydigan asosiy ijtimoiy manfaatlar, moddiy farovonlik ko'rsatkichlari evaziga shaxs, ijtimoiy guruxlar erkinligi doirasini davlat tomonidan belgilovchi formal shakllanmagan kelishuv. Shartnomaning predmeti - fuqarolarning, ularning uyushmalari, - ya'ni boshqarilayotgan jamiyat aksariyati haq-huquqlari (moddiy, huquqiy va ma'naviy) doirasi bilan davlatni real boshqarayotgan guruhlar ("boshqaruvchilar") o'rtasidagi munosabatlar muvozanati.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki tor milliy mamlakat doirasidagi iqtisodiy makon mamlakatning iqtisodiy muhitini va infrastrukturasi o'zgartirishga qodir bo'lgan investorlar uchun yetarli masshtabga ega emas. Markaziy Osiyo mamlakatlari umumiy qonunlarga bo'ysungan, yagona muhit deb tarflanadigan iqtisodiy makon yaratgan taqdirda yirik investorlar bu yerga katta qiziqish bilan qaraydilar. Oxirgi 33 yilda milliy davlatchilik mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy nizo tug'dirsa tug'dirdiki, lekin muammolar yechimiga yordam bermadi. Bundan tashqari hududdagi hech bir milliy tizimda tom ma'noda suveren siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy siyosat yuritishning boshqa shansi yo'q. Faqat yirik

iqtisodiy makon bo'lishgina Markaziy Osiyoda kelajakda milliy davlatchilik ustiga qurilgan umumiy siyosiy birliklarga olib keladi.

Biz bu bobda Markaziy Osiyo mintaqasida qadriyatlarga asoslangan jamiyat qurish, buning uchun zarur bo'lgan makroiqtisodiy boshqaruv usullarini yaratish, mulk munosabatlarini o'zgartirish, jamiyat, biznes va davlatlar o'rtasida o'zaro muloqotni tashkil etishning institutsional va mohiyat asoslarini ko'rib chiqdik. Asosiy mantiq shundaki, biz kelajakka intilib, o'z qadriyatlarimizga mos jamiyat yaratmoqchi ekanmiz, biz qo'llaydigan boshqaruv uslublari, jumladan, makroiqtisodiy uslublarni nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo mintaqasi rivojlanishi mohiyatidan kelib chiqishi, umumiy kooperatsiyaga asoslangan iqtisodiy taraqqiyot modelini yaratishga qaratilgan bo'lishi muhim. Mintaqaviy kooperatsiya va umumiy maqsadlarga intilishda birlikni ta'minlab, yagona iqtisodiy manfaatlar va ijtimoiy hayot standartlariga asoslangan makon yaratishga undaydi.

**To'rtinchi bob bo'yicha amaliy xulosalar** ma'muriy-institutsional islohotlarning mohiyati haqida bo'lib, makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirishning ichki mexanizmini belgilab berish omillariga qaratilgan. Bu borada dissertatsiyada quyidagi takliflar asoslab berilgan:

1. Budjetning ijro qismini IMV tizimidan chiqarish va G'aznachilik agentligini Vazirlar mahkamasi qoshida vertikal va mustaqil tizim sifatida tuzish. G'aznachilik tarkibiga O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (davlatning oltin-valyuta jamg'armalarini Markaziy bank bilan birgalikda boshqarish va tashqi qarzlarni belgilangan mezonlar asosida jalb qilish funksiyasi bilan) hamda, budjetning daromad qismi ijrosiga katta hissa qo'shuvchi davlat boshqaruv organlari – Davlat soliq va Davlat bojxona qumitalarini o'tkazish o'ta muhim.

2. Konsolidatsiya qilingan budjet va davlat korxonalari moliyaviy mablag'lari ishlatilishi ustidan mustaqil moliyaviy nazorat tizimini barpo etish maqsadida Prezident xuzuridagi Hisob palatasi, hamda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (avval ularga o'tkazilgan Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi bilan birga) bazasida O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat moliyaviy nazorat agentligini tuzib, unga barcha budjetdan

tashqari jamg'armalarni qonunchilik ijrosi yuzasidan nazorat qilish huquqi berilishi kerak.

3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi har yili davlat budjeti loyihasi bilan birga tarmoqlar va tarmoqlararo ishlab chiqarish va iste'mol balanslarini tayyorlashi, Vazirlar Mahkamasi tasdig'iga kiritishi lozim.

4. Barcha ijroiya iqtisodiy boshqaruv organlarida kollektiv boshqaruv tizimlari (kollegiya, boshqaruv, ilmiy-texnik kengash majlisi kabi) faoliyatini tashkil etib, ularga mahsus nizomlar bilan eng muhim bo'lgan iqtisodiy siyosat omillari va amaliyotdagi muhim ishlar yuzasidan avtonom fikr bildiruvchi va qaror qabul qiluvchi organ maqomini berish zarur.

5. Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish va moliyaviy institutlarga litsenziya berish departamentlari, hamda Perspektiv loyihalar milliy agentligining qimmatli qog'ozlar bozorini nazorat qiluvchi tizimi bazasida Moliyaviy nazorat agentligini Vazirlar mahkamasi instituti sifatida yaratish (Financial Conduct Authority<sup>268</sup> agentligiga o'xshash).

6. Iqtisodiy boshqaruv organlari faoliyatini umumiy koordinatsiya darajasini oshirish, qabul qilinayotgan muhim iqtisodiy qarorlar va takliflarni har tomonlama tarozga solinganini (filtratsiya qilinganini) ta'minlash maqsadida IMV va Markaziy bank qoshida Milliy moliya Kengashini tuzish ma'qul. Bu Kengash barcha makroiqtisodiy boshqaruv sohasida kiritiladigan o'zgarishlarni har tomonlama o'rganib, ular yuzasidan Xukumatga va Prezidentga mustaqil (avtonom) xulosa va takliflar beradigan xukumat va Prezidentning maslahat organi bo'lishi kerak.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi jamiyat qadriyatlarini o'rganish, ularni yuzaga chiqarish yo'lida jamiyatdagi eng ilg'or kuchlarning g'oyalarni birlashtirish, strategik g'oyalarni tizimli ravishda boshqaruv amaliyotining inklyuziv qismiga aylantirish borasida ishlashi kerak. Agentlikning roli g'oyalar inkubatori va bu g'oyalarni vazirliklar

---

<sup>268</sup> <https://www.fca.org.uk/>

faoliyatiga, umumxalq xarakati mazmuniga singdirish mexanizmlarini ixtiro etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Mulkchilik munosabatlarini o'zgartirish markazlashtirilgan boshqaruv mexanizmi salbiy oqibatlarini pasaytirish va ishlab chiqaruvchi kuchlar motivatsiyasini oshirishga qaratilgan bo'ladi. Bozor munosabatlarini o'rnatuvchi va himoya qiluvchi institutsional infrastruktura yaratilmay (jumladan, yer maydonlarining bir nechta mezonlarga asoslangan sifati hisoboti - reyestri, transaksion xarajatlarni hisobga olish reyestri), ularning ta'sir imkoniyatlari yaratilmay turib, davlat tomonidan qancha yaxshi qarorlar qabul qilinmasin yerdan foydalanish huquqi bozor aktivi bo'la olmaydi – transaksion xarajatlar katta, ularning hisoboti, demak-ki, kompensatsiya mexanizmi mavhum bo'lib qolaveradi.

## YAKUNIY XULOSALAR

Buyuk Fransuz inqilobi davridan boshlab “ijtimoiy shartnoma” (Du contrat social) tushunchasi avvaliga faylasuflar, XIX asrda siyosatchilar va nihoyat, XX asrdan boshlab iqtisodchilar lug‘atiga kira boshladi. J.Russo aytganidek<sup>269</sup>, ijtimoiy shartnoma faqatgina jamiyatning a‘zolarining aksariyati ishtirokidagina shakllanishi mumkin. Shartnomaning asosiy mazmuni jamiyatning har bir a‘zosi o‘z haquqlarining bir qismidan jamiyatning umumiy manfaatlarini yo‘lida voz kechishida namoyon bo‘ladi. Olib borgan tadqiqotimiz O‘zbekistonning strategik taraqqiyot maqsadlarini tahlil qilib, ularni amalga oshirishda qo‘llanilgan makroiqtisodiy usulublar samarasini o‘rganib, jamiyat taraqqiyotining keyingi darajasiga erishish yo‘lida institutsional, ma‘muriy va makroiqtisodiy sohalarida strategik islohotlarni amalga oshirish yo‘nalishlarini ko‘rsatib berdi.

Dissertatsiyada bayon etilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalar chiqarish imkonini berdi:

– Dunyo bozorlarida kon’yunkturaviy o‘zgarishlar tufayli O‘zbekistonning an’anaviy eksportini tashkil etgan hom-ashyo resurslariga narxlarning o‘shishi, transchegaraviy pullar oqimining ortishi, aholining tadbirkorlikka bo‘lgan intilishi, asosiy kapitalga investitsiyalar oshishiga qaramay, shu o‘tish yillari davomida iqtisodiyotga bo‘lgan fiskal yukni yengillashtirish borasida yetarli ishlar olib borilmadi. Transchegaraviy o‘tkazmalar mamlakat taraqqiyoti uchun juda katta ahamiyat kasb etib, oilalarning real daromadi, tadbirkorlik faoliyati o‘shishiga stimull bo‘ldi. Lekin real daromadlar o‘shishining tashqi omillarga bog‘liqligi borgan sari kuchaya boshladi.

– Neoliberalizm g‘oyalari ortida amalga oshirilgan xususiylashtirish shaharda ijtimoiy kapitalni qayta taqsimlash negizida yangi tadbirkorlar sinfini institutsional kuch sifatida yuzaga chiqishini to‘la ta‘minlay olmadi. Bu holat qishloqda Osiyocho ishlab chiqarish uslubiga asoslangan iqtisodiy munosabatlar va

---

<sup>269</sup> Жан-Жак Руссо. Об общественном договоре или принципы политического права. — М.: Юрайт, 2023. — С. 20.

paternalizm sharoitida, markazlashgan boshqaruv tizimini yuzaga kelishiga, uning iqtisodiy faoliyatning barcha jabhalarini nazorat qilishga intilishiga olib keldi.

– O‘zbekistonda iqtisodiy liberallashtirish, taraqqiyotga stimuly berish g‘oyasi Dj.Keynsning davlat xarajatlarini investitsion, ijtimoiy loyihalar hisobiga oshirish, umumiy talabni yuqori darajada ushlab turish, pul massasini YaIMga nisbatan kichik miqdorda tutib, yuqori stavkalar bilan investitsion faoliyatni cheklash g‘oyalariga tayangan edi. Davlatning o‘z moliyaviy imkoniyatlari cheklangan sharoitda kerakli mablag‘larni dunyo moliya bozorlaridan imkon qadar jalb etishga mone qiladi. Tarixan qisqa muddatda xalqaro moliya bozorlarida kreditlarning arzonlashganligi iqtisodiyotning o‘shishi asosiy imkoniyatga aylandi. Covid-19 pandemiyasi ta’siri susayishi bilan hozirgi sharoitda bu imkoniyat yopildi.

– O‘zbekistonda 2022-yildan keyin ham iqtisodiy o‘shishni tanlangan yumshoq moliya siyosati bilan amalga oshirish, inflyatsiyani cheklash, aylanmadagi pul massasini YaIM va kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarish ehtiyojlariga nisbatan past miqdorda saqlash g‘oyasi qo‘llanildi. Ijtimoiy sohada aholining yashash sharoitini yaxshilash (ayniqsa, periferiya va qishloqlarda), mahallalar kesimida maxsus taraqqiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari amalga oshirildi. Ijtimoiy yordam va “liftlar” tizimi kam ta’minlangan qatlamlarga joriy etildi. Bu esa, o‘z navbatida, davlat xarajatlari va davlat qarzi hajmining keskin oshishiga olib keldi.

– Yangi strategik taraqqiyot maqsadlarini belgilash yangi ijtimoiy shartnomani jamiyatga taklif etish deb qabul qilinishi, va bu strategiyada makroiqtisodiy boshqaruv mantig‘i iqtisodiy cheklash emas (inflyatsiyani targetlash, asosiy stavkani va almashuv kursini ma’lum chegaralarda ushlab kabi) balki iqtisodiy stimullarga asoslangan uslublarga bo‘lishi kerak (kichik va o‘rta biznesga bo‘lgan fiskal bosimni pasaytirish, hozirgi oltin narxlari o‘shishi sharoitida arzon moliyaviy resurslar bazasini yaratish, savdo va ishlab chiqarish monopoliyalarini davlat tomonidan himoya qilinishini bekor qilish kabi). Yangi ijtimoiy shartnoma jamiyatda “farovon” rivojlanish konsepsiyasining asosiy vositasi bo‘lib, bu shartnomaning institutsional islohotlar sohasidagi qismi mulkiy



munosabatlarni chuqurlashtirish (Xususan, yerga egalik mulki va yerdan foydalanish xuquqi shakllarini rivojlantirish, yerdan foydalanishda tranzaksion xarajatlar reyestrini kiritish) omillarini o‘z ichiga olishi kerak.

– Iqtisodiy boshqaruv organlari faoliyatini umumiy koordinatsiya darajasini oshirish, qabul qilinayotgan muhim iqtisodiy qarorlar va takliflarni har tomonlama o‘rganilganligini (filtratsiya qilinganini) ta‘minlash maqsadida IMV va Markaziy bank qoshida Milliy moliya Kengashini tuzish, Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini ularning ba‘zi funksiyalarini yangi tuziladigan G‘aznachilik, Moliyaviy institutlar faoliyati nazorati va Moliyaviy intizom agentliklariga o‘tkazish orqali bartaraf etish zarur.

=====

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### **Normativ-xuquqiy xujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. 07.02.2017 y. PF-4947

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 31.01.2017 y. PQ-2746

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Respublikada bank plastik kartochkalari asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 02.02.2017 y. PQ-2751

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 15.02.2017 yil, №PQ-2777;

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida" 2016 yil 27 dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”. 08.02.2017 y. PQ-2762

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish Kafolat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”. 10.02.2017 y. PQ-2768

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”. 31.03.2017 y. PF-4996

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 28.04.2017 y. PQ-2934

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Bandlik sohasida

davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 24.05.2017 y. PF-5052

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”. 02.09.2017 y. PF-5177

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. 08.09.2017 y. PF-5185

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 2023 yil dekabr.

13. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, 03.01.2017 y. №419 .

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “2018–2020 yillar davrida faqat «yagona darcha» markazlari orqali ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarini bosqichma-bosqich joriy etish jadvalini tasdiqlash to‘g‘risida”. 25.04.2017 yil, №239

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 09.01.2018 y., №PF-5296;

16. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”, 09.01.2018 y. №458;

17. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”, 05.04.2018 y. №471.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “2017-2021 yillarda uglevodorod xom ashyosi qazib olishni ko‘paytirish Dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 09.03.2017 yil, №PQ-2822;

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “O‘zbekiston Respublikasining neft va gazga boy Ustyurt mintaqasida geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 02.02.2017 yil №PQ-2755;

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “2017-2021 yillarda Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi to‘g‘risida” 18.01.2017y. №PQ-

2731;

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Neft-gaz tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 30.06.2017 yil №PQ-3107.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 13.09.2017 y. №PQ-3272

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 23.10.2017 y. “2017-2020 yillarda shaharlarda arzon ko‘p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturini samarali amalga oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” №PQ-3350;

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida 2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish dasturini amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 02.03.2017 y. №PQ-2812;

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Islom taraqqiyot banki ishtirokida 2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish dasturini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 30.03.2017 y. №PQ-2859;

26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Toshkent shahrida tez quriladigan arzon uy-joylar qurilishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 07.07.2017 y. №473

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “2017-2018 yillarda mintaqaviy avtomobil yo‘llarini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida” 14.02.2017 y. №PQ-2775,

28. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “2017-2019 yillarda «Nukus-farm», «Zomin-farm», «Kosonsoy-farm», «Sirdaryo-farm», «Boysun-farm», «Bo‘stonliq-farm» va «Parkent-farm» erkin iqtisodiy zonalari hududida transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ishlab chiqarish infratuzilmalarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 02.09.2017 №691

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “2017-2021 yillarda avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 01.06.2017 №PQ-3028.

30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”. 16.08.2017 y. №PQ-3217;

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “2018-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasi zargarlik sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 15.11.2017 y. №PQ-3388

32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “2017-2021 yillarda ichimlik suvi ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida” 20.04.2017 y. №PQ-2910;

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “2017-2021 yillarda gidroenergetikani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida”. 02.05.2017 y., №PQ-2947

34. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. “Davlat qarzi to‘g‘risida” 29.04.2023 y., №O‘RQ-836:

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Har bir oila – tadbirkor” dasurini amalga oshirish to‘g‘risida” 07.06.2018 y., PQ-3777:

36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Obod mahalla” dasturi to‘g‘risida” 27.06.2018 y., PF-5467:

37. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 14.12.2017 y., PF-5285-sonli

38. O‘zbekiston Prezidenti Farmoni. “Ipoteka krediti bozorini rivojlantirish va kengaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 13.05.2019 y., PF-5715

39. O‘zbekiston Prezidenti Farmoni. “Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 28.07.2023 y. PF-120

40. O‘zbekiston Prezidenti Farmoni. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”. 11.09.2023 y. PF-158

41. O‘zbekiston Prezidenti Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 08.11.2023 y. PF-190

## Monografiya va ilmiy to‘plamlar

1. Abdullayev S.A., Xajiyev B.D., Mambetjanov Q.Q.. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi, Darslik. - T.: Abdullayeva I.M.. Global strategiya, boshqaruv va axborot tizimlari. (Darslik). - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021, 204 b.
2. Abdurahmonov Q.X., Umurzakov B.X., Abdurahmanov X.X.. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish, O‘quv qo‘llanma. T.:2019. 85-88 b.
3. Abulqosimov H.P.. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish: o‘quv qo‘llanma. T.: Noshirlik yo‘dusi, 2018. – 520 b.
4. Alimov A.M.. Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari. -T.: «Fan va texnologiya», 2016, 276 bet.
5. Asqarova M.T., Amirov L.F., Islomov A.A., Yaxshimuratova A.R.. Inklyuziv iqtisodiy o‘shish: O‘quv qo‘llanma. –T.:2019.-234 b.
6. Asqarova M.T., Zaxidov G.Ye., Amirov L.F., Jamolov J.J.. Makroiqtisodiyot. Darslik. –T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 280b.
7. Asqarova M.T., Zaxidov G‘.E., Jamolov J.J.. Makroiqtisodiy siyosat. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 – 288 b.
8. Asqarova M.T., Choriyev F.I.. Fiskal siyosat. (O‘quv qo‘llanma). -T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” 2022, 270 bet.
9. Axmedov D.K. “Effektivnost funkcionirovaniya xlopkovodstva Uzbekistana”. Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni d.e.n., T.- 1994 g. <https://economy-lib.com/disser/527820/>
10. Ahmedov D.Q., Zaxidov G.E., Hajiyev B.D., Mambetjanov K.K.. Iqtisodiy rivojlanish nazariyalari. Darslik-T.: “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ITM. - 479 bet.
11. Ahmedov D.Q., Zahidov G.E., Xajiyev B.D., Mambetjanov Q.Q.. Iqtisodiy transformatsiya nazariyalari. T.: LESSON PRESS 2019 yil. – 294 bet.
12. Berkinov B.B., Asqarova M.T., Abdurahimova S. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi: o‘quv qo‘llanma. – T.: 2019., 209 bet.

13. Berkinov B.B.. Institutsional iqtisodiyot. Darslik. 4-nashr, qayta ishlangan. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot- matbaa uyi», 2021 – 324 b.
14. Bobakulov T.I., Abdullayev U.A., Isakov J.Ya.. Monetar siyosat: Darslik. T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. - 232 b.
15. Gaibnazarova Z.T., Isamuxametov Sh.A.. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik) - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. 526 b.
16. Ganiyev M.X.: “Innovatsion iqtisodiyotning shakllanish sharoitida aholi farovonligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishlari”. Iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. Toshkent, 2023 y.
17. Jumayev N.X., Raxmonov D.A., Azimova D.M.. O‘zbekistonda davlat qarzi va iqtisodiy globallashuv. Monografiya. T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 57-60 b.
18. Zaxidov G‘.E.va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik.T.:2019. 290b.
19. Zaxidov G‘.E., Hotamov I., Yegamberdiyev Sh.. Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish: O‘quv qo‘llanma. T.: TDIU, 2019. – 239 b.
20. Zaxidov G‘.E., Asqarova M.T., Djumayev Z.A., Amirov L.F., Hakimov H.A. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. “Agrar siyosat va oziq-ovkat xavfsizligi”. O‘quv qo‘llanma. T.: “O‘zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi” bosmaxonasi nashriyoti, 2016. – 257 b.
21. Ibragimova N.M. “Aholi iste‘molini makroiqtisodiy prognozlashtirishning uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish”. Iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. Toshkent, 2019 y.
22. Isayev Q.A.. Xalqaro iqtisodiyot. Darslik –T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” – 2021, 376 b.
23. Kadirov M.A., Askarova M.T., Axmediyeva A.T.: Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi. Darslik.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” T. –2021, 410bet.
24. Mamaraximov B.E., Mamatov M.A.. Iqtisodiy siyosatga kirish. (O‘quv qo‘llanma). - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 -252 b.
25. Mamatov A. Iqtisodiy o‘shish. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 384 b.

26. Tursunov B.O., Tuxtabayev J.Sh.. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 –304 b.

27. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti. Milliy qadriyatlarga asoslangan iqtisodiyot: negizlar va farovonlik uyg‘unligining empirik tahlili. T.: 2023. 46 b.

28. Maxmudov N.M., Hakimov H.A. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2019. – 146 bet.

29. Maxmudov N.M., Shakarov A.B., Ulashev X.A., Shakarov J.A. Makroiqtisodiyot. (Darslik) - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 454 bet.

30. Topildiyev S.R.. Institutlar va iqtisodiy tizimlar. (Darslik) - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022 - 232 b.

31. Shodmonov Sh., Raxmetov M. Iqtisodiyot nazariyasi fanining ikki chigal tuguni va uning yechimi. Monografiya. -T.: “IQTISODIYO‘T”, 2019.- 262 bet.

32. Yakubov I.O., Islomov A.A., Sunnatov M.N.. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. – T.:2019.-228 b.

33. Yakubov I.O., Hakimov H.A.. Makroiqtisodiyot-2. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2019. - 217 bet.

34. Yaxshiyeva M.T.. Monetar nazariya va siyosat: O‘quv qo‘llanma. –T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 140 bet.

35. G‘afurov U.V., Mamaraximov B.E., Sharipov Q.B., Otaboyev F.O.. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar. T.: «YaNGI NASHR», 2019. - 315 bet.

36. G‘afurov U.V., Sharipov Q.B., Rejapov X.X., Salayev D.S.. Empirik iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. – T.:«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 456 b.

37. G‘afurov U.V., Xalilov M.Sh., Baymuradov Sh.. Davlat iqtisodiyoti va siyosati. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 224 b.

### **Ilmiy maqolalar**



1. Abulkasimov, X. P. Razvitiye ekonomiki Uzbekistana za gody nezavisimosti. Molodoy uchenyy. — 2016. — № 21.1 (125.1). — S. 4-8. — URL: <https://moluch.ru/archive/125/34523/>

2. Alidjanova, Lazizakhon Abbasovna. “Questions of religion and society in the works of Ibn Khaldun”, The Light of Islam: Vol. 2020 (1). p. 2-8. URL: <https://api.semanticscholar.org/CorpusID:216441594>

3. Abdukadirov A.M.: Osobennosti prudensialnoy politiki Sentralnogo banka Uzbekistana. Nauchnaya statya. Jurnal "Bankovskoye delo", 2024 №10, str.46-55 , M.2024 god. <https://www.bankdelo.ru/magazine/pub/11493>. (08.00.00; №II-3)

4. Abdurahmonov Q.X., Umurzakov B.X., Abdurahmanov X.X.: Aholini ijtimoiy muhofaza qilish, O‘quv qo‘llanma. T.:2019. 85-88 b.

5. Asqarova M.T., Zaxidov G.Ye., Amirov L.F., Jamolov J.J.. Makroiqtisodiyot. Darslik. –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. 280b.

6. B.B. Berkinov, A.A. Anvarov A. “O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish yo‘nalishlari” Journal of marketing, business and management, 1(3), 2022,. 1-6 b. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekiston-i-tisodiyotida-tarkibiy-va-institutsional-islo-otlarni-chu-ur-lashtirish-y-nalishlari>

7. Berkinov B.B., Abduraximova Yo.M. (2019). Xususiy mulk dahlsizligi – iqtisodiy faoliyat erkinligining asosiy mezoni. *Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari*, 1(4), 3 URL: [https://ejournal.tsue.uz/index.php/iqtisodiy\\_xavfsizlik/article/view/158](https://ejournal.tsue.uz/index.php/iqtisodiy_xavfsizlik/article/view/158)

8. Balbaa M. E., Eshov M. P., Ismailova N. The Impacts of Russian Ukrainian War on the Global Economy in the frame of digital banking networks and cyber attacks //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – p. 137-146. doi.org/10.1145/3584202.3584223

9. Eshov M., Amirov L., Askarova M. Development of the agricultural sector and its importance in Uzbekistan. E3S Web of Conferences 244, 03014 (2021). doi.org/10.1051/e3sconf/202124403014

10. Doklad po tselyam razvitiya tsysyacheletiya Uzbekistan 2015/pod obщ. red. G. Saidovoy. - Tashkent: Sentr ekonomicheskix issledovaniy,

2015. - 100 s.

11. Karimov I.A.: O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – T.: O‘zbekiston, 1995. – 269 b.

12. Karimov I.A.: O‘zbekiston: bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga hos yo‘li. -T.: O‘zbekiston, 1993. - 123 b.

13. Maxmudov, N., Azimova, L., & Avazov, N. (2021). O‘ZBYeKISTONDA Makroiqtisodiy barqarorlik va investitsion faollikni oshirish masalalari. Iqtisodiyot Va ta’lim, (1), 38–48. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol\\_iss1/a73](https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss1/a73)

14. Smirnov A.V. Ibn Xaldun i yego novaya nauka. Istoriko-filosofskiy yejegovnik. 2008. № 2007. S. 159–186

### **Foydalanilgan boshqa adabiyotlar**

1. Aristotel. Politika [perevod s dr.- grech. S. M. Rogovina]. - M.: RIPOL klassik, 2010. - 592 s.

2. Allen D. W. (1999). Transaction Costs // Bouckaert B., DeGeest

3. Arrow K. J. (1983). The Organization of Economic Activity: Issues Pertinent to the Choice of Market versus Non-market Allocation. Collected Papers of Kenneth J. Arrow: General equilibrium, vol. 2, New York: Belknap Press, pp. 133-155.

4. Barzel Y. (1985). Transaction Costs: Are They Just Costs? // Zeitschrift für die gesamte Staatswissenschaft. Journal of Institutional and Theoretical Economics, Bd. 141, H. 1, pp. 4-16.

5. Voslenskiy Mixail. NOMYeNKLATURA. Izdaniye vtoroye. Overseas Publications Interchange Ltd London, 1990. 670 s.

6. Coase R. H. (1937). The Nature of the Firm. *Economica*, New Series, vol. 4, no. 16, pp. 386-405.

7. Coase R. H. (1959). The Federal Communications Commission. *Journal of Law and Economics*, vol. 2, pp. 1-40.

8. Coase R. H. (1960). The Problem of Social Cost. *Journal of Law and Economics*, vol. 3, pp. 1-44.

9. Coase R. H. (1992). The Institutional Structure of Production. *American*

Economic Review, vol. 82, no. 4, pp. 713–719.

10. Coggan A., Buitelaar E., Whitten S. and Bennett J. (2013). Factors that influence transaction costs in development offsets: Who bears what and why? *Ecological Economics*, vol. 88, pp. 222–231.

11. Commons J. R. (1924). *Legal Foundations of Capitalism*. New York: The Macmillan Company.

12. Commons J. R. (1934). *Institutional Economics: Its Place in Political Economy*.

13. Commons J. R. (1997). *The Problem of Correlating Law, Economics and Ethics* // Samuels W. J., Rutherford M. (Eds.). *Selected Essays of J. R. Commons*. London: Routledge.

14. Commons J. R. (2012). *Institutional Economics*. / Transl. by Oganessian A. A. Ed. by Efimov V. M. *Terra Economicus*, vol. 10, no. 3, pp. 69-76. (in Russian).

15. Djilas Milovan. *Новый класс*. Nyu-York, Izdatelstvo Frederik A. Preger 1961. 248 s.

16. Demsetz H. (1968). The Cost of Transacting. *The Quarterly Journal of Economics*, vol. 82, no. 1, pp. 33-53.

17. Dietrich M. (1994). *Transaction Cost Economics and Beyond: Towards a New Economics of the firm*. London: Routledge.

18. Deepankar B.. “Marx’s Critique of Political Economy.” *Economic and Political Weekly*, 50 (39), 2015, p. 25–29.

19. Eggertsson T. (1990). *Economic Behavior and Institutions*. Cambridge University press.

20. Eggertsson T. (2004). *Imperfect Institutions*. University of Michigan Press.

21. Fiorito L. (2010). John R. Commons, Wesley N. Hohfeld and the Origins of Transactional Economics. *History of Political Economy*, vol. 42, no. 2, pp. 267–295.

22. *Encyclopedia of Law and Economics*, vol. 1, pp. 893-926.

23. G. W. F. Hegel. The philosophy of Plato. *The Journal of Speculative Philosophy* , Vol. 4, No. 3 (1870), pp. 225-268

24. Greif A. (2006). *Institutions and the Path to the Modern Economy: Lessons from Medieval Trade*. Cambridge.
25. Hegel Georg Wilhelm Friedrich. *The Encyclopedia of the Philosophical Sciences in Outline*. Cambridge university press, 2010. – p. 322
26. Hellman J., Jones G., Kaufmann D. *Seize the State, Seize the Day: State Capture, Corruption, and Influence in Transition Economies: World Bank Policy Research Working Paper 2444*. September 2000. p. 50
27. Hellman J., Kaufmann D. *Confronting the Challenge of State Capture in Transition Economies*. *Finance and Development* Vol. 38. № 3, 2001. P. 31-35.
28. Honore A. M. (1961). *Ownership // Guest A.G. Oxford Essays in Jurisprudence: A Collaborative Work*. Oxford University Press, pp. 107-147.
29. Ibn Xaldun. «Kitob-ul-ibar» - «Ibratli misollar kitobi», 1370 y. Fan nashriyoti, T.-1998 y.
30. Ibn Xaldun. “Muqaddima”. T.-2024 yil.
31. Kaldor N. (1934). *A Classificatory Note on the Determinateness of Equilibrium*. *Review of Economic Studies*, vol. 1, no. 2, pp. 122-136.
32. Kant Immanuel. *Critique of judgment*. Cambridge, Hackett Publishing Company 1984. p. 576
33. К новой свободе: Libertarianskiy manifest / Per. s angl. M.: Novoye izdatelstvo, 2009. — 398 s.
34. Lafayette G. and Harter Jr. (1962). *John R. Commons: His Assault on Laissez- faire*. Oregon State University Press.
35. Lassuell Garold D. *Psixopatologiya i politika: Monografiya / Per. s angl. T.N.Samsonovoy, N.V.Korotkovoy. - M.: Izdatelstvo RAGS, 2005. - 352 s.*
36. Londras F. (2011). *Principles of Irish Property Law*. Dublin: Clarus Press.
37. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti. *Milliy qadriyatlarga asoslangan iqtisodiyot: negizlar va farovonlik uygʻunligining empirik tahlili*. T.: 2023. 46 b.
38. Muxtarov A., Boboyev A.. *Mantiq. Oʻquv qoʻllanma - T.: TDIU, 2016. - 50-54 b.*

39. Malmgren H. B. (1961). Information, expectation and the theory of the firm.
40. Manoj Shah. (2007). Analysis of Transaction Costs. Jaipur: Sunrise Publishers & Distributors.
41. McCann L., Colby B., Easter K. W., Kasterine A. and Kuperan K. V. (2005). Transaction cost measurement for evaluating environmental policies. Ecological Economics, no. 52, pp. 527-542.
42. New York: The Macmillan Company.
43. North D. C. (1992). Transaction Costs, Institutions, and Economic Performance.
44. North D. C. (2005). Understanding the Process of Economic Change. Princeton University Press.
45. Nersesyans V.S.. Sokrat. — M.: Izdatelskaya gruppa INFRA-M—NORMA, 1996. — 312 s.
46. Oppengeymer Frans. Gosudarstvo: pereosmysleniye.; per. s angl. A. Stixina i S. Ankapova. — Moskva : Proyekt RUSTATE.ORG, 2020. — 255 s.
47. Platon. Sochineniya v chetyrex tomax. Tom 1. Pod общ. red. A. F. Loseva i V. F. Asmusa. SPb.: Izd-vo Olega Abyshkob 2016. 631 s.
48. Rashid Axmed.Taliban. Islam, neft i novaya Bolshaya igra v Sentralnoy Azii. M: Biblion - Russkaya kniga, 2003. 187 s.
49. Rotbard Myurrey. Anatomiya gosudarstva; per. s angl. — Moskva : RUSTATE.ORG, 2019. — 136 s.
50. Ricardo David. On the Principles of Political Economy and Taxation, third edition. Batoche books, Kitchener 2001. pp. - 333
51. Russo, J. Ob obshchestvennom dogovore ili prinsipy politicheskogo prava / J. Russo. — Moskva : Izdatelstvo Yurayt, 2024. — 146 s.
52. Stadvell Djo. Aziatskaya model upravleniya: Udachi i provaly samogo dinamichnogo regiona v mire. M: Alpina Pabliher, 2017. 660 s.
53. Taylor A.E.. The Laws of Plato. Duke University Libraries, 1934. p. 380.
54. Werner Jaeger. Aristotle fundamentals of the History of his development. Oxford press, 1962. p. 464

55. Quarterly Journal of Economics, no. 75, pp. 399-421.
56. San Francisco: An International Center for Economic Growth publication.
57. Shastitko E. F. (2010). New Institutional Economic Theory. M.: TEIS. (in Russian).
58. Tadelis S. and Williamson O. E. (2012). Transaction Cost Economics. The Handbook of Organizational Economics. Princeton University Press, pp. 159-193.
59. Uni H. (2013). J. R. Commons' Theory of Cumulative Causation: A Comparative Analysis of Institutional Economics and Its Manuscript in 1927. Paper for the European Association for Evolutionary Political Economy 2013 Conference at University of Paris
60. Williamson O. E. (1971). The Vertical Integration of Production: Market Failure Considerations. American Economic Review, vol. 61, no. 2, pp. 112–123.
61. Williamson O. E. (1975). Markets and Hierarchies: Analysis and Antitrust Implications. New York: The Free Press.
62. Williamson O. E. (1979). Transaction-Cost Economics: The Governance of contractual Relations. Journal of Law and Economics, vol. 22, no. 2, pp. 233-261.
63. Williamson O. E. (1985). The Economic Institutions of Capitalism: Firms, Markets and Relational Contracting. China Social Sciences Publishing House.
64. Yudkevich M. M. (2011). Avner Greif: a Model for Assembly. Вопросы экономики, no. 11, pp. 142-149. (Russian).